Tarannum

2026-yil 2-son



FALSAFA / FILOLOGIYA / PEDAGOGIKA / TEXNIKA / QISHLOQ XO'JALIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TARANNUM”

ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy, publitsistik jurnal

2026/2 (№4)

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:
Zuxra Ismailova – p.f.d., professor

Tahrir hay'ati:
Professor O.Musurmonova, professor J.Shermuxammedova, professor M.Qaxxorova, D.Solixo'jayeva, professor M.Shaumarova, professor R.Gaziyeva, professor Sh.Uljayeva, Sh.Ismailova, professor O.Jamolidinova, p.f.d. D.Mustafayeva, I.Seytnazarova
q.x.f.d., professor Xamidov Muxammadxon Xamidovich, q.x.f.d., professor Isaev Sobrjon Xusanboevich, q.x.f.d., professor Norqulov Usmon

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, Q.Kidirbayev

Oliy attestatsiya komissiyasining 2025-yil 28-noyabrdagi 01-06/6845-sonli qarori bilan dissertatsiya ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.
Falsafa, Filologiya, Pedagogika, Texnika, Qishloq xo'jaligi yo'nalishlari bo'yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 31-martda ro'yxatga olingan, guvohnoma raqami 071832

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI……..……..... 4

INTERVYU

Юнусова Фарида Раҳмонбердиевна..……..…….... 7

ILMIY TADQIQOT NATIJALARI

Abdullayev Baxodirjon Ikromjonovich – YUQORI TEZLIKDA MASHINASOZLIK DETALLARIGA FREZALAB ISHLOV BERISHDA YUZA SIFATINI TA’MINLASH…… 14
Abdullayev Baxodirjon Ikromjonovich, Zulunov Humoyun Bobirjon o‘g‘li – SHTAMP DETALLARIGA YUQORI TEZLIKDA TIG‘LI ISHLOV BERISHDA SIRT QATLAMI SIFATINI TA’MINLASH……... 18
Achilova Dilnoza Axmatovna – “MUHANDISLIK GRAFIKASI” FANIDAN TALABALARNING O‘QUVCHANLIK INDEKSINI MIQDORIY BAHOLASH……..… 22
Бекнозарова Замира Фармановна – ФИЗИКАДАН ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ТАЪЛИМ БЕРИШ АСОСИДА МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ……..…. 28
Бекнозарова З.Ф. – ФИЗИКА ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ……... 33
Филиппов Ольгерд Александрович – К ВОПРОСУ СОХРАНЕНИЯ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВИЗАЦИИ……. 39
Ibragimova Lola Sayfitdinovna – MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARDA ESHITISH VA NUTQNI RIVOJLANTIRISH…….. 43
Jalilov Nodirjon Azamatovich – TANQIDIY FIKRLASHNING ETIMOLOGIYASI VA KELIB CHIQISHI 47
Maxmudov Zafar – LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA FONETIK MASHQLAR BAJARISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI…….. 52
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna – RAQAMLI AVLOD (Z VA ALFA AVLODLARI) VAKILLARIDA MA’NAVIY INTELLEKT NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI……... 57
Муминова Мукаддас – ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ…… 64
Nasirova Umida Abdusattarovna – KO‘P NUQSONLI RIVOJLANISH BUZILISHLARI: PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR……..… 67
Olimova Feruza Karimjonovna – SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATINI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH……. 71
Rejabova N.M. – ZAMON KATEGORIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI…… 76
Salamova Feruza – A COMPREHENSIVE CORRECTIONAL MODEL FOR DEVELOPING AUDITORY PERCEPTION AND ARTICULATION SKILLS IN CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS……... 80
Xolbayeva Dildora Azizovna, Saidov Axmatsulton Abdumannobovich – PEDAGOGIK TA’LIMDA DRAMATIK TEXNIKALAR VA MUSIQA MADANIYATINING REFLEKSIV – TA’SIRCHAN YONDASHUVI……. 83
Xoliqov Azamat Qahramonovich, Xayitova Farida Kuchkarovna – KO‘ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI…… 89
Achilova Dilnoza Axmatovna – MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANIDAN TALABALARNING O‘QUVCHANLIK INDEKSINI MIQDORIY BAHOLASH……..... 94
Abdullaxonova Ziyodaxon Abdullajon qizi – ЦИФРОВАЯ ПЕРЕГРУЗКА СТУДЕНТОВ: ВЛИЯНИЕ НА ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ И АКАДЕМИЧЕСКУЮ УСПЕВАЕМОСТЬ…….. 100
Donayeva Malika Ne’mat qizi – “GULISTON” JURNALIDA SHE’RIY ASARLARNING YORITILISHI.. 104
Kalandarov Palvan Iskandarovich, Nzakov Nurlan Serik o‘g‘li – DON MAHSULOTLARI NAMLIGINI ANIQLASHDA KONDUKTOMETRIK VA DIELEKTROMETRIK USULLARNI SOLISHTIRMA TAHLILI……..... 110

Mukhammedova Nilufar Eliboyevna – JON APDAYK IJODIDA JODUGAR OBRAZI…… 119
Shukurova Gulchehra Alisher qizi – YUNUS EMRO SHE'RIYATIDA XOJA AHMAD YASSAVIY AN'ANALARINING DAVOMIYLIGI: SHAKL VA MAZMUN MUTANOSIBLIGI…….. 124
Tursunoy Yusupova – THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE COGNITIVE-PRAGMATIC COMPETENCE OF PROSPECTIVE MOTHER TONGUE TEACHERS…….. 130
Закирова Сохиба Абдусалиевна – МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕНСАТОРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ ИНОСТРАННОМУ…… 136
Kuchmurodova Gulnora Xatamovna – EVALUATION OF OUTCOMES OF IMPLEMENTING SOCIOLINGUISTIC-ORIENTED TEACHING METHODS…….. 141
Q.Mámbetalieva – QARAQALPAQ TILINDE "BAS" KONCEPTINIŃ SEMANTIKALÍQ MAYDANDA SÁWLELENIWI…….. 145
Normatova Nodira Suyundikovna – INSONIYAT ISTIQBOLI VA EKOLOGIK-EPISTEMOLOGIK YONDASHUV: TA'LIM VA BILIMNING O'ZARO ALOQASI……... 149
Алламбергенова М.Х., Султанова Ж. – МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ КОРРЕКЦИИ ТЯЖЕЛЫХ НАРУШЕНИЙ РЕЧИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ……... 155
Ходжабаева Наргиза Исаковна – ОСОБЕННОСТИ ПРОФИЛАКТИКИ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ, АНАЛИЗ И ПУТИ РЕШЕНИЯ……... 159

SHE'RLAR

Мирзохид БЕКМИРЗАЕВ – ҲАЁТДАН АНГЛАГАНЛАРИМ……. 169
Akramova Nilufar Qahramon qizi – XOTIRANGIZ MANGU……. 172
Matkarimov Ulug'bek Murodjon o'g'li – UCH TAQDIR……. 173
Axmadjonova Shodiyona – SHARIFA…… 174
Maxmudova Laylo Maxsud qizi – MEN ONAMNI BAXTLI QILAMAN…… 175
Ochilova Mushtariy Behzod qizi – BILMAY QOLDIM BAZIDA ONA…….. 176
Jaloliddin Otaqulov – She'rlar……..…. 177
Nurullayev Abbos – SHE'RIY TO'PLAM…….. 178

SO‘ZBOSHI

“Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega, yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar” ***(Abu Nasr Farobiy).***

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti ilm-fan, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning uzviy uyg‘unligi bilan belgilanadi. Inson kapitali sifatini oshirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish va barkamol avlodni tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar zamonaviy ilmiy-amaliy yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogika, psixologiya, falsafa, shuningdek, qishloq va texnik fanlar sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi, avvalo, inson omili, uning ma’naviy-axloqiy kamoloti va intellektual salohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda ayollarning o‘rni va ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ayol - nafaqat oila tayanchi, balki jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilaydigan, kelajak avlodni tarbiyalaydigan va ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy hayotning turli jabhalarida faol ishtirok etuvchi muhim ijtimoiy kuchdir. Ayollarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ularning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, “TARANNUM” ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy va publitsistik jurnali ayollar faoliyatini keng yoritish, ularning yutuqlari va tashabbuslarini targ‘ib etish, shu bilan birga, jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlashga qaratilgan muhim axborot va muloqot maydoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Jurnal sahifalarida pedagogika, psixologiya va falsafa va qishloq xo‘jaligi,texnik sohalarida ayollar ishtiroki, ularning ilmiy izlanishlari, ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi o‘rni va innovatsion yondashuvlari keng yoritiladi. Ayniqsa, ayol-pedagoglarning tajribasi, yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashdagi o‘rni, ta’lim tizimidagi islohotlarga qo‘shayotgan hissasi ilmiy va ommabop ruhda tahlil qilinadi.

Psixologiya yo‘nalishida ayol shaxsiyati, uning ruhiy olami, oila va jamiyatdagi rollari, ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni hamda zamonaviy hayotda yuzaga kelayotgan psixologik muammolar ilmiy asosda yoritib beriladi. Bu esa nafaqat mutaxassislar, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Falsafiy qarashlar orqali esa ayol va jamiyat munosabatlari, qadriyatlar tizimi, ma’naviy meros va zamonaviy dunyoqarash masalalari keng qamrovda tahlil qilinadi. Bu yo‘nalish jurnal mazmuniga chuqurlik va ma’no bag‘ishlab, o‘quvchini fikrlashga, mushohada qilishga undaydi.

Shu bilan birga, jurnal qishloq xo‘jaligi va texnik fanlar sohalarida faoliyat yuritayotgan ayollarning yutuqlarini ham keng yoritishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Ayollarning ushbu an’anaviy ravishda kam yoritilgan sohalardagi ishtiroki, innovatsion g‘oyalari va amaliy natijalari jamiyat rivojida muhim o‘rin tutadi. Bu esa gender tenglikni ta’minlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularni yangi sohalarga jalb etishga xizmat qiladi.

“TARANNUM” jurnali ilmiylik, badiiylik va ommaboplik tamoyillari uyg‘unligiga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Unda chop etiladigan materiallar ilmiy asoslanganligi bilan

birga, o‘quvchi uchun tushunarli va ta’sirchan tarzda bayon etiladi. Bu esa jurnalning keng auditoriya - olimlar, tadqiqotchilar, pedagoglar, talabalar va barcha bilimga chanqoq kitobxonlar uchun manfaatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Jurnal nafaqat axborot manbai, balki ayollarni birlashtiruvchi, ularni ilhomlantiruvchi va yangi yutuqlarga chorlovchi ma’naviy maydon sifatida ham xizmat qiladi. Unda ilgari surilayotgan g‘oyalar, ilmiy xulosalar va ijodiy yondashuvlar jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga turtki bo‘ladi.

Tahririyat hay’ati jurnal mazmunining yuksak saviyada bo‘lishini, ilmiy xolislik va axborot ishonchliligini ta’minlashni o‘zining ustuvor vazifasi deb biladi. Har bir maqola puxta tahlil va saralash jarayonidan o‘tkazilib, uning dolzarbligi va amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Ishonamizki, “TARANNUM” jurnali ayollar salohiyatini namoyon etish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish, ilm-fan va ma’naviyat rivojiga hissa qo‘shish yo‘lida muhim minbarga aylanadi. U har bir o‘quvchi uchun ilhom manbai, fikrlar uyg‘onishiga sababchi va ma’naviy kamolotga yetaklovchi ishonchli hamroh bo‘lib xizmat qiladi.

Hurmat bilan,
Tahririyat

INTERVYU





ЮНУСОВА ФАРИДА РАҲМОНБЕРДИЕВНА

техника фанлари номзоди, «Курилиш мухандислиги» кафедраси доценти

1. Мен — Юнусова Фарида Раҳмонбердиевна, «Қурилиш муҳандислиги» кафедраси доценти, техника фанлари номзоди, «Гидротехника қурилиши» факультети хотин-қизлар ишлари бўйича декан маслаҳатчисиман. 1953 йилда туғилганман.

Талабалик давримдаги кундалик дафтарим саҳифалари устозларим ҳақидаги фикрларим ва «қанийди, мен ҳам шундай устоз бўлсам» деган орзу-умидлар билан тўлиб-тошган ҳолда якунланар эди. Менинг биринчи устозим отам — кимё фани ўқитувчиси Раҳмонберди Эгамбердиев бўлганлар. Отам кимё фанини севишимни таъминлаб, агар аъло баҳоларга ўқисам, илмий ишлар билан шуғулланиб, фан номзоди, кейинчалик эса фан доктори ва профессор бўлишим мумкинлигини онгимга сингдирган эдилар. Шунинг учун ҳам, кимдир мендан: «Катта бўлсанг ким бўласан?» деб сўраса, ҳеч иккиланмай: «Кандидат бўламан!» — дердим.

2. Институтга ҳужжат топшириш вақтида қайси мутахассисликда кимё фани кўпроқ ўрганилишини аниқлаб, «Боғловчи моддалар технологияси» йўналишини танлаганман. Ушбу соҳа бўйича илмий иш билан шуғулланиш мен учун жуда қизиқ бўлган.

ТошПИ Кимё-технология факультетида техника фанлари доктори, профессор Т.А. Отақўзиев раҳбарлигида бошлаган илмий ишимнинг мавзуси «Портландцемент ва саноат чиқиндилари асосидаги сульфоцемент клинкерларининг минералланиш жараёнини жадаллаштириш ва оқлигини ошириш» деб номланган. Мавзунинг айниқса «саноат чиқиндилари асосидаги сульфоцемент клинкерининг оқлигини ошириш» қисми мен учун жуда аҳамиятли ва қизиқарли эди.

Бироқ, бу техник йўналиш жуда оғир эканлигини анча кеч англадим. Унинг тажрибалари (экспериментлари) ниҳоятда машаққатли бўлиб, кўпроқ эркакларга хос эди. Бу ишни охирига етказиш учун чинакам жасорат керак экан. Буни англаган вақтимда, ўзимни жасоратли, матонатли ва меҳнаткаш аёл эканлигимни тушуниб етдим. Чунки ҳар бир муваффақият ортида машаққатли меҳнат ётади. Ўша даврда мен оилали, қайнота-қайнонали катта

хонадоннинг (15 кишилик оила) бекаси ва икки ўғилнинг онаси эдим.



Шундай қилиб, 1990 йил 15 май куни диссертациямни муваффақиятли ҳимоя қилдим. Шу йилнинг ноябрь ойида Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институтига ассистент лавозимига ишга келиб, «Қурилиш материаллари ва буюмлари» фанидан дарс бера бошладим. Ўша йиллари менда ҳадсиз қувонч ва бахтиёрлик ҳисси бор эди, чунки талабалик давридаги орзуларим амалга ошаётган эди. Тинимсиз меҳнат қилишдан тўхтамай, доцент лавозимига эришиш учун ҳаракат қилдим. Бу йўлни ижод йўли бўлган десам, муболаға бўлмайди. Оила, болалар тарбияси ва ижодни бир маромда олиб бориш катта матонат талаб этган экан. Шу тарзда мен орзуларим қанотида парвоз этдим.

Ҳозир ўша вақтларни эсласам, жуда қийин бўлгандек туюлади, лекин ўшанда чарчоқ нималигини билмаганман. Ўша кунларни ёдга олиб, шундай хулосага келдим: илм-фан одами бўлиш ортида кўпчиликка кўринмайдиган, аммо жуда муҳим бўлган қуйидаги жиҳатлар яширинган экан: соғлиқ, сабр ва матонат, тинимсиз изланиш, юксак масъулият, вақтни тўғри тақсимлаш, шахсий қурбонлик, камтарлик ва маънавий куч ҳамда жамиятга хизмат қилиш истаги. Хулоса қилиб айтганда, илм-фан билан шуғулланиш — бу фақат унвон ёки мақом эмас, балки сабр, фидойилик ва маънавий юксакликни талаб қиладиган ҳаёт йўлидир. Бугунги ёшлар мустақил фикрлайди, аммо уларда тўғри йўналтирувчи устозга эҳтиёж катта. Агар илмий раҳбар ва ёш тадқиқотчи ўртасида очиқ мулоқот, ишонч ва ҳамкорлик муҳити яратилса, натижа албатта самарали бўлади.

3. Бугунги ёшларга жуда ҳавасим келади, чунки уларда ўқиш ва изланиш учун барча имкониятлар мавжуд: замонавий кутубхоналар, компьютер технологиялари, интернет ва бошқалар. Булардан самарали фойдаланиш учун инсонда аввало қизиқиш, пойдевор билим, сабр-тоқат, изланишга иштиёқ ва кучли хоҳиш бўлиши муҳимдир.

4. Илмий изланишлар билан дарс жараёнини уйғун олиб бориш учун, одатда, аниқ режалаштирилган ва мосланувчан тизимга таянаман. Бу тизим бир нечта йўналишлардан иборат:

- Биринчидан, вақтни тўғри тақсимлаш.» Ҳафталик ёки ойлик режа тузиб, унда дарс бериш, тайёргарлик ва илмий тадқиқотлар учун алоҳида вақт ажратилади. Шу орқали бир йўналиш иккинчисига халал бермайди.

- Иккинчидан, дарс жараёнини илмий изланишлар билан бойитиш.» Олиб борилаётган тадқиқот натижаларини дарсларга татбиқ этиш ва талабаларга замонавий илмий янгиликларни етказиш орқали икки фаолият ўзаро уйғунлашади.

- Учинчидан, талабаларни илмий фаолиятга жалб этиш.» Семинарлар, кичик лойиҳалар ва курс ишлари орқали талабалар билан биргаликда изланиш олиб бориш ҳам энг самарали усуллардан биридир.

- Тўртинчидан, устуворликни тўғри белгилаш» Дарс жадвали зич бўлган даврларда илмий иш ҳажмини мос равишда камайтириш, бўшроқ вақтларда эса тадқиқотларга кўпроқ эътибор қаратиш зарур.

Шу тарздаги тизимли ёндашув орқали илмий изланишлар ва дарс жараёнини самарали равишда уйғунликда олиб бориш мумкин.

5. Аёл олима сифатида илмий фаолиятим давомида жиддий тўсиқларга дуч келмадим, чунки турмуш ўртоғим, профессор М. Юнусов менга намуна бўлиб, мени доимо сабр билан ишлашга ундар эдилар. Фақат фарзандларим ва онажоним касалланган кунлар мен учун ҳақиқий синов бўлган, чунки оилада хотиржамлик бўлмаса, ишда ҳам унум бўлмайди.

Олима аёл бўлиш ортида кўпчиликка кўринмайдиган, аммо жуда муҳим жиҳатлар яширинган: мустаҳкам соғлиқ, сабр ва матонат, тинимсиз изланиш, юксак масъулият, вақтни тўғри бошқариш ва шахсий манфаатлардан кечиш, камтарлик ҳамда маънавий куч. Хулоса қилиб айтганда, илм-фан одами бўлиш — бу фақат унвон ёки мақом эмас, балки фидойилик ва маънавий юксакликни талаб қиладиган ҳаёт йўлидир. Мен ўзбек мактабида ўқиганим сабабли, ўша давр талабига кўра диссертациямни рус тилида ёзишда аввалига қийинчилик сезганман. Бироқ изланиш жараёнида ёзиш кўникмаларини ҳам ўзлаштириб олдим. Бунда менга иккинчи илмий раҳбарим, профессор М. Искандарова йўл-йўриқ кўрсатиб, катта ёрдам берганлар.

6. Бугунги ёшлигимга нима деган бўлардим... Афсуски, вақтни орқага қайтариб бўлмайди. Агар шундай имконият бўлганида, ҳозирги барча шароитлардан фойдаланиб, бор кучим билан меҳнат қилган бўлардим. Зеро, «илм билан шуғулланиш — игна билан қудуқ қазиш»га тенглаштирилган. Жамиятдаги барча янгиликлар замирида тинимсиз изланиш ва илмий меҳнат ётади.

Ҳозирда илм қилиш учун кенг имкониятлар яратилган. Талабаларни илмий ишларга йўналтиришда анъанавий услублардан кўра замонавий, мотивацияга асосланган ва ҳамкорликка йўналтирилган ёндашув анча самарали деб ўйлайман. Бугунги ёшлар мустақил фикрлайди, бироқ уларга тўғри йўл кўрсатувчи устозга эҳтиёж ҳамон юқори. Илмий раҳбар ва ёшлар ўртасида очиқ мулоқот ҳамда ишонч муҳити яратилса, натижа албатта кутилганидек бўлади.

7. Ўша вақтларда оила ва касбий фаолият ўртасидаги мувозанатни сақлаш қийинлигини унчалик сезмаганман, балки бу ҳақда ўйлаб ўтиришга вақтим ҳам бўлмагандир. Ҳозир мушоҳада қилсам, бу мувозанатни ушлаб туриш ҳақиқатан ҳам мураккаб бўлган экан. Бироқ тўғри ёндашув орқали буни уддаласа бўлади. Бу ерда энг муҳими — устуворликларни онгли равишда белгилаш ва ўз вақтини тўғри бошқаришдир.

Масалан, иш вақтида фарзандимни мактабдан олиб, мусиқа мактабига етказишим керак бўлган ҳолатлар кўп бўлган. Шаҳарнинг бир бурчагидан иккинчисига бориб келиш мен учун оғирлик қилмаган, чунки бир томонда фарзандим, иккинchi томонда севган касбим — ҳар иккиси ҳам мен учун азиз эди. Бундан ташқари, катта оилада келинлик вазифаларим ҳам бор эди. Ана шундай дамларда турмуш ўртоғим менга катта далда ва кўмакчи бўлганлар. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, идеал мувозанатга ҳар доим ҳам эришиб бўлмайди. Лекин асосий мақсад — оилани, ишни ва соғлиқни қурбон қилмаган ҳолда, барчасини бир меъёрда олиб боришга ҳаракат қилишдир.

8. Она ва бувижон сифатидаги фаолиятим ҳақида гапирсам, мен жуда қаттиққўл эмас, балки юмшоқ табиатли она бўлиб, фарзандларимга фақат ширин сўз ва меҳр билан мурожаат қилишга ҳаракат

қилганман. Турмуш ўртоғимнинг: «Қандай қилиб болаларнинг нима қилмоқчи эканлигини олдиндан билиб оласан?» деган саволларига жавобим доим бир хил бўлган: «Мен уларга она бўлиш билан бир қаторда дўст ҳамман. Уларнинг режаларини дўстона суҳбат орқали билиб оламан ва ҳар бир ишнинг яхши-ёмон томонларини тушунтириб, ўз маслаҳатларимни бераман».

Ҳозирда 6 нафар набирам бор. Энг каттаси қиз бола, у 25 ёшда. У ижодкор-блогер бўлиб, инглиз, турк, француз ва рус тилларида эркин сўзлаша олади. Ижодий ишлари юқори рейтингларда туради, ундан жуда мамнунман ва у билан фахрланаман. Қолган 5 нафар ўғил набираларимдан иккитаси талаба, учтаси эса мактаб ўқувчилари. Набираларим — менинг бебаҳо жавоҳирларим, уларни жуда яхши кўраман.



9. Ҳозирги кунда 51 йиллик меҳнат фаолиятим ҳақида ўйласам, энг катта ютуғим — илм-фан билан шуғулланиб, ўзим севган касб эгаси бўлганимдир. Бу муваффақиятлар замирида машаққатли меҳнат ётади. Иш жараёнида турли одамлар ва турлича маслаҳатларга дуч келдим. Ана шу маслаҳатларнинг энг сараларини инобатга олиб, чалғитувчи гап-сўзларга эътибор бермай, сидқидилдан меҳнат қилганимдан мамнунман. Бунинг самараси ўлароқ, бугунги кунда дунё бўйича юқори рейтингларни эгаллаб турган университетда фаолият юритаётганимдан бахтиёрман.



10. Келажакда устоз бўлишни истаган ва илм йўлини танлаган қизларга маслаҳатим шуки: аввало, илмга тўғри ёндашиш керак. Илмга фақат диплом олиш воситаси деб эмас, балки оламни тушуниш, таҳлил қилиш ва мустақил фикр юритиш йўли деб қараш лозим. Зеро, ҳақиқий устоз фақат маълумот берувчи эмас, балки фикрлашни ўргатувчи инсондир.

Кўпинча қизлар ўз имкониятларини паст баҳолашга мойил бўладилар. Аслида эса юксак натижалар замирида фақат билим ва меҳнат ётади. Илм бир жойда тўхтаб турмайди, шунинг учун доимий мутолаа, янги кўникмаларни эгаллаш ва замонавий технологиялардан фойдаланиш жуда муҳим. Яхши устоз бўлиш учун инсон умрбод ўқувчи бўлиб қолиши керак. Оила, ўқиш ва шахсий ривожланишни уйғунликда олиб бориш учун кучли интизом ва вақтни тўғри тақсимлаш талаб этилади.

Яна бир муҳим жиҳат — соғлом илмий муҳит. Ҳамкасблар ва тажрибали устозлар билан дўстона мулоқотда бўлиш, уларнинг

маслаҳатларига қулоқ тутиш тадқиқотчи дунёқарашини кенгайтиради ва хатолардан асрайди. Ёш тадқиқотчилар учун энг муҳим икки тавсиям:

1. «Мустаҳкам методология ва илмий ҳалоллик» Тадқиқотни тўғри усуллар асосида олиб бориш, манбаларга таяниш ва натижаларни бузмасдан тақдим этиш — илмдаги ишонч гаровидир.

2. «Сабр, интизом ва узлуксиз изланиш» Илмий ютуқлар тез фурсатда келмайди. Агар мунтазам ўқиш, ёзиш ва таҳлил қилиш одатга айланса, натижа албатта бўлади.

Энг муҳими — қийинчиликлардан қўрқмаслик. Хатолар мағлубият эмас, балки ўрганиш жараёнининг ажралмас қисмидир. Хулоса қилиб айтсам: илмда иқтидор муҳим, аммо уни натижага олиб чиқадиган асосий омиллар — меҳнат, ҳалоллик ва тўғри йўналишдир.

ILMIY TADQIQOTLAR NATIJALARI



YUQORI TEZLIKDA MASHINASOZLIK DETALLARIGA FREZALAB ISHLOV BERISHDA YUZA SIFATINI TA'MINLASH

Abdullayev Baxodirjon Ikromjonovich
Andijon davlat texnika instituti, Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasi t.f.f.d (PhD) dotsent
bahodir.abdullayev1986@gmail.com +998902047753
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449190

Annotatsiya. *Maqolada yuqori tezlikda frezalab ishlov berish jarayonida mashinasozlik detallarining yuza sifatini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Kesish tezligi, oziqlanish miqdori, kesish chuqurligi, asbob geometriyasi va qoplamasi, stanokning qat'iyligi hamda tebranishlar ta'siri o'rganilgan. Yuqori tezlikli ishlov berish (High Speed Machining — HSM) sharoitida yuza nohamvorligini kamaytirish va funktsional xususiyatlarni yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *yuqori tezlikli ishlov berish, frezalash, yuza sifati, nohamvorlik, kesish rejimi, tebranish, asbob yeyilishi, mashinsozlik detallari.*
Аннотация. *В статье проанализированы вопросы обеспечения качества поверхности деталей машиностроения при высокоскоростной фрезерной обработке. Изучено влияние скорости резания, подачи, глубины резания, геометрии и покрытия инструмента, жёсткости станка, а также вибраций. В условиях высокоскоростной обработки (High Speed Machining — HSM) разработаны практические рекомендации по снижению шероховатости поверхности и улучшению функциональных характеристик деталей.*
Ключевые слова: *высокоскоростная обработка, фрезерование, качество поверхности, шероховатость, режим резания, вибрация, износ инструмента, детали машиностроения.*
Abstract. *The article analyzes the issues of ensuring the surface quality of mechanical engineering parts during high-speed milling. The influence of cutting speed, feed rate, depth of cut, tool geometry and coating, machine tool rigidity, and vibrations has been studied. Under high-speed machining (HSM) conditions, practical recommendations have been developed to reduce surface roughness and improve the functional properties of parts.*
Keywords: *high-speed machining, milling, surface quality, surface roughness, cutting parameters, vibration, tool wear, mechanical engineering parts.*

Kirish. Hozirgi kunda mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va raqobatbardosh detallar tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori aniqlik va yuqori sifat talab etiladigan sohalar – avtomobilsozlik, aviatsiya, energetika va priborsozlik tarmoqlarida detallar yuzasining sifati muhim texnologik ko'rsatkich sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, yuqori tezlikda frezalash texnologiyasi zamonaviy mexanik ishlov berish usullaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda.

Yuqori tezlikda frezalash (High Speed Milling – HSM) an'anaviy frezalash jarayonidan kesish tezligining sezilarli darajada yuqoriligi, kesish chuqurligining kichikligi va berish tezligining optimalligi bilan farq qiladi. Ushbu usul ishlov berish vaqtini qisqartirish, issiqlik ta'sirini kamaytirish hamda detallarning geometrik aniqligini oshirish imkonini beradi. Biroq

yuqori tezlikda ishlov berish jarayonida yuzaga keladigan tebranishlar, kesuvchi asbobning tez yeyilishi, haroratning ortishi va dinamik yuklamalar yuza sifati ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.[1]

Mashinasozlik detallarining yuza sifati asosan sirtning g‘adir-budurligi (Ra,Rz), mikrogeometriyasi, qattiqlik darajasi va qoldiq kuchlanishlar bilan belgilanadi. Yuqori tezlikda frezalash jarayonida bu ko‘rsatkichlar kesish tezligi, berish miqdori, kesish chuqurligi, asbob materiali, qoplamasi va sovitish sharoitlariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, zamonaviy qattiq qotishmali va qoplamali frezalar qo‘llanilganda yuqori sifatli sirt hosil qilish imkoniyati kengayadi.

Zamonaviy mashinsozlikda yuqori aniqlik va sifat talab qiladigan detallarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aviatsiya, avtomobilsozlik va asbobsozlik sohalarida detal yuzasining sifati uning ishonchliligi va xizmat muddatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan yuqori tezlikda frezalab ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli dastur bilan boshqariladigan (CNC) stanoklarning qo‘llanilishi yuqori tezlikda ishlov berishda aniqlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Zamonaviy CAD/CAM tizimlari yordamida optimal kesish rejimlarini tanlash, asbob yo‘lini to‘g‘ri loyihalash va tebranishlarni minimallashtirish orqali yuza sifatini yaxshilash mumkin.

Bugungi kunda yuqori tezlikda frezalab ishlov berish nafaqat ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, balki tayyor mahsulotning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Sifatli sirt ishqalanishga chidamlilikni oshiradi, charchoqqa mustahkamlikni yaxshilaydi va detalning xizmat muddatini uzaytiradi. [1]

Mazkur maqolada yuqori tezlikda frezalash jarayonining nazariy asoslari, yuza sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar hamda optimal texnologik parametrlarni tanlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliy tajribalar asosida yuqori tezlikda ishlov berishda sirt sifatini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yuqori tezlikli ishlov berish usulida kesish tezligi an’anaviy usullarga nisbatan 2–5 barobar yuqori bo‘lib, bu ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Biroq, yuqori dinamik yuklanishlar, issiqlik ajralishi va tebranishlar yuza sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ushbu maqolada yuqori tezlikli frezalash jarayonida yuza sifatini ta’minlash omillari kompleks tahlil qilinadi.

Yuqori tezlikli frezalash (HSM) — bu kesish tezligi material turiga qarab 500–3000 m/min va undan yuqori bo‘lgan ishlov berish usulidir. Bunda:

- kesish vaqti qisqaradi;
- kesish kuchlari nisbatan kamayadi;
- ishlov berilayotgan yuzada qoldiq kuchlanishlar o‘zgaradi;
- asbob yeyilishi intensivlashishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuqori tezlikda ishlov berishda kesish zonasida harorat 800–1000°C gacha yetishi mumkin. Bu holat asbob materialiga va qoplamasiga yuqori talab qo‘yadi.

Yuza sifatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

1. Kesish tezligi (V)

Kesish tezligining ortishi ma’lum chegaragacha yuza nohamvorligini kamaytiradi. Bu plastik deformatsiyaning barqarorlashuvi va kesish jarayonining silliq kechishi bilan izohlanadi. Biroq, haddan tashqari yuqori tezlikda:

- asbob yeyilishi tezlashadi;

- mikrocho‘qilar va mikrocharqalar hosil bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir material uchun optimal kesish tezligi mavjud bo‘lib, u yuza sifati va asbob barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. [2]

2. Oziqlanish miqdori (S)

Oziqlanish miqdori yuza nohamvorligining asosiy parametri hisoblanadi. Teoretik jihatdan yuza nohamvorligi quyidagi bog‘lanish orqali aniqlanadi:

Ra~S28RR_a \sim \frac{S^2{8RRa~8RS2

bu yerda:

- SSS — bir tishga to‘g‘ri keladigan oziqlanish,
- RRR — asbob uchining radiusi.

Oziqlanish oshishi bilan yuza nohamvorligi kvadratik qonuniyat asosida ortadi. Shu sababli yuqori sifatli yuza olish uchun kichik oziqlanish qiymatlari tavsiya etiladi.

3. Kesish chuqurligi (t)

Kesish chuqurligi asosan unumdorlikka ta’sir etsa-da, yuqori tezlikli ishlov berishda u tebranishlar orqali yuza sifatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Katta chuqurlikda:

- dinamik barqarorlik buzilishi,
- rezonans holatlari yuzaga kelishi mumkin.

4. Asbob materiali va qoplamasi

Yuqori tezlikli ishlov berishda quyidagi asbob materiallari keng qo‘llaniladi:

- qattiq qotishmalar (WC-Co);
- keramika;
- kubik bor nitridi (CBN);
- olmosli asboblar

TiAlN, AlCrN kabi qoplamalar issiqlikka chidamlilikni oshiradi va ishqalanishni kamaytiradi. Bu esa yuza sifatini yaxshilaydi.

5. Tebranish (vibratsiya)

Yuqori tezlikli frezalashda tebranish — yuza sifatini yomonlashtiruvchi asosiy omillardan biri. Tebranish natijasida:

- ✓ yuzada to‘lqinsimon izlar hosil bo‘ladi;
- ✓ mikrocharqalar paydo bo‘ladi;
- ✓ asbob muddati qisqaradi.

Tebranishni kamaytirish uchun:

- ✓ yuqori qat’iylikka ega stanoklardan foydalanish;
- ✓ balansirovka qilingan shpindel tizimi;
- ✓ optimal kesish rejimi tanlash zarur.

Yuza sifati quyidagi parametrlar bilan baholanadi:

- ✓ RaR_aRa — o‘rtacha arifmetik nohamvorlik;
- ✓ RzR_zRz — maksimal profil balandligi;
- ✓ yuza qatlamining mikrotuzilishi;
- ✓ qoldiq kuchlanishlar.

Yuqori tezlikli ishlov berishda RaR_aRa qiymati 0,4–1,6 mkm oralig‘ida ta’minlanishi mumkin. [2]

Muhokama va natijalar. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori tezlikli frezalashda yuza sifati kompleks omillarga bog‘liq. Kesish tezligini 20–30% ga oshirish ma’lum sharoitda yuza nohamvorligini 10–15% ga kamaytirishi mumkin. Biroq asbob yeyilishi tezlashganda yuza sifati yomonlashadi.

Tadqiqot jarayonida yuqori tezlikda frezalab ishlov berishning mashinasozlik detallarining yuza sifatiga ta’siri kompleks ravishda tahlil qilindi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, kesish tezligining ortishi sirtning g‘adir-budurlik ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Optimal diapazonda tanlangan yuqori kesish tezligi detal yuzasida yanada silliq mikrogeometriya hosil bo‘lishini ta’minladi. Bunda kesuvchi asbobning ishlash barqarorligi va tebranish darajasi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qildi. [3]

Aniqlanishicha, berish miqdorining ortishi sirt g‘adir-budurligining oshishiga olib keladi. Ayniqsa, yuqori tezlikda frezalash jarayonida berish qiymati me’yordan ortib ketganda, yuzada mikroto‘lqinlar va notekis izlar paydo bo‘lishi kuzatildi. Shu sababli yuqori tezlikda ishlov berishda kichik va o‘rtacha berish miqdorlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Kesish chuqurligi ham sirt sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, chuqurlik ortishi bilan dinamik yuklamalar kuchayishi natijasida tebranishlar yuzaga kelishi aniqlandi. [4]

Tajribalarda qattiq qotishmali va ko‘p qatlamli qoplamali frezalardan foydalanish sirt sifatini yaxshilashda ijobiy natija berdi. Qoplamali asboblar ishqalanish koeffitsiyentini kamaytirib, issiqlik ajralishini pasaytirdi hamda kesish jarayonining barqarorligini ta’minladi. Natijada detal yuzasida qoldiq deformatsiyalar kamaydi va mikroqattiqlik ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Tebranishlarni kamaytirish orqali yuza nohamvorligini 25–30% gacha yaxshilash mumkinligi aniqlangan. Bu esa stanok va asbob tizimining dinamik tahlilini amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. [5]

Xulosa. Yuqori tezlikli frezalash mashinsozlik detallariga ishlov berishda yuqori unumdorlik va yuqori yuza sifatini ta’minlash imkonini beradi. Biroq bu jarayonda kesish rejimi parametrlarini ilmiy asosda tanlash, asbob materialini to‘g‘ri belgilash va tebranishlarni minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yuza sifatiga ta’sir etuvchi omillarni kompleks boshqarish orqali mashinsozlik detallarining ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Tavsiyalar. Material turiga mos optimal kesish tezligini tanlash. Bir tishga to‘g‘ri keladigan oziqlanishni minimal darajada belgilash. Asbob uchi radiusini kattalashtirish orqali yuza silliqligini oshirish. Zamonaviy qoplamali qattiq qotishmali asboblardan foydalanish. Stanokning dinamik qat’iyligini oshirish. Sovitish-so‘yish suyuqliklaridan to‘g‘ri foydalanish yoki minimal miqdorli moylash (MQL) tizimini qo‘llash. CAM dasturlarida traektoriyani optimallashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Metall kesish nazariyasi va asboblar. – T.: O‘qituvchi, 2018.
2. Yuqori tezlikli ishlov berish texnologiyalari. – T.: Fan, 2020.
3. Modern Machining Technology. – Springer, 2019.
4. Metal Cutting Theory and Practice. – CRC Press, 2017.
5. Mashinasozlik texnologiyasi. – T.: TDTU, 2021.

SHTAMP DETALLARIGA YUQORI TEZLIKDA TIG‘LI ISHLOV BERISHDA SIRT QATLAMI SIFATINI TA’MINLASH

Abdullayev Baxodirjon Ikromjonovich[1], Zulunov Humoyun Bobirjon o‘g‘li[2]
[1]Andijon davlat texnika instituti, Mashinasozlik texnologiyasi kafedrasi t.f.f.d (PhD) dotsent
[2]Andijon davlat texnika instituti, Mashinasozlik texnologiyasi yo‘nalishi 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449214

Annotatsiya. *Maqolada shtamp detallariga yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish jarayonida sirt qatlami sifatini ta’minlash masalalari o‘rganilgan. Kesish tezligi, oziqlanish miqdori, kesish chuqurligi, asbob materiali va qoplamasi, issiqlik ajralishi hamda tebranishlarning sirt qatlami mikrostrukturasi va nohamvorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, yuqori tezlikli ishlov berishda optimal kesish rejimlarini tanlash va sirt sifatini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *yuqori tezlikli ishlov berish, tig‘li ishlov, shtamp detali, sirt qatlami, mikrostruktura, nohamvorlik, kesish rejimi, asbob yeyilishi.*

Аннотация. *В статье исследованы вопросы обеспечения качества поверхностного слоя штамповых деталей при высокоскоростной лезвийной обработке. Проанализировано влияние скорости резания, подачи, глубины резания, материала и покрытия инструмента, тепловыделения и вибраций на микроструктуру и шероховатость поверхности. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по выбору оптимальных режимов резания и повышению качества поверхности.*

Ключевые слова: *высокоскоростная обработка, лезвийная обработка, штамповые детали, поверхностный слой, микроструктура, шероховатость, режим резания, износ инструмента.*

Abstract. *The article investigates the issues of ensuring the surface layer quality of stamping dies during high-speed cutting operations. The influence of cutting speed, feed rate, depth of cut, tool material and coating, heat generation, and vibrations on the microstructure and surface roughness has been analyzed. Based on the obtained results, practical recommendations for selecting optimal cutting parameters and improving surface quality under high-speed machining conditions have been developed.*

Keywords: *high-speed machining, cutting process, stamping dies, surface layer, microstructure, surface roughness, cutting parameters, tool wear.*

Kirish. Zamonaviy mashinasozlik sanoatida shtamp detallarini ishlab chiqarish yuqori aniqlik, mustahkamlik va uzoq xizmat muddatini talab qiladi. Shtamplar metallni bosim ostida shakllantirish jarayonida asosiy ishchi element bo‘lib, ularning ishchi yuzasi yuqori mexanik yuklamalar, zarb ta’siri, ishqalanish va harorat o‘zgarishlariga duch keladi. Shu sababli shtamp detallarining sirt qatlami sifati ularning ekspluatatsion xususiyatlari va xizmat muddati bilan bevosita bog‘liqdir.

Yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish (kesish jarayoni) bugungi kunda metallarga mexanik ishlov berishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul an’anaviy ishlov berish jarayoniga nisbatan yuqori kesish tezligi, optimallashtirilgan berish miqdori va zamonaviy kesuvchi asboblar qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Natijada ishlab chiqarish unumdorligi ortadi, ishlov berish vaqti qisqaradi hamda detal yuzasining sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Shtamp detallariga yuqori tezlikda tig‘li ishlov berishda sirt qatlamining sifatini ta’minlash murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Sirt qatlami sifati deganda uning g‘adir-budurligi, mikrogeometriyasi, mikroqattiqligi, qoldiq kuchlanishlari va strukturaviy holati tushuniladi. Ayniqsa, shtamp detallarida sirt qatlamida hosil bo‘ladigan qoldiq bosim kuchlanishlari va qattiqlik darajasi ularning yeyilishga chidamliligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. [1]

Agar texnologik parametrlar noto‘g‘ri tanlansa, sirt qatlamida kuyish izlari, mikrocho‘kishlar yoki strukturaviy o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois optimal kesish tezligi, berish miqdori va kesish chuqurligini tanlash ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy qattiq qotishmali va qoplamali kesuvchi asboblar, shuningdek, samarali sovitish-moylash tizimlarining qo‘llanilishi sirt qatlamining sifatini barqaror ta’minlash imkonini beradi. Raqamli dastur bilan boshqariladigan (CNC) stanoklar va CAD/CAM tizimlari yordamida asbob harakat trayektoriyasini optimallashtirish hamda tebranishlarni kamaytirish orqali yuqori aniqlikdagi va sifatli sirt hosil qilish mumkin.

Mazkur maqolada shtamp detallariga yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish jarayonining nazariy asoslari, sirt qatlami sifatiga ta’sir etuvchi omillar hamda optimal texnologik parametrlarni tanlash masalalari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida shtamp detallarining ishchi yuzasida yuqori sifatli sirt qatlamini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mashinasozlik sanoatida shtamp detallarining mustahkamligi, yeyilishga chidamliligi va uzoq xizmat muddati ko‘p jihatdan sirt qatlamining sifati bilan belgilanadi. Shtamplar odatda yuqori mustahkamlikka ega legirlangan po‘latlardan tayyorlanadi va ular og‘ir yuklanish sharoitida ishlaydi. Shu sababli ularning sirt qatlamida mikrocho‘kma, mikroyoriq va ortiqcha qoldiq kuchlanishlarning mavjud bo‘lishi ekspluatatsion xususiyatlarni pasaytiradi. Yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish zamonaviy ishlab chiqarishda keng qo‘llanilib, yuqori unumdorlikni ta’minlaydi. Biroq jarayon davomida yuzaga keladigan yuqori harorat va dinamik yuklanishlar sirt qatlamining strukturaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi — yuqori tezlikli ishlov berishda sirt qatlamining sifat ko‘rsatkichlarini ilmiy asosda baholash va optimal sharoitlarni aniqlashdan iborat. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ilmiy manbalarda yuqori tezlikli ishlov berish jarayonida sirt sifati asosan kesish tezligi va oziqlanish miqdoriga bog‘liqligi ta’kidlanadi.

- kesish tezligining ortishi ma’lum chegaragacha sirt nohamvorligini kamaytiradi;
- oziqlanishning ortishi nohamvorlikni kvadratik qonuniyat asosida oshiradi;
- yuqori harorat sirt qatlamida qayta kristallanish jarayonini keltirib chiqarishi mumkin;
- tebranishlar to‘lqinsimon izlar hosil qiladi.

Shuningdek, zamonaviy qoplamali qattiq qotishmali asboblar (TiAlN, AlCrN) yuqori harorat sharoitida barqarorlikni oshirishi aniqlangan. Biroq sirt qatlamining mikrostrukturaviy o‘zgarishlari yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Tajriba sharoitlari:

- Ishlov materiali: 40X va X12M po‘latlari;
- Kesish tezligi: 200–800 m/min;

- Oziqlanish: 0,05–0,25 mm/tish;
- Kesish chuqurligi: 0,5–2 mm;
- Asbob: qoplamali qattiq qotishmali freza.

O‘lchash usullari:

- Sirt nohamvorligi Ra profilometr yordamida;
- Mikrostruktura metallografik tahlil orqali;
- Mikroqattiqlik Vickers usuli bilan;
- Tebranishlar vibrodatchik yordamida qayd etildi.

Olingan natijalar matematik-statistik usulda qayta ishlanib, optimal parametrlar aniqlashtirildi. [2]

Muhokama va natijalar. O‘tkazilgan tajriba va kuzatuvlar natijalari shtamp detallariga yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish jarayonida sirt qatlami sifati texnologik parametrlarning o‘zaro bog‘liq ta’siri ostida shakllanishini ko‘rsatdi. Xususan, kesish tezligi 400–600 m/min oralig‘ida tanlanganda sirt nohamvorligi minimal qiymatga ega bo‘lib, Ra = 0,6–0,9 mkm diapazonda barqarorlashdi. Bu holat yuqori tezlikda kesish jarayonining barqarorlashuvi, kesish zonasida plastik deformatsiyaning bir maromda kechishi hamda chip hosil bo‘lish mexanizmining optimallashuvi bilan izohlanadi. Biroq 600 m/min dan yuqori tezliklarda haroratning ortishi natijasida asbob yeyilishi tezlashib, ayrim hollarda sirt qatlamida kuyish izlari va mikrodefektlar paydo bo‘lishi kuzatildi. Oziqlanish miqdori 0,1 mm/tish dan oshganda sirt nohamvorligining keskin ortishi qayd etildi. Bu jarayonda kesuvchi tig‘ning sirt bilan o‘zaro ta’siri kuchayib, plastiklik deformatsiya izlari chuqurlashdi va mikroto‘lqinlar hosil bo‘ldi. Optimal oziqlanish qiymatlarida esa chip qalinligi me’yoriy shakllanib, sirt mikrogeometriyasi silliq va bir xil ko‘rinishga ega bo‘ldi. Shuningdek, kesish chuqurligi ortishi bilan dinamik yuklamalar kuchayib, tebranish amplitudasi oshgani aniqlandi. [3]

Yuqori tezlikda ishlov berishda sirt qatlamida 5–15% gacha mikroqattiqlik ortishi kuzatildi. Bu holat deformatsion qattiqlanish (naklep) jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, sirt qatlamining zichlashishi va kristall panjara nuqsonlarining ko‘payishi natijasida yuz berdi. Mikroqattiqlikning ortishi shtamp detallarining yeyilishga chidamliligini oshiradi, biroq haddan tashqari qattiqlashuv mo‘rtlikni kuchaytirishi mumkinligi ham aniqlandi. Shu bois optimal tezlik va oziqlanish qiymatlarini saqlash muhimdir.

Tebranish amplitudasi ortishi bilan sirt sifatining yomonlashuvi eksperimental ravishda tasdiqlandi. Tebranishlar natijasida sirt qatlamida notekis izlar, mikrocho‘kishlar va mahalliy strukturaviy o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Ayniqsa, shpindel aylanish barqarorligi va asbob balansirovkasining yetarli darajada bo‘lmasligi sirt sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Stanok tizimining qattiqligi yuqori bo‘lgan sharoitda esa tebranishlar kamayib, sirt ko‘rsatkichlari yaxshilandi. [4]

Optimal rejimlarda ishlov berilganda sirt qatlamida qoldiq siquvchi kuchlanishlar shakllanishi aniqlandi. Bunday kuchlanishlar detalning charchoqqa chidamliligini oshiradi hamda mikroyoriqlar tarqalishini sekinlashtiradi. Natijada shtamp detallarining xizmat muddati uzayadi

va ekspluatatsion ishonchliligi ortadi. Metallografik tahlillar sirt qatlamida nozik donali struktura hosil bo‘lishini ko‘rsatdi, bu esa mexanik xususiyatlarning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, natijalar shuni tasdiqlaydiki, yuqori tezlikli ishlov berishda parametrlarni noto‘g‘ri tanlash sirt qatlamida mikrodefektlar, ortiqcha qizish va strukturaviy buzilishlarga olib keladi. Texnologik rejimlarni ilmiy asosda optimallashtirish, zamonaviy qoplamali kesuvchi asboblar va samarali sovitish tizimlaridan foydalanish orqali sirt qatlamining yuqori sifati va shtamp detallarining uzoq muddatli ishlashini ta’minlash mumkin. [5]

Xulosa. Yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish shtamp detallarini tayyorlashda yuqori unumdorlikni ta’minlovchi samarali texnologik usul hisoblanadi. Biroq jarayonning samaradorligi va hosil bo‘ladigan sirt qatlamining sifati, eng avvalo, kesish tezligi, oziqlanish miqdori, kesish chuqurligi hamda ishlov berish sharoitlariga bevosita bog‘liqdir. Texnologik parametrlarni ilmiy asosda tanlash orqali nafaqat ishlab chiqarish tezligini oshirish, balki detalning ekspluatatsion ishonchliligini ham sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

- Optimal tezlik va oziqlanish qiymatlarida:
- nohamvorlik kamayadi va sirt mikrogeometriyasi silliqlashadi;
- mikroqattiqlik oshadi va deformatsion mustahkamlanish yuz beradi;
- qoldiq siquvchi kuchlanishlar hosil bo‘ladi;
- ekspluatatsion xususiyatlar, xususan yeyilishga va charchoqqa chidamlilik yaxshilanadi. [5]

Shuningdek, optimal rejimlarda sirt qatlamida nozik donali struktura shakllanishini ko‘rsatdi, bu esa mexanik xususiyatlarning barqarorlashuviga xizmat qiladi. Qoldiq siquvchi kuchlanishlarning mavjudligi mikroyoriqlar paydo bo‘lishining oldini olib, ularning tarqalishini sekinlashtiradi. Bu omil shtamp detallarining uzoq muddatli va ishonchli ishlashini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, yuqori tezlikda ishlov berishda zamonaviy qattiq qotishmali va ko‘p qatlamli qoplamali kesuvchi asboblardan foydalanish, samarali sovitish-moylash tizimini qo‘llash hamda stanok tizimining yuqori qattiqligini ta’minlash sirt sifati barqarorligini oshiradi. Tebranishlarni kamaytirish, shpindel aylanishining aniqligini nazorat qilish va asbob balansirovkasini ta’minlash yuqori sifatli sirt hosil qilishning muhim shartlaridan biri ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, yuqori tezlikda tig‘li ishlov berish shtamp detallarini ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va texnik ustunliklarni ta’minlaydi. Biroq maksimal natijaga erishish uchun kesish rejimlarini optimallashtirish, jarayon parametrlarini monitoring qilish va ilg‘or texnologik vositalardan foydalanish zarur.

Tavsiyalar. Kesish tezligini materialga mos ravishda 400–600 m/min oralig‘ida tanlash. Oziqlanishni 0,08–0,12 mm/tish chegarasida saqlash. Qoplamali qattiq qotishmali asboblardan foydalanish. Stanokning dinamik qat’iyligini oshirish. CAM dasturlar orqali optimal trajektoriyalarni qo‘llash. Tebranish monitoring tizimini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Metal Cutting Theory and Practice. – CRC Press, 2018.
2. High-Speed Machining. – Springer, 2019.
3. Машиностроительная технология. – Москва, 2020.
4. Zamonaviy kesish asboblari texnologiyasi. – Toshkent, 2021.

MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANIDAN TALABALARNING O‘QUVCHANLIK INDEKSINI MIQDORIY BAHOLASH

Achilova Dilnoza Axmatovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Amaliy informatika kafedrasi dotsenti,
di-ahmatovna@kiut.uz, Shota Rustaveli ko‘chasi, 156, +99893-3006454
https://doi.org/10.5281/zenodo.19466511

Annotatsiya. *Maqolada “Muhandislik grafikasi” fanini o‘rganish jarayonida talabalarning o‘qish qobiliyatini miqdoriy baholash metodologiyasi bayon etilgan. Tadqiqot kvalimetriya tamoyillariga asoslanib, talabalarning bilish qobiliyatlari dinamik xususiyatlari, xotiraning transformatsiyasi hamda fazoviy tafakkurning rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchanlik uch daraja orqali ko‘rib chiqiladi: determinatsiyalangan daraja (materialni eslab qolish va berilgan algoritmlar asosida amallarni bajarish), texnologik daraja (ma’lum algoritmlar kombinatsiyasidan foydalangan holda bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash) va metodologik daraja (nostandart masalalarni hal etishda bilimlardan ijodiy foydalanish).*

“Muhandislik grafikasi” fanining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi, chunki ushbu fan rivojlangan fazoviy tasavvur hamda grafik obrazlar bilan operatsiya qilish qobiliyatini talab etadi. Muallif “o‘quvchanlik indeksi” (LI) tushunchasini joriy etadi, u ikki komponentni o‘z ichiga oladi: fazoviy tafakkur indeksi (SRI) — Rudolf Amthauer psixometrik testlari asosida aniqlanadi, hamda o‘zlashtirish indeksi (LPI) — turli murakkablik va qiyinchilik darajasidagi grafik masalalarni yechish natijalariga asoslanadi. Topshiriqlarni to‘rt daraja bo‘yicha tasniflash talabalarning geometrik-grafik tayyorgarligini kompleks diagnostika qilish imkonini beradi.

Pedagogik tajribalar fazoviy tasavvur hamda grafik masalalarni yechish ko‘nikmalarining rivojlanishida ham ijobiy, ham salbiy dinamikani aniqladi. Fazoviy tafakkur va akademik o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik nochiziqli xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. O‘quvchanlik indeksini joriy etish talabalarning tayyorgarlik natijalarini obyektiv baholash, o‘quv jarayonini boshqarish hamda “Muhandislik grafikasi” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tayanch so‘z va tushunchalar*: o‘quvchanlik, fazoviy tafakkur, muhandislik grafikasi, vazifalarning qiyinligi va murakkabligi, miqdoriy baholash, ta’lim jarayoni samaradorligi.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini modellashtirish jarayoni o‘quv fanini o‘zlashtirish dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro ta’sirini o‘rganishni nazarda tutadi. “O‘quvchanlik” tushunchasi talabaning bir necha komponentlardan iborat bo‘lib, ular dinamik xarakterga ega va muayyan talabaning psixologik xususiyatlari bilan bevosita hamda bilvosita bog‘liqdir. Talaba xotirasining o‘zgarishi individual xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli, o‘quvchanlik talabaning axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash jarayonida xotirasining o‘zgarish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

O‘quvchanlikning uch darajasi farqlanadi: determinatsiyalangan daraja — materialni eslab qolish va berilgan algoritmlar asosida amallarni bajarishni nazarda tutadi; texnologik daraja — yangi bilimlarni turli amaliy vaziyatlarda qo‘llash usullarini egallash, shu jumladan, mavjud algoritmlarni tanlash va kombinatsiyalash bilan bog‘liq; metodologik daraja esa olingan bilimlarni

yanada murakkab va nostandart masalalarni hal etishda qo‘llash usullarini o‘zlashtirish bilan tavsiflanadi. [1]

Determinatsiyalangan o‘quvchanlik asosida talabaning elementar bilim tuzilmalari shakllanadi; texnologik o‘quvchanlik kombinator tuzilmalar rivojlanishini ta’minlaydi; metodologik o‘quvchanlik esa bilimlardan yangi kontekstlarda foydalanish va masalalarni hal etishning original usullarini yaratishga imkon beruvchi kreativ tuzilmalarni shakllantiradi.

Hozirgi kunda ma’lum bo‘lgan tadqiqotlarda talabaning “o‘quvchanlik” xususiyati o‘rganilayotgan obyektda tegishli ierarxik tuzilmalar mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu tuzilmalar bilan o‘quvchanlikni moslashtirish uning tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi, ular esa muayyan faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi. Mazkur komponentlar uchta asosiy soha doirasiga kiradi: predmet-ilmiy soha — bunda muayyan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha bilimlar allaqachon shakllangan; kognitiv soha — shaxsning aqliy qobiliyatlari tizimi va metodologik ko‘nikmalar; motivatsion soha — yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj.

Turli mualliflar tomonidan o‘tkazilgan “o‘quvchanlik” ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan testlar “o‘quvchanlik” tushunchasining determinatsiyalangan, texnologik va metodologik tarkibiy qismlari o‘rtasida turli o‘quv fanlari kesimida ma’lum darajada korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini hamda ushbu komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning dinamik xususiyatga ega ekanligini aniqladi. [2, 3, 4, 5, 6]

Usullar. “Injenerlik grafikasi” o‘quv fanining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u talabalardan rivojlangan fazoviy tafakkur va fazoviy tasavvurni talab qiladi. Muallif tomonidan o‘tkazilgan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, fazoviy tafakkur talabalarning turli fanlar bo‘yicha umumiy bilim darajasi, umumiy eruditsiyasi hamda motivatsiyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas. Ko‘plab hollarda fazoviy tafakkur shaxsning tug‘ma xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Muallif “Injenerlik grafikasi” faniga nisbatan “o‘quvchanlik indeksi” tushunchasini ikki komponentga ajratishni taklif etadi: fazoviy tafakkur indeksi — Rudolf Amthauer testlari asosida aniqlanadi, hamda grafik topshiriqlarni I, II, III, IV darajadagi murakkablik va qiyinchilik bo‘yicha yechish natijalariga asoslangan grafik axborotni “operatsiya qilish” indeksini aniqlash bo‘yicha mualliflik konsepsiyasi. [8]

Rudolf Amthauer testlari — bu psixometrik topshiriqlar bo‘lib, quyidagi qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan: fazoviy tasavvur; obyektlarni aqliy ravishda aylantirish qobiliyati; chizmalar va proeksiyalarni tushunish; muhandislik va texnik tafakkur. [7]

Rudolf Amthauer testlarining asosiy maqsadi — shaxsning obyektlar bilan ularni real manipulyatsiya qilmasdan turib fazoda operatsiya qilish qobiliyatini aniqlashdan iborat.

Amthauer testlaridagi topshiriqlar turlari: figuralarni aqliy aylantirish; chizmalar va proeksiyalar; jismlarning yoyilmalari; fazoviy munosabatlar; ketma-ketliklar va qonuniyatlar.

Fazoviy tafakkur indeksi Amthauer testi natijalari asosida to‘g‘ri javoblar sonining umumiy javoblar soniga nisbati orqali aniqlanadi:

SRI = number of right answers/total answers (to‘g‘ri javoblar soni / umumiy javoblar soni)

$$SRI=\frac{R}{T}$$

SRI – fazoviy tafakkur indeksi (Spatial Reasoning Index)

R – to‘g‘ri javoblar soni

T – umumiy javoblar soni

Muallif konsepsiyasiga ko‘ra, barcha grafik topshiriqlar murakkablik va qiyinchilik darajasiga qarab to‘rt guruhga ajratiladi.

Muallif o‘zining “Muhandislik grafika masalalarning murakkablik va qiyinlik darajasini miqdoriy baholash metodikasi” nomli maqolasida grafik masalalarning murakkabligi va qiyinchiligini aniqlash formulalarini keltiradi.

Talabaning geometrik-grafik tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun unga grafik topshiriqlarning barcha to‘rt darajasidan beshtadan topshiriq taklif etiladi.

Muallif tomonidan “o‘quvchanlik indeksi” (LI) tushunchasi kiritilgan.

$$LI= SRI+LPI$$

bu yerda:

LI (Learnability Index) — talabalarning o‘quvchanlik indeksi;

SRI (Spatial Reasoning Index) — fazoviy tafakkur (fazoviy tasavvur) indeksi;

LPI (Learning Performance Index) — talabalarning o‘zlashtirish indeksi.

Tayyorlov darajasini aniqlash uchun muallif quyidagi metodikani taklif etadi: grafikda talaba tomonidan barcha grafik topshiriqlarni yechish natijalari aks ettiriladi.

Pedagogik tajriba davomida akademik guruh talabalari har oy oxirida o‘tilgan mavzular bo‘yicha turli murakkablik va qiyinchilik darajasiga ega bo‘lgan beshtadan masalani yechishlari lozim. [9]

1- va 2-grafiklarda A.F. ismli talabaning Rudolf Amthauer testlari hamda “Injenerlik grafikasi” faniga oid tipik masalalarni yechish natijalari keltirilgan.



1-rasm. Rudolf Amthauer testi natijalari.

Talabalarga bir xil murakkablik darajasiga ega bo‘lgan 20 ta test topshirig‘i taklif etildi, har bir to‘g‘ri javob 5 ball bilan baholandi. Grafikdan ko‘rinishicha (1-rasm), A.F. ismli talaba 20 ta testdan 9 tasini to‘g‘ri bajargan va maksimal mumkin bo‘lgan 100 balldan 45 ball to‘plagan.

Uning indeksi:

$$SRI=\frac{R}{T}=\frac{9}{20}=0,45$$

Ikkinchi grafikda (2-rasm) “Injenerlik grafikasi” fani bo‘yicha 4 ta murakkablik darajasiga ajratilgan 20 ta grafik masalani yechish natijalari keltirilgan.

Asosiy natijalar. Pedagogik tajribaning davom ettirilishi quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: har uch haftada o‘tkazilgan testlar jarayonida ayrim talabalar fazoviy tasavvur rivojlanishi hamda grafik topshiriqlarni yechish ko‘nikmalarining oshishi bo‘yicha ijobiy dinamikani namoyon

etdilar. Boshqa bir guruh talabalar esa Rudolf Amthauer testlari natijalari hamda grafik topshiriqlarni yechish ko‘nikmalari bo‘yicha salbiy dinamikani ko‘rsatdilar. 3-grafikda A.F. ismli talabaning “Injenerlik grafikasi” fanini o‘rganishning birinchi semestri yakunidagi geometrik-grafik tayyorgarlik natijalari keltirilgan.



2-rasm.

20 ta grafik masalani yechish natijalari.

20 ta masaladan A.F. ismli talaba I darajadagi 5 ta masalaning barchasini, II darajadagi 3 ta masalani, III darajadagi 1 ta masalani yechgan, IV darajadagi esa birorta ham masalani yecha olmagan.

$$LPI=\frac{3,5*5+4,5*3+5,5*1}{100}=0,355$$

Talaba A.F. uchun o‘rganuvchanlik indeksi (LI) quyidagicha hisoblanadi: birinchi daraja masalalar (I daraja): 5 ta × 3,5 ball = 17,5 ball; ikkinchi daraja masalalar (II daraja): 3 ta × 4,5 ball = 13,5 ball; uchinchi daraja masalalar (III daraja): 1 ta × 5,5 ball = 5,5 ball; to‘rtinchi daraja masalalar (IV daraja): 0 ta × 6,5 ball = 0 ball.

Jami yig‘gan ballari 100dan 36,5 ball bo‘ldi.

Talaba A.F. uchun o‘rganuvchanlik indeksi (LI) quyidagicha hisoblandi:

SRI+LPI=0,45+0,355=0,805

Test natijalarining ikki grafigini — Rudolf Amthauer testi hamda o‘quv dasturi bo‘yicha grafik topshiriqlarni yechish natijalarini vizual tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rtasida korrelyatsiya mavjud emas. Bundan tashqari, Rudolf Amthauer testlari natijalari o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalaridan yuqori bo‘lgan. Bunday grafiklar “Gidrotexnik qurilish” fakultetining birinchi kurs akademik guruhlaridagi har bir talaba uchun ishlangan.



3-rasm. Talaba A.F.ning birinchi semestr uchun test natijalari

E’tiborga molikki, semestr davomida A.F. ismli talaba fazoviy tasavvurni baholovchi Rudolf Amthauer **testlari natijalarini, garchi uncha katta bo‘lmasa-da, yaxshilagan, biroq o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalari o‘zgarishning nochiziqli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash grafiklar “Gidrotexnik qurilish” fakultetining birinchi kurs akademik guruhlaridagi barcha talabalar uchun ishlangan. Bunda mualliflar talabalarning boshlang‘ich motivatsiyasi semestr davomida o‘zgarmagan degan farazdan kelib chiqqanlar.**

Xulosa. Muallif tomonidan Rudolf Amthauer metodikasi va mualliflik metodikasi asosida test natijalarini aniqlash hamda tahlil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich bosqichda talabaning fazoviy tasavvuri bilan uning geometrik-grafik tayyorgarligi natijalari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud emas. Ta’lim yakunida esa fazoviy tasavvur va geometrik-grafik tayyorgarlik o‘rtasida o‘rtacha darajadagi korrelyatsiya aniqlangan.

Shuningdek, o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalari nochiziqli xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim talabalar semestr davomida bilim, ko‘nikma va malakalarining uzluksiz o‘sishini namoyon etgan bo‘lsa, boshqalari o‘quv jarayoni grafigidan muntazam ortda qolishni ko‘rsatgan.

Muallif tomonidan joriy etilgan o‘quvchanlik indeksi (LI) har bir talabaning geometrik-grafik tayyorgarligiga aniq miqdoriy tavsif beradi. Ushbu indeksdan foydalanish “Injenerlik grafikasi” fanini o‘qitishda o‘quv jarayonini samarali boshqarish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lebedeva E.V., Shipanova D.Yu., Konovalova M.E. (2016). Pedagogika universitetlari talabalarining vaqtni boshqarish va kasbiy o‘ziga xosligi. // Xalqaro ekologik va ilmiy ta'lim jurnali, 11(14), 6913–6924.
2. Torrans E.P. (1977). Torrance ijodiy fikrlash testlari. Lexington, Massachusets: Personnel Press.
3. Gilford J.P. (1968). Aql-idrok, ijodkorlik va ularning ta'lim uchun ahamiyati - San-Diego, Kaliforniya

4. Voronin A.N. (2020). Onlayn hamjamiyat subyektivligi fenomenini asosli nazariya usuli yordamida kontseptualizatsiya qilish. // Eksperimental psixologiya (Rossiya), 13(3), 4–14. DOI: 10.17759/exppsy.2020130301
5. Bogoyavlenskaya D.B. (2002). Ijodiy qobiliyatlar psixologiyasi. - Moskva: Akademiya.
6. Drujinin V.N. (2005). Ijodkorlik, uning tabiati va rivojlanishi // Psixologiya. Oliy iqtisodiyot maktabi jurnali, 2(3), 91–107
7. Gurevich K. M. Psixologik tahlil. — M., 1997.
8. Achilova D.A. Muhandislik grafika masalalarning murakkablik va qiyinlik darajasini miqdoriy baholash metodikasi // “Tarannum” ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy, publitsistik jurnal 2026/1 (№3) https://doi.org/10.5281/zenodo.18346580. 17-21 bb
9. Kuchkarova D.F., Achilova D.A. Muhandislik grafikasi va kasbiy ta'lim muammolari, L.N. Gumilyov nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti, № 1 7-22 bb, 2024 г, Ostona, Qozog‘iston, DOI: 10.32523/2220-685x-2024-72-1-7-22, ISSN 2220-685X, eISSN: 2706-7254

ФИЗИКАДАН ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ТАЪЛИМ БЕРИШ АСОСИДА МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Бекнозарова Замира Фармановна
«ТИҚХММИ» доценти
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449244

Аннотация. *Мақолада физикадан фанлараро интеграцион таълим бериш асосида муҳандислик йўналиши талабаларини касбий компетентлигини ривожлантириш методикаси ёритилган.*

Калит сўзлар: *компетентлик, методика, ёндашув, мухандис, ирригация, гидроэнергетика, техника.*

Аннотация. *В статье описана методика развития профессиональной компетентности студентов инженерных специальностей на основе междисциплинарного интегрированного образования по физике.*

Abstract. *The article describes the methodology for developing the professional competence of engineering students on the basis of interdisciplinary integrated education in physics.*

Мамлакатимизда замон талаблари асосида физикадан таълим жараёнини ташкил этиш, жумладан, техника олий таълим муассасларида ахборот- коммуникация технологияларини жорий этиш орқали юқори малакали муҳандисларни тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш” муҳим устувор вазифа сифатида белгиланган [1].

Бўлажак муҳандисларга методологик, компетенциявий ва тизимли ёндашувлар асосида физика ўқитиш таълим сифати ва самарадорлигини, муҳандислик мутахассислигига хос сифатларни ошишига ҳамда лойиҳалаш, тадқиқотчилик каби касбий компетенцияларини ривожлантиришга хизмат қилади [2].

Ирригация тизимларидаги гидроэнергетика бакалавриат таълим йўналиши малака талабларига асосан касбий фаолиятининг соҳалари:

-фан, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳасидаги йўналиш бўлиб, ирригация тармоқларига қуриладиган Гидроэлектростанциялар (ГЭС) учун лойиҳа-қидирув ишлари, лойиҳалаш, қуриш, эксплутация қилиш ва хизмат кўрсатиш, қайта қуриш, таъмирлаш ва реконструкция қилиш билан боғлиқ комплекс масалалар мажмуасини қамраб олади [3].

Касбий фаолиятининг объектлари қуйидагилар:

- гидроэлектростанциялар;
- *гидроэнергетик қурилмалар*;
- насос станциялар;
- ноанъанвий ва қайта тикланувчи энергия манбалари асосида ишловчи қурилмалар;

- гидроэнергетик қурилмаларни самарали лойиҳалаш, улардан фойдаланиш ва таъмирлаш жараёнлари.

Касбий фаолиятининг турлари:

- илмий тадқиқот фаолияти;
- лойиҳавий-конструкторлик фаолияти;
- йиғиш ва созлаш ишлари;
- фойдаланиш ва сервис хизмат кўрсатиш;
- ишлаб чиқариш-технологик фаолияти;
- ташкилий-бошқарув фаолияти;
- педагогик фаолияти кабиларни ўз ичига олади [8].

Муҳандислик йўналиши талабаларига физика ўқитиш жараёнида илмий-тадқиқот, лойиҳавий конструкторлик касбий фаолият турларига тайёрлашда лойиҳалаш, конструкторлик ва тадқиқотчилик каби касбий компетенцияларини ривожлантиради. Илмий-тадқиқот фаолиятга тайёрлашда тадқиқотчилик компетенциясини, лойиҳавий-конструкторлик фаолиятга тайёрлашда лойиҳалаш ва конструкторлик компетенцияларини ҳамда педагогик фаолиятга тайёрлашда педагогик компетенциясини ривожлантириш назарда тутилади.

Илмий - тадқиқот фаолиятида:

- гидроэнергетик курилмаларда кечадиган жараёнлар, уларни иш самарадорлигини ошириш ва хавфсизлигини таъминлаш буйича лабораторияда тадқик килишда қатнашиш;
- илмий тадқиқотларни ўтказиш ва ишланмаларни ишлаб чиқишда катнашиш;
- мавзу (топшириқ) буйича илмий техник маълумотларни йигиш, ишлов бериш, таҳлил этиш ва тизимлаштириш;
- тадқиқот натижалари ва ишланмаларни тадбиқ этишда қатнашиш.

Лойиҳавий-конструкторлик фаолиятида:

- бажарилаётган тажриба-конструкторлик ва амалий ишлар мавзуси буйича математик, информацион ва имитацион моделларни ишлаб чикиш ва тадқиқот қилиш;
- лойиҳавий ва дастурий хужжатларни ишлаб чиқиш;
- амалиётда ахборот технологияларининг халқоро ва касбий стандартларини, замонавий парадигма ва методологияларни, инструментал ва ҳисоблаш воситаларини тайёргарлик ихтисослигига мос равишда қўллаш.

Педагогик фаолиятида (умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида):

- умумий ўрта, ўрта махсус касб-ҳунар таълим тизимининг таълим муассасаларида тайёргарлик йуналишида назарда тутилган ўқув фанлари буйича иқтисодий фанлардан замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб назарий ҳамда амалий машғулотларни ўтказиш;
- ўқув жараёнини ташкил этиш ва ўтказилишига кўмаклашиш, тадқиқотларда иштирок этиш, маълумотларни тўплаш, умумлаштириш ва таҳлил этиш;
- ўқитилаётган фанлар буйича дарс машғулотларини ўтказиш учун зарур бўлган ўқув-методик хужжатларни шакллантириш, тузиш ва уларни тадбиқ этиш;
- мустақил таълим ва ижодий кидирув натижасида ўқитилаётган фан ҳамда педагогик фаолият соҳасидаги методлар, воситалар ва шакллар жабҳаларида ўз-ўзини такомиллаштириб бориш.

Ирригация тизимларида гидроэнергетика объектлари бакалавриат таълим йўналиши талабаларининг касбий компетенцияларига қуйидаги талаблар қўйилган:

1. Умумий компетенциялар:

давлат сиёсатининг долзарб масалаларини билиши, ижтимоий-иктисодий муаммолар ва жараёнларни мустакил таҳлил қила олиши;

хорижий тиллардан бирида касбий фаолиятига оид хужжатлар ва ишлар мохиятини тушуниши, табиий илмий фанлар буйича касбий фаолияти доирасида зарурий билимларга эга бўлиши хамда улардан замонавий илмий асосда касбий фаолиятида фойдалана олиши;

ахборот технологияларини касбий фаолиятида куллай билиши, ахборотларни йиғиш, сақлаш, кайта ишлаш ва улардан фойдаланиш усулларини эгаллаган бўлиши, касбий фаолиятида мустақил асосланган карорлар кабул кила олиши;

янги билимларни мустақил эгаллай билиши, ўз устида ишлаши ва меҳнат фаолиятини илмий асосда ташкил қила олиши;

соглом турмуш тарзи ва унга амал килиш зарурияти тўғрисида тассаввурга эга бўлиши.

2. Касбий компетенциялар:

- гидроэнергетик курилмалар ва станциялар соҳасидаги махсус адабиётлар, илмий техникавий маълумотлар, чет элда ва республикамизда эришилаётган фан ва техника соҳасидаги ютуқларни ўрганиш кўникмаларига эга бўлиши;

- гидроэнергетик курилмалари қисмлари, деталлари ва йиғма бирликларининг лойиҳасини тизимли ёндашув асосида автоматлаштирилган равишда ишлаб чиқиш кўникмаларига эга бўлиш;

- гидравлик машиналари ва жиҳозлари ҳамда уларнинг элементлари ишчи параметрлари ва ишчанлик қобилиятини аниқлаш буйича синовларни ўтказиш кўникмаларига эга бўлиш;

- гидроэнергетик курилмалари, жиҳозлари хамда уларнинг двигателларидан фойдаланиш, таъмирлаш ва уларга техник хизмат кўрсатишни ташкил этиш кўникмаларига эга бўлиши;

- ишлаб чиқариш фаолияти сифатини бошқариш жараёнларини ишлаб чиқиш ва тадбиқ қилиш кўникмаларига эга бўлиш;

- мухандислик ва конструкторлик ечимларини амалиётга тадбиқ қилишни билиши;

- ишлаб чикариш жараёнида сифатни бошқаришни билиши;

- бажарилаётган иш режасини тузиш ва бу ишни назорат қилиш, ишни бажариш учун зарур бўлган ресурсларни режалаштириш, ўз ишининг натижаларини баҳолаш кўникмаларига эга бўлиш;

- ишлаб чикариш жараёнларининг атроф-муҳитни ва меҳнат хавфсизлигини назорат қилиш тизими талабларига мослигини мониторинг қилиш кўникмаларига эга бўлиш [8].

Муҳандислик йўналиши талабаларини физика ўқитиш жараёнида касбий компетентлиги ривожлантиришда фанлараро интеграцион таълим беришни ўқув режага мувофиқ умумий ва касбий компетенцияларга қўйилган талабларни инобатга олган ҳолда амалга оширдик. Бунда фан блокларидан қуйидаги фанлар ажратиб олинди:

1-блок: физика, математика;

2-блок: элекротехника ва электроника асослари;

3-блок: гидроэлектростанциялар;

4-блок: гидроэнергетик қурилмалардан фойдаланиш.

Муҳандислик йўналиши талабаларини фанлараро интеграция аоссида физика ўқитиш жараёнида касбий компетентлигини ривожлантириш йўл харитасини ишлаб чиқамиз (1-жадвал).

Бундан мақсад, физикадан маъруза, амалий, лаборатория, мустақил таълим ва тўгарак машғулотларида ихтисослик фанлар билан интеграцион таълим бериш, шу билан бирга ихтисослик фанларига доир курс ишлари, малакавий амалиёт, битирув ишларини бажариш сифат даражасини ошириш назарда тутилади.

1-жадвал

Фанлараро интеграция асосида физика ўқитиш йўл харитаси

Мақсад	Фанлараро интеграция		Физика ўқитиш шакллари	Ривожлан-тириладиган компетенциялар	Таълим методлари	Натижа
Физика ўқитиш жараёнида талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш	Математика	ФИЗИКА	Маъруза	Моделлаштириш	Муаммоли таълим	КОМПЕТЕНТЛИ МУҲАНДИС
			Амалий	Лойиҳалаш	Кейс-стади	
	Электроника ва электротехника асослари		Лаборатория	Конструкциялаш	Интерфаол таълим технологиялари	
	Гидроэлектростанция		Мустақил таълим	Тадқиқотчилик	Интегратив таълим технологияси	
	Гидроэнергетик қурилмалардан фойдаланиш		Тўгарак	Педагогик	Лойиҳалаш ва тадқиқотчилик таълим методлари	

Ушбу фан мазмунини таҳлил қилгандан сўнг, асосий касбий компетентликни шакллантиришга ёрдам берувчи маҳсулотни қайта ишлаш сифатини текшириш операцияларини тўғри бажариш қобилиятини ривожлантириш; ўлчов асбоблари ўртасидаги фарқларни топиш, уларнинг мақсадларини аниқлаш каби таълимий вазифаларнинг формулалари аниқланди[4]. Муайян ўлчовларни амалга оширишда талабалар ўлчов воситаларини тўғри танлашлари керак. Берилган топшириқлар “Электроника ва электротехника” фанини ўрганишда ҳам аҳамиятлидир, чунки ҳозирги ўлчов воситалари конструкция ва ишлаш принципи жиҳатидан фарқ қилади. Ўлчовлар ва ҳисоб-китобларни амалга ошириш, олинган ўлчов натижаларини баҳолаш, шунингдек ўлчаш кўникмаларини ривожлантириш ҳар қандай муҳандислик фаолияти учун асос бўлиб хизмат қилади.

Биз томонимиздан ишлаб чиқилган методика фан асосларини ўқитиш ва амалий соҳада фундаментал билимларни қўллаш (касбий фаолият) ни бирлаштиришга имкон беради. Талабаларнинг ўқув-билув фаолиятини муваффақиятли амалга оширишнинг муҳим шарти унинг мураккаб тузилишидир. Биз педагогик технологияни уч босқичида амалга оширишни таклиф етдик: тайёргарлик, асосий ва якуний. Физика фанини фанлараро интеграцион ўқитишда техника ОТМ талабалари касбий фаолиятида касбий

компетентликни ривожлантиришда биз томонимиздан ишлаб чиқилган моделдан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.

ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН АДАБИЁТЛАР

1. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги 5450400 "Гидротехника иншоотлари ва насос станциялари"(бакалавр даражаси) тайёрлаш соҳасида олий таълим бўйича Давлат таълим стандарти ва малака талаблари.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. https://lex.uz/docs/5013007.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 мартдаги “Физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5032-сон Қарори https://lex.uz/docs/5338558
4. Амирова, Л.А., Багишаев З.А. Профессионально-педагогическая мобильность учителя как целевая установка высшего педагогического образования // AlmaMater (Вестник высшей школы). - 2004. - № 1. - С. 37 – 41.

ФИЗИКА ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МУҲАНДИСЛИК ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Бекназарова З.Ф.
ТИҚХММИ, МТУ доценти
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449258

Аннотация. *Физика ўқитиш жараёнида муҳандислик йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини шакллантириш модели, муҳандислик йўналиши талабаларига физика ўқитишда кейс-технологиясидан фойдаланиш методикаси, физикадан фанлараро интеграцион таълим бериш асосида муҳандислик йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини шакллантириш методикаси хусусида фикр юритилган.*

Калит сўзлар: *коммуникатив, компетенция, кластер, анкета.*

Аннотация. *Была написана о модели формирования профессиональной компетентности студентов инженерных вузов в процессе обучения физике, методике использования кейс-технологий в обучении студентов инженерных вузов физике, методике формирования профессиональной компетентности студентов инженерных вузов на основе международного интеграционного обучения физике.*

The abstract. *Was written about the model of forming the professional competence of engineering students in the process of teaching physics, the method of using case technologies in teaching physics to engineering students, and the method of forming the professional competence of engineering students based on international integration teaching of physics.*

Бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини шакллантиришда педагогик моделлаштириш усули энг оммабоп бўлиб, модель сўзи борлиқ, табиат, жамият ёки фанда содир бўладиган ҳодиса ёки объектни тасвирлаш учун яратилган образли кўриниш сифатида тасвирланади. Тадқиқот ишида таълим йўналишига нисбатан концептуал тизимли ёндашувлар, физика ўқитиш босқичларида, яъни маъруза, амалий, лаборатория, мустақил таълим ва тўгарак машғулотлари методологиясига алоҳида эътибор қаратилган [1-2]. Хусусан, Т.В.Волкованинг тадқиқот ишида моделлаштириш усули маълум бир педагогик жараённи бошидан охиригача тизимли ва мазмуний равишда ўрганишга имкон бериши, маълум компонентларининг узвийлигини ва ўзаро узлуксиз таъсирини, тизимнинг нафақат статик ва динамик ҳолатини, балки ўзгарувчан жараёнлар динамикасини ҳам ўрганиш мумкинлиги акс эттирилган. А.А.Остапенко эса олий таълим тизимини моделлаштириш жараёнида мақсадли, мазмунли, жараёнли, диагностик ва натижавий компонентларини ажратиб кўрсатади. Умуман олганда, бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини шакллантириш модели турлича бўлиши мумкин, шунинг учун педагогик моделлаштириш жараёни тадқиқотчига илмий мотивация берувчи маълум бир объектнинг муайян таркибий компонентларига қаратилади.

Тадқиқотимиз доирасида моделлаштириш объекти физика фанини ўқитишда бўлажак муҳандисларнинг касбий компетентлигини шакллантириш жараёни бўлиб, унинг концептуал методик компонентлари ҳамда физика ўқитиш жараёнида талабаларнинг касбий компетентлигини шакллантиришнинг дастлабки, асосий ва якуний босқичларида аниқланади. Ишлаб чиқилган модель мақсадли, мазмунли, жараёнли, диагностик ва натижавий таркибий блоклардан иборат бўлиб, бўлажак муҳандиснинг касбий

компетентлигини шакллантиришнинг асоси сифатида кўриб чиқиш имконини берадиган тизимли, методологик ва компетентли ёндашувларни қамраб олади. Методик моделнинг назария билан амалиётни боғлаш, билиш фаолияти ва ўқитиш мазмунини тизимлашда муаммоли ёндашув, ўқув жараёнини интенсивлаштириш, касбий фаолиятга тайёрлаш каби педагогик тамойилларга асосланди [2].. Бўлажак муҳандислар касбий фаолият компетентлигини физика таълими орқали шакллантиришнинг методик жиҳатлари, математик моделлаштириш методи орқали ечим топиладиган соҳага доир мажмуавий топшириқлардан физика машғулотларида ахборот берувчи, репродуктив, таянч, мураккабликни ошириш, ижодий каби фойдаланишнинг беш даражали алгоритмини динамик тарзда такомиллаштириб бориш жиҳатлари асосланди.

Физика ўқитиш жараёнида муҳандислик йўналиши талабаларини касбий компетентлигини шакллантириш модели 1-расмда келтирилган.

Моделнинг методик компоненти сифатида муҳандислик йўналиши талабаларига физика ўқитишда кейс-технологиялари тавсия этилди. Мақсад физикани ўқитишда амалий кўникмаларни ривожлантириш ва касбий компетентлигини шакллантириш масаласини ҳал қилишда педагогик технологиялардан фойдаланиш имкониятларини очишдан иборат. Н.А.Клешеванинг фикрига кўра: “... физика ўқитиш технологияси, асосан, физика фани ўқув жараёнини ташкил этишнинг сифати ва даражаси унинг илмий билимлар тизимидаги ва муҳандислик касбий фаолиятга тайёргарлиги билан белгиланади”. Физика ўқитиш технологияси ҳам мақсадга йўналтирилганлик; мазмун; илмий ғоялар; профессор-ўқитувчи ва талабаларнинг ҳаракатлар тизими; натижани баҳолаш мезонлари; диагностик натижаларини ўз ичига олади.

Шундай қилиб, физика ўқитиш жараёнида педагогнинг маълум бир услубий ёндашувига концептуал асосланиши, ўқитишда коммуникатив компетентликнинг технологик занжири аниқ ва мақсадга мувофиқ равишда қурилиши, шахсга йўналтирилган ва табақалаштирилган тамойилларини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчи ва талабаларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракатини, касбий фаолият компетентликни шаклланганлик даражасини баҳолаш мезонлари ва воситаларини ўз ичига олиши керак. Физикани ўқитиш жараёнида бўлажак муҳандисларда касбий компетентликни шакллантиришнинг ташкилий-функционал модели тўрт босқичли: йўналтириш, режалаштириш, бажариш, натижаларни назорат қилиш методикаси фаолиятни моделлаштиришнинг мустақил таълимга асосланган механизмининг дидактик таъсири продуктивлигини таъминлаш жиҳатлари ўрганилди. Мисол тариқасида касбий компетентликни шакллантиришга йўналтирилган физика ўқитиш технологияларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда қўлланиладиган кейс-технологияларини келтириб ўтиш мумкин.

Кейс-технологиясида аниқ ёки яширин физикавий муаммо билан касбий фаолиятда юзага келадиган муайян касбий вазиятни тавсифловчи муаммоли-вазиятли топшириқни ҳал қилишда мажмуавий ёндашувга асосланади ҳамда ўқитувчининг талабаларга воқеаларни тушунарли тилда баён қилиши, таълим жараёнининг муайян мақсадларига эришишга хизмат қиладиган педагогик восита сифатида фойдаланилади [2-4]..



1-расм. Физика ўқитиш жараёнида муҳандислик йўналиши талабаларини касбий компетентлигини шакллантириш модели.

Вазиятли топшириқлар танланишида аниқ касбга йўналтирилган тавсифли, аммо унинг ечими учун физикани билиш талаб қилинадиган, педагог-талаба кластеридаги тенг ҳуқуқли шериклар сифатида ҳаракат қилиш имконини берадиган, яъни талабаларда коммуникатив компетентликни шакллантиришга хизмат қиладиган тарзда танланади. Биз ишлаб чиққан кейс технологияси физиканинг айрим масалаларини эмас, балки умумий бўлимни ўрганишда қўлланилади. Кейс технологиясининг ўзи кейснинг турли бўлимларни ўз ичига олади: маъруза, амалий, лаборатория, мустақил таълим, тўгарак ва илмий тадқиқот. Кейс-технологиялари мажмуи таркиби физика + умумкасбий + ихтисослик фанларнинг ўзаро боғлиқлиги, фаолият методларининг шаклланганлиги, муаммоли вазиятларни ҳал қилиш қобилиятига эга касбий компетентликнинг шаклланганлиги билан белгиланади.

Физикадан фанлараро интеграцион таълим бериш асосида талабаларнинг касбий компетентлигини шакллантириш методикасидан кўзланган мақсад – уларни илмий тадқиқот, лойиҳавий конструкторлик касбий фаолият турларига тайёрлаш, фанлараро интеграцион таълим беришни ўқув режага мувофиқ умумий ва касбий компетенцияларга қўйилган малака талабларни инобатга олган ҳолда амалга оширишдир. Бунда биринчи, физика-математика; иккинчи, элекротехника ва электроника асослари; учунчи, гидроэлектростанциялар ҳамда тўртинчи, гидроэнергетик қурилмалардан фойдаланиш каби фан блокларига ажратиб олиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, физика ўқитиш жараёнида фанлараро интеграцион таълим беришда фанлараро горизонтал интеграция, фанлар мавзулараро вертикал интеграцияга келтириш маъруза, амалий ва мустақил таълим машғулотларида ихтисослик фанлар билан интеграцион таълим бериш, шу билан бирга ихтисослик фанларига доир курс ишлари, малакавий амалиёт, битирув ишларини бажариш сифат даражасини ошириш, яъни фанлар интеграцияси асосида физика ўқитиш жараёнида талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш йўл харитасини ишлаб чиқиш назарда тутилади (1-жадвал) [4-5]..

1-жадвал

Фанлараро интеграция асосида физика ўқитиш йўл харитаси

<table>
<tr><th>Мақсад</th><th colspan="2">Фанлараро интеграция</th><th>Физика ўқитиш шакллари</th><th>Ривожлан-тириладиган компетенциялар</th><th>Таълим методлари</th><th>Натижа</th></tr>
<tr><td rowspan="5">Физика ўқитиш жараёнида талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш</td><td>Математика</td><td rowspan="5">ФИЗИКА</td><td>Маъруза</td><td>Моделлаштириш</td><td>Муаммоли таълим</td><td rowspan="5">КОМПЕТЕНТЛИ МУҲАНДИС</td></tr>
<tr><td rowspan="2"></td><td>Амалий</td><td>Лойиҳалаш</td><td>Кейс-стади</td></tr>
<tr><td>Электроника ва электротехника асослари</td><td>Лаборатория</td><td>Конструкциялаш</td><td>Интерфаол таълим технологиялари</td></tr>
<tr><td>Гидроэлектростанция</td><td>Мустақил таълим</td><td>Тадқиқотчилик</td><td>Интегратив таълим технологияси</td></tr>
<tr><td>Гидроэнергетик қурилмалардан фойдаланиш</td><td>Тўгарак</td><td>Педагогик</td><td>Лойиҳалаш ва тадқиқотчилик таълим методлари</td></tr>
</table>

Физикадан амалий машғулотда талабалар қобилиятини ривожлантириш; физик ва муҳандислик ўлчов асбоблари ўртасидаги фарқларни топиш, уларнинг мақсадларини аниқлаш каби таълимий траекториялар аниқланди. “Электроника ва электротехника” фанини ўрганишда ўлчовлар ва ҳисоб-китобларни амалга ошириш, олинган ўлчов натижаларини баҳолаш, шунингдек, ўлчаш кўникмаларини ривожлантириш ҳар қандай муҳандислик фаолияти учун асос бўлиб хизмат қилади. Физика курсидан муаммоли вазиятни ҳал қилиш жараёни бир неча босқичларда олиб борилади.

Тайёргарлик босқичида ўқув йили бошида муаммоли вазият матни, адабиётлар ва “Электр” бўлимида ўрганиладиган мавзулар берилади. Масалан, кейс “Электр тармоқлари корхонаси операторига цилиндр шаклига эга бўлган ўтказгич қалинлигини ўлчаш ва ишга яроқлилигини баҳолаш” мазмунида берилиши мумкин. Кейс матнини ёзиш учун электрон кутубхоналар ва интернет манбаларидан ўқув ва илмий-техник маълумотлар тўпланади. Электр ўлчов воситаларининг ривожланиш тарихи ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олган манбалар танланади. Бу талабалар томонидан муаммоли вазиятни синчковлик билан таҳлил қилиш ва физика дарсида электр мавзусига доир берилган муаммони гуруҳда ҳал қилиш учун турли саволлар тузишга, семестр давомида электр қонунларини, моддий объектлар ва ҳодисаларни электрлаштириш, трансформаторлар, гидроэлектростациялар каби мавзуларни ўзлаштиришда ёрдам берди.

Асосий босқичда кейс-технологиялари мажмуини тўрт ахборотли-билиш, ҳисоблаш-моделлаштириш, тадқиқот, ижодий босқичда амалга оширилади ва касбий йўналтирилган муаммони ҳал қилиш учун алгоритмик тарзда ишлашга тўғри келади. Ҳар бир босқичнинг натижаси учта кўрсаткич бўйича тақдим этилади: 1) касбий фаолият мотивларининг шаклланганлиги; 2) касбий компетентликнинг шаклланганлиги; 3) физикадан муаммоли вазиятни ҳал қилишга ҳисса қўшиш.

Тадқиқот босқичида кейснинг тажриба топшириқлари гуруҳига техник ва намойиш воситаларининг иллюстратив кўргазмали тақдимотини ўз ичига олган ҳисоблаш топшириқлари, шартлари, тажриба маълумотларини аниқлаш, сифат ва миқдор жиҳатдан баҳолаш, шунингдек, олинган натижаларни таҳлил қилиш учун математик моделни қуришни ўз ичига олади. Шунингдек, физикадан лаборатория ишларини бажаришда электр схемаларини тузиш, улаш ва физикавий катталикларни ўлчаш, ҳисоблаш каби касбий фаолиятга мос бўлган компетенциялар ҳамда ҳар бир муаммони ҳал этиш кетма-кетлигини аниқлаб олиш, яъни тадқиқотчилик ва конструкциялаш компетентликлари ривожланишига омил бўлади.

Якуний босқичда талабаларнинг ижодий лойиҳа-конструкторлик фаолияти натижалари келтирилди ҳамда қуйидаги: педагогик ва техник адабиётларни таҳлил қилиш, топшириқни бажариш учун математик аппаратдан фойдаланиш, илмий тадқиқот фаолиятини ташкил этишни ўз ичига олган мустақил ишларни ташкил этиш, лойиҳалаш, ишлаб чиқариш ва созлаш, бошқарув ва тадқиқотчилик компетенцияларини, шу билан бирга, асосий касбий компетентлигини алгоритмик ривожлантиришга имкон беради каби хулосалар чиқарилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 мартдаги “Физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5032-сон Қарори https://lex.uz/docs/5338558

2. Бекнозарова З.Ф. Мухандислик йўналиши талабаларининг касбий компетентлигини шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т.:2022. 70 б.
3. Бекнозарова З.Ф. Физика ўқитувчисининг таълимга инновацион ёндашуви. Нам ДУ Илмий ахборотномаси.-2019.№12. -238-242 б.
4. Бекнозарова З.Ф., Тошмуродов Ё., Физика фанидан лаборатория ишларини бажариш бўйича//Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТИҚХММИ, 2019. – Б. 175.
5. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари /Қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 2004 й.

Интернет сайти

1. http://mahorat.uz - Pedagogik mahorat portali

К ВОПРОСУ СОХРАНЕНИЯ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Филиппов Ольгерд Александрович
НУВО «PROFI UNIVERSITY», Навои, Узбекистан, доктор философии по философским наукам (PhD), olgerdphilippow@gmail.com, (93) 181-31-57
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449266

Аннотация. *Данная статья предлагает концептуально-обзорный анализ того, как культурная идентичность сохраняется и одновременно переосмысляется в условиях глобализации и цифровой трансформации. Отталкиваясь от критики представления об идентичности как фиксированной сущности и перехода к процессуальным, дискурсивным и нарративным трактовкам, исследование показывает: цифровая среда не «отменяет» традиционные носители принадлежности (язык, ритуал, память), но перестраивает режим их функционирования. С опорой на теорию сетевого общества, исследования платформенного общества и платформизации, а также концепции «алгоритмической культуры» и анализа алгоритмов как медиаторов видимости обосновывается тезис, что ключевой вызов связан не только с фрагментацией идентичностей, но и с алгоритмически управляемой селекцией культурных кодов, их форматированием под требования циркуляции и метрик внимания.*

В качестве результата предлагается типология трех режимов культурной идентификации - наследуемого, артикуляционного и платформенно-медийного - которая может служить рамкой для дальнейших эмпирических исследований.

Ключевые слова: *культурная идентичность, цифровизация, глобализация, платформизация, цифровая память, культурная стандартизация.*

Все большая цифровизация общества привносить конфликт и в вопросы культурной идентичности. С одной стороны, мы видим ускорение обмена информацией, рост сетевых контактов и доступность культурных форм, которые еще недавно были локальными. С другой - ощущение размывания, «растворения» отличий и усталость от текучести символов, которые в цифровом пространстве сменяют друг друга быстрее, чем успевают стать общим опытом. Это состояние часто подают как простую дилемму: либо идентичность сохраняется, либо исчезает. Однако гуманитарная теория последних десятилетий позволяет поставить вопрос иначе: идентичность не столько «есть» или «нет», сколько постоянно производится и поддерживается в конкретных практиках различения и признания [1, 27]. В этом смысле задача сохранения культурной идентичности в цифровую эпоху - не про «консервацию» самобытности, а про способы, которыми сообщество делает себя узнаваемым и связным, удерживая границы «мы» на фоне множества пересекающихся принадлежностей.

Такой взгляд хорошо согласуется с тем, как развивалось понятие идентичности в гуманитарном знании: от образа устойчивой субстанции к пониманию идентичности как процесса, дискурсивной работы и нарратива, который нужно снова и снова воспроизводить [2, 128]. Когда идентичность мыслится как артикуляция, становится заметно: она не возникает из ничего и не конструируется произвольно, а опирается на исторически

сложившиеся символические ресурсы, институциональные формы памяти и культурные репертуары. Вместе с тем она уязвима - к социальным изменениям, к трансформации медиа-среды, к смене режимов видимости. Поэтому цифровизация важна не потому, что «создала» кризис идентичности, а потому, что резко изменила условия этой артикуляции: кто и как становится видимым, какие формы выражения оказываются предпочтительными, а какие вытесняются на периферию.

В перспективе сетевого общества цифровые сети выступают не просто инструментом коммуникации, а базовой инфраструктурой социальности. Но в последние годы все отчетливее видно, что речь идет не об абстрактной «сети», а о конкретных платформенных экосистемах с их коммерческой логикой, интерфейсными решениями, правилами модерации и встроенными механизмами рекомендаций [3, 131]. Эти экосистемы постепенно становятся посредниками культурных практик - от образования и новостей до повседневной самопрезентации. Идентичность все чаще оформляется через платформенные форматы: профиль, подписка, сторис, короткое видео, набор реакций, визуальные клише. В этом смысле культурная принадлежность начинает проживаться как медийно обусловленный опыт: мы узнаем себя и других в том, что платформа позволяет показать и что она делает видимым.

Отсюда возникает центральный теоретический конфликт цифровой эпохи - проблема алгоритмической селекции. Исследования алгоритмов в медиа подчеркивают: алгоритм - это не просто технический фильтр, а способ институционализации критериев релевантности, сортировки и приоритизации. Концепция «алгоритмической культуры» фиксирует, что культура потребления, вкуса и узнавания все чаще формируется в тесной связке с процедурами рекомендаций и ранжирования [4, 169]. Это не обязательно означает прямую цензуру, скорее, меняется сама структура публичности: одни формы культурного выражения легче «переводятся» в язык платформы и метрик вовлеченности, другие - требуют контекста, длительности, локального знания и потому хуже циркулируют. Эмпирические работы о новостной видимости и ленте показывают, что итоговая «картина мира» пользователя складывается как результат взаимодействия его выборов и алгоритмического распределения внимания. Для культурной идентичности это означает тонкий, но важный сдвиг: признание и принадлежность все сильнее зависят от режима видимости, а видимость - от правил платформы и алгоритмической логики.

Именно здесь становится понятнее, почему в цифровую эпоху так часто говорят о парадоксе: чем больше возможностей заявить о себе, тем острее ощущение стандартизации. Этот парадокс можно описать не как исчезновение различий, а как их форматирование. Культурный код может сохраняться, но в «упакованной» форме - пригодной для репоста, для короткого клипа, для узнаваемого шаблона. В пределе традиция начинает существовать как контент-реплика, а культурное различие - как знак, который должен быть быстро читаемым и конкурентоспособным в потоке [5, 301]. Здесь полезно вспомнить классическую критику технической воспроизводимости: при бесконечном копировании меняется статус уникальности и «присутствия» культурного объекта. В цифровой среде этот эффект усиливается не только масштабом тиражирования, но и скоростью циркуляции: культурные формы становятся элементами потока, где «время удержания» смысла сокращается. При этом нужно учитывать, что цифровая репрезентация не всегда разрушает традицию, она меняет условия ее переживания и признания.

Отдельного внимания заслуживает память, потому что именно память традиционно связывает культурную идентичность с длительностью. Исследования цифровой памяти

показывают двойственность происходящего. С одной стороны, цифровые технологии расширяют возможности архивирования, фиксации и документирования культурных практик. С другой - память становится более поточной и зависимой от медиальных форматов: она не просто хранится, но постоянно перераспределяется в лентах, подборках и «напоминаниях», где прошлое возвращается в заранее заданных формах [6, 118]. Классическая идея «мест памяти» подчеркивает, что коллективная идентичность нуждается в институциональных опорах, которые стабилизируют значения и создают точки собирания опыта. В цифровую эпоху эти опоры частично смещаются в сетевые и платформенные пространства: архив может быть доступнее, но его «работа» - зависимее от инфраструктуры и правил доступа. Следовательно, сохранение идентичности через память становится не только культурной, но и инфраструктурной задачей: важно не просто «иметь архив», но и удерживать контекст, авторство, связность и возможность осмысленного обращения к прошлому.

Глобализация добавляет к этой картине еще один слой амбивалентности. Теории культурной глобализации давно подчеркивают: глобальные потоки не означают простого растворения локального, но усиливают конкуренцию символов, норм и репертуаров, так возникает механизм взаимного «переведения» глобального и локального, когда локальные идентичности не исчезают, но перестраиваются, выбирая способы быть видимыми и различимыми в более широком культурном пространстве. На практике это часто выглядит как гибридность: локальные коды сохраняются, но комбинируются с глобальными форматами [7, 178]. Такая гибридность не обязательно является «потерей»; она может быть формой адаптации, способом удержать отличия, не уходя в изоляцию. В то же время именно гибридность делает идентичность менее «прозрачной» и более требовательной к рефлексии: нужно понимать, какие элементы переживаются как опорные, какие - как ситуативные, а какие навязаны логикой видимости.

В этом контексте логично рассматривать культурную идентичность как задачу, решаемую в разных аспектах. На уровне концептуального синтеза можно выделить три режима культурной идентификации. В наследуемом режиме идентичность поддерживается через язык, ритуал, институционализированную память и долговременные символические формы, связывающие поколения. В артикуляционном режиме идентичность существует как дискурсивная и нарративная работа сообщества: границы «мы-они» уточняются, символы переосмысляются, а принадлежность переживается как процесс признания и самоописания. Платформенно-медийный режим фиксирует специфически цифровое измерение: идентичность воспроизводится через сетевые публичности, правила форматирования и алгоритмическую селекцию видимости. Здесь принадлежность нередко требует регулярного «подтверждения» через реакции, вовлеченность и участие в потоках, где внимание становится дефицитным ресурсом. Эти режимы не существуют в чистом виде и часто наслаиваются, но аналитически позволяют увидеть: «сохранение» в цифровую эпоху происходит не там, где культура «застывает», а там, где она удерживает узнаваемость и глубину смысла при изменившихся условиях циркуляции.

Отсюда следуют выводы и ограничения -цифровизация и платформизация не отменяют базовых механизмов культурной идентичности, но переносят их в новую инфраструктурную реальность, где решающим становится вопрос видимости, формата и медиатора. Риск унификации проявляется, прежде всего, как форматирование культурных выражений и зависимость признания от алгоритмической селекции, а не как автоматическое исчезновение различий. Вместе с тем цифровая среда дает и ресурсы: она

расширяет доступ к памяти и создает новые публичности, в которых локальные коды получают шанс на обновление и распространение, если сообщество умеет работать с инфраструктурой и контекстом.

В итоге культурная идентичность в эпоху глобальной цифровизации предстает не как реликт прошлого и не как «победа» техники над традицией, а как поле напряженной работы: между длительностью и потоком, локальным контекстом и глобальной переводимостью, живым опытом и медиальным двойником, признанием сообщества и видимостью, распределяемой платформой. Сохранение здесь означает не возвращение к неподвижным «корням», а способность создавать устойчивые связи смысла в условиях ускорения -удерживать себя как «мы» не вопреки изменению, а внутри него.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Краснопольская И. И., Солодова Г. С. Социальное конструирование этничности // *Социологические исследования*. – 2013. – № 12. – С. 26–34. – URL: https://www.isras.ru/files/File/Socis/2013_12/Krasnopolskaya_Solodova.pdf (дата обращения: 2.02.2026).
2. Молодыченко Е. Н. Идентичность и дискурс: от социальной теории к практике лингвистического анализа // *Научно-технические ведомости СПбГПУ. Гуманитарные и общественные науки*. – 2017. – Т. 8. – № 3. – С. 122–133. – DOI: https://doi.org/10.18721/JHSS.8312 ; URL: https://human.spbstu.ru/userfiles/files/articles/2017/3/12_122_133.pdf (дата обращения: 1.02.2026).
3. Смирнов А. В. Цифровое общество: теоретическая модель и российская действительность // *Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены*. – 2021. – № 1. – С. 129–153. – DOI: 10.14515/monitoring.2021.1.1790. – URL: https://www.monitoringjournal.ru/index.php/monitoring/article/download/1790/1489/7790 (дата обращения: 1.02.2026).
4. Gillespie T. The Relevance of Algorithms // *Media Technologies: Essays on Communication, Materiality, and Society* / ed. by T. Gillespie, P. J. Boczkowski, K. A. Foot. – Cambridge, MA : MIT Press, 2014. – P. 167–193. – DOI: 10.7551/mitpress/9780262525374.003.0009.
5. Nissenbaum A., Shifman L. Meme Templates as Expressive Repertoires in a Globalizing World: A Cross-Linguistic Study // Journal of Computer-Mediated Communication. – 2018. – Vol. 23, Issue 5. – P. 294–310. – DOI: 10.1093/jcmc/zmy016. – URL: https://doi.org/10.1093/jcmc/zmy016 (дата обращения: 1.02.2026).
6. van Dijck J. *Mediated Memories in the Digital Age*. – Stanford, CA : Stanford University Press, 2007. – 256 p. – URL: https://www.sup.org/books/media-studies/mediated-memories-digital-age (дата обращения: 2.02.2026).
7. Малиновский А. С. Культурная глобализация (глокализация). Локальное и транснациональное // Вестник Томского государственного педагогического университета (Tomsk State Pedagogical University Bulletin). – 2013. – Вып. 1 (129). – С. 176–179. – URL: (дата обращения: 1.02.2026).

MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARDA ESHITISH VA NUTQNI RIVOJLANTIRISH

Ibragimova Lola Sayfitdinovna
Yangi asr unversiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449297

Annotatsiya. *Ushbu maqolada koxlear implantli bolalarda eshitish va nutq faoliyatini rivojlantirishda mobil ilovalarning ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar bolalarning fonematik eshituvini, lug‘at boyligini va og‘zaki nutqini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *koxlear implant, mobil ilova, nutq rivoji, eshitish qobiliyati, inklyuziv ta’lim, raqamli pedagogika.*

Abstract. *This article examines the importance of mobile applications in the development of hearing and speech activity in children with cochlear implants. The study analyzes the effectiveness of training sessions organized based on digital technologies. The results show that mobile applications are an effective tool for improving phonemic hearing, vocabulary, and oral speech skills in children.*

Keywords: *cochlear implant, mobile application, speech development, hearing ability, inclusive education, digital pedagogy.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение мобильных приложений в развитии слуховой и речевой деятельности у детей с кохлеарными имплантами. В ходе исследования анализируется эффективность занятий, организованных на основе цифровых технологий. Результаты показывают, что мобильные приложения являются эффективным средством развития фонематического слуха, словарного запаса и устной речи у детей.*

Ключевые слова: *кохлеарный имплант, мобильное приложение, развитие речи, слуховые способности, инклюзивное образование, цифровая педагогика.*

Kirish. Bugungi kunda inklyuziv ta’lim tizimida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Koxlear implant texnologiyasi ushbu bolalarga eshitish imkoniyatini berish bilan birga, nutqni rivojlantirish uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Zamonaviy mobil ilovalar ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, nogironligi bo‘lgan bolalarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash hamda ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalari faoliyati takomillashtirilmoqda, umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda hamda pedagog kadrlarning malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish, ularni reabilitatsiya qilish va koxlear implantatsiya amaliyotini keng joriy etish bo‘yicha tibbiy va pedagogik hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida esa ta’lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, mobil ilovalar, interaktiv platformalar va elektron resurslar keng joriy etilmoqda. Koxlear implantli bolalarda eshitish va

nutqni rivojlantirish jarayonini individuallashtirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda koxlear implantli bolalarda eshitish va nutqni rivojlantirish muammosi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ushbu jarayonda reabilitatsiya, ta’lim metodlari hamda raqamli texnologiyalarning o‘rni alohida e’tibor markazida turibdi. Ilmiy tadqiqotlarda (Clark, 2003; Nicholas, Geers, 2007) koxlear implantli bolalarda erta reabilitatsiya nutq rivojida muhim omil ekanligi ta’kidlangan. So‘nggi yillarda esa raqamli texnologiyalar, xususan mobil ilovalarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi keng o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar mobil vositalarning multimodal ta’siri orqali bolalarda eshitish va nutq faoliyatini faollashtirishini ko‘rsatadi [Mayer, 2009; Tomblin et al., 2015; Dettman et al., 2013; UNESCO, 2020].

Jumladan, Mayer (2009) o‘zining multimedia o‘rganish nazariyasida axborotni bir vaqtning o‘zida vizual va eshitish kanallari orqali qabul qilish o‘rganish samaradorligini oshirishini asoslab beradi. Bu esa mobil ilovalarning audio va vizual komponentlari koxlear implantli bolalar uchun ayniqsa samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Tomblin va boshqalar (2015) tadqiqotlarida koxlear implantli bolalarda nutq va til rivojlanishi implantatsiyadan keyingi ta’lim va mashg‘ulotlarga bevosita bog‘liqligi aniqlangan. Ya’ni, muntazam va tizimli mashqlar nutqning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Dettman va hammualliflar (2013) esa implantatsiyaning erta amalga oshirilishi bolalarning nutq va eshitish ko‘nikmalarini tezroq rivojlantirishini ta’kidlaydi. Bu esa reabilitatsiya jarayonini imkon qadar erta boshlash zarurligini ko‘rsatadi.

UNESCO (2020) hisobotida esa raqamli texnologiyalar, jumladan mobil ilovalar inklyuziv ta’limni rivojlantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilib, ular orqali individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish mumkinligi qayd etilgan.

Metodologiya. Tadqiqot davomida kuzatuv, tajriba-sinov, diagnostik testlar hamda suhbat va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot 6–10 yoshdagi koxlear implantli bolalar ishtirokida olib borilib, mashg‘ulotlar mobil ilovalar asosida tashkil etildi. Ushbu yondashuv orqali bolalarning eshitish va nutq rivoji o‘rganildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra: bolalarda fonematik eshituv sezilarli darajada yaxshilandi:

- lug‘at boyligi oshdi
- nutqning ravonligi va tushunarliligi rivojlandi
- mustaqil o‘rganish motivatsiyasi kuchaydi

Mobil ilovalar orqali o‘qitish an’anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligi aniqlandi.

Muhokama. Mobil ilovalarning interaktivligi, audio-vizual materiallarga boyligi va individual yondashuv imkoniyati koxlear implantli bolalar uchun juda qulay muhit yaratadi. Ayniqsa, o‘yin elementlari orqali ta’lim berish bolalarda qiziqish va faollikni oshiradi.

Mobil ilovalar orqali nutq va eshitishni rivojlantirish jarayoni



Ushbu rasmda mobil ilovalar yordamida koxlear implantli bolalarda eshitish va nutqni rivojlantirish jarayoni aks ettirilgan. Interaktiv mashqlar, audio-vizual materiallar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bolalarning faolligini oshirib, nutqiy ko‘nikmalarni samarali shakllantirishga xizmat qiladi.



Mobil ilovalarning asosiy didaktik imkoniyatlari diagrammada aks ettirilgan bo‘lib, unda interaktivlik, audio-vizual ta’minot, individual yondashuv va o‘yin elementlarining bolalar rivojiga ta’siri ko‘rsatilgan. Natijalarga ko‘ra, ayniqsa o‘yin elementlari va audio-vizual vositalar bolalarda yuqori darajadagi qiziqish va faollikni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Takliflar

- Koxlear implantli bolalar bilan ishlashda mobil ilovalardan muntazam va tizimli foydalanish yo‘lga qo‘yilishi lozim.
- Ta’lim jarayoniga joriy etilayotgan mobil ilovalar bolaning yosh xususiyati va individual rivojlanish darajasiga moslashtirilishi zarur.
- Pedagog va logopedlar uchun raqamli kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan maxsus treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.
- Koxlear implantli bolalar uchun milliy kontentga ega (o‘zbek tilidagi) mobil ilovalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa. Mobil ilovalar koxlear implantli bolalarda eshitish va nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ularni ta’lim jarayoniga keng joriy etish inklyuziv ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobil ilovalar yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish

imkoniyati kengayib, har bir bolaning ehtiyoji va rivojlanish darajasiga mos mashg‘ulotlar tashkil etish imkoniyati yaratildi. Bu esa koxlear implantli bolalarda nutqni shakllantirish jarayonini tezlashtirish va sifat jihatdan yaxshilashga olib keladi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni inklyuziv ta’lim tizimiga integratsiya qilish nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki bolalarning ijtimoiylashuvi, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishi va kommunikativ faolligining ortishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, mobil ilovalardan foydalanish koxlear implantli bolalar bilan ishlashda innovatsion va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish, yangi pedagogik modellarning ishlab chiqilishi hamda milliy raqamli ta’lim resurslarini yaratish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Clark, G. M. (2003). Cochlear Implants: Fundamentals and Applications. New York: Springer.
2. Nicholas, J. G., & Geers, A. E. (2007). Will they catch up? The role of age at implantation in the spoken language development of children with cochlear implants. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 50(4), 1048–1062.
3. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Tomblin, J. B., Harrison, M., Ambrose, S. E., Walker, E. A., Oleson, J. J., & Moeller, M. P. (2015). Language outcomes in young children with cochlear implants. Ear and Hearing, 36(Suppl 1), 76S–91S.
5. Dettman, S. J., Dowell, R. C., & Choo, D. (2013). Long-term communication outcomes for children receiving cochlear implants younger than 12 months. Otolaryngology–Head and Neck Surgery, 148(3), 393–400.
6. UNESCO. (2020). Inclusive Education and Digital Transformation. Paris: UNESCO Publishing.
7. Ertmer, D. J., & Goffman, L. (2011). Speech production accuracy in young cochlear implant recipients. Journal of Speech, Language, and Hearing Research, 54(1), 186–201.
8. Sharma, A., Dorman, M. F., & Spahr, A. J. (2002). A sensitive period for the development of the central auditory system in children with cochlear implants. Ear and Hearing, 23(6), 532–539.
9. Niparko, J. K., Tobey, E. A., Thal, D. J., Eisenberg, L. S., Wang, N. Y., Quittner, A. L., & Fink, N. E. (2010). Spoken language development in children following cochlear implantation. JAMA, 303(15), 1498–1506.
10. Flexer, C. (2016). Rethinking Sound Foundations for Listening, Learning and Literacy. San Diego: Plural Publishing.

TANQIDIY FIKRLASHNING ETIMOLOGIYASI VA KELIB CHIQISHI

Jalilov Nodirjon Azamatovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, Harbiy ta’lim fakulteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449313

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasining etimologik ildizlari, tarixiy shakllanish jarayoni hamda uning falsafiy-madaniy manbalari har tomonlama tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlashning qadimgi yunon falsafasidagi “kritikos” va “krinein” atamalari bilan bog‘liq ma’nolari, mustaqil fikrlash madaniyatining rivojlanishida Aristotel, Sokrat, Platon kabi mutafakkirlarning g‘oyalari bilan bog‘liq evolyutsiyasi yoritiladi. Shuningdek, O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrida ilmiy tafakkur shakllanishi, ma’rifatparvarlik davrida mantiqiy tahlil, dalillash va shubha fenomenining roli ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogikada tanqidiy fikrlashning kognitiv jarayon sifatidagi talqini, ta’lim jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, talabalar kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asosda ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, etimologiya, kelib chiqish, Sokrat, Aristotel, qadimgi yunon falsafasi, mantiqiy tahlil, shubha metodi, Uyg‘onish davri, ma’rifatparvarlik, kognitiv jarayon, pedagogika, tafakkur evolyutsiyasi, ilmiy fikrlash.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне анализируются этимологические корни понятия критического мышления, его историческое формирование, а также философско-культурные источники. Раскрываются значения терминов древнегреческой философии “kritikos” и “krinein”, эволюция идей Сократа, Аристотеля, Платона и их вклад в развитие культуры самостоятельного мышления. Кроме того, рассматриваются становление научного мышления в Средние века и эпоху Возрождения, а также роль логического анализа, аргументации и феномена сомнения в эпоху Просвещения. В современной педагогике критическое мышление рассматривается как когнитивный процесс; научно обосновано его значение в образовательном процессе и роль в развитии компетенций студентов.*

Ключевые слова: *критическое мышление, этимология, происхождение, Сократ, Аристотель, древнегреческая философия, логический анализ, метод сомнения, эпоха Возрождения, Просвещение, когнитивный процесс, педагогика, эволюция мышления, научное мышление.*

Annotation. *This article provides a comprehensive analysis of the etymological roots of the concept of critical thinking, its historical development, and its philosophical and cultural sources. The meanings of the terms “kritikos” and “krinein” in ancient Greek philosophy are explored, along with the evolution of the ideas of thinkers such as Aristotle, Socrates, and Plato in the development of the culture of independent thinking. Furthermore, the formation of scientific reasoning in the Middle Ages and the Renaissance is examined, as well as the role of logical analysis, argumentation, and the phenomenon of doubt during the Enlightenment. In modern pedagogy, critical thinking is interpreted as a cognitive process; its significance in the educational process and its role in developing students’ competencies are scientifically substantiated. The results of the study demonstrate that a deep understanding of the historical and etymological roots of critical thinking contributes to a more effective organization of its contemporary interpretation and practical application.*

Keywords: *critical thinking, etymology, origin, Socrates, Aristotle, ancient Greek philosophy, logical analysis, method of doubt, Renaissance, Enlightenment, cognitive process, pedagogy, evolution of thinking, scientific reasoning.*

Tanqidiy fikrlash bu – fikrlashning alohida turi bo‘lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi [1]. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta’riflarga ega, jumladan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish.

Tanqidiy fikrlash bu – o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘zini-o‘zi tarbiyalaydigan, o‘zini-o‘zi nazorat qiladigan va o‘zini o‘zi to‘g‘irlaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat’iy me’yorlariga rozi bo‘lish va ularni hushyorlik bilan qo‘llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallashni, shuningdek, tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o‘tishni talab qiladi [2,3].

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida grek. fikrlashning “tanqidiy” shakli sifatida yuritiladi.

Kritikos: “tanqid”, “baholash”, “imtihon” va boshqalar. ko‘p ma’noli so‘zdan kelib chiqqan; bu yerda „tanqid“ tushunchasi kundalik hayotda “ayblash” ma’nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma’nosini bildiradi va “baholash”, “aniqlash”, “hukm qilish”, “ajratish qobiliyati” kabi ma’nolarga ega [4].

Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya’ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o‘qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin; Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi, bu odamlarning bilimga bo‘lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko‘rsatdi va bunda Sokratik kinoya ham bor edi [5].

Palazzo Massimo alle Terme, Rimdagi Sokrat rahbari Tanqidiy fikrlash bilan bog‘liq eng qadimgi yozuvlar Platon tomonidan yozilgan Suqrot ta’limotini taqdim etgan dialoglardir. Ular Platonning birinchi dialoglari bo‘lib, Suqrot bir yoki bir nechta suhbatdoshlari bilan axloqiy masalalar, masalan, Suqrotning qamoqdan qochishi to‘g‘ri bo‘ladimi, degan mavzuda gaplashadi. Faylasuf bu masalani o‘ylab, mulohaza yuritadi va shunday xulosaga keladi: qochish uning ustida tutgan barcha narsalarni (qadriyatlarni) buzadi, masalan, Afina qonunlari va Suqrot tinglayman, degan ichki rahbar ovoz. Suqrot tanqidiy haqiqatni aniqlab berdiki, inson bilim va aqlga “hokimiyat” (obro‘) asosida bog‘liq bo‘lmaydi. U hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo‘lishi mumkinligini isbotladi.

O‘zining so‘rov uslubida Suqrot fikrning ravshanligi va mantiqiy izchillikni ta’kidladi.U odamlarga mantiqsiz fikrlashni fosh qilish yoki ishonchli bilim etishmasligini ko‘rsatish uchun savollar berdi. Suqrotning ta’kidlashicha, hokimiyatga ega bo‘lish hech qanday haqiqiy bilimni bera olmaydi. U taxminlarni sinchkovlik bilan tekshirib chiqdi va dalillar va asosli mulohazalarga asoslangan ishonchlilikka shubha qilish usulini yaratdi. Platon Sokrat ta’limotini yozib qoldirdi va tanqidiy fikrlash an’anasini davom ettirdi. Arastu va undan keyingi yunon skeptiklari Sokrat ta’limotini mukammallashtirib, tizimli tafakkur va savol-javob orqali voqelikning tashqi ko‘rinishini emas, balki asl mohiyatini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar [6].

Suqrot tanqidiy fikrlash an’anasi uchun kun tartibini belgilab beradi, ya’ni umumiy e’tiqod va taxminlarni aks ettirish va oqilona va mantiqiy e’tiqodlarni izchil dalillar yoki mantiqiy asosga ega bo‘lmagan e’tiqodlardan ajratish-ular bizning tabiiy egosentrizmimizga murojaat qiladimi yoki bizning manfaatimizga mos keladimi. Ular qanchalik mos bo‘lishidan qat’i nazar, qanchalik qulay va qulay bo‘lishidan qat’i nazar, ularni diqqat bilan ajratib ko‘rsatish kerak.

Tanqidiy fikrlash Richard V.Pol tomonidan ikki to‘lqinli harakat sifatida tasvirlangan (1994). Tanqidiy fikrlashning „birinchi to‘lqini“ ko‘pincha „tanqidiy tahlil“, tanqidni o‘z ichiga olgan sof, oqilona fikrlash deb ataladi.Uning tafsilotlari unga murojaat qilganlar orasida farq qiladi. Barri K.Beyer (1995) fikriga ko‘ra, tanqidiy fikrlash aniq, asosli hukm chiqarishni anglatadi.Tanqidiy fikrlash jarayonida g‘oyalar isbotlanishi, to‘liq ko‘rib chiqilishi va baholanishi kerak [7].

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo‘yicha AQSh Milliy kengashi [8]. tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta’riflaydi: kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish, mulohazalar yoki muloqot orqali to‘plangan yoki hosil qilingan ma’lumotlarni e’tiqod va harakatni (kontseptuallashtirish) boshqaradigan tushunchalarga faol va mohirona aylantirish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual, ilg‘or jarayoni sifatida aniqlanadi [9].

An’anaga ko‘ra, tanqidiy fikrlashning turli xil ta’riflari mavjud:

“Javob yoki xulosaga kelish uchun axborotni faol, mohirona shakllantirish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni” [10].

“Aniq, oqilona, ochiq fikrli va asosli intizomli fikrlash” [11].

“Maqsadli, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi xulosa, sharhlash, tahlil qilish, baholash va xulosa qilish, shuningdek, ushbu xulosaga asos bo‘lgan dalillar, kontseptual, uslubiy, mezon yoki kontekstual tushunchalarni tushuntirish” [12].

“E’tiqodimizni shakllantirishda aqldan foydalanish talab etiladi” [13].

Qiziqarli skeptitsizm san’ati va mahorati (McPeck, 1981) [14].

Tartibga solish va aniqlashtirish, samaradorlikni oshirish, fikrlashdagi xatolar va noto‘g‘rilikni tan olish kabi narsalar orqali o‘z fikrlash haqida o‘ylash. Tanqidiy fikrlash “qattiq fikrlash” emas va u muammolarni hal qilishga (o‘z tafakkurini “takomillashtirish” dan tashqari) yo‘naltirilmaydi. Tanqidiy fikrlash ichki yo‘naltirilgan bo‘lib, fikrlovchining ratsionalligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Inson tanqidiy fikrlash yordamida muammolarni hal qilmaydi, tanqidiy fikrlash yordamida o‘z fikrlash jarayonini yaxshilaydi [15].

“Ehtiyotkorlik bilan tahliliy aniqlashga asoslangan baholash” [16].

“Tanqidiy fikrlash – bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e’tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e’tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash odamni mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashga, narsalarga turli tomonlardan qarashga o‘rgatadi, shuning uchun ular ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin“ [17].

Tanqidiy fikrlashning yettita tanqidiy xususiyati mavjud: izlanuvchan va ishtiyoqli, har xillarga ochiq, tizimli fikrlashga qodir, analitik, haqiqatda qat’iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va keyin etuk [18].

Tanqidiy fikrlash bir necha yo‘llar bilan belgilanishi mumkin bo‘lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi – qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiy fikr mavjud, bunga oqilona fikrlash va natijaga asoslangan yondashuv orqali erishish kerak. Xelpernning so‘zlariga ko‘ra, tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o‘rganish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu fikrlash jarayonida ishtirok etish tendentsiyasini ham o‘z ichiga oladi. Stanovich so‘nggi yillarda zamonaviy IQ testlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘lchay olmayotganini aytdi [19].

Zamonaviy tanqidiy fikrlash olimlari ushbu an’anaviy ta’riflarni sifat, tushuncha va jarayonga kengaytirishga harakat qilishdi, jumladan ijodkorlik, tasavvur, izlanish, hayajon, empatiya, bilimlarni bog‘lash, feministik nazariya, sub’ektivlik, noaniqlik va behudalik. Tanqidiy fikrlashning ba’zi ta’riflari bu sub’ektiv tajribalarni istisno qiladi [11].

Ennisning fikriga ko‘ra, “tanqidiy fikrlash – bu e’tiqod va harakatni boshqaradigan kuzatish, tajriba, fikrlash, o‘rganish yoki assotsiatsiya orqali to‘plangan yoki hosil [20] ma’lumotlarni kontseptsiyalash, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish va / yoki baholashning intellektual va intizomli jarayoni [21].

“Tanqidiy fikrlashda mantiqdan tashqari” inshosida Kerri S.Uolters ushbu mafkurani quyidagicha ta’riflaydi: “Tanqidiy fikrlashning mantiqiy izlanishlari talabalarga quyidagilarni ma’lum qiladi: Fikrlash faqat norasmiy (va ozroq darajada rasmiy) tartiblarga mos kelgandagina qonuniydir va tanlangan fikrlovchi tahliliy, tekshirish va baholashda mavhum, universal va obyektiv.uslubga qaratilgan.Ushbu fikrlash modeli an’anaviy akademik donolikka shunchalik singib ketganki, ko‘plab o‘qituvchilar buni qonun sifatida qabul qilishadi.“ Bunday tamoyillar koinotning miqdoriy tushunchasiga tobora ko‘proq bog‘liqlik bilan paydo bo‘ldi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Edward M. Glaser. “Defining Critical Thinking”. The International Center for the Assessment of Higher Order Thinking (ICAT, US)/Critical Thinking Community. 2017-yil 22-mart.
2. Piaget's Stages of Cognitive Development“. 2019-yil 9-mayda asl nusxadan arxivlangan. 2018-yil 3-aprel.
3. It's a Fine Line Between Narcissism and Egocentrism. 2018-yil 3-aprel.
4. Brown, Lesley. (ed.) The New Shorter Oxford English Dictionary (1993) p. 551
5. Lexical Investigations: Critical Thinking - Everything After Z by Dictionary.com“. Everything After Z by Dictionary.com (2013-yil 25-iyun). 2018-yil 3-aprel.
6. A Brief History of the Idea of Critical Thinking. 2018-yil 14-mart.
7. Elkins, James R. “The Critical Thinking Movement: Alternating Currents in One Teacher's Thinking”. 2014-yil 23-mart.
8. Critical Thinking Index Page.
9. Defining Critical Thinking.
10. Critical – Define Critical at Dictionary.com. Dictionary.com. 2016-yil 24-fevral.
11. Facione, Peter A. Critical Thinking: What It is and Why It Counts (PDF). insightassessment.com (2011). 2012-yil 4-avgust.
12. Mulnix, J. W. (2010). “Thinking critically about critical thinking”. Educational Philosophy and Theory(5): 471. doi:10.1111/j.1469-5812.2010.00673.x.
13. Cite document. Critical Thinking: A Question of Aptitude and Attitude? 37573705, doi 10.5840 inquiryctnews 20102524
14. Carmichael, Kirby; letter to Olivetti, Laguna Salada Union School District, May 1997.
15. Critical analysis. TheFreeDictionary.com. 2016-yil 30-noyabr.
16. Book Reviews and Notes: Teaching Thinking Skills: Theory and Practice. Joan Baron and Robert Sternberg. 1987. W.H. Freeman, & Co., New York. 275 pages. Index. ISBN 0-7167-1791-3. Paperback”. Bulletin of Science, Technology & Society 8 (1): 101. February 1988. doi:10.1177/027046768800800113. ISSN 0270-4676.
17. Facione, Peter A.; Facione, Noreen C. (March 1993). “Profiling critical thinking dispositions”. Assessment Update 5 (2): 1–4. doi:10.1002/au.3650050202. ISSN 1041-6099.
18. Halpern, Diane F. (2006), “The Nature and Nurture of Critical Thinking”, in Sternberg, Robert J; Roediger Iii, Henry L; Halpern, Diane F (muh.), Critical Thinking in Psychology, Cambridge University Press, 1–14-bet, doi:10.1017/cbo9780511804632.002, ISBN 9780511804632

19. Ennis, Robert H. (2015), “Critical Thinking”, The Palgrave Handbook of Critical Thinking in Higher Education, Palgrave Macmillan, doi:10.1057/9781137378057.0005, ISBN 9781137378057
20. Ennis, Robert H. (2015), „Critical Thinking“, The Palgrave Handbook of Critical Thinking in Higher Education, Palgrave Macmillan, doi:10.1057/9781137378057.0005, ISBN 9781137378057
21. Kuhn, Deanna (January 2015). “Thinking Together and Alone”. Educational Researcher 44 (1): 46–53. doi:10.3102/0013189x15569530. ISSN 0013-189X.

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA FONETIK MASHQLAR BAJARISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI

Maxmudov Zafar
Tillar kafedrasi assistenti, Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
e-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com, ORCID: 0009-0002-9631-6116
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449331

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorijiy til sifatida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish jarayonida fonetik mashqlarning o‘rni, ularning talabalarning talaffuzi, tinglab tushunish ko‘nikmasi hamda kommunikativ kompetensiyasiga ta’siri ilmiy dalillar va amaliy misollar asosida yoritiladi. Tadqiqotlar natijalari va pedagogik tajribalar fonetik mashqlarning samaradorligini va o‘rganish uchun zaruratini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *fonetik mashqlar, talaffuz, intonatsiya, xorijiy til, kommunikativ kompetensiya, fonetik kompetensiya.*

Annotation. *In this article, the role of phonetic exercises in the process of teaching a foreign language, their influence on the pronunciation of students, listening comprehension skills and communicative competence are covered on the basis of scientific evidence and practical examples. The results of studies and pedagogical experiments confirm the effectiveness of phonetic exercises.*

Keywords: *phonetic exercises, pronunciation, intonation, foreign language, communicative competence, phonetic competence.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль фонетических упражнений в процессе обучения иностранному языку, их влияние на произношение, навыки понимания на слух и коммуникативную компетентность учащихся на основе научных данных и практических примеров. Результаты исследований и педагогических экспериментов подтверждают эффективность фонетических упражнений.*

Ключевые слова: *фонетические упражнения, произношение, интонация, иностранный язык, коммуникативная компетентность, фонетическая компетентность.*

Kirish. Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish jarayoni faqat grammatik qoidalar va lug‘at boyligini o‘zlashtirish bilangina cheklanmaydi. Tilni real muloqot vositasi sifatida qo‘llash uchun to‘g‘ri talaffuz, urg‘u va intonatsiyani to‘g‘ri qo‘llash kompetensiyalarini egallash muhim hisoblanadi. Lotin tilining fonetikasida mavjud bo‘lgan unli harflarning cho‘ziq va qisqa o‘qilish qoidalarining o‘ziga xos tomonlari o‘qituvchi va talabadan e’tiborliroq bo‘lishni talab etadi. Shu sababli fonetik mashqlar xorijiy tilni o‘qitish metodikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaffuzi sust rivojlangan talabalar og‘zaki muloqotda ko‘proq qiyinchiliklarga duch keladi va tinglab tushunish darajasi ham past bo‘ladi (Celce-Murcia, 2010). Shunday ekan, dars mashg‘ulotlarida fonetik mashqlarni bajarish zarurati dolzarbligicha qolaveradi.

Fonetik mashqlarning nazariy ahamiyati:

Fonetik mashqlar talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- Ona tili va xorijiy til tovushlarini farqlash;

- tovushlarni artikulyatsion jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilish;
- so‘z va gap urg‘usini to‘g‘ri qo‘llash;
- nutq ohangini (intonatsiya) moslashtirish;
- unli harflarning cho‘ziq va qisqa o‘qilish qoidalaridan amalda to‘g‘ri foydalanish.

Metodist olimlar fikriga ko‘ra, fonetik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u yetarli darajada rivojlanmasa, muloqot samaradorligi pasayadi.

Bu kabi muammolarning yechimi sifatida fan texnika yangiliklaridan foydalanishimiz, boshqa tillarni o‘rganishga mo‘ljallangan kontent, dastur va ilovalarni o‘rgatayotgan tilimiz –lotin tiliga moslashtirgan holda o‘zlashtirishimiz talab etiladi. Bugungi kunda bir qator dasturlar ham borki, ular talabalalarning nutqiy qobiliyatini oshirishga hizmat qiladi. Nutqni aniqlash dasturlari: Google Speech-to-Text va Microsoftning Azure Speech Services kabi dasturlari talabalarning talaffuzini tahlil qilib, darhol fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Bu vositalar talabalarga ona tili kabi lotin tilida so‘zlashuvchilarga taqlid qilish va ularning xatolarini real vaqtda tuzatish orqali to‘g‘ri talaffuzni mashq qilishga yordam beradi.

Shuni ham aytib o‘tish mumkinki, mavjud interaktiv ilovalar: Duolingo, Starfall va Fun English kabi ilovalar fonetik mashqlarni qiziqarli va yoqimli qilish uchun yaratilgan. Ushbu ilovalar talabalarni rag‘batlantirish uchun o‘yin usullaridan foydalanadi, qiziqishni saqlab qolish uchun mukofotlar va darajalarni o‘z ichiga oladi. Bu albatta o‘z samarasini berishi shubhasiz.

Yana shularni ham qo‘shimcha qilishimiz mumkun, bir qancha multimedia resurslari: videolar, animatsiyalar va audioyozuvlar kontekstdagi tovushlar va so‘zlarning turli misollarini taqdim etish orqali fonetik darslarni boyitishi ham mumkin.

YouTube va YouTube Kids kabi platformalar hamda ta’lim veb-saytlari o‘qituvchilarning fonetik tushunchalarni yorqin tasvirlash uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan ko‘plab resurslarni taklif qiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari Enhanced Engagement: Raqamli vositalar fonetikani o‘rganishni interaktiv va qiziqarli qiladi, bu esa yosh talabalarning qiziqishini uyg‘otadi va ularning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitish jarayonida shaxsiylashtirilgan ta’lim: Moslashuvchan ta'lim dasturlari kabi texnologiyalar har bir talabaning o‘z ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta’lim olishini ta’minlab, yoshlarning individual ishlashi asosida qiyinchilik darajasini moslashtiradi.

Hozir ko‘plab sohalarda qi’llash mumkin bo‘lgan nutqni aniqlash dasturi kabi vositalar talabalarga xatolarini tezda aniqlash va tuzatishga yordam beruvchi tezkor imkoniyatlar beradi.

Til o‘rganish jarayonida turli manbalardan foydalanishning ham o‘ziga xos qiziqarli tomonlari ham borki, multimedia resurslari talabalarni turli mavzu va yo‘nalishlarga qiziqishini ochib beradi, ularning turli kontekstlarda fonetika haqidagi tushunchalarini kengaytiradi.

Jahonning turli mamlakatlari bilan taqqoslaganda bizning mamlakatda ham barcha institut, texnikum, kollej va maktablarning ilg‘or texnologiyalardan teng foydalanish imkoniyati mavjud emas, bu esa til o‘rgatish va o‘rganishning ajralmas komponenti bo‘lgan fonetik ta’lim sifatida nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Keling, amaliy misollar va dallilar bilan fikrimizni davom ettirsak va quyida ularni tahlil qilib ko‘rsak.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishda ko‘p uchratish mumkin bo‘lgan amaliy misollar va dalillar:

1-misol: minimal juftliklar bilan ishlash.

Lotin tili va tibbiy terminologiyada cor – card, chylos – chole, phylia – phobia kabi so‘zlar talaffuzi o‘xshash, ammo ma’nosi turlicha.

Tajriba davomida 1-kurs Davolash ishi yo‘nalishi 102-guruh va 107-guruh talabalariga ushbu so‘zlar bilan ikki xil usulda dars o‘tilgan:

102-guruh – fonetik mashqlarsiz;

107-guruh – muntazam fonetik mashqlar (tinglash, takrorlash, taqlid qilish) bilan.

3 haftadan so‘ng o‘tkazilgan test natijalariga ko‘ra:

102-guruhda to‘g‘ri farqlash ko‘rsatkichi: 52%

107-guruhda: 81%ni tashkil etdi. Bu esa fonetik mashqlarning amaliy samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.

2-misol: tinglab tushunishga ta’sir.

Lotin tilini o‘rganayotgan talabalar bilan o‘tkazilgan tajribada fonetik tayyorgarlikdan o‘tgan guruh audio matnni o‘rtacha 22–31% tezroq va aniqroq tushungan. Sababi shundaki, ular tovush birikmalari va urg‘ularni oldindan mashq qilgan bo‘lishadi.

3-misol: psixologik to‘siqlarni kamaytirish.

I kursning dastlabki mashg‘ulotlariga qatnashayotgan talabalar ko‘pincha noto‘g‘ri talaffuzdan uyalib, gapirishdan qochishadi. Fonetik mashqlar (yodlangan lug‘atni ayti berish mashqlari, so‘zlarni kim ko‘p o‘qish musobaqalari, anatomik terminlarni o‘qituvchi bilan takrorlash mashqlari, so‘zlarni jamoaviy takrorlash mashqlari) muntazam o‘tkazilgan guruhlarda:

- ✓ talabalarning darsdagi faolligi oshdi;
- ✓ og‘zaki javob beruvchilar soni 2 barobarga ko‘paydi.

Bu holat fonetik mashqlarning nafaqat lingvistik, balki psixologik ahamiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Biz dars mashg‘ulotlari davomida o‘rgangan, ko‘p kuzatgan va amalda qo‘llab kelayotgan fonetik mashqlarni samarali tashkil etish usullari haqida fikr bildirmoqchimiz. Talabaning fonetik bilimlarini rivojlantirishda quyidagi metodlar ayniqsa samarali hisoblanadi:

- O‘qituvchi nutqiga taqlid qilish (imitatsiya).
- Audio yozuvlar bilan ishlash.
- Minimal juftliklar asosidagi mashqlar.
- Dialog va rolli o‘yinlar.
- Tez aytishlar va she’riy matnlar.

Mashqlar qisqa, muntazam va darsning barcha bosqichlarida qo‘llanilganda yuqori natija beradi. Lotin tili darslarida yuqoridagi metodlardan dastlabki to‘rtta metod tibbiy terminlarni o‘rganishda samarali hisoblanadi.

So‘zlarni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usullari kafedramiz o‘qituvchilari tomonidan hozirda kundan-kunga takomillashtirilib borilmoqda. Fonetik mashqlar bilan ishlash jarayonida asosan, quyidagi usullar amalda qo‘llanilmoqda:

I. Analiz mashqlari.

1. Nutq (gap)dan so‘zni ajratish; so‘zni aniq talaffuz qilish; bo‘g‘inlarga bo‘lish va bo‘g‘inlarni aniq talaffuz qilish, so‘zdan, bo‘g‘indan tovushni kuchli talaffuz qilib o‘qish, muayyan tovushni ajratgan holda so‘zni bo‘g‘inlab o‘qish: (aaaa-la, nooom, iiin, sssul-cus, majjjjjjj-or, deeeeeens).

2. Darsda o‘rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so‘zdan tovushni cho‘zib talaffuz qilish bilan ajratish: aaa-la, luuu-na, booo-nus;

b) undosh tovushni yopiq bo‘g‘indan ajratish: cosss-ta, ca-puttt, nazzz-us.

d) sirg‘aluvchi undoshni ochiq bo‘g‘indan ajratish: sssa-va, ma- jjjor, zzzy-go-ma;

e) bo‘g‘in hosil qilgan bir unlini ajratish: a-la, o-ris, a-xis;

f) o‘rganiladigan tovushni so‘z boshida kelgan so‘zlardan ajratish (so‘zni o‘qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa talaba aytadi): cella, cervix, fossa, ...

II. Sintez mashqlari.

1. Tovush tomonidan analiz qilingan so‘zni yoki bo‘g‘inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so‘z yoki bo‘g‘inni o‘qish.

2. O‘rganilgan undosh yoki unli bilan (na, ni, no; la, li, lo; ay, uy, oy …) bo‘g‘in jadvalini tuzish; bo‘g‘in jadvalini kitobdan yoki matndan o‘qish; kesma harflardan bo‘g‘in jadvalini tuzish.

3. So‘zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish.

4. So‘z o‘rtasiga harf qo‘shib, yangi so‘z hosil qilib o‘qish.

5. Bo‘g‘inlarni almashtirib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish.

6. Tovushlarning o‘rnini almashtirib yangi so‘zni hosil qilish va o‘qish.

7. Tovushni yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirib, yangi so‘z hosil qilish va o‘qish.

8. Bo‘g‘in qo‘shib yangi so‘z hosil qilish va o‘qish.

Sintetik ishlarning bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo‘shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo‘lib, darsda yarim o‘yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi.

Xulosa. Fonetik mashqlar lotin tili va tibbiy terminologiyani o‘rgatishda nazariy va amaliy jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Ilmiy tadqiqotlar va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki:

birinchidan, talaffuz sifati yaxshilanadi;

ikkinchidan, tinglab tushunish darajasi oshadi;

uchinchidan, og‘zaki nutq ravonlashadi;

to‘rtinchidan, talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi kuchayadi.

Shu sababli fonetik mashqlarni lotin tili darslarining ajralmas qismi sifatida tizimli va rejalashtirilgan holda tashkil etish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa bo‘lg‘usi shifokorlarning o‘z kasbiy terminlarini to‘g‘ri, aniq, ifodali tallaffuz qilishlariga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Goodwin, J. M. (2010). Teaching Pronunciation: A Course Book and Reference Guide. Cambridge University Press.
2. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Longman, London.
3. Kelly, G. (2000). How to Teach Pronunciation. Pearson Education Limited, London.
4. Underhill, A. (2005). Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation. Macmillan Education.
5. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2005). Second Language Accent and Pronunciation Teaching: A Research-Based Approach. TESOL Quarterly, 39(3).
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. Jalolov, J. J. (2012). Chet tillarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
7. Hoshimov, O‘., Yoqubov, I. (2010). Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. Toshkent.
8. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
9. Fraser, H. (2001). Teaching Pronunciation: A Handbook for Teachers and Trainers. Sydney.
10. Maxmudov Zafar Mardanovich, & Normurodova Sohiba Mallaevna (2023). LOTIN TILINING ZAMONAVIY TILLARGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA’SIRI. Research Focus, 2 (6), 132-136. doi: 10.5281/zenodo.8034739

11. Maxmudov, Z. M. (2022). Teaching correct pronunciation of latin as an international language of medicine in medical education institutions, Global Technovation 5th International Multidisciplinary Scientific Conference Hosted From Paris, France. *March 30th*, 30-31.
12. Mardanovich, M. Z., Salimoviche, S. B., & Arzimurodoviche, B. D. (2021). Reviews of effective use of educational methods in teaching latin and medical terminology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(4), 381-386.
13. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. *Journal of Universal Science Research*, *2*(1), 425-435.
14. Makhmudov Zafar, IMPROVING TO TEACH MEDICAL TERMINOLOGY, Vol. 3 No. 1 (2025): London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI), https://worldsiencepub.com/index.php/lmc/article/view/1110
15. Sharipov, B., Makhmudov, Z., & Buriyev, D. (2023). The role of teaching latin in the course of subject training of future foreign language teachers. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 11-14.
16. Maxmudov, Z., Sharipov, B., & Bo‘riyev, D. (2023). Tibbiyot universitetlarida lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and innovation in the education system*, *2*(1), 5-10.
17. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO‘G‘RI QO‘LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(3 Part 3), 23-27.
18. Sharipov, B., Makhmudov, Z., & Buriyev, D. (2023). Features of teaching latin to students medical universities studying in english. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *2*(1), 21-25.

RAQAMLI AVLOD (Z VA ALFA AVLODLARI) VAKILLARIDA MA'NAVIY INTELLEKT NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirxoliqova Charos Xabibullaevna
Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti dotsenti Phd
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449340

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli avlod – Z avlodi (1997–2012) va Alfa avlodi (2013–hozirgi kungacha) vakillarida ma'naviy intellektning namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Raqamli muhit sharoitida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, ma'naviy intellekt tarkibiy komponentlarining transformatsiyasi hamda raqamli texnologiyalarning ma'naviy ong shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda Z va Alfa avlodlari ma'naviy intellektining o'ziga xos jihatlari, ularning an'anaviy avlodlardan farqlari va raqamli kontekstda ma'naviy qiymatlarning yangicha namoyon bo'lish shakllari aniqlangan. Natijalar raqamli avlodda ma'naviy intellektni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy intellekt, raqamli avlod, Z avlodi, Alfa avlodi, raqamli jamiyat, ma'naviy rivojlanish, raqamli muhit, shaxs psixologiyasi, ma'naviy qadriyatlar, transformatsiya.*

Аннотация. *В данной статье исследованы особенности проявления духовного интеллекта у представителей цифрового поколения – поколения Z (1997–2012) и поколения Альфа (2013–настоящее время). Проанализировано духовно-нравственное развитие личности в условиях цифровой среды, трансформация структурных компонентов духовного интеллекта и влияние цифровых технологий на формирование духовного сознания. Выявлены специфические особенности духовного интеллекта поколений Z и Альфа, их отличия от традиционных поколений и новые формы проявления духовных ценностей в цифровом контексте.*

Ключевые слова: *духовный интеллект, цифровое поколение, поколение Z, поколение Альфа, цифровое общество, духовное развитие, цифровая среда, психология личности, духовные ценности, трансформация.*

Abstract. *This article examines the specific features of spiritual intelligence manifestation in representatives of the digital generation – Generation Z (1997–2012) and Generation Alpha (2013–present). The spiritual and moral development of personality in the digital environment, transformation of structural components of spiritual intelligence, and the influence of digital technologies on the formation of spiritual consciousness are analyzed. The study identifies distinctive characteristics of spiritual intelligence in Generations Z and Alpha, their differences from traditional generations, and new forms of spiritual values manifestation in the digital context.*

Keywords: *spiritual intelligence, digital generation, Generation Z, Generation Alpha, digital society, spiritual development, digital environment, personality psychology, spiritual values, transformation.*

KIRISH

XXI asr – raqamli texnologiyalar insoniyat hayotining barcha jabhalarini tubdan o'zgartirgan davr. Bugungi kunda dunyoda 5 milliarddan ortiq inson internet foydalanuvchisi bo'lib, ularning sezilarli qismi Z avlodi (1997–2012 yillarda tug'ilganlar) va Alfa avlodi (2013-

yildan keyin tug‘ilganlar) vakillaridir. Ushbu avlodlar “raqamli tug‘ma” (digital natives) deb nomlanadi, chunki ular hayotining dastlabki kunlaridan boshlab raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib kelmoqda.

Ma’naviy intellekt (spiritual intelligence – SI/SQ) tushunchasi XX asr oxiri – XXI asr boshlarida R. Emmons (2000), D. Zohar va I. Marshall (2000), F. Vaughan (2002) kabi olimlar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u shaxsning hayot ma’nosini anglash, o‘zini-o‘zi transtsendentallashtirish, axloqiy fikrlash va ichki uyg‘unlik darajasini aks ettiruvchi intellektual qobiliyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ma’naviy intellekt – bu shaxsning eng yuksak intellektual salohiyati sifatida e’tirof etilmoqda.

Biroq, raqamli muhitda o‘sib-ulg‘aygan avlodlarda ma’naviy intellektning shakllanishi va namoyon bo‘lishi an’anaviy avlodlarnikidan tubdan farq qiladi. Raqamli texnologiyalar shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, ma’lumotlarga keng kirish imkoniyatlari va madaniyatlararo muloqot ma’naviy ufqni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, yuzaki ma’lumot iste’moli, virtual muloqotning ustunligi va “filtr pufakchasi” (filter bubble) hodisasi chuqur ma’naviy tafakkur shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O‘zbekiston aholisining 60 foizdan ortig‘i 30 yoshdan yosh bo‘lib, raqamli avlod vakillarining ma’naviy-intellektual rivojlanishi mamlakatning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu bois, raqamli avlodning ma’naviy intellekti qanday xususiyatlar kasb etayotganini ilmiy asosda o‘rganish muhim amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Z va Alfa avlodlari vakillarida ma’naviy intellektning namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ularning raqamli muhit bilan bog‘liq transformatsion jarayonlarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’naviy intellekt nazariyasi bir qancha ilmiy yondashuvlar asosida rivojlanib kelmoqda. R. Emmons (2000) ma’naviy intellektni beshta asosiy qobiliyat – transtsendentlilik qobiliyati, yuksak ong holatiga kirish, kundalik faoliyatni muqaddas ma’no bilan boyitish, ma’naviy resurslardan muammolarni hal qilishda foydalanish va yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lish – orqali ta’riflagan. D. Zohar va I. Marshall (2000) esa ma’naviy intellektni “piramidaning cho‘qqisi” deb atab, uni IQ va EQ dan yuqori turuvchi intellekt turi sifatida baholagan.

K. King (2008) o‘zining “Ma’naviy intellektning o‘z-o‘zini baholash modeli” (SISRI-24) da ma’naviy intellektning to‘rtta tarkibiy komponentini ajratib ko‘rsatgan: tanqidiy ekzistentsial tafakkur (critical existential thinking), shaxsiy ma’no yaratish (personal meaning production), transtsendentallik anglash (transcendental awareness) va ong holatini kengaytirish (conscious state expansion). Ushbu model raqamli avlod kontekstida ma’naviy intellektni o‘rganish uchun metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Avlodlar nazariyasi (Strauss va Howe, 1991; Mannheim, 1952) nuqtai nazaridan, har bir avlod o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanadi va bu ularning qadriyatlari, dunyoqarashi hamda xulq-atvor modellarini belgilaydi. M. Prensky (2001) “raqamli tug‘malar” va “raqamli muhojirlar” tushunchalarini kiritib, raqamli muhitda o‘sgan avlodning kognitiv va ijtimoiy xususiyatlari tubdan farq qilishini asoslagan.

Z avlodi xususiyatlari bo‘yicha J. Twenge (2017) ning “iGen” tadqiqotida ushbu avlod vakillarining ruhiy salomatlik, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Z avlodi vakillari oldingi avlodlarga nisbatan

ko‘proq individual yo‘nalganlik, vizual kontentga moyillik, multitasking qobiliyati va shu bilan birga, yuzaki diqqat, ijtimoiy izolatsiya xavfi kabi xususiyatlarni namoyon qiladi.

Alfa avlodi bo‘yicha tadqiqotlar hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, M. McCrindle va A. Wolfinger (2010, 2021) ning ishlari bu avlodning asosiy xususiyatlari – to‘liq raqamli integratsiya, sun’iy intellekt bilan birga o‘sish, global muammolarga erta onglilik – haqida dastlabki ilmiy tasavvurlarni shakllantirgan. Alfa avlodida texnologik determinizm alomatlari kuchli namoyon bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekistonlik olimlardan E.G‘oziyev, V.M.Karimova, N.S.Safoyev, G.B.Shoumarov kabi psixologlar ma’naviy-axloqiy rivojlanish va yoshlar psixologiyasi bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi sharq mutafakkirlarining ma’naviyat haqidagi ta’limotlari bugungi kun tadqiqotlari uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontentanaliz metodlaridan foydalanilgan. Ma’naviy intellektning tarkibiy komponentlarini tahlil qilishda K. King (2008) ning SISRI-24 modeli asos qilib olingan. Avlodlar xususiyatlarini tahlil qilishda Strauss-Howe avlodlar nazariyasi va M. Prensky ning raqamli avlod konsepsiyasi qo‘llanilgan. Raqamli muhitning ma’naviy rivojlanishga ta’sirini o‘rganishda ekologik tizimlar nazariyasi (Bronfenbrenner, 1979) va media ekologiyasi nazariyasi (Postman, 1985) metodologik ramka sifatida xizmat qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Z va Alfa avlodlarida ma’naviy intellektning tarkibiy komponentlari transformatsiyasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli avlod vakillarida ma’naviy intellektning barcha to‘rtta tarkibiy komponenti an’anaviy avlodlarnikidan sezilarli darajada farqlanadi. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar tizimli tarzda aks ettirilgan:

1-jadval

Raqamli avlod va an’anaviy avlodlarda ma’naviy intellekt komponentlarining qiyosiy tahlili

SI komponenti	An’anaviy avlodlar	Z avlodi	Alfa avlodi
Tanqidiy ekzistentsial tafakkur	Diniy va falsafiy an’analar orqali	Internet-forumlar, podkastlar, YouTube orqali ekzistentsial savollarga javob izlash	AI va raqamli assistentlar yordamida hayot ma’nosini anglash
Shaxsiy ma’no yaratish	Jamoa, oila, milliy qadriyatlar orqali	Ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, shaxsiy brend orqali identifikatsiya	Metavers, avatar identitetlari, raqamli o‘z-o‘zini ifodalash
Transtsendentallik anglash	Ibodat, meditatsiya, tabiat bilan aloqa	Mindfulness ilovalari, virtual meditatsiya, onlayn ruhiy jamoalar	VR meditatsiya, AI-guided ruhiy amaliyotlar, texno-spirituallik
Ong holatini kengaytirish	Kitob o‘qish, mushohada, ustoz-shogird tizimi	TED Talks, onlayn kurslar, raqamli kitob va podkastlar	Immersiv o‘quv muhitlari, neyrotexnologiyalar, interaktiv ta’lim

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ma’naviy intellektning mohiyati saqlanib qolgan holda, uning namoyon bo‘lish shakllari va vositalari har bir avlodda tubdan o‘zgargan. Z avlodi ma’naviy intellektini raqamli platformalar orqali shakllantiradi, Alfa avlodida esa bu jarayon yanada chuqurroq texnologik integratsiya shaklini olmoqda.

2. Z avlodida ma’naviy intellektning o‘ziga xos xususiyatlari.

Z avlodi vakillarida ma’naviy intellektning namoyon bo‘lishi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Eklektik ma’naviyat (Eclectic Spirituality). Z avlodi vakillari bitta diniy yoki falsafiy an’anaga sodiq qolish o‘rniga, turli madaniyatlar va ta’limotlardan o‘zlariga mos elementlarni tanlab, shaxsiy ma’naviy tizim yaratishga moyil. Tadqiqotlar (Pew Research Center, 2020) ko‘rsatishicha, Z avlodining 33 foizi o‘zini “din bilan bog‘lanmagan” (religiously unaffiliated) deb hisoblasa-da, ularning 61 foizi ma’naviy qadriyatlarni hayotlarida muhim deb e’tirof etadi.

Raqamli empati va global onglilik. Ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning turli burchaklaridagi insoniy azoblar, ijtimoiy adolatsizliklar va ekologik muammolar haqida xabardor bo‘lish Z avlodida kuchli global empati hissini shakllantirgan. Biroq, bu “raqamli empati” ko‘pincha yuzaki xarakterga ega bo‘lib, “slacktivizm” (ijtimoiy tarmoqlarda passiv faollik) shakliga o‘tib ketishi mumkin.

Eko-ma’naviyat (Eco-Spirituality). Z avlodi uchun tabiatni muhofaza qilish nafaqat ekologik, balki ma’naviy majburiyat sifatida ham anglashiladi. Iqlim o‘zgarishi muammosi ushbu avlodning ekzistentsial tashvishlari tarkibiga chuqur kirib borgan bo‘lib, bu ularning ma’naviy tafakkurining yangicha yo‘nalishini belgilaydi.

Autentiklik qadriyati. Z avlodi uchun “haqiqiy o‘zini bo‘lish” (authenticity) eng muhim ma’naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Ular ijtimoiy normalar va tashqi kutishlarga qarshi o‘zliklarini erkin ifodalashni ma’naviy erkining ko‘rinishi deb qabul qiladi.

3. Alfa avlodida ma’naviy intellektning shakllanish tendensiyalari.

Alfa avlodi hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, ularning ma’naviy intellekti shakllanishida quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

AI-bilan hamkorlikdagi ma’naviy fikrlash. Alfa avlodi sun’iy intellekt tizimlari bilan muloqot qilish orqali ekzistentsial savollarga javob izlashga moyil. Bu “texno-falsafa” yoki “raqamli hikmat” deb atalishi mumkin bo‘lgan yangi hodisa ma’naviy intellektning an’anaviy shakllanish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin.

Immersiv ma’naviy tajriba. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari Alfa avlodiga “ma’naviy tajribalar” ni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, VR orqali boshqa mamlakatdagi insonning hayotini “yashash” yoki tarixiy voqealarni “boshdan kechirish” ma’naviy empati va tushunishni yangicha darajada rivojlantirishi mumkin.

Raqamli identitet va ma’naviy “o‘z”. Alfa avlodida real va virtual “o‘z” orasidagi chegara tobora xiralashib bormoqda. Bu shaxsning ma’naviy identitetiga yangicha o‘lcham qo‘shadi – raqamli muhitda ham axloqiy normalarga rioya qilish, virtual munosabatlarda ham ma’naviy mas’uliyatni his qilish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

4. Raqamli avlodda ma’naviy intellekt shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari.

Raqamli avlodda ma’naviy intellekt shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimli tahlil qilinganda, quyidagi determinantlar aniqlanadi:

2-jadval

Raqamli avlodda ma’naviy intellekt shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari

Determinant	Ijobiy ta’siri	Salbiy ta’siri
Ijtimoiy tarmoqlar	Global empati, madaniyatlararo anglash, qadriyatlar pliuralizmi	Yuzaki munosabatlar, solishtirish madaniyati, FOMO sindromi
Sun’iy intellekt	Ma’lumotlarga keng kirish, yangi bilim olish imkoniyatlari	Tanqidiy fikrlash pasayishi, tayyor javoblarga ishonch
Oila muhiti	Raqamli savodxonlik, ochiq muloqot, qo‘llab-quvvatlash	Ota-onalarning raqamli muhitdan uzilishi, avlodlararo uzilib qolish
Ta’lim tizimi	Interaktiv ta’lim, global ta’lim resurslari, o‘z-o‘zini rivojlantirish	Ma’naviy tarbiya dasturlarining eskirishi, raqamli bo‘shliq
Media kontenti	Ilhomlanish manbalari, ijobiy namunalar, ma’rifiy kontentlar	Salbiy kontent ta’siri, ma’naviy normalarning relyativlashuvi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli avlodda ma’naviy intellekt shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayondir. An’anaviy avlodlardan farqli o‘laroq, Z va Alfa avlodlarida ma’naviy intellektning shakllanishi asosan raqamli muhit determinantlari ta’sirida kechadi. Bu esa ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimlarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

5. O‘zbekiston kontekstida ma’naviy intellektni rivojlantirish istiqbollari.

O‘zbekiston sharoitida raqamli avlodning ma’naviy intellektini rivojlantirishda quyidagi o‘ziga xos jihatlar mavjud. Birinchidan, O‘zbekistonning boy ma’naviy merosi – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ta’limotlari raqamli avlod uchun ma’naviy intellektni rivojlantirishning noyob manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Al-Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida bayon etilgan komil inson g‘oyasi zamonaviy ma’naviy intellekt nazariyalari bilan uyg‘unlikda turadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistondagi mahalla instituti va oilaviy qadriyatlar tizimi raqamli avlod uchun ma’naviy intellektni rivojlantirishning ijtimoiy infratuzilmasi sifatida katta ahamiyatga ega. Biroq, ushbu an’anaviy institutlarning raqamli muhitga moslashtirilishi zarur.

Uchinchidan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida ma’naviy intellektni rivojlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish, raqamli ma’naviy ta’lim kontentlarini yaratish va raqamli wellbeing (raqamli farovonlik) dasturlarini ishlab chiqish muhim amaliy vazifa hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, Z va Alfa avlodlarida ma’naviy intellekt an’anaviy avlodlarnikiga qaraganda yangicha shakllarda namoyon bo‘ladi: eklektik ma’naviyat, raqamli empati, eko-ma’naviyat va texno-spirituallik kabi hodisalar raqamli avlodga xos ma’naviy intellekt namoyon bo‘lish shakllaridir.

Ikkinchidan, ma’naviy intellektning to‘rtta tarkibiy komponenti – tanqidiy ekzistentsial tafakkur, shaxsiy ma’no yaratish, transtsendentallik anglash va ong holatini kengaytirish – raqamli avlodda tubdan transformatsiyaga uchragan bo‘lib, ularning mazmuni va namoyon bo‘lish mexanizmlari o‘zgargan.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar ma’naviy intellekt shakllanishiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, ma’lumotlarga keng kirish va madaniyatlararo muloqot ma’naviy ufqni kengaytirsa, ikkinchi tomondan, yuzaki iste’mol madaniyati va virtual muloqotning ustunligi chuqur ma’naviy tafakkurga to‘sqinlik qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston sharoitida raqamli avlodning ma’naviy intellektini rivojlantirish uchun milliy ma’naviy merosni zamonaviy raqamli formatlar orqali etkazish, ta’lim tizimida ma’naviy intellektni rivojlantirish dasturlarini joriy etish va oila hamda mahalla institutlarining raqamli muhitga moslashtirilishi zarur.

Amaliy tavsiyalar: Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan: 1) Ta’lim tizimida raqamli ma’naviy savodxonlik (Digital Spiritual Literacy) dasturlarini joriy etish; 2) Milliy ma’naviy merosni raqamli formatlar (podkastlar, interaktiv platformalar, VR tajribalar) orqali yoshlarga etkazish; 3) Oilalarda “raqamli ma’naviy tarbiya” ko‘nikmalarini shakllantirish; 4) Raqamli wellbeing dasturlarini ma’naviy intellekt rivojlantirish bilan integratsiya qilish; 5) Ma’naviy intellekt darajasini baholashning milliy standartlarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Al-Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “Fan”, 1993. – 224 b.
2. Bronfenbrenner, U. The ecology of human development: Experiments by nature and design. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
3. Emmons, R.A. Is spirituality an intelligence? Motivation, cognition, and the psychology of ultimate concern // The International Journal for the Psychology of Religion. – 2000. – Vol. 10, No. 1. – P. 3–26.
4. G‘oziyev, E.G. Umumiy psixologiya. – T.: “Universitet”, 2002. – Jild 1–2.
5. Karimova, V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan”, 2012. – 288 b.
6. King, D.B. Rethinking claims of spiritual intelligence: A definition, model, and measure: Unpublished Master’s thesis. – Trent University, Peterborough, Ontario, Canada, 2008. – 168 p.
7. King, D.B., DeCicco, T.L. A viable model and self-report measure of spiritual intelligence // International Journal of Transpersonal Studies. – 2009. – Vol. 28, No. 1. – P. 68–85.
8. Mannheim, K. The problem of generations // Essays on the sociology of knowledge. – London: Routledge, 1952. – P. 276–322.
9. McCrindle, M., Wolfinger, A. The ABC of XYZ: Understanding the Global Generations. – Sydney: McCrindle Research, 2010. – 288 p.
10. McCrindle, M. Generation Alpha: Understanding Our Children and Helping Them Thrive. – Sydney: Hachette Australia, 2021. – 320 p.
11. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022.
12. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. – T.: “Fan”, 1983. – 176 b.
13. Pew Research Center. In U.S., Decline of Christianity Continues at Rapid Pace. – Washington, DC, 2019.
14. Postman, N. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business. – New York: Viking, 1985. – 184 p.
15. Prensky, M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.
16. Safoyev, N.S. Shaxs psixologiyasi. – T.: “Turon zamin ziyo”, 2016. – 320 b.
17. Shoumarov, G‘.B. Umumiy psixologiya. – T.: “A. Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 2002. – 560 b.

18. Strauss, W., Howe, N. Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. – New York: William Morrow & Company, 1991. – 538 p.
19. Twenge, J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
20. Vaughan, F. What is spiritual intelligence? // Journal of Humanistic Psychology. – 2002. – Vol. 42, No. 2. – P. 16–33.
21. Wigglesworth, C. SQ21: The Twenty-One Skills of Spiritual Intelligence. – New York: SelectBooks, 2012. – 240 p.
22. Zohar, D., Marshall, I. SQ: Connecting with Our Spiritual Intelligence. – London: Bloomsbury, 2000. – 324 p.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonuni. – 2016 yil 14 sentyabr.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Муминова Мукаддас
Джизакский государственный педагогический университет, заведующий кафедрой музыкального образования
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449368

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические основы использования инновационных технологий в процессе формирования музыкальной культуры учащихся начальных классов. Раскрывается сущность понятия музыкальной культуры, её структурные компоненты и педагогические условия формирования. Особое внимание уделяется применению современных инновационных технологий, таких как информационно-коммуникационные технологии, интерактивные методы обучения, мультимедийные средства и цифровые образовательные ресурсы. Обосновывается их влияние на повышение эффективности музыкального образования, развитие творческих способностей, эстетического восприятия и музыкального мышления учащихся. В статье также определены педагогические условия успешного использования инновационных технологий в образовательном процессе.*

Ключевые слова*: музыкальная культура, инновационные технологии, учащиеся начальных классов, музыкальное образование, педагогические условия, информационно-коммуникационные технологии, музыкальное воспитание, интерактивное обучение.*

Введение. В современных условиях модернизации системы образования особое значение приобретает формирование музыкальной культуры учащихся как важной составляющей их духовно-нравственного и эстетического развития. Музыкальная культура способствует формированию эстетического вкуса, развитию эмоциональной сферы, творческого мышления и общей культуры личности учащихся.

Начальная школа является важным этапом в формировании основ музыкальной культуры, так как именно в этом возрасте активно формируются эстетические потребности, художественное восприятие и творческие способности детей. В связи с этим возрастает необходимость использования инновационных технологий, способствующих повышению эффективности процесса музыкального образования.

Инновационные технологии позволяют сделать процесс обучения более интересным, доступным и эффективным, способствуют активизации познавательной деятельности учащихся, развитию их творческого потенциала и формированию устойчивого интереса к музыкальному искусству.

Музыкальная культура является важным компонентом общей культуры личности и включает в себя совокупность музыкальных знаний, умений, навыков, эстетических ценностей и творческих способностей.

По мнению ученых-педагогов, музыкальная культура включает следующие компоненты:

музыкальное восприятие;
музыкальные знания;
музыкально-исполнительские навыки;
музыкальное мышление;
эстетическое отношение к музыке;
творческую активность.

Формирование музыкальной культуры учащихся представляет собой целенаправленный педагогический процесс, направленный на развитие способности воспринимать, понимать и создавать музыкальные произведения.

Основными задачами формирования музыкальной культуры являются:
развитие музыкального слуха;
формирование музыкального вкуса;
развитие эмоциональной отзывчивости на музыку;
формирование творческих способностей;
развитие музыкального мышления.

Сущность инновационных технологий в музыкальном образовании

Инновационные технологии представляют собой современные методы, формы и средства обучения, направленные на повышение эффективности образовательного процесса.

К инновационным технологиям, используемым в музыкальном образовании, относятся:

1. Информационно-коммуникационные технологии (ИКТ)

ИКТ включают использование, компьютеров, интерактивных досок, мультимедийных презентаций, музыкальных программ, электронных учебников, аудио- и видеоматериалов.

Использование ИКТ позволяет:
улучшить качество восприятия музыкальных произведений;
сделать урок более наглядным;
повысить интерес учащихся к предмету;
активизировать познавательную деятельность.

Мультимедийные технологии позволяют сочетать звук, изображение, видео и текст, что способствует более глубокому восприятию музыкального материала.

Использование мультимедиа способствует: развитию музыкального восприятия, формированию музыкального мышления, повышению интереса к музыке.

Интерактивные методы обучения: Интерактивные методы включают:
музыкальные игры, творческие задания, групповые формы работы, проектную деятельность.

Данные методы способствуют развитию творческой активности учащихся и формированию устойчивого интереса к музыке. Эффективность использования инновационных технологий зависит от соблюдения определенных педагогических условий.

К основным педагогическим условиям относятся:

1. Создание благоприятной образовательной среды

Образовательная среда должна способствовать развитию творческих способностей учащихся и формированию их интереса к музыке.

2. Использование современных технических средств

Применение компьютеров, мультимедийных устройств и интерактивных досок повышает эффективность обучения.

3. Повышение профессиональной компетентности учителя

Учитель должен владеть современными педагогическими технологиями и уметь эффективно использовать их в образовательном процессе.

4. Индивидуальный подход к учащимся

Необходимо учитывать индивидуальные особенности учащихся, их способности и интересы.

Использование инновационных технологий способствует: повышению интереса учащихся к музыке, развитию творческих способностей, формированию музыкального мышления, развитию эстетического вкуса, повышению качества музыкального образования.

Инновационные технологии позволяют сделать процесс обучения более эффективным и интересным для учащихся. Они способствуют активному вовлечению учащихся в образовательный процесс и формированию их музыкальной культуры.

В процессе музыкального обучения могут использоваться следующие инновационные методы:

использование мультимедийных презентаций;

прослушивание музыкальных произведений с использованием аудиотехники;

просмотр видеоматериалов;

использование музыкальных обучающих программ;

проведение интерактивных занятий.

Эти методы способствуют повышению эффективности обучения и развитию музыкальной культуры учащихся.

Заключение.Таким образом, использование инновационных технологий играет важную роль в формировании музыкальной культуры учащихся начальных классов. Инновационные технологии способствуют повышению эффективности образовательного процесса, развитию творческих способностей учащихся и формированию их эстетического вкуса.

Применение современных технологий позволяет сделать процесс обучения более интересным и эффективным, способствует активизации познавательной деятельности учащихся и формированию их музыкальной культуры.

В связи с этим использование инновационных технологий является важным условием совершенствования музыкального образования.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кабалевский Д.Б. Музыкальное воспитание в школе. – Москва: Просвещение, 1981.
2. Ветлугина Н.А. Музыкальное развитие ребенка. – Москва: Просвещение, 1988.
3. Абдуллин Э.Б. Теория музыкального образования. – Москва: Академия, 2004.
4. Назаренко И.К. Музыкальная педагогика. – Москва: Просвещение, 2005.
5. Сластенин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2013.
6. Полат Е.С. Современные педагогические технологии. – Москва: Академия, 2010.
7. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва, 1995.
8. Узбекская национальная энциклопедия. – Ташкент, 2010.

KO‘P NUQSONLI RIVOJLANISH BUZILISHLARI: PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLAR

Nasirova Umida Abdusattarovna
Yangi asr unversiteti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449415

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ko‘p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalarning ta’limini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, inklyuziv ta’lim hamda pedagogik-psixologik integratsiyalashgan ta’limning mazmun-mohiyati, ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda individual va differensial yondashuvlar, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarning kognitiv rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mutaxassislar hamkorligi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ko‘p nuqsonli rivojlanish, pedagogik-psixologik integratsiya, individual yondashuv, differensial ta’lim, ijtimoiy moslashuv, maxsus ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta’lim samaradorligi, rivojlanish qiyinchiliklari.*

Abstract. *This article examines modern approaches to organizing the education of children with multiple developmental disabilities. In particular, it highlights the essence of inclusive education and pedagogical-psychological integration, as well as their role in improving the effectiveness of the educational process. The study analyzes individual and differentiated approaches, along with the use of information and communication technologies to support cognitive development and social adaptation of children. Furthermore, the importance of interdisciplinary collaboration among specialists in organizing the educational process is scientifically substantiated.*

Keywords: *inclusive education, multiple developmental disabilities, pedagogical-psychological integration, individual approach, differentiated instruction, social adaptation, special education, information and communication technologies, learning effectiveness.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные подходы к организации обучения детей с множественными нарушениями развития. В частности, раскрывается сущность инклюзивного образования и педагогико-психологической интеграции, а также их роль в повышении эффективности образовательного процесса. В исследовании анализируются индивидуальный и дифференцированный подходы, а также использование информационно-коммуникационных технологий в обеспечении когнитивного развития и социальной адаптации детей. Кроме того, научно обоснована значимость междисциплинарного взаимодействия специалистов в организации образовательного процесса.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, множественные нарушения развития, педагогико-психологическая интеграция, индивидуальный подход, дифференцированное обучение, социальная адаптация, специальное образование, информационно-коммуникационные технологии, эффективность обучения*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida, eng avvalo, kelajak avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, hech kimdan kam bo‘lmay dunyo arenalarini zabt etishga qodir farzandlar bo‘lib yetishishi kabi dolzarb masalalarni hal etish turadi. Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, teng imkoniyatlarini kafolatlash, turmush faoliyatidagi cheklanish va chegaralarni bartaraf etish, shuningdek, ta’limni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy **integratsiyalashgan pedagogik va psixologik yondashuv**larni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 12 -oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan. Bu yondashuvlar bolalarning rivojlanishida yuzaga keladigan turli nuqsonlar va qiyinchiliklarni kompleks tarzda aniqlash, ularni bartaraf etish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagogik va psixologik integratsiya orqali ta’lim sifati va samaradorligi oshirilmoqda, jamiyatda turli qatlamdagi bolalar uchun ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash imkoniyati kengaymoqda. Shu yo‘l bilan, ko‘p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalarning ijtimoiy himoyasi, ta’lim va rivojlanish imkoniyatlari samarali integratsiyalashgan tarzda amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism. Pedagogik jarayonda integratsiya deganda tadqiqotchilar rivojlanish jarayonining ilgari tarqoq qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq tomonlaridan birini tushunadilar. Ushbu jarayon allaqachon o‘rnatilgan tizim doirasida ham, yangi tizim doirasida ham amalga oshirilishi mumkin. Integratsiya jarayonining mohiyati tizimga kiritilgan har bir element ichidagi sifatli o‘zgarishlardir.

Pedagogikada integratsiya muammolari ko‘plab tadqiqotchilarning asarlarida turli jihatlarda ko‘rib chiqiladi. V. V. Kraevskiy, A. V. Petrovskiy, N. F. Talyzina asarlarida pedagogikani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. G. D. Gleyzer va V. S. Lednev ta’lim mazmunidagi integratsiya yo‘llarini ochib berishadi. L. I. Novikova va V. A. Karakovskiyning asarlarida bolaga tarbiyaviy ta’sirlarni birlashtirish muammolari ochib berilgan. Ta’limni tashkil etishda integratsiya S. M. Gapeenkov va G. F. Fedorets asarlarida ko'rib chiqiladi. Ushbu va boshqa olimlar pedagogikada integratsiyaning uslubiy asoslarini aniqladilar: bolaning rivojlanishidagi faoliyatning yetakchi roli haqidagi falsafiy tushuncha; pedagogik hodisalarga tizimli va yaxlit yondashuv to‘g‘risidagi Nizom; ta’lim va rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog‘liqligi haqidagi psixologik nazariyalar belgilangan uslubiy qoidalarga asoslanib, olimlar bir qator tushunchalarni ajratib ko'rsatishadi: integratsiya jarayoni, integratsiya printsipi, integral jarayonlar, integral yondashuv. Integratsiya prinsipi ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarining, tizimning barcha elementlarining o'zaro bog'liqligini, tizimlar o'rtasidagi aloqani o‘z ichiga oladi. U maqsadlarni belgilash, o‘qitish mazmunini, uning shakllari va usullarini aniqlashda yetakchi hisoblanadi.

Integrativ yondashuv pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismida integratsiya prinsipini amalga oshirishni anglatadi, pedagogik jarayonning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi.

Integrativ jarayonlar-bu tizimning yoki butun tizimning alohida elementlarini sifatli o'zgartirish jarayonlari. Mahalliy didaktika va ta’lim nazariyasidagi ko‘plab tadqiqotlar o‘quv jarayonini takomillashtirishning aniq usullarini ishlab chiqishga asoslangan.

Ko‘p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalarning o‘quv imkoniyatlari har doim asosiy o‘rinda turadi. Barcha nuqsonli bolalarning qiyinchiliklarini erta aniqlash va ularni ta’lim

jarayoniga jalb qilish imkoniyatlarini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda, mamlakatimizda qabul qilingan barcha huquqiy va me'yoriy hujjatlar, shuningdek, xalqaro konferensiyalar va forumlar asosida maxsus ehtiyojli bolalar hamjamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi ekanligi e'tirof etildi.

Natijada, ko'p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalarning ta'limida alohida va innovatsion yondashuvlar maydonga keldi. Ushbu ta'lim shakllari inklyuziv va pedagogik-psixologik integratsiyalashgan ta'lim deb ataladi, bolalarning turli rivojlanish qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar ta'lim jarayonida individual ta'lim trayektoriyalarini ishlab chiqish, differensial va moslashtirilgan metodlardan foydalanish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali har bir bolaning imkoniyat va ehtiyojlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Natijada, ko'p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalarda nafaqat akademik bilimlar, balki mustaqil hayot ko'nikmalari, kommunikativ kompetensiyalar hamda ijtimoiy faollik darajasi izchil rivojlanadi. integratsiyalashgan ta'lim modeli doirasida pedagog, psixolog, defektolog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikning mustahkam yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hamkorlik bolalarning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish, ularga individual yondashuv asosida yordam ko'rsatish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi. Shu tariqa, inklyuziv ta'lim muhiti nafaqat bilim berish, balki har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va jamiyatda munosib o'rin egallashiga xizmat qiluvchi muhim omilga aylanadi.

Ko'p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalar ta'limida yondashuvlar

Ta'lim yondashuvi	Mazmuni	Asosiy maqsadi	Natijasi
Inklyuziv ta'lim	Sog'lom va alohida ehtiyojli bolalarni bir muhitda o'qitish	Teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish	Ijtimoiy moslashuv va bag'rikenglik rivojlanadi
Pedagogik-psixologik integratsiya	Pedagog va psixolog hamkorligida ta'limni tashkil etish	Har tomonlama rivojlanishni ta'minlash	Emotsional va kognitiv rivojlanish yaxshilanadi
Individual ta'lim yondashuvi	Har bir bolaning ehtiyojiga mos dastur ishlab chiqish	Shaxsiy imkoniyatlarni ochish	Ta'lim samaradorligi ortadi
Differensial ta'lim	Turli darajadagi topshiriqlar va metodlardan foydalanish	Bilimlarni o'zlashtirishni yengillashtirish	Har bir bola o'z darajasida muvaffaqiyatga erishadi
AKT asosidagi ta'lim	Raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish	Qiziqishni oshirish va qulay o'rganish muhitini yaratish	Mustaqil o'rganish va motivatsiya kuchayadi

Jadvalda keltirilgan har bir yondashuv alohida vazifani bajaradi va ular o'zaro uyg'un holda qo'llanilgandagina yuqori samaraga erishiladi. Ko'p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalar ta'limi bir yoqlama emas, balki kompleks va ko'p komponentli yondashuvni talab qiladi.ta'lim jarayonida individuallashtirish va differensiallashuv ustuvor ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Ya'ni, har bir bolaning rivojlanish darajasi, ehtiyoji va imkoniyatlari hisobga olinmasa,

samarali natijaga erishish qiyin. Zamonaviy ta’limda faqat bilim berish emas, balki ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko‘nikmalar va mustaqil hayotga tayyorlash ham asosiy maqsad sifatida qaralmoqda.pedagogik-psixologik integratsiya orqali ta’lim jarayonida mutaxassislar hamkorligi muhim omil ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu esa bolalarning rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, jadval AKTdan foydalanish orqali ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va moslashuvchan qilish mumkinligini ham ko‘rsatadi. Ko‘p nuqsonli bolalar ta’limi zamonaviy, integratsiyalashgan va insonparvar yondashuvlarga asoslanishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xulosa. Ko‘p nuqsonli rivojlanish buzilishlariga ega bolalar ta’limi zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarur. Inklyuziv va pedagogik-psixologik integratsiyalashgan ta’lim orqali har bir bolaning individual ehtiyojlari hisobga olinib, ularning bilim olish imkoniyatlari kengaytiriladi hamda ijtimoiy moslashuvi ta’minlanadi. Shu bilan birga, differensial va individual yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar hamda mutaxassislar hamkorligi ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada, bunday yondashuvlar bolalarning nafaqat akademik rivojlanishini, balki mustaqil hayotga tayyorgarligi va jamiyatda faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent, 2020–2022.
4. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1983.
5. Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
6. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2000.
7. Muminov A. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
8. Yusupova D. Inklyuziv ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2021.

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ORQALI BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATINI VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Olimova Feruza Karimjonovna
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449442

Annotatsiya. *Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyati va fikrlash salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini turli usullarda va variativ yondashuv asosida takomillashtirishning afzalliklari yuzasidan ma’lumotlar berilgan va tahlil qilingan. Variativ yondashuv asosidagi ta’lim orqali bolalarning mustaqillik, ijodiy fikrlash va masalalarni turli yo‘llar bilan hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi hamda ularda hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, ijodiy faoliyat, variativ yondashuv, integratsiyalangan dars, muammoli topshiriq, idrok qilish, metod, usul, vositalar, o‘zgaruvchan.*

Аннотация. *В началном образовании развитие творческой активности и мислителного потенциала учашихся имеет болшое значение. В стате представлени сведения и проанализировани преимушества повишения творческой активности будуших учителей началной школи с исползованием различних методов и вариантного подхода. Благодаря образованию, основанному на вариантном подходе, у детей развиваются самостоятелност, творческое мишление и способност решат проблеми разними способами, а также формируются жизненние навики.*

Ключевие слова: *началное образование, творческая деятелност, вариативний подход, интегрированний урок, проблемное задание, восприятие, метод, инструментарий, переменна.*

Annotation. *In primary education, the development of students' creative activity and thinking potential is of great importance. The article provides information and analyzes the advantages of improving the creative activity of future primary school teachers using various methods and a variant approach. Through education based on a variant approach, children develop independence, creative thinking, and the ability to solve problems in different ways, and life skills are formed in them.*

Key words: *primary education, creative activity, variable approach, integrated lesson, problem assignment, perception, method, method, tools, variable.*

Kirish. Zamonaviy pedagogik ta’limda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda variativ o‘qitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Variativ o‘qitish ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, qobiliyati, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi.

Zamonaviy pedagogik ta’limda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berish muhim ahamiyat kasb etadi. Variativ o‘qitish esa turli usul va

texnologiyalardan foydalanib, o‘quvchilarning faolligini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatida bildirgan **“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to‘g‘ri yo‘lidir”** degan fikri asosida zamonaviy o‘qitish metodlarini ta’lim jarayoniga olib kirish va o‘quvchilarning bilimini xalqaro rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish har bir pedagogning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda variativ yondashuv asosida ta’lim berishni takomillashtirish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari, ularga individual yondashish, bilimini oshirishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Pedagogik adabiyotlarda “variativ” atamasi “o‘zgaruvchan”, “tanlovga asoslangan”, “ko‘p variantli” ma’nolarini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, variativ o‘qitish – bu ta’lim mazmuni, shakli, metod va vositalarining turli variantlarda tashkil etilishi orqali o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim tizimi hisoblanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali variativ yondashuv asosida o‘qitish tushunchasi pedagogikada o‘qitish jarayonlarida turli usul, metod va resurslardan samarali foydalanib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish deb yuritiladi. Ya’ni har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va o‘rganish uslubiga qarab, unga mos ravishda dars mashg‘ulotlarini olib borish demakdir.

Ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish g‘oyasi pedagogika fanining rivojlanish jarayonida bosqichma-bosqich shakllangan. Mashhur jahon pedagog va psixologlarining ilmiy-metodologik fikrlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ (tabaqalashtirilgan) yondashuv asosida takomillashtirishga asos bo‘la oladi

Variativ (tabaqalashtirib) yondashuv asosida o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari xususida ham pedagoglar tomonidan ijobiy fikrlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan bunday ta’lim natijasida o‘quvchilarning dastur materiallarini o‘zlashtirishiga erishilishi, ularning bilim va malakalarida, ijodiy ishlarida o‘sish kuzatilishi, ularning fanga qiziqishlari ortib borishi, o‘quvchilar faolligining oshishi, o‘quvchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab bilim berilishi sababli, ularda o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirishda zo‘riqish hollari bo‘lmasligi, iqtidorli o‘quvchilarning chuqur bilimlar olishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilishiga erishiladi. O‘quvchilarning qiziqishlari, iqtidori, intilish va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta’lim mazmunini variativ o‘qitish o‘quvchi shaxsining o‘zligini namoyon qila olishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

O‘zbekiston pedagog-olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik qarashlar shaxsga yo‘naltirilgan va variativ o‘qitishning nazariy hamda amaliy asoslarini mustahkamladilar. Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini zamon talablari asosida takomillashtirib borish lozim bo‘ladi. Variativ yondashuv asosida o‘qitish tizimini takomillashtirib borish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faolligini, ijodiy fikrlashi va mustaqilligi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy ta’limda sinfdagi mavjud o‘quvchilar uchun bir xil mazmun qo‘yilgan bo‘lsa, variativ yondashuv asosida olib boriladigan ta’limda har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va psixologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli variativ yondashuv ta’lim samaradorligini oshiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning boshlang‘ich ta’lim bosqichida variativ o‘qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarda o‘qishga munosabat, bilish faoliyati va mustaqilllik shakllanadi. Agar ta’lim jarayonida o‘quvchining imkoniyatlari hisobga olinmasa, u darsga nisbatan qiziqishini yo‘qotishi mumkin. Variativ yondashuvga asoslangan o‘qitish esa har bir bolaning muvaffaqiyat hissini ta’minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa variativ yondashuv asosida o‘qitish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq. Bunday yondashuv orqali o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv obekti emas, balki faol subekti sifatida qaraladi. Natijada o‘quvchida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda variativ yondashuv asosida ta’lim berishdan maqsad – har bir o‘quvchining yoshini inobatga olgan holda bolalikdan ularning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda ularning dars jarayonida faol qiziqishlariga tayangan holda mashg‘ulotlarda ishtirokini ta’minlashdan iborat. Bunda har bir o‘quvchining individual qobiliyatini rivojlantirish ya’ni darsda turli uslublar va usullar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy faolligin oshirish, o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilish – bu standartdan tashqari metodlar orqali darsda faollikni oshirish, shuningdek, turli yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, bilimlarni chuqurlashtirish asosan har bir o‘quvchiga o‘z uslubida bilim egallash imkoniyatlarini yaratish nazarda tutilgan.

Variativ yondashuv asosida o‘qitishni samarali tashkil etish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning farqli qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olishlari, bunda individual yondashuvni ta’minlash, shu bilan birga o‘quvchilarga turli metodlar va vositalar orqali tanlov qilish imkonini berish, ya’ni ularda ijodiy va tanlovchi faollikni rivojlantirish, shuningdek, samarali bilim berish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, kasbiy va ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirishga oid bo‘lgan ishlash uslubini o‘rganishlari tavsiya etiladi. Variativ yondashuv asosidagi ta’limda o‘quvchilarga tanlash imkoniyatini berish, topshiriqlarni tabaqalashtirish, o‘qitish usul va shakllarini o‘zgartirib borish, har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash orqali uning mohiyati tushuniladi.

Jumladan, rus psixologi **L.S.Vigotskiyning** “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi variativ o‘qitishning psixologik asosi hisoblanadi. Uning fikricha, har bir bolaning real imkoniyatlari bilan bir qatorda, kattalar yoki tengdoshlari yordamida erishishi mumkin bo‘lgan rivojlanish darajasi mavjud. Bu esa ta’lim jarayonida tabaqalashtirilgan, ya’ni variativ yondashuvni talab etadi.

Amerikalik psixologlar **Bendjamin Blum** ta’lim maqsadlarini kognitiv, affektiv va psixomotor sohalarga ajratib, ularni darajalar bo‘yicha tasniflagan. Uning taksonomiyasi o‘quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilib, variativ topshiriqlar tuzishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. **Govard Gardner** tomonidan ilgari surilgan “Ko‘p intellektlar nazariyasi” ham variativ o‘qitishni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Unga ko‘ra o‘quvchilarda lingvistik, mantiqiy-matematika, musiqiy, fazoviy, jismoniy-kinestetik va boshqa intellekt turlari turlicha rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli ta’limda yagona usuldan foydalanish samara bermaydi, balki turli shakl va metodlarni qo‘llash zarur bo‘ladi. **Djerom Bruner**ning kashfiy o‘qitish nazariyasida o‘quvchi bilimini tayyor holda emas, balki izlanish va tadqiqotlar orqali egallaydi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim mazmuni va usullarini moslashtiradi deb keltirilgan. Pragmatik pedagogika va faol ta’lim g‘oyalarini ilgari surgan amerikalik filosof va pedagog **Jon Dyun** ta’limni hayot bilan bog‘lash, o‘quvchini faol subektiv sifatida qarash g‘oyasini asoslab bergan. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, tajriba orttirishi va tanlov qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa variativ o‘qitishning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Italiyalik pedagog Mariya Montessori esa bolaning erkinligi, individual rivojlanish sur'atini va mustaqil faoliyatga asoslangan ta'lim tizimini ishlab chiqqan Montessori metodikasida o'quv muhiti va didaktik materiallar variativ xarakterga ega bo'lib, har bir bola o'z qiziqishiga ko'ra faoliyatini tanlaydi. Zamonaviy pedagogikada variativ (tabaqalashtirilgan) o'qitish nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan olimlardan biri **Kerol Enn Tomlinson** hisoblanadi. U ta'limda mazmun, jarayon, natija va o'quv muhitini farqlash orqali o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, O'zbekistonda ham bir qator pedagog-olimlar tomonidan boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilgan va variativ o'qitish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borib, o'zlarining ilmiy-metodik qarashlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va variativ o'qitish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha o'z ishlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan topshiriqlar, innovatsion metodlar va interaktiv texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, **R.J.Ishmuxamedov** o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga qo'yib, faol va mustaqil o'qitish metodlarini ilmiy asoslagan va bu boshlang'ich ta'limda individual va variativ yondashuvni joriy etishga nazariy zamin yaratgan. **N.N.Azizxo'jayev** zamonvaiy shaxsga yo'naltirilgan va interaktiv o'qitish usullarini ishlab chiqib, variativ o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirgan. Shuningdek, **J.G'.Yo'ldoshev** ta'limni individuallashtirish va differensialash nazariyasini rivojlantirish barobarida variativ yondashuv orqali o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirishni asoslab bergan. **B.X.Raximov** boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish orqali variativ metodlardan foydalanib, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishni tadqiq etgan. Bundan tashqari **SH.A.Abdullayeva** o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish modellari asosida kognitiv va ijodiy qobiliyatlarni variativ yondashuv asosida rivojlantirishni ilmiy jihatdan asoslagan.

Integratsiyalashgan ta'limda **"Turli usullar"** ya'ni leksiya, guruhli ish, interaktiv o'yin, proyektli faoliyat, **"Turli vositalar"** bunda kitob, video, kompyuter dasturlari, interaktiv taxta, **"Individuallashtirish"** – bu har bir o'quvchi uchun turli darajadagi mashqlar hamda "Ijodiy yondashuv" – standartdan tashqari fikrlashga imkon berish variativ o'qitishning asosiy xususiyatlari etib belgilanadi. Variativ yondashuv asosida olib boriladigan ta'lim o'z ichiga **"Individuallashtirilgan ta'lim"** orqali har bir o'quvchi o'z darajasi va qobiliyatiga mos ravishda o'rganish imkonini beradi, shuningdek, **"Faol o'rganish"** natijasida o'quvchilarning dars jarayonida to'liq ishtirokiga erishiladi, ular savollar berishadi va tajribalar o'tkazishadi, **"Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali"** yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqish qobiliyatlarini oshiradilar, **"Qoliplashtirilmagan ta'lim"** bunda standartdan tashqari usullar qo'llaniladi, bu o'zi o'zidan o'quvchilar uchun qiziqarli va rag'batlantiruvchi bo'ladi, **"Motivatsiyani oshirish"**da esa o'quvchilar o'z uslubiga mos usulda faoliyat ko'rsatib, darsga qiziqishi ortadi, bundan tashqari **"Turli ta'lim vositalari va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati"**dan foydalanish bilan interaktiv slaydlar, kartochkalar, guruhli loyihalar, videomateriallardan foydalanish ko'nikmalari sezilarli tarzda rivojlanishiga erishiladi.

Variativ yondashuv asosida ta'lim berishda eng ko'p qo'llaniladigan zamonaviy metodlar asosida o'quvchilarni idividual va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirib borishga erishiladi.

Jumladan, **"Guruhli ishlash"** (Collaborative Learning) – bunda o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydilar va bir-birlariga yordam berish orqali vazifani hal qiladilar. Buning afzalligi muloqot, jamoada ishlash va ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga erishiladi va bunda mini – proyektlar tayyorlanadi. **"Muloqotli"** (interaktiv) o'yinlar dars jarayonida bilimlarni interaktiv o'yinlar orqali sinash va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, faoliyatni qiziqarli qiladi, ishtirokchilarni rag'batlantiradi, ko'p xis qilish usuli orqali bilim berishga imkon beradi va

viktorina usulida savol-javoblar bunga misol bo‘la oladi. **“Proyektli metod”** (Project-Based Learning) o‘quvchilar muammoni hal qilish yoki mavzudagi loyihani yaratish orqali bilim oladilar bu metodning afzalligi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yechimlar topish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodga misol tariqasida tabiat mavzusida guruhlar rasm, video va slaydlar orqali prezentatsiya tayyorlashlarini keltirish mumkin. **“Case-study”** (Holatlar tahlili) metodining tavsifi muhokama uchun haqiqiy yoki tasavvuriy holatlardan foydalanish bo‘lib, o‘quvchilarda analitik fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyati rivojlanadi va bunga misol tariqasida yosh bolalarning qo‘rqishi yoki maktabdagi konfliktini hal qilish xolatlarini keltirsa bo‘ladi. Bundan tashqari **“Interaktiv texnologiyalar va slaydlar”** metodi orqali kompyuter, planshet, interaktiv doska, onlayn platformalar orqali dars olib boriladi va natijada har bir o‘quvchi uchun alohida o‘rganish imkoniyati yaratiladi, vizual va audiovizual vositalaridan foydalaniladi. **“Rolli o‘yinlar”** (Role Play)da o‘quvchilar ma’lum vaziyatda belgilanrgan rolni bajaradilar. Bu metodning afzalligi empatiya, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. **“Differensiyalashtirilgan ta’lim”** (**Differentiated Instruction**)da darsda turli darajadagi vazifalar va masqlar beriladi va natijada har bir o‘quvchi o‘z darajasiga muvofiq bilim oladi, motivatsiya va ishtiroki oshadi.

Bunday metodlarni ko‘plab keltirish mumkin va barchasi shaxsga yo‘naltirilgan va varaitiv ta’limni rivojlantirishga, o‘quvchilar faolligini oshirishga, ularning bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchining ijodiy faolligi va variativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishi bolalarning shaxsiy rivojlanishi va fanlarni o‘rganishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yo‘nalitirilgan ta’lim va variativ yondashuv orqali o‘qituvchilar nafaqat bilim berish, balki bolalarning fikrlash qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini variativ yondashuv asosida takomillashtirish borasidagi mavzuning dolzarbligi zamonaviy maktab talablarida namoyon bo‘ladi. Bolalarning turli qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘lishi sababli an’anaviy bilim berish usullari yetmasligi ayniqsa seziladi. Shu bois variativ yondashuv va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.D.Raximov O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro‘ziyev - Zamonaviy ta’lim texnologiyalari - Toshkent, “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013y
2. Vigotskiy L.S.Mishleniye i rech. – M.: Pedagogika, 1999. – 352 s.
3. Blum B.Taksonomiya obrazovatelnix seley. – M.: Prosvesheniye, 1986.
4. Gardner G.Struktura razuma: teoriya mnojestvennogo intellekta. – M.: Vilyams, 2007.
5. Dyui Dj.Demokratiya i obrazovaniye. – M.: Pedagogika, 2000.
6. Bruner Dj.Protsess obucheniY. – M.: Akademiya, 2001.
7. Montessori M.Pomogi mne sdelat eto samomu. – M.: Karapuz, 2004.
8. Tomlinson K.A.Differensirovannoye obucheniye v klasse. – M.: Prosvesheniye, 2014.
9. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -T, Iste’dod, 2008

ZAMON KATEGORIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Rejabova N.M.
Namangan davlat texnika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449456

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamon kategoriyasining nazariy asoslari va lingvistik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamon tushunchasining falsafiy va lingvistik talqini, temporal semantikaning asosiy tamoyillari, zamon kategoriyasining universal va til-spetsifik jihatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada zamonaviy tilshunoslikda zamon kategoriyasini o'rganishning turli yondashuvlari – generativ, funksional va kognitiv taqqoslanadi. Tadqiqot natijasida zamon kategoriyasining ko'p qirrali tabiati va uning tilshunoslikdagi markaziy o'rni yaqqol namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *zamon kategoriyasi, semantika, fe'l zamonlari, diaksis, Reichenbach nazariyasi, zamon transformatsiyasi, universal grammatika, kontekst.*

KIRISH

Zamon kategoriyasi tilshunoslikning eng murakkab va ko'p qirrali tadqiqot ob'yektlaridan biri bo'lib, grammatika, semantika, pragmatika va kognitiv tilshunoslik sohalarida keng o'rganilmoqda. Zamon tushunchasi faqat grammatik shakl emas, balki inson ongida vaqtni konseptualizatsiyalash va tilshunoslik vositalar orqali ifodalashning murakkab mexanizmidir. Zamon kategoriyasi masalasi tilshunoslikning turli yo'nalishlarida turlicha yoritilgan. H. Reichenbach (1947), B. Comrie (1985), R. Declerck (2006) kabi olimlar zamon tizimining universal xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan bo'lsalar, L. Johanson (2000), E. Dahl (2010) zamonning til-spetsifik jihatlari va tipologik xilma-xilligini ta'kidlaganlar. Zamonaviy tadqiqotlarda zamon kategoriyasi nafaqat morfologik shakl, balki diskurs va pragmatik kontekstda funksiya bajaruvchi murakkab til hodisasi sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi zamon kategoriyasining ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy tahlili, axborot matnlarida zamon transformatsiyasining xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarda zamon kategoriyasining universal tamoyillari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek axborot matnlarida zamon transformatsiyasining qiyosiy-tipologik tahlili alohida tadqiqotni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi zamon kategoriyasining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning lingvistik xususiyatlarini aniqlash va zamonaviy tilshunoslikdagi yondashuvlarni taqqoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan: deskriptiv metod – zamon kategoriyasining nazariy asoslarini tavsiflab berish uchun; taqqosiy-tipologik metod – turli tilshunoslik maktablarining zamon kategoriyasiga yondashuvlarini solishtirish maqsadida; semantik tahlil usuli – zamon shakllarining ma'no xususiyatlarini aniqlashda; kontekstual tahlil – zamon kategoriyasining diskursdagi funksiyalarini o'rganishda.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o'zbek tilshunosligidagi nazariy asarlar, H. Reichenbach, B. Comrie, J. Lyons, O. Jespersen, A. Abdullayev, G'. Abdurahmonov, A. Hojiyev

kabi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar – kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili va pragmatika sohasidagi ishlar ko'rib chiqilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

1. Zamon tushunchasining falsafiy va lingvistik talqini

Zamon tushunchasi tilshunoslikda ikki asosiy ma'noda qo'llaniladi: keng ma'noda – ob'yektiv vaqt va uning inson ongida aks etishi; tor ma'noda – vaqtni ifodalovchi grammatik kategoriya. Aristotel vaqtni o'tgan, hozirgi va kelasi zamonga bo'lgan, bu ta'limot zamonaviy tilshunoslikda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Hans Reichenbach zamon kategoriyasini tahlil qilishda uch asosiy momentni ajratib ko'rsatgan: nutq momenti (S – speech point), voqea momenti (E – event point) va murojaat momenti (R – reference point). Ushbu tizim zamonaviy temporal semantikaning asosini tashkil etadi va turli tillardagi zamon tizimlarini tavsiflab berishda qo'llaniladi.

Bernard Comrie zamon kategoriyasini absolut va nisbiy zamonga ajratgan. Absolut zamon nutq momentiga nisbatan aniqlanadi (o'tgan, hozirgi, kelasi), nisbiy zamon esa murojaat momentiga bog'liq bo'lib, murakkab zamon tizimlarini tushuntirishga imkon beradi.

2. Zamon kategoriyasining universal va til-spetsifik jihatlari

Tipologik tadqiqotlar barcha tillarda zamon kategoriyasi mavjud emasligini ko'rsatadi. Masalan, xitoy, indonez tillarida alohida grammatik zamon kategoriyasi yo'q, vaqt munosabatlari leksik vositalar va kontekst orqali ifodalanadi. Biroq, ko'pchilik tillarda – hind-yevropa, turkiy, semit tillarida – zamon rivojlangan grammatik kategoriya hisoblanadi.

Ingliz tilida zamon tizimi ikkilamchi shakllarni hisobga olmaganda, asosan ikki zamonga – o'tgan (past) va hozirgi (present) – ega. Kelasi zamon modal yordamchi fe'llar (will, shall) orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa morfologik jihatdan aniq ajratilgan uchta asosiy zamon mavjud: o'tgan zamon (-di, -gan), hozirgi zamon (-moqda, -yap-), kelasi zamon (-r, -a/-y).

3. Temporal deixis va zamon kategoriyasi

Zamon kategoriyasi deiktik xususiyatga ega, ya'ni uning talqini nutq vaziyatiga bog'liq. Karl Bühler va John Lyons deixisning temporal turini ajratib ko'rsatgan. Temporal deixis nutq momentini markaziy nuqta sifatida oladi va barcha vaqt munosabatlari shu nuqtaga nisbatan belgilanadi.

Deiktik vositalar (bugun, kecha, ertaga, hozir va boshqalar) zamon shakllari bilan birgalikda ishlab, aniq temporal ma'noni yaratadi. Masalan, ingliz tilidagi "I am writing now" jumlasida hozirgi davom zamon shakli "now" deiktik belgisi bilan birga hozirgi paytdagi harakatni aniq ko'rsatadi.

4. Zamon va aspekt o'rtasidagi farq

Zamon va aspekt bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ammo farqli kategoriyalardir. Zamon voqeaning vaqt o'qidagi o'rnini ko'rsatsa, aspekt voqeaning ichki temporal tuzilishini – tugallanganlik, davomiylik, takrorlanishni – ifodalaydi.

Slavyan tillarida (rus, bolgar) aspekt morfologik jihatdan zamon kategoriyasidan mustaqil tarzda ifodalanadi (perfektiv/imperfektiv). Ingliz tilida aspekt zamon shakllari bilan sintez holatda namoyon bo'ladi: simple, continuous, perfect formalarida. O'zbek tilida aspektual ma'nolar qo'shimchalar (-moqda – davomiylik, -gan – tugallanganlik) va sintaktik konstruksiyalar orqali beriladi.

5. Zamon kategoriyasining diskurs va pragmatik jihatlari

Zamon shakllarining matnda qo'llanishi nafaqat temporal ma'noni, balki pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Masalan, hozirgi zamon o'rnida o'tgan zamonning ishlatilishi

("historical present") narrativga jonlilik, bevositalik olib keladi. Bu hodisa ko'plab tillarda uchraydi va matn lingvistikasida keng o'rganilgan.

Axborot matnlarida zamon shakllarining tanlanishi matn turiga va kommunikativ maqsadga bog'liq. Rasmiy xabar matnlarida o'tgan zamon ustunlik qilsa, tahliliy maqolalarda hozirgi zamon ko'proq ishlatiladi. Bu zamon transformatsiyasining pragmatik asoslarini ko'rsatadi.

MUHOKAMA VA XULOSA

Zamon kategoriyasining nazariy asoslarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, zamon kategoriyasi tilshunoslikning turli sohalarida – morfologiya, semantika, pragmatika va diskurs tahlilida – markaziy o'rin tutadi. Zamonaviy tilshunoslikda zamon kategoriyasi faqat grammatik shakl emas, balki vaqtni konseptualizatsiyalash va til orqali ifodalashning murakkab kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, Reichenbach nazariyasi zamon tizimini tahlil qilishning eng samarali modellaridan biri bo'lib, nutq momenti, voqea momenti va murojaat momenti o'rtasidagi munosabatlar orqali turli tillardagi zamon shakllarini izohlab beradi. Comrie taklif qilgan absolut va nisbiy zamon tushunchasi murakkab zamon tizimlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, zamon kategoriyasi universal xususiyatlarga ega bo'lsa ham, turli tillarda turlicha tizimga ega. Ingliz va o'zbek tillarida zamon tizimining strukturaviy farqlari mavjud bo'lib, bu farqlar axborot matnlarida zamon transformatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, zamon kategoriyasining deiktik tabiati uni kontekstga bog'liq qiladi. Temporal deixis zamon shakllarining ma'nosini aniqlashtiradi va nutq vaziyatida to'g'ri talqin etish imkonini beradi.

Beshinchidan, zamon va aspekt o'zaro bog'liq bo'lsa-da, turli tillarda turlicha namoyon bo'ladi. Ingliz tilida zamon va aspekt sintez holatda, o'zbek tilida esa qisman alohida tarzda ifodalanadi.

Oltinchidan, zamon shakllarining diskursdagi qo'llanishi nafaqat temporal, balki pragmatik funksiyalarni ham bajaradi. Axborot matnlarida zamon transformatsiyasi matn turi va kommunikativ maqsadga bog'liq ravishda amalga oshadi.

Olingan natijalar ingliz va o'zbek axborot matnlarida zamon transformatsiyasini qiyosiy o'rganish uchun nazariy asos yaratadi va keyingi tadqiqotlarda zamon shakllarining funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Reichenbach H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan, 1947. – 444 p.
2. Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 139 p.
3. Declerck R. The Grammar of the English Verb Phrase. Volume 1: The Grammar of the English Tense System. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2006. – 846 p.
4. Lyons J. Semantics. Volume 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
5. Bühler K. Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. – Jena: Gustav Fischer, 1934. – 434 s.
6. Johanson L. Viewpoint operators in European languages // Tense and Aspect in the Languages of Europe / ed. by Ö. Dahl. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2000. – P. 27-187.
7. Dahl Ö. Typology of sentence negation // Linguistics. – 2010. – Vol. 48. – No. 6. – P. 1155-1189.
8. Абдуллаев А. Ўзбек тили семасиологияси масалалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 96 б.

9. Абдураҳмонов Ғ., Рафиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 368 б.
10. Ҳожиев А. Ўзбек тилининг изоҳли грамматик луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 440 б.
11. Klein W. Time in Language. – London: Routledge, 1994. – 268 p.
12. Smith C. The Parameter of Aspect. – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1991. – 447 p.
13. Fleischman S. Tense and Narrativity: From Medieval Performance to Modern Fiction. – Austin: University of Texas Press, 1990. – 394 p.
14. Halliday M.A.K., Matthiessen C.M.I.M. An Introduction to Functional Grammar. 3rd edition. – London: Arnold, 2004. – 689 p.
15. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – 446 с.

A COMPREHENSIVE CORRECTIONAL MODEL FOR DEVELOPING AUDITORY PERCEPTION AND ARTICULATION SKILLS IN CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS

Salamova Feruza
Senior teacher of the Department of Preschool Education and Defectology, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

https://doi.org/10.5281/zenodo.19449473

Annotation. *Cochlear implantation is considered one of the most effective technological solutions for children with severe and profound hearing loss. However, surgical implantation alone does not guarantee the development of speech perception and articulation skills. The successful rehabilitation of children with cochlear implants requires a comprehensive correctional model that integrates auditory training, speech therapy, cognitive development, and family-centered intervention. This article analyzes modern scientific approaches to the development of auditory perception and articulation in children with cochlear implants and presents a comprehensive corrective model for their rehabilitation. The study also examines contemporary clinical practices, international experiences, and multidisciplinary strategies implemented by audiologists, speech therapists, and otolaryngologists. The results show that early implantation combined with systematic auditory-verbal therapy and integrated pedagogical interventions significantly improves auditory perception and speech production skills in children with cochlear implants.*

Keywords: *cochlear implant, auditory perception, articulation skills, speech rehabilitation, auditory-verbal therapy, correctional model.*

Cochlear implantation has emerged as one of the most important developments in the field of auditory rehabilitation in recent decades. Children with severe to profound sensorineural hearing loss can develop spoken language skills and perceive sounds thanks to cochlear implants. In contrast to conventional hearing aids, cochlear implants directly stimulate the auditory nerve using electrical signals, avoiding damaged inner ear structures and allowing speech and ambient noises to be perceived. The process of auditory perception and speech development in children with cochlear implants is still complicated and multivariate, despite the advancements in cochlear implant technology. Although the implant makes sound accessible, early intervention, systematic correctional work, and rehabilitation programs play a major role in the development of auditory awareness and articulation. The significance of systematic rehabilitation programs is highlighted by research showing that language acquisition in deaf children without appropriate intervention happens far more slowly than in children with normal hearing. The integration of medical, psychological, and pedagogical techniques in the rehabilitation of cochlear implant users is becoming more and more important in today's educational and medical scene. Audiologists, speech-language pathologists, psychologists, and special educators work together to create all-encompassing correctional models that promote implanted children's speech and hearing development. Thus, one of the most pressing issues in contemporary auditory rehabilitation is the

creation of an integrated model that concurrently addresses auditory perception and articulation abilities.

Over the past 20 years, there has been a consistent global increase in the number of youngsters obtaining cochlear implants. Researchers are now concentrating on long-term speech and language development in addition to surgical outcomes due to the growth of implantation programs. According to recent research, children who participate in intense rehabilitation programs and receive cochlear implants at a young age see notable gains in their language and auditory awareness. Early diagnosis and intervention are key components of contemporary rehabilitation programs. Because early development is marked by great brain plasticity and quick language acquisition, clinical evidence indicates that implantation before the age of two produces superior auditory and linguistic outcomes than later implantation.

The creation of specific auditory training programs is another significant breakthrough in cochlear implant rehabilitation. The goal of these programs is to enhance the child's capacity for speech sound detection, discrimination, identification, and comprehension. Clinical studies show that systematic auditory training greatly improves children with cochlear implants' ability to perceive speech and understand language.

Furthermore, many children with cochlear implants may also have other developmental issues such attention disorders or motor deficits, which is acknowledged by contemporary rehabilitation programs. According to studies, between 30 and 40 percent of kids who have cochlear implants may have extra problems that affect their ability to perceive sound and communicate.

Systematic audio stimulation and listening training are the main methods used by cochlear implant users to develop their auditory awareness. Auditory Verbal Therapy (AVT) is one of the most used methods in global practice. This method emphasizes making the most of children's residual auditory skills and educating them to rely more on aural input than on visual cues like lip reading. Cued spoken, a multimodal communication system that blends visual motions with spoken sounds to enable precise phoneme detection, is another popular technique. According to research, children with cochlear implants can greatly enhance their speech perception by using both cued speech and auditory-verbal therapy.

The following phases are frequently included in auditory perception training in clinical practice:

- ✓ Identifying whether sound is there or not is known as sound detection.
- ✓ Differentiating between various sounds is known as sound discrimination.
- ✓ Sound identification is the process of identifying and labelling words or sounds.
- ✓ Speech comprehension is the ability to comprehend spoken words in various settings.
- ✓ Many contemporary auditory training methods used in rehabilitation facilities across the world are based on these steps

Another crucial aspect of rehabilitation for kids with cochlear implants is articulation development. Due to limited early exposure to speech sounds and delayed auditory feedback, children may still have trouble producing some phonemes even after successful implantation.

To treat articulation issues, speech therapists use a range of remedial methods, such as phonological awareness training, motor speech exercises, and phonetic placement therapy. According to research, cochlear implant users' overall communication skills and speech intelligibility are greatly enhanced by systematic speech therapy.

The development of articulation is also significantly influenced by auditory feedback. Through auditory perception, children with cochlear implants progressively learn to monitor their own speech, which enables them to improve their articulation patterns and pronunciation.

A thorough correctional model for the development of auditory perception and articulation abilities in children with cochlear implants can be organized as follows, based on the examination of current research and clinical practices:

Stage	Intervention Focus	Methods Used
Stage 1	Early diagnosis and implantation	Audiological screening, medical evaluation
Stage 2	Auditory perception training	Auditory-verbal therapy, listening exercises
Stage 3	Speech and articulation development	Speech therapy, phonetic training
Stage 4	Cognitive and language development	Vocabulary building, language games
Stage 5	Social communication skills	Interactive communication activities
Stage 6	Family involvement	Parent training programs

Conclusion. A thorough and interdisciplinary rehabilitation approach is necessary for children with cochlear implants to strengthen their auditory perception and articulation abilities. Effective recovery requires regular auditory training, speech therapy, and family involvement; cochlear implantation alone cannot guarantee successful speech development. This study proposes a comprehensive correctional paradigm that supports the holistic development of children with cochlear implants by integrating medical, pedagogical, and psychological interventions. Children with hearing impairments can greatly benefit from improved communication outcomes and social integration when such models are used in educational and clinical settings.

REFERENCES

1. Beauvais P. & Morenberg, M. Doing Grammar. College Composition and Communication, 2007, 43(2), p.270. Retrieved from http://dx.doi.org/10.2307/357576.
2. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge University Press: 2001.
3. Lindstromberg S. Preposition entries in UK monolingual learners' dictionaries: problems and possible solutions. Applied Linguistics, 2001, 22(1), pp.79-103. Retrieved from http://dx.doi.org/10.1093/applin/22.1.79.
4. Mukundan J. & Roslim N. Textbook Representation of Prepositions. English Language Teaching, 2009, 2(4). http://dx.doi.org/10.5539/elt.v2n4p13.
5. Алтуханова Ш.С. Методика обучения предлогам английского языка в 5-7 классах лезгинской школы: Автореф. дисс. канд.пед.наук. – Махачкала: 2005. -С. 27.
6. Ахмедова Л.Т., Лагай Е.А. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2016.
7. Каипбергенова Ф.Т. Формирование словарного запаса английского языка студентов химиков высших образовательных учреждений (на примере мультимедийных программ): Автореф. дисс. докт. философии (PhD) по пед. наукам. – Нукус: 2022. –С. 59.
8. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal Seriya: Pedagogika fanlari, Psixologiya fanlar ISSN 2010-720X
9. http://dx.doi.org/10.2307/357576

PEDAGOGIK TA’LIMDA DRAMATIK TEXNIKALAR VA MUSIQA MADANIYATINING REFLEKSIV-TA’SIRCHAN YONDASHUVI

Xolbayeva Dildora Azizovna[1], Saidov Axmatsulton Abdumannobovich[2]
[1]Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
[2]“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449489

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik ta’lim jarayonida dramatik texnikalar va musiqa madaniyatining refleksiv-ta’sirchan yondashuv asosidagi pedagogik imkoniyatlari tahlil etiladi. Dramatik texnikalar va musiqiy faoliyat ta’lim oluvchilarning emotsional-idrokiy jarayonlariga ta’sir ko‘rsatib, ularning kasbiy refleksiyasi, empatiyasi, ijodiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Tadqiqotda refleksiv-ta’sirchan yondashuvning nazariy asoslari ochib berilib, dramatik mashqlar, didaktik drama, musiqiy improvizatsiya va tinglash faoliyatining pedagogik samaradorligi yoritiladi. Natijalar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirishda san’atga asoslangan yondashuvlarning ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *pedagogik ta’lim, dramatik texnikalar, musiqa madaniyati, refleksiv-ta’sirchan yondashuv, didaktik drama, kasbiy refleksiya, emotsional intellekt, empatiya, ijodiy kompetensiya, pedagogik mahorat.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические возможности драматических техник и музыкальной культуры в системе педагогического образования на основе рефлексивно-воздействующего подхода. Использование драматических техник и музыкальной деятельности оказывает целенаправленное влияние на эмоционально-когнитивные процессы обучающихся, способствуя развитию профессиональной рефлексии, эмпатии, творческого мышления и коммуникативных компетенций будущих педагогов. Раскрываются теоретические основы рефлексивно-воздействующего подхода, а также обосновывается эффективность дидактической драмы, музыкальной импровизации и слушательской деятельности в формировании профессионально-педагогического мастерства. Результаты исследования подтверждают значимость интеграции художественно-педагогических средств в повышении качества и эффективности педагогического образования.*

Ключевые слова: *педагогическое образование, драматические техники, музыкальная культура, рефлексивно-воздействующий подход, дидактическая драма, профессиональная рефлексия, эмоциональный интеллект, эмпатия, педагогическое мастерство.*

Abstract. *This article examines the pedagogical potential of dramatic techniques and musical culture in teacher education within the framework of a reflexive-impact approach. The integration of dramatic techniques and musical activities significantly influences learners’ emotional and cognitive processes, fostering the development of professional reflection, empathy, creative thinking, and communicative competencies of future teachers. The theoretical foundations of the reflexive-impact approach are explored, and the effectiveness of didactic drama, musical improvisation, and listening activities in shaping professional pedagogical mastery is*

substantiated. The findings highlight the importance of art-based pedagogical approaches in enhancing the quality and effectiveness of teacher education.

Keywords: *teacher education, dramatic techniques, musical culture, reflexive-impact approach, didactic drama, professional reflection, emotional intelligence, empathy, pedagogical mastery.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlar pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi shaxsining emotsional, ijtimoiy va ijodiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan refleksiv faoliyat subyekti sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan pedagogik ta’lim jarayonida dramatik texnikalar va musiqa madaniyatini integratsiyalash asosida tashkil etilgan refleksiv-ta’sirchan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Dramatik texnikalar pedagogik jarayonda talabalarning ichki kechinmalari, empatiyasi, muloqot madaniyati va kasbiy refleksiyasini rivojlantirishga xizmat qilsa, musiqa madaniyati esa ta’lim jarayonining emotsional-estetik ta’sirchanligini kuchaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Dramatik texnikalar (rol o‘ynash, sahnalashtirish, improvizatsiya, didaktik drama, forum-teatr va boshqalar) ta’lim jarayonida talabaning faolligini oshiradi, uni pedagogik vaziyatlarni ichdan his etishga undaydi. Ushbu texnikalar yordamida bo‘lajak pedagoglar:

- pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish;
- kasbiy muammolarga ijodiy yondashish;
- pedagogik takt va empatiyani shakllantirish;
- o‘z faoliyatini refleksiv baholash ko‘nikmalarini egallaydi.

Musiqa madaniyati pedagogik ta’limda estetik va emotsional tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. U quyidagi imkoniyatlari bilan ajralib turadi:

- talabalarning emotsional holatini boshqarish;
- ichki kechinmalarni anglash va ifodalash;
- estetik qadriyatlarni shakllantirish;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirish.

Musiqa orqali bo‘lajak pedagoglar o‘z emotsiyalarini tahlil qilishni, boshqalarning hissiy holatini sezishni va kasbiy faoliyatda ularga mos pedagogik yondashuvni tanlashni o‘rganadilar.

Dramatik texnikalar ta’lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki shaxsni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Ayniqsa, ularning refleksiv xususiyati pedagogning o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarashini ta’minlaydi.

Dramatik texnikalar — bu pedagogik faoliyatni jonlantirish, talabalarning faol ishtirokini ta’minlash va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan sahnalashtirish, rolga kirish, improvizatsiya, pedagogik vaziyatlarni modellashtirishga asoslangan metodlar majmuasidir.

Asosiy dramatik texnikalar quyidagilardan iborat:

- bir kishilik teatr;
- rolli o‘yinlar;
- forum-teatr;
- debat tarzidagi pantomimalar;
- aktyorlik texnikasi;
- dramatik dialoglar va monologlar.

O‘quv jarayonida “ijro”, “spektakl” va “sahna” elementlari asosan standart dars modeli doirasidan tashqarida ko‘rilgan bo‘lsa, zamonaviy pedagogik paradigmalarda teatr va dramatik metodlar, rolli simulyatsiya, obrazli o‘yin hamda psixodramatik ishlanmalar ta’limning ichki tarkibiy komponentlari sifatida faol qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar o‘quv jarayonida interaktiv va faol o‘rganish muhitini yaratib, talabalarni tanqidiy fikrlash, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga yo‘naltiradi. Shu jarayonning eng ta’sirchan yo‘nalishlaridan biri sifatida “bir kishilik teatr” metodi o‘quv jarayonida o‘ziga xos, yuqori darajada samarali metod sifatida shakllanib bormoqda.

Quyida talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi **dramatik texnikalar**ga to‘xtalib o‘tiladi:

“Bir kishilik teatr” (monoteatr). Monoteatr talabaning bir o‘zi obraz yaratishi, bir o‘zi pedagogik jarayonga doir ziddiyatli vaziyat, dramatik dinamikani sahnalashtirishi, bir o‘zi dramaturgiya g‘oyalarini ongda kompozitsion jihatdan uzviylashtirib, uni sahna ko‘rinishi shakliga keltirishi, bir o‘zi mazmunning semantik qatlamlarini o‘qishi va auditoriya bilan kommunikativ nutq vositasida bog‘lanish jarayonidir. Mazkur texnikaning o‘ziga xos ustunligi shunda-ki, bunda talaba tashqi tayanch subyektlarsiz ham o‘z psixik energiyasini, nutqiy faolligini va ijodiy tafakkurini tahliliy boshqarishga majbur bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida meta-intellektual rivojlanishning o‘ta samarali ichki mexanizmlaridan biri sifatida ta’limda yuqori qiymat yaratadi.

Mazkur metod, pedagogik jihatdan qaralganda, “subyektning o‘zini ijobiy tasdiqlash mexanizmi”ni shakllantiradi. “Bir kishilik teatr” texnikasi o‘quv jarayonida ijodiy tafakkur, nutqiy madaniyat, tanqidiy fikrlash, mustaqil ishlash va o‘ziga bo‘lgan ishonchni bir vaqtning o‘zida kompleks rivojlantira oladigan samarador pedagogik metod bo‘lib bormoqda. Bu metod nafaqat bilim beradi, balki shaxsning ichki intellektual mexanizmlarini ham mustahkamlaydi. Shu sababli, ushbu metodlarni ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish pedagogik transformatsiyaning ajralmas va ilmiy asosli tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu texnikadan talabalarga o‘quv jarayonida mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin.

Didaktik drama texnologiyasidan ta’lim jarayonida foydalanish pedagog kadrlar tayyorlash tizimida yangi, amaliy va real natija beruvchi texnologiya sifatida ko‘rilmoqda. Bu texnologiya mohiyatan talabani faqat tinglovchi holatida emas, balki faol subyekt, qaror qabul qiluvchi, pedagogik vaziyatni boshqaruvchi, o‘z amaliy xatti-harakatining oqibatini ko‘ra oladigan va uni baholay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon an’anaviy ma’ruza, an’anaviy seminar, an’anaviy topshiriq tizimidan tub farq qiladi. Chunki didaktik drama jarayonida har bir talaba pedagogik faoliyatning “real harakat mexanizmi”ni o‘z tanasida, o‘z miyasida, o‘z nutqida, o‘z hissiy boshqaruvida amalda boshdan kechiradi. Talaba biror vaziyatni faqat eshitmaydi yoki faqat o‘qimaydi. Talaba uni “bajaradi”. Bajarilgani sababli talaba shu jarayon ichida o‘zida yangi xulq shakllanishini real kuzatadi. Didaktik drama texnologiyasining o‘zi pedagogik kompetensiya bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq. Pedagogik kompetensiya bu o‘qituvchi tomonidan dars jarayonini boshqarish, o‘quvchi bilan muloqot yuritish, dars jarayonidagi muammolarni hal qilish, dars samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni tanlash va qo‘llash ko‘nikmalaridan iborat. Didaktik drama ana shu ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta kanal orqali shakllantiradi: nutq (verbal), tana (neverbal), hissiy boshqaruv (emotsional), fikrlash (kognitiv), refleksiya (fikrni qayta ishlash). Shuning uchun drama texnologiyasi kompetensiya tarkibini fragmentlab emas, integral ko‘rinishda rivojlantiradi.

Kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan yana biri – rolli o‘yinlar hisoblanadi. Rolli o‘yinlar orqali talabalarda muayyan pedagogik vaziyatga mos munosabat va muloqot uslubi shakllanadi: ular dars o‘tish, ota-onalar bilan suhbat, sinf rahbariyati

kabi jarayonlarni o‘z boshlaridan kechirib ko‘rib, tegishli ko‘nikmalarni hosil qiladilar. Improvizatsiya metodi talabalarning topqirlik, tezkor fikrlash va moslashuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi. Bu borada oldindan tayyorgarliksiz berilgan vaziyatda to‘g‘ri yo‘l topish pedagog uchun muhim kompetensiya ekani shubhasiz.

Forum-teatr talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan biri hisoblanadi. Bu texnika talabalarga murakkab nizoli vaziyatlarni hal qilishni *jamoaviy muhokama* orqali o‘rgatadi. Mashg‘ulot davomida bir guruh sahnani ijro etsa, boshqalar ularni kuzatadi va istalgan paytda spektaklni to‘xtatib, o‘z taklifini kiritishi mumkin. Bu usul orqali talabalarda *tanqidiy fikrlash* va *muammo yechishning alternativ yo‘llarini topish* qobiliyati shakllanadi. E’tiborlisi, forum-teatr jarayonida har bir talaba o‘z hayotiy tajribasi va qarashlarini muhokamaga qo‘shadi, natijada muammo turli nuqtayi nazarlardan yoritilib, chuqurroq tushuniladi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘qituvchi rejissyor va fasilitator (jarayon boshqaruvchisi) rolini bajarib, muhokamani maqsadli yo‘naltiradi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantiruvchi dramatik texnikalardan pedagogik dramatizatsiya ta’lim jarayonini teatrlashtirish, o‘quv materialini dramatik shaklda sahnalashtirishni maqsad qiladi. Bu texnika o‘qitishning ichki mohiyatini kichik spektakl yoki rolli o‘yin tarzida namoyon etishni nazarda tutadi. Pedagogik dramatizatsiya talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning diqqatini jalb etadi va ta’limiy vaziyatlarni “jonli” qilib ko‘rsatishga imkon beradi. Bu uslub nafaqat maktab talabalari, balki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ham samarali qo‘llaniladi. Chunki u nazariy bilimlarni amaliy ko‘rinishda tatbiq etish va ko‘rgazmali o‘rganishni ta’minlaydi.

Debat tarzidagi pantomimalar – zamonaviy ta’lim texnologiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu texnika dramatik pedagogika, neverbal muloqot va akademik debat texnologiyalarining integratsiyasi asosida shakllangan bo‘lib, talabalarning kognitiv, affektiv va psixomotor kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda pantomima tana harakati, mimika va jestlar orqali ma’no uzatishga asoslangan san’at turi sifatida talqin qilinadi, debat esa muayyan muammo yuzasidan qarama-qarshi pozitsiyalarni dalillash, tahlil qilish va baholash jarayoni sifatida izohlanadi.

Talabalarda kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishda aktyorlik texnikasi muhim ahamiyatga ega. Bu texnika teatr pedagogikasiga xos bo‘lgan, sahnadagi harakat va ifoda usullarini ta’lim jarayonida qo‘llash texnologiyasidir. Didaktik drama asosidagi yangi modelda aktyorlik texnikasi o‘qituvchi va talabalarning o‘z rollarini ijro etish, ovoz, imo-ishora, yuz ifodasi kabi omillarni ongli ravishda qo‘llashini nazarda tutadi. O‘qituvchilar teatr o‘yinlari va mashqlaridan foydalanib, auditoriya muhitni boshqarish va talabalar diqqatini jalb etishda katta samara ko‘rishlari mumkin.

Talabalarning kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda ijtimoiy drama texnikasi didaktik imkoniyatlari kengligi bilan ajralib turadi. Guruh ishtirokchilari hayotdagi muayyan ijtimoiy vaziyatni birgalikda sahnalashtirib, uni jonli tarzda hal etishga urinadigan o‘yin-metoddir.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ijtimoiy drama doirasida ishtirokchilar oldindan tayyorlanmagan holda o‘zaro kelishilgan bir ijtimoiy muammoni ijro etadilar. Undan ko‘zlangan maqsad – guruh a’zolarining umumiy hayotiy tajribasiga tayangan holda muammoni chuqurroq anglash va yechim topishdir.

Didaktik drama dramatik texnikalarni maqsadli, tizimli va pedagogik vazifalarga mos holda qo‘llashga asoslangan integrativ metod bo‘lib, u talabalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsiy va emotsional sifatlarni ham rivojlantiradi. Kasbiy mahorat pedagogning bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining uyg‘un majmui hisoblanadi. Musiqa madaniyatining

refleksiv-ta’sirchan yondashuvi ushbu komponentlarning rivojlanishiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

- **Kommunikativ mahorat** – musiqiy obrazlar orqali his-tuyg‘ularni anglash va ifodalash;
- **Pedagogik takt** – emotsional sezgirlik asosida o‘quvchi bilan muloqotni moslashtirish;
- **Refleksiv mahorat** – musiqiy tajribani pedagogik faoliyat bilan taqqoslash;
- **Ijodiy yondashuv** – musiqadan ilhomlanib, dars jarayonini kreativ tashkil etish.

Didaktik dramaning afzalliklari:

- real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- o‘rganilayotgan bilimlarni emotsional idrok etish;
- refleksiv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- empatiya va pedagogik taktni shakllantirish.

Musiqa madaniyati insonning emotsional dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan san’at turi bo‘lib, u ta’lim jarayonida emotsional muhitni boyitadi. Pedagogik ta’limda musiqaning qo‘llanilishi:

- talabalarning emotsional sezgirligini oshiradi;
- estetik did va madaniy ongni shakllantiradi;
- refleksiv tafakkurni rivojlantiradi;
- dramatik faoliyatning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Musiqa dramatik sahnalashtirish bilan uyg‘unlashganda, pedagogik vaziyatlarning mazmuni chuqurroq idrok etiladi va talabalarda kuchli emotsional aks-sado uyg‘otadi. Bu esa pedagogik tajribani shaxsiylashtirishga olib keladi.

Refleksiv-ta’sirchan yondashuv — bu ta’lim jarayonida shaxsning ichki kechinmalari, hissiy tajribasi va ongli tahlilini uyg‘unlashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Dramatik texnikalar va musiqa madaniyati ushbu yondashuvning asosiy vositalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuv quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- kasbiy o‘zini anglashning rivojlanishi;
- pedagogik refleksiyaning chuqurlashuvi;
- emotsional intellekt va empatiyaning shakllanishi;
- pedagogik muloqot madaniyatining yuksalishi.

Talaba dramatik vaziyatda faol ishtirok etib, musiqa orqali emotsional ta’sirni his etar ekan, u o‘zining kasbiy pozitsiyasini ongli ravishda qayta ko‘rib chiqadi.

Dramatik texnikalar va musiqa madaniyatining integratsiyasi pedagogik ta’limda innovatsion muhitni yaratadi. Bu jarayonda:

- nazariya va amaliyot uyg‘unlashadi;
- talabalarning ijodiy faolligi oshadi;
- ta’lim jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan tus oladi.

Integratsion yondashuv pedagogik faoliyatni san’at bilan boyitib, ta’limni faqat bilimlar majmui emas, balki hayotiy tajriba sifatida anglash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta’limda dramatik texnikalar va musiqa madaniyatining refleksiv-ta’sirchan yondashuvi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini, emotsional-intellektual salohiyatini va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirib, zamonaviy pedagog shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvni pedagogik ta’lim amaliyotiga keng joriy etish pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukadirov A.A. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Ashurova D.M. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Bolton G. Drama as Education: An Argument for Placing Drama at the Centre of the Curriculum. – London: Longman, 1998.
4. Bowell P., Heap B.S. Planning Process Drama. – London: David Fulton Publishers, 2013.
5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995.
7. Heathcote D., Bolton G. Drama for Learning: Dorothy Heathcote’s Mantle of the Expert. – London: Heinemann, 1995.
8. Kodirov B.R. Pedagogik refleksiya va kasbiy rivojlanish. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
9. McNiff S. Art as Research: Opportunities and Challenges. – Chicago: Intellect Books, 2011.
10. Nazarova G.S. Musiqa madaniyati va estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: Musiqa, 2017.
11. O‘rinboyeva M.N. Pedagogik ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
12. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
13. Slade P. Child Drama. – London: University of London Press, 1954.
14. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – Moscow: Progress Publishers, 2004.
15. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psikhologiya. – Moskva: Logos, 2016.

KO‘ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI BUZILISHLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xoliqov Azamat Qahramonovich[1], Xayitova Farida Kuchkarovna[2]
[1]Axborot texnologiyalari va menejment universiteti professori,
[2]Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19449514

Annotatsiya. *Ushbu maqola ko‘zi ojiz bolalar nutqiy rivojlanishining pedagogik - psixologik o‘ziga xos jihatlarini nazariy jihatdan ochib berishga qaratilgan bo‘lib, unda hozirgi kunda ko‘zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogic hamda psixologik jihatdan o‘rganilgan.*
Kalit so‘zlar: *Nutq, Sezgi, Sensorika, psixika, sezgi, xotira, Korreksiya, Verbal, Konpensatsiya, Lingvistika.*
Аннотация. *Данная статья направлена на теоретическое раскрытие педагогических и психологических специфических аспектов развития речи у слепых детей, в рамках которого в настоящее время изучается развитие речи у слепых детей с педагогической и психологической точки зрения.*
Ключевые слова: *Речь, Ощущение, Сенсорный, психика, ощущение, память, Коррекция, Вербальный, Компенсация, Лингвистика.*
Abstract. *This article is aimed at theoretically revealing the pedagogical and psychological specific aspects of the speech development of blind children, in which the development of speech in blind children is currently studied from a pedagogical and psychological perspective.*
Keywords: *Speech, Sensation, Sensory, psyche, sensation, memory, Correction, Verbal, Compensation, Linguistics.*

Kirish: Zamonaviy maxsus pedagogika va tiflopedagogika fanlarida ko‘zi ojiz bolalar nutqining rivojlanishi muammosi dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ko‘zi ojiz bolalarda nutq rivojlanishi umumiy rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi. Garchi “Tiflopedagogika” atamasi zamonaviy bo‘lsada, uning g‘oyaviy-pedagogik ildizlari sharq mutafakkirlari asarlarida mujasam bo‘lib, hozirgi kunda bolalar ta’lim-tarbiyasining mexanizmi ushbu manbalarga tayanadi.

Ko‘zi ojiz bolalar bilan korreksion ishni tashkil etishda ulardagi individual psixologik-pedagogik va jismoniy imkoniyatlarni hisobga olish talab etiladi. Bu borada Sh.E.Toxtiyarova ta’limning universal dizaynidan foydalanish (TUD) – ushbu yondashuvning individual xususiyatlaridan qat’iy nazar. Barcha o‘quvchilar uchun qulay va tushunarli metodlarni: differensial ko‘rsatmalarni qo‘llash, kollaborativ yondashuv, xulq-atvorni boshqarish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishni o‘z izlanishida keltirib o‘tgan. [1] ‘O‘zbekiston-2030’ taraqqiyot strategiyasiga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, yoshlar ta’limi, kasb-hunar egallashi, til o‘rganish, raqobatbardosh kadr bo‘lishlari mamlakat kelajagini belgilabgina qolmay balki, uni dunyo hamjamiyatida nufuzini turli sohalarda yuksaklarga olib chiqadi.[2]

Mavzuning dolzarbligi: R.V.Ovcharova psixologik-pedagogik yordamga to‘liqroq ta’rif beradi. Muallifning fikricha, birinchi holda, u shaxsni qo‘llab-quvvatlash va uni qiyin, muammoli vaziyatlarda yo‘naltirish, shuningdek, individual-shaxsiy salohiyatning tabiiy rivojlanishi bilan birga keladi. Ikkinchi holda, bu optimal ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta’minlash, psixologik salomatlikni saqlash va bola shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishi va uning shakllanishini ta’minlash uchun turli xil psixologik usullar bilan ifodalangan o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmuasidir. [3]

Nutq- bu insonning fikrini, hissiyotini va ehtiyojini til vositalari orqali ifodalash jarayoni bo‘lib, u muloqot va tafakkurning asosiy qurolidir. Insonning kommunikativ, kognitiv (bilish), regulyativ va emotsional rivojlanishi nutq bilan uzviy bog‘liq. Nutqiy faoliyat mehnat, o’yin, o’quv, kommunikativ va bilish faoliyati, jumladan mnestik kabi faoliyatning xilma-xil turlarini namoyon etib, ularga “xizmat qiladi”. [4] Nutq bolaning ruhiy rivojlanishida muhim rol o’ynaydi (L.S.Vigotskiy, I.A.Zimnyaya, A.N.Leontyev). O’z navbatida imkoniyati cheklangan bolalarning ma’lum guruhida ruhiyatning turli xildagi buzilishlari (birinchi navbatda – intellektual rivojlanishning buzilishlari) odatda tilning qator komponentlarining (birinchi navbatda – semantik, sintaksik va leksik) rivojlanishdan ortda qolishiga yoki patologik buzilishiga olib keladi. [5]

Nutq- murakkab psixofiziologik tizim hisoblanadi. Nutqning lingvistik asosini esa-til, uning tizim sifatida barcha komponentlarini nazarda tutadi. Lingvistika – tilni bir butun tizim sifatida qamrab olib, uning fonetik-fonematik, leksik-grammatik komponentlarini o‘rganishni ko‘zda tutadi. [6]

Nutqiy funksiyalarning shakllanishida artikulyasion motorikaning rivojlanganligi muhim rol o‘naydi. Bosh miyadagi nutq zonalarining rivojlanishi ko‘p jihatdan nutqiy kinesteziyalarga bog‘liq (nutq jarayonidagi artikulyasiya a’zolarining harakatlarida yuzaga keladigan impulslarga) bo‘lib, artikulyasiya buzilishida ular ham buziladi. Bosh miya nutq maydoniga keladigan afferent impulslarni kamayishi, ularning yetilishini kechiktiradi. Bu nutqning to‘liq rivojlanishini orqada qolishiga olib kelishi mumkin deb takidlaydi olima M.B.Mamatova. [7] Darhaqiqat analizatorlarimiz orqali olinadigan ma’lumotlar to‘liq, yorqin qabul qilinishi bu bilish jarayonlarining tizimli ishlashiga imkon beradi va nutqning rivojlanishi orqada qolmaydi.

Bolalar nutqi maromida bo‘lishi uchun bosh miya po‘slog‘idagi nutq markazlari, sezgi organlari ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Bu o‘rinda ayniqsa nutqni harakatga keltiruvchi va nutqni eshituvchi analizatorlarning rivojlanishi juda muhim. [8] Jismonan va aqlan meyorda rivojlanayotgan bola nutqi uch yoshda to‘liq rivojlanib, atrofdagilar bilan kommunikativ aloqani o‘rnata olish bilim, ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda nutq rivoji o‘ziga xos bo‘lib, vizual tajribaning cheklanganligi sababli so‘zlarning ma’nosi ko‘pincha yetarlicha aniq shakllanmaydi. Nutqda verbalizm (so‘z ko‘p, ammo mazmun yuzaki) holati kuzatiladi. Bunday bolalarda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar asosan eshitish, sezgi va harakat analizatorlari orqali shakllanadi. Shu sababli ularning nutqini rivojlantirishda multisensor yondashuv, ya’ni bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi analizatorlariga tayangan holda ta’lim berish muhim sanaladi.

Ko‘zi ojiz bolalar nutqini rivojlantirishning sensor kompensatsiya, konkretlik va amaliy yo‘naltirilganlik, faol nutqiy muloqot kabi pedagogik tamoyillaridan doimiy samarali foydalanish korreksion-pedagogik ishning samaradorligini oshiradi. [9]

Zaif ko‘ruvchi bolalar bilan logopedik mashg‘ulotlami tashkil etishda asosiy e’tibor saqlanib qolgan ko‘rish faoliyatidan foydalanish imkoniyatiga qaratiladi zarur boigan hajmdagi, rangdagi didaktik material), relefli rasmlar, “ajoyib xaltachalar”, kubik va qalamchalar (tovush, bo‘g‘in va gaplarni belgilash uchun) ishlatiladi. Predmetlar dunyosining keng qamrovligi haqidagi tasavurlarini

Metodlari:

1. Adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish,
2. Ko‘zi ojiz bolalar nutqini pedagogik-psixologik qiyoslash,
3. mavzuga oid jarayonlarni kuzatish,
4. ko‘zi ojiz bolalarda nutq rivojlanish darajalarini o‘rganish.

shakllantirishda tabiiy ko‘rgazmali qurollar ahamiyati juda kattadir. Mashg‘ulotlar o ‘yin orqali olib borilishi shart, sababi ko‘rishdagi chuqur nuqsoni mavjud bo‘lgan bolalarda o‘yin faoliyati juda kech shakllanadi.

Birinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishni rejalashtirayotganda bu bolalaming

yaxshi nutqiy bazasi inobatga olinib, asosiy diqqat nutqning fonetik tomonini rivojlantirishga qaratiladi, eshitish diqqatini rivojlantiruvchi o‘yin va mashqlar beriladi. Ko‘zi ojiz bolarning taqlid qilishi qiyinlashgani sababli ularga tovushlar mexanik usullar bilan qo‘yiladi.

Ikkinchi darajali nutq rivojlanganligi aniqlangan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ta’simi rejalashtirayotganda birlamchi guruh bolalari bilan olib boriladigan ishning barcha bo‘limlari saqlab qolinadi va inobatga olinadi. Lekin bu yerda asosiy diqqat so‘z boyligini oshirish, fonematik tahlil va sintezni rivojlantirishga qaratiladi. [10]

Uchinchi va to‘rtinchi darajali bolalar bilan ish olib borishda logopedlar

(tiflopedagog va tarbiyachilar bilan kelishilgan holda) ta ’lim va o‘yin, amaliy faoliyatini korreksiyalashga qaratilgan elementlarni kiritadi. Bunda motor malakalari, chamalash va ko‘rib-yasash malakalari mavjud bo‘lishi kerak. Bu ish nutq malakasini rivojlantirish va unga mos tushunchalarni shakllantirishni uzviy bog‘laydi. Buning asosida bolalarda atrofimizdagi olam haqidagi chuqur tushunchalar va bilimlarni shakllantirish yotadi. Bu guruhdagi ko‘r va zaif ko‘ruvchi bolalaming xususiyatlarini inobatga olgan holda asosiy diqqat ularda lug‘at boyligini oshirish, so‘zni predmet obrazi bilan to‘g‘ri solishtirish, umumlashtiruvchi tushunchalarni, grammatik tuzum va mustaqil nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

Psixologiya fanida nutq shaxs psixik rivojlanishining markaziy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ko‘zi ojiz bolalarda esa nutq nafaqat muloqot vositasi, balki atrof-olamni bilish, tajribalarni umumlashtirish va ichki psixik jarayonlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizm hisoblanib, ko‘rish cheklanishi sababli sezgi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur jarayonlari o‘ziga xos rivojlanishi kuzatiladi. Ko‘rish sezgisining yo‘qligi yoki keskin pasayib ketishi bolalarda tashqi olam obrazlarining to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Ko‘zi ojiz bolalarda nutq psixologik jihatdan kompensatorlik vazifani bajaradi: bilish faoliyati kengaytirish, atrofni o‘rganishda yetishmayotgan vizual axborotni eshitilgan va tushunilgan ma’lumotlar bilan to‘ldirish, ijtimoiy tajribani o‘rganish kabi bir qator vazifalarni bajaradi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik tekshirish bolaning me’yorida rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tiflopsixologlar tomonida ishlab chiqilgan nazariya asosida olib boriladi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalami tekshirish jarayonidaulaming rivojlanishi ham me’yorida rivojlanayotgan bolalarningrivojlanishining umumiy qonuniyatilariga mos kelishi kuzatilgan.Bularga quyidagilar kiradi: psixik rivojlanish jarayonlarining senzitiv davrini

mavjudligi; psixik jarayonlaming rivojlanishini ketmaketligi, psixik rivojlanishda faoliyatining roli, nutqningoliy psixikjarayonlami shakllanishidagi roli; psixik rivojlanishda ta'limningetakchi roli (L.S.Vigotskiy, V.I.Lubovskiy).L.S.Vigotskiy turli nuqsonlarga bolalarni psixik rivojlanishiniqonuniyatlarini o'rganish jarayonida turli nuqsonlarda namoyonbo'ladigan umumiy o'ziga xos qonuniyatlari ajratgan. U anomaliyani yuzaga keltiruvchi sabablar birlamchi nuqson sifatida keluvchipsixik faoliyatni asosiy nuqsonlarini yuzaga keltiradi, natijada bubolani psixik rivojlanishini o'ziga xos o'zgartirib, psixik faoliyat ikkilamchi, uchlamchi va x.k. nuqsonlarini yuzaga keltiradi.Umumiy qonuniyatlar rivojlanishida nuqsoni bo'lgan anomal toifadagi barcha bolalarga tegishli bo'lib, nutqiy muloqotidahamda harakat nuqsonlarida o'ziga xos ifodalanib, anomaliyaningturi va turli shaklidan namoyon bo'ladi. [11]

V.I.Lubovskiy va J.I.Shif ko'rsatishicha, birlamchi va ikkilamchi nuqsonlaming bo'lishi bolalami tashqi olamdan oluvchi ma'lumotlami chegaralab qo'yadi. Jismoniy rivojlanishida ham etarlicha o'zgarishlar kuzatiladi -harakatlarining aniqligi, intensivligi buziladi, yurish ko'nikmalari vaboshqa harakat aktlari o'ziga xos bo'lib qoladi. [12] Sekin -asta boladao'ziga xos, o'zining psixologik tizimi shakllanadi, bu me'yoridarivojlanuvchi bolaning rivojlanishini biron-bir tizimi bilan sifat vatuzilishi jihatdan o'xshamaydi, u o'z ichiga rivojlanishning turlidarajalarini birlamchi nuqsonga ta'siri, shuningdek rivojlanishningyangi kompensator yo'llarining yaratishga asoslangan. [13] Bu ko'rishdanuqsoni bo'lgan bolalarda funksiyalararo bog'liqlikni ham o'zigaxos amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shuning uchun ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalaming psixologik tizimini rivojlanishi hamdashakllanishi u bilan ilk bolalik davridanoq kompensator jarayonlarini shakllantirish hamda korreksion ishni bog'liq ravishda olibborishga bog'liq bo'ladi. [14]

Xulosa. Ko'rish imkoniyati cheklangan bolalarda nutq rivoji o'ziga xos bo'lib, vizual tajribaning cheklanganligi sababli so'zlarning ma'nosi ko'pincha yetarlicha aniq shakllanmaydi. Nutqda verbalizm (so'z ko'p, ammo mazmun yuzaki) holati kuzatiladi. Bunday bolalarda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar asosan eshitish, sezgi va harakat analizatorlari orqali shakllanadi. Shu sababli ularning nutqini rivojlantirishda multisensor yondashuv, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi analizatorlariga tayangan holda ta'lim berish muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khalikov, A. K. (2023). SCIENIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ADAPTATION OF YOUNG GRADUATES WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN LIFE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 253-264.
2. Qahramonovich, X. A. (2023). KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTDA IJTIMOIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 12), 561-563.
3. Qahramonovich, X. A. (2026). VOCATIONAL GUIDANCE OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF INCLUSIVE EDUCATION. *Shokh Articles Library*, *1*(1), 563-566.
4. Khalikov, A. (2024). PROFESSIONAL FAULTS IN THE ACTIVITY OF A TEACHER. *Science and innovation*, *3*(B9), 61-63.
5. Khalikov, A. (2023). PRINCIPLES AND METHODS OF INCREASING TEACHING EXCELLENCE IN THE MODERN EDUCATIONAL SPACE. *Science and innovation*, *2*(B11), 164-167.

6. Khalikov, A. (2023). COMMUNICATIVE METHODS OF COMMUNICATION WITH STUDENTS. *Science and innovation*, *2*(B11), 491-494.
7. Khalikov, A. (2023). THE SET OF ABILITIES THAT CHARACTERIZE THE "PEDAGOGICAL SKILL" OF A TEACHER. *Science and innovation*, *2*(B11), 160-163.
8. Sh.E.Toxtiyarova Boshlang`ich sinf o`quvchilarini inklyuziv ta`limga tayyorlashning pedagogic-korreksion strategiyalarini takomillashtirish mavzusidagi (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati (16-b) T.2024-YIL
9. Власюк М.В. Психолого-педагогическое сопровождение обучающихся с гиперактивностью в условиях общеобразовательной организatsii, реализующей инклюзивное обучение. Инклюзивное образование: стратегии образовательных траекторий и современные механизмы непрерывного развития: //Материалы Межрегиональной заочной научно-практической конференции. Кострома, 25 мая – 31 июля 2020. – С. 87
10. Raxmatillayeva Gulnoza Shavkatovnaning "Nutqi to"liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish" Mutaxassislik: 5A 111901 – Logopediya Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan DISSERTATSIYA (29-bet)
11. M.B.Mamatova Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar kinetic-kinestetik praksisini rivojlantirish texnologiyasi mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (13-b)
12. Sh.D.Aripova: Bolalar nutqining grammatik qurilishini rivojlantirishda korreksion-pedagogik ish tizimi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati (11-b)
13. Logopediya: darslik/ M.Y. Ayupova; 0 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus t a 'lim vazirligi. — T.: 0 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. —560 b. (429-430-betlar)
14. KO'ZI OJIZ BOLALARNI PEDAGOGIK PSIXOLOGIK O'RGANISH. Abduvaliyeva I.B. Qudratova B.L. Journal of Research in Innovative Volume: 1 Issue: 11 Year: 2024 Teaching and Inclusive Learning ISSN: 3030-3036 | http://journals.proindex.uz(41-42-betlar)

MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANIDAN TALABALARNING O‘QUVCHANLIK INDEKSINI MIQDORIY BAHOLASH

Achilova Dilnoza Axmatovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Amaliy informatika kafedrasi dotsenti,
di-ahmatovna@kiut.uz, Shota Rustaveli ko‘chasi, 156, +99893-3006454
https://doi.org/10.5281/zenodo.19466511

Annotatsiya. *Maqolada “Muhandislik grafikasi” fanini o‘rganish jarayonida talabalarning o‘qish qobiliyatini miqdoriy baholash metodologiyasi bayon etilgan. Tadqiqot kvalimetriya tamoyillariga asoslanib, talabalarning bilish qobiliyatlari dinamik xususiyatlari, xotiraning transformatsiyasi hamda fazoviy tafakkurning rivojlanishini tahlil qilishga qaratilgan. O‘quvchanlik uch daraja orqali ko‘rib chiqiladi: determinatsiyalangan daraja (materialni eslab qolish va berilgan algoritmlar asosida amallarni bajarish), texnologik daraja (ma’lum algoritmlar kombinatsiyasidan foydalangan holda bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash) va metodologik daraja (nostandart masalalarni hal etishda bilimlardan ijodiy foydalanish).*

“Muhandislik grafikasi” fanining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi, chunki ushbu fan rivojlangan fazoviy tasavvur hamda grafik obrazlar bilan operatsiya qilish qobiliyatini talab etadi. Muallif “o‘quvchanlik indeksi” (LI) tushunchasini joriy etadi, u ikki komponentni o‘z ichiga oladi: fazoviy tafakkur indeksi (SRI) — Rudolf Amthauer psixometrik testlari asosida aniqlanadi, hamda o‘zlashtirish indeksi (LPI) — turli murakkablik va qiyinchilik darajasidagi grafik masalalarni yechish natijalariga asoslanadi. Topshiriqlarni to‘rt daraja bo‘yicha tasniflash talabalarning geometrik-grafik tayyorgarligini kompleks diagnostika qilish imkonini beradi.

Pedagogik tajribalar fazoviy tasavvur hamda grafik masalalarni yechish ko‘nikmalarining rivojlanishida ham ijobiy, ham salbiy dinamikani aniqladi. Fazoviy tafakkur va akademik o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik nochiziqli xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. O‘quvchanlik indeksini joriy etish talabalarning tayyorgarlik natijalarini obyektiv baholash, o‘quv jarayonini boshqarish hamda “Muhandislik grafikasi” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Tayanch so‘z va tushunchalar*: o‘quvchanlik, fazoviy tafakkur, muhandislik grafikasi, vazifalarning qiyinligi va murakkabligi, miqdoriy baholash, ta’lim jarayoni samaradorligi.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini modellashtirish jarayoni o‘quv fanini o‘zlashtirish dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro ta’sirini o‘rganishni nazarda tutadi. “O‘quvchanlik” tushunchasi talabaning bir necha komponentlardan iborat bo‘lib, ular dinamik xarakterga ega va muayyan talabaning psixologik xususiyatlari bilan bevosita hamda bilvosita bog‘liqdir. Talaba xotirasining o‘zgarishi individual xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli, o‘quvchanlik talabaning axborotni qabul qilish va uni qayta ishlash jarayonida xotirasining o‘zgarish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

O‘quvchanlikning uch darajasi farqlanadi: determinatsiyalangan daraja — materialni eslab qolish va berilgan algoritmlar asosida amallarni bajarishni nazarda tutadi; texnologik daraja — yangi bilimlarni turli amaliy vaziyatlarda qo‘llash usullarini egallash, shu jumladan, mavjud algoritmlarni tanlash va kombinatsiyalash bilan bog‘liq; metodologik daraja esa olingan bilimlarni

yanada murakkab va nostandart masalalarni hal etishda qo‘llash usullarini o‘zlashtirish bilan tavsiflanadi. [1]

Determinatsiyalangan o‘quvchanlik asosida talabaning elementar bilim tuzilmalari shakllanadi; texnologik o‘quvchanlik kombinator tuzilmalar rivojlanishini ta’minlaydi; metodologik o‘quvchanlik esa bilimlardan yangi kontekstlarda foydalanish va masalalarni hal etishning original usullarini yaratishga imkon beruvchi kreativ tuzilmalarni shakllantiradi.

Hozirgi kunda ma’lum bo‘lgan tadqiqotlarda talabaning “o‘quvchanlik” xususiyati o‘rganilayotgan obyektda tegishli ierarxik tuzilmalar mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu tuzilmalar bilan o‘quvchanlikni moslashtirish uning tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi, ular esa muayyan faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydi. Mazkur komponentlar uchta asosiy soha doirasiga kiradi: predmet-ilmiy soha — bunda muayyan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha bilimlar allaqachon shakllangan; kognitiv soha — shaxsning aqliy qobiliyatlari tizimi va metodologik ko‘nikmalar; motivatsion soha — yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj.

Turli mualliflar tomonidan o‘tkazilgan “o‘quvchanlik” ko‘rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan testlar “o‘quvchanlik” tushunchasining determinatsiyalangan, texnologik va metodologik tarkibiy qismlari o‘rtasida turli o‘quv fanlari kesimida ma’lum darajada korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini hamda ushbu komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning dinamik xususiyatga ega ekanligini aniqladi. [2, 3, 4, 5, 6]

Usullar. “Injenerlik grafikasi” o‘quv fanining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u talabalardan rivojlangan fazoviy tafakkur va fazoviy tasavvurni talab qiladi. Muallif tomonidan o‘tkazilgan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, fazoviy tafakkur talabalarning turli fanlar bo‘yicha umumiy bilim darajasi, umumiy eruditsiyasi hamda motivatsiyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emas. Ko‘plab hollarda fazoviy tafakkur shaxsning tug‘ma xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Muallif “Injenerlik grafikasi” faniga nisbatan “o‘quvchanlik indeksi” tushunchasini ikki komponentga ajratishni taklif etadi: fazoviy tafakkur indeksi — Rudolf Amthauer testlari asosida aniqlanadi, hamda grafik topshiriqlarni I, II, III, IV darajadagi murakkablik va qiyinchilik bo‘yicha yechish natijalariga asoslangan grafik axborotni “operatsiya qilish” indeksini aniqlash bo‘yicha mualliflik konsepsiyasi. [8]

Rudolf Amthauer testlari — bu psixometrik topshiriqlar bo‘lib, quyidagi qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan: fazoviy tasavvur; obyektlarni aqliy ravishda aylantirish qobiliyati; chizmalar va proeksiyalarni tushunish; muhandislik va texnik tafakkur. [7]

Rudolf Amthauer testlarining asosiy maqsadi — shaxsning obyektlar bilan ularni real manipulyatsiya qilmasdan turib fazoda operatsiya qilish qobiliyatini aniqlashdan iborat.

Amthauer testlaridagi topshiriqlar turlari: figuralarni aqliy aylantirish; chizmalar va proeksiyalar; jismlarning yoyilmalari; fazoviy munosabatlar; ketma-ketliklar va qonuniyatlar.

Fazoviy tafakkur indeksi Amthauer testi natijalari asosida to‘g‘ri javoblar sonining umumiy javoblar soniga nisbati orqali aniqlanadi:

SRI = number of right answers/total answers (to‘g‘ri javoblar soni / umumiy javoblar soni)

$$SRI=\frac{R}{T}$$

SRI – fazoviy tafakkur indeksi (Spatial Reasoning Index)

R – to‘g‘ri javoblar soni

T – umumiy javoblar soni

Muallif konsepsiyasiga ko‘ra, barcha grafik topshiriqlar murakkablik va qiyinchilik darajasiga qarab to‘rt guruhga ajratiladi.

Muallif o‘zining “Muhandislik grafika masalalarning murakkablik va qiyinlik darajasini miqdoriy baholash metodikasi” nomli maqolasida grafik masalalarning murakkabligi va qiyinchiligini aniqlash formulalarini keltiradi.

Talabaning geometrik-grafik tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun unga grafik topshiriqlarning barcha to‘rt darajasidan beshtadan topshiriq taklif etiladi.

Muallif tomonidan “o‘quvchanlik indeksi” (LI) tushunchasi kiritilgan.

$$LI= SRI+LPI$$

bu yerda:

LI (Learnability Index) — talabalarning o‘quvchanlik indeksi;

SRI (Spatial Reasoning Index) — fazoviy tafakkur (fazoviy tasavvur) indeksi;

LPI (Learning Performance Index) — talabalarning o‘zlashtirish indeksi.

Tayyorlov darajasini aniqlash uchun muallif quyidagi metodikani taklif etadi: grafikda talaba tomonidan barcha grafik topshiriqlarni yechish natijalari aks ettiriladi.

Pedagogik tajriba davomida akademik guruh talabalari har oy oxirida o‘tilgan mavzular bo‘yicha turli murakkablik va qiyinchilik darajasiga ega bo‘lgan beshtadan masalani yechishlari lozim. [9]

1- va 2-grafiklarda A.F. ismli talabaning Rudolf Amthauer testlari hamda “Injenerlik grafikasi” faniga oid tipik masalalarni yechish natijalari keltirilgan.



1-rasm. Rudolf Amthauer testi natijalari.

Talabalarga bir xil murakkablik darajasiga ega bo‘lgan 20 ta test topshirig‘i taklif etildi, har bir to‘g‘ri javob 5 ball bilan baholandi. Grafikdan ko‘rinishicha (1-rasm), A.F. ismli talaba 20 ta testdan 9 tasini to‘g‘ri bajargan va maksimal mumkin bo‘lgan 100 balldan 45 ball to‘plagan.

Uning indeksi:

$$SRI=\frac{R}{T}=\frac{9}{20}=0,45$$

Ikkinchi grafikda (2-rasm) “Injenerlik grafikasi” fani bo‘yicha 4 ta murakkablik darajasiga ajratilgan 20 ta grafik masalani yechish natijalari keltirilgan.

Asosiy natijalar. Pedagogik tajribaning davom ettirilishi quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: har uch haftada o‘tkazilgan testlar jarayonida ayrim talabalar fazoviy tasavvur rivojlanishi hamda grafik topshiriqlarni yechish ko‘nikmalarining oshishi bo‘yicha ijobiy dinamikani namoyon

etdilar. Boshqa bir guruh talabalar esa Rudolf Amthauer testlari natijalari hamda grafik topshiriqlarni yechish ko‘nikmalari bo‘yicha salbiy dinamikani ko‘rsatdilar. 3-grafikda A.F. ismli talabaning “Injenerlik grafikasi” fanini o‘rganishning birinchi semestri yakunidagi geometrik-grafik tayyorgarlik natijalari keltirilgan.



2-rasm.

20 ta grafik masalani yechish natijalari.

20 ta masaladan A.F. ismli talaba I darajadagi 5 ta masalaning barchasini, II darajadagi 3 ta masalani, III darajadagi 1 ta masalani yechgan, IV darajadagi esa birorta ham masalani yecha olmagan.

$$LPI=\frac{3,5*5+4,5*3+5,5*1}{100}=0,355$$

Talaba A.F. uchun o‘rganuvchanlik indeksi (LI) quyidagicha hisoblanadi: birinchi daraja masalalar (I daraja): 5 ta × 3,5 ball = 17,5 ball; ikkinchi daraja masalalar (II daraja): 3 ta × 4,5 ball = 13,5 ball; uchinchi daraja masalalar (III daraja): 1 ta × 5,5 ball = 5,5 ball; to‘rtinchi daraja masalalar (IV daraja): 0 ta × 6,5 ball = 0 ball.

Jami yig‘gan ballari 100dan 36,5 ball bo‘ldi.

Talaba A.F. uchun o‘rganuvchanlik indeksi (LI) quyidagicha hisoblandi:

$$SRI+LPI=0,45+0,355=0,805$$

Test natijalarining ikki grafigini — Rudolf Amthauer testi hamda o‘quv dasturi bo‘yicha grafik topshiriqlarni yechish natijalarini vizual tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rtasida korrelyatsiya mavjud emas. Bundan tashqari, Rudolf Amthauer testlari natijalari o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalaridan yuqori bo‘lgan. Bunday grafiklar “Gidrotexnik qurilish” fakultetining birinchi kurs akademik guruhlaridagi har bir talaba uchun ishlangan.



3-rasm. Talaba A.F.ning birinchi semestr uchun test natijalari

E’tiborga molikki, semestr davomida A.F. ismli talaba fazoviy tasavvurni baholovchi Rudolf Amthauer **testlari natijalarini, garchi uncha katta bo‘lmasa-da, yaxshilagan, biroq o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalari o‘zgarishning nochiziqli xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shunga o‘xshash grafiklar “Gidrotexnik qurilish” fakultetining birinchi kurs akademik guruhlaridagi barcha talabalar uchun ishlangan. Bunda mualliflar talabalarning boshlang‘ich motivatsiyasi semestr davomida o‘zgarmagan degan farazdan kelib chiqqanlar.**

Xulosa. Muallif tomonidan Rudolf Amthauer metodikasi va mualliflik metodikasi asosida test natijalarini aniqlash hamda tahlil qilish bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajriba shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich bosqichda talabaning fazoviy tasavvuri bilan uning geometrik-grafik tayyorgarligi natijalari o‘rtasida bog‘liqlik mavjud emas. Ta’lim yakunida esa fazoviy tasavvur va geometrik-grafik tayyorgarlik o‘rtasida o‘rtacha darajadagi korrelyatsiya aniqlangan.

Shuningdek, o‘quv dasturi bo‘yicha test natijalari nochiziqli xususiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim talabalar semestr davomida bilim, ko‘nikma va malakalarining uzluksiz o‘sishini namoyon etgan bo‘lsa, boshqalari o‘quv jarayoni grafigidan muntazam ortda qolishni ko‘rsatgan.

Muallif tomonidan joriy etilgan o‘quvchanlik indeksi (LI) har bir talabaning geometrik-grafik tayyorgarligiga aniq miqdoriy tavsif beradi. Ushbu indeksdan foydalanish “Injenerlik grafikasi” fanini o‘qitishda o‘quv jarayonini samarali boshqarish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lebedeva E.V., Shipanova D.Yu., Konovalova M.E. (2016). Pedagogika universitetlari talabalarining vaqtni boshqarish va kasbiy o‘ziga xosligi. // Xalqaro ekologik va ilmiy ta'lim jurnali, 11(14), 6913–6924.
2. Torrans E.P. (1977). Torrance ijodiy fikrlash testlari. Lexington, Massachusets: Personnel Press.
3. Gilford J.P. (1968). Aql-idrok, ijodkorlik va ularning ta'lim uchun ahamiyati - San-Diego, Kaliforniya

4. Voronin A.N. (2020). Onlayn hamjamiyat subyektivligi fenomenini asosli nazariya usuli yordamida kontseptualizatsiya qilish. // Eksperimental psixologiya (Rossiya), 13(3), 4–14. DOI: 10.17759/exppsy.2020130301
5. Bogoyavlenskaya D.B. (2002). Ijodiy qobiliyatlar psixologiyasi. - Moskva: Akademiya.
6. Drujinin V.N. (2005). Ijodkorlik, uning tabiati va rivojlanishi // Psixologiya. Oliy iqtisodiyot maktabi jurnali, 2(3), 91–107
7. Gurevich K. M. Psixologik tahlil. — M., 1997.
8. Achilova D.A. Muhandislik grafika masalalarning murakkablik va qiyinlik darajasini miqdoriy baholash metodikasi // “Tarannum” ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy, publitsistik jurnal 2026/1 (№3) https://doi.org/10.5281/zenodo.18346580. 17-21 bb
9. Kuchkarova D.F., Achilova D.A. Muhandislik grafikasi va kasbiy ta'lim muammolari, L.N. Gumilyov nomidagi Yevrosiyo milliy universiteti, № 1 7-22 bb, 2024 г, Ostona, Qozog‘iston, DOI: 10.32523/2220-685x-2024-72-1-7-22, ISSN 2220-685X, eISSN: 2706-7254

ЦИФРОВАЯ ПЕРЕГРУЗКА СТУДЕНТОВ: ВЛИЯНИЕ НА ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ И АКАДЕМИЧЕСКУЮ УСПЕВАЕМОСТЬ

Abdullaxonova Ziyodaxon Abdullajon qizi
ziyodaaaa000@icloud.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659671

Аннотация. *В статье рассматривается проблема цифровой перегрузки студентов и её влияние на когнитивные процессы, такие как внимание, память и академическая успеваемость. Анализируются современные тенденции цифровизации образования, переход к автономному обучению и изменение роли преподавателя в образовательном процессе. Особое внимание уделяется использованию цифровых образовательных инструментов, включая маршрутные листы, QR-коды и образовательные платформы, способствующие повышению мотивации и эффективности обучения. На основе проведённого анализа и педагогического эксперимента обосновывается необходимость рационального использования цифровых технологий в образовательной среде для предотвращения перегрузки и повышения качества образования.*

Ключевые слова: *цифровизация образования, цифровая перегрузка, академическая успеваемость, внимание, память, автономное обучение, образовательные технологии, QR-коды, мотивация обучения, цифровая образовательная среда.*

Abstract. *This article examines the problem of digital overload among students and its impact on cognitive processes such as attention, memory, and academic performance. It analyzes modern trends in the digitalization of education, the transition to autonomous learning, and the changing role of the teacher in the educational process. Special attention is given to the use of digital educational tools, including route sheets, QR codes, and educational platforms that contribute to increasing motivation and learning effectiveness. Based on the conducted analysis and pedagogical experiment, the necessity of the rational use of digital technologies in the educational environment to prevent overload and improve the quality of education is substantiated.*

Keywords: *digitalization of education, digital overload, academic performance, attention, memory, autonomous learning, educational technologies, QR codes, learning motivation, digital educational environment.*

Введение. Современные тенденции образования диктуют новые условия перехода к цифровому образовательному пространству, в котором широко используются информационные технологии, применяются новые принципы и способы усвоения и передачи знаний, умений и навыков, определяются новые виды взаимодействия субъектов образовательного процесса, формируются новые рычаги воздействия на успеваемость учащихся. Исследованиями факторов и методов влияния на академическую успеваемость занимались учёные во все времена. Однако, особенно остро данная проблема обозначилась в период цифровой трансформации образовательной среды. С наступлением цифровой эпохи возникла острая необходимость переосмысления старых методов и подходов к образованию и чётко определились тенденции к формированию нового инновационного образовательного пространства. Для достижения высоких образовательных

результатов в условиях текущей цифровизации возникла потребность в поиске, апробации и реализации новых направлений по предупреждению и повышению академической успеваемости с учётом цифрового подхода.

Основная часть. В условиях цифровизации образования традиционный подход к обучению сменился автономным обучением, при котором роль преподавателя сводится к роли консультанта, советника, а ответственность за собственное обучение ложится на самих учащихся[1].

Мы полагаем, что процесс автономного обучения предполагает организацию активной практической образовательной деятельности самих обучающихся с доминантой на регулятивные универсальные учебные действия. Это объясняется тем, что учащиеся находятся не в позиции «пассивно слушающих» и «пассивно воспринимающих», а они ориентированы на самоопределяемое и саморегулируемое приобретение новых знаний, поиск и отбор информации посредством цифровых инструментов и образовательных сервисов, разнообразие которых на сегодняшний день превалирует.

Трансформация образования происходит в силу того, что на смену педагогике обучения приходит педагогика возможностей, реализация которых заключается в том, что именно цифровая образовательная среда является главным «инструментом» автономного обучения.

Анализ литературных источников показывает, что изучением влияния цифровой среды на результативность обучения занимались многие исследователи. И. С. Якиманская подчёркивала, что результативность учебного процесса достигается посредством использования методов и технологий, разнообразных средств обучения, учитывающих индивидуальные особенности, способности и интересы учащихся. По её мнению, для выстраивания успешной образовательной траектории необходимо «дифференцировать учебный материал, определяющий разнообразную образовательную среду».

Аналогичного мнения придерживается и Ф. Гуннарс, который в ходе поведен ческих исследований пришёл к выводу, что использование цифровых технологий в обучении привело к прогрессу в резуль татах обучения младших школьников. С. Б. Лазуренко отмечает, что учеб-

ная деятельность должна опираться на личностноориентированный подход и

дополняться комплексом специальных педагогических технологий, приёмов и методов, мероприятий по основополагающим вопросам воспитания и обучения.

В 2021–2022 учебном году было проведено исследование в рамках проекта по математике среди учеников 5–9 классов о влиянии платформы «Учи.ру» на их учебные результаты. Результаты исследования показали, что учащиеся, которые на регулярной основе пользовались образовательной платформой, показали более серьёзный рост образовательных результатов, чем те учащиеся, которые не пользовались платформой или пользовались

не систематически [2].

В качестве самостоятельной работы на занятии по теме: «Степень с целым показателем» в экспериментальной группе использовались маршрутные листы, в которых указаны критерии оценивания и дифференциация заданий по уровням сложности.

Уровень сложности	Задание	Критерии оценивания	Баллы
Низкий уровень	Выполнить простые действия со степенями	Правильность вычислений, понимание правила	1–2
Средний уровень	Упростить выражения со степенями	Применение свойств степеней, точность	3–4
Высокий уровень	Решить задачи с использованием степеней	Логичность решения, обоснование ответа	5

После выполнения маршрутных листов правильность решённых примеров учащиеся могли узнать при помощи QR- кодов. Данная практика направлена на использование личных гаджетов на занятии в познавательных целях: на качественное усвоение учебного материала, повышение мотивации к учебной деятельности и улучшение индивидуальных образовательных результатов.

В качестве одного из вариантов организации и содержания решения уравнений в экспериментальной группе был проведёнквест по теме «Решение простейших показательных уравнений», разработанный на образовательной платформе Joyteka.



Пример задания из квеста / An example of a task from a quest

Подводя итог всему вышесказанному, можно сделать вывод о том, что одной из мощных движущих сил общей реформации образования является именно цифровая трансформация образования, определяющая новые форматы обучения и развития. В реалиях современного цифрового пространства эффективность и целесообразность выбора цифрового образовательного инструмента зависит от возможности его адаптации к условиям образовательной среды, в частности, к специфике изучае мой дисциплины, творческого потенциала преподавателя и уровня его креативности, технического оснащения образовательного учреждения и множества других нюансов образовательного процесса.

Заключение. Таким образом, цифровая трансформация образования оказывает значительное влияние на учебный процесс, создавая как новые возможности, так и определённые риски, связанные с цифровой перегрузкой обучающихся. Эффективность использования цифровых технологий зависит от их педагогической целесообразности,

уровня подготовки преподавателя и индивидуальных особенностей учащихся. Рациональное внедрение цифровых инструментов, таких как интерактивные задания, маршрутные листы и QR-коды, способствует повышению учебной мотивации и академических результатов. В то же время необходим системный подход к регулированию цифровой нагрузки с целью сохранения когнитивных ресурсов обучающихся и обеспечения качества образования.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бибалова С. А., Леонтьева А. В. Анализ опыта перехода на дистанционное обучение в системе вузовской подготовки в период пандемии (на примере ФГБОУ ВО «Майкопский государственный технологический университет» и ФГБОУ ВО «Адыгейский государственный университет») // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2021. Т. 13. №4. С. 59–68.

2. Бурукина О. А. Формирование профессиональной коммуникативной личности в условиях цифровой среды / Образование и педагогика: современные тренды: монография. Чебоксары: Среда, 2020. С. 7–25.

3. Воробьева М. С., Павлова Е. А., Плотоненко Ю. А. Развитие информационной компетентности студентов в информационном пространстве вуза // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Проблемы высшего образования. 2020. №4. С. 32–35.

4. Захарова И. Г., Карпов М. Г., Лобунцов Д. С. Информационно-аналитическая поддержка управления образовательным процессом с использованием данных цифрового следа студента // Информатизация образования и методика электронного обучения: цифровые технологии в образовании: материалы IV Международной научной конференции. В двух частях / Красноярск, 6–9 октября 2020 года. Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2020. С. 104–108.

5. Костина С. Н., Новикова О. Н. Как старшие подростки оценивают влияние цифровых технологий на учебную деятельность? // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2023. №74. С. 190–205.

6. Кущева Н. Б., Терехова В. И. Современная цифровая образовательная среда в высшем образовании России // Проблемы современной экономики. 2018. №1 (65). С. 191–194.

7. Лазуренко С. Б. Коррекционно-педагогические технологии как средство профилактики школьной неуспешности обучающихся // Проблемы школьной неуспешности детей и пути её преодоления. М.: Просвещение, 2024. С. 262–277.

8. Лобачева Г. В., Васин А. Н., Изнаиров Б. М. Электронный личный кабинет преподавателя, как инструмент управления образовательным процессом // Университетское управление: практика и анализ. 2018. Т. 22. №2 (114). С. 116–125.

9. Микляева А. В., Безгодова С. А. Академическая успеваемость школьников с разным опытом цифровой социализации // Развитие личности в условиях цифровизации образования: от начальной к высшей школе: материалы Всероссийской научной конференции с международным участием, приуроченной к 45-летию подготовки педагогических кадров для начальной школы в Елецком государственном университете им. И. А. Бунина / Елец, 15–16 октября 2020 года. Елец: Елецкий государственный университет им. И. А. Бунина, 2020. С. 167–172.

“GULISTON” JURNALIDA SHE’RIY ASARLARNING YORITILISHI

Donayeva Malika Ne’mat qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti
malikadonayeva1@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659707

Abstract. *Maqolada “Guliston” jurnalida nashr etilgan she’rlar statistikasi va ularning qisqacha tahlili keltiriladi. She’rlar mavzu jihatidan tasniflangan. Shuningdek, “Tojixon”, “Geraklit”, “Bu o‘lkaning ko‘klami”, “Bulutlar”, “Na’matak”, kabi she’rlarning tahliliga ham to‘xtalib o‘tilgan, shaxsiy mulohazalar bildirilgan.*
Kalit so‘zlar: *“Guliston”, she’rlar, Abdulhamid Cho‘lpon, Oybek, Vatan, tabiat.*

Kirish. 20 – asrning 30 - yillarida nashr etilgan matbuot nashrlarida adabiyot materiallari ko‘p uchraydi. Ayniqsa, “Guliston” jurnalida bosilgan she’rlarda davr ruhiyati aks etgan. “Guliston” jurnalining 1935-1939- yillarida Abdulhamid Cho‘lpon, Amin Umariy, Orif Yunus, G‘ayratiy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Uyg‘un, Hasan Po‘lat, Davron, Elbek, T.To‘la, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Hasan Po‘lat, Said Nazar, Ergash, N.Rahimiy, Xolid Rasul, Sobir Abdulla, M.Atajanov, O‘tkir Rashidiy, Tuyg‘un, Sulton Chora, Botir Nazariy, B.Aziziy, Tuyg‘un, Adham Hamdam, Jasur, Parda Tursun kabi ijodkorlarning nasriy va nazmiy asarlari nashr etilgan. Nazmiy asarlar 139 ta bo‘lib, ular ma’rifiy, tabiat tasviri, vatan tuyg‘usi, maishiy mavzudagi she’rlardan iborat.

Ta’kidlash joizki, jurnalda chop etilgan adabiyot materiallarining barchasi ham badiiyat talablariga javob bera olmaydi. Adabiyot materiallarini badiiy saviyasiga ko‘ra ikki guruhga tasniflash mumkin. Bular, yuksak, badiiy saviyali, adabiyot materiallari va ijodkor bo‘lmagan, adabiyotdan yiroq, havaskorlar tomonidan yaratilgan adabiyot materiallari. Havaskorlar tomonidan yaratilgan asarlarga Sulton Choraning “Havas” she’ri, Asil Mansurovning “Olqish” she’ri, G‘ayratiyning “Yoz kechalari” she’ri, Jasurning “Yoz esdaliklari” she’ri, Chora Alimov, O‘tkir Azimovning “Mehmondorchilikda” hikoyasi, Bekning “Kam bo‘lmagur o‘g‘ul” hikoyasi kabi asarlarni kiritish mumkin.

Badiiyat jihatidan mukammal asarlarga esa, Abdulla Qahhorning “Sarob” romani, Cho‘lponning “Ko‘zlar to‘g‘risida”, “Diyorim”, “Shahrimizning qulochi”, “Bu o‘lkaning ko‘klami” she’rlari, “Kecha va kunduz” romani, Usmon Nosirning “Nil va Rim” she’riy dostoni, G‘afur G‘ulomning “Yodgor” hikoyasi, Oybekning “Navoiy” romani, Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Bugun 8-mart” dramasi, Zavqiyning “Bu kunlar boshimizda bir sahob ersa ajab ermas g‘azali”, Naim Dovqorayevning “Bibixon” qissasi kabi asarlarni kiritishimiz mumkin.

Jurnalda chop etilgan she’rlarni mavzusiga ko‘ra quyidagicha tasnif etish mumkin:

a) Vatan mavzusidagi she’rlar: “Go‘zal Farg‘onam mening” (Amin Umariy, Hasan Po‘lat), “Vatan qo‘shig‘i” (Orif Yunus), “Diyorim” (Cho‘lpon), “O‘zbekiston uchun” (G‘ayratiy), “Shahrimizning qulochi”,(Cho‘lpon), “Kreml yulduziga” (Said Nazar), “Ispaniya” (Ergash), “Vatan bulbuliga” (Abdulla Raufiy), “Baxt” (Solih Sobiriy), “Moskva” (Qurbon ota), “Vatan” (Said Nazar), “O‘lkam”(Arizoda).

b) Tabiat va muhabbat mavzusidagi she'rlar: "Sevar" (N.Rahimiy), "Ko'zlar to'g'risida" (Cho'lpon), "Hayolinda kezar ikki narsa" (Uyg'un), "Armug'on" (Boris Bessenov), "Lirik kezishlar" (Oybek), "Dalaga ketdim" (G'ayratiy), "Kuz qo'shig'i" (Uyg'un), "May" (Uyg'un), "Bu o'lkaning ko'klami" (Cho'lpon), "Na'matak" (Oybek), "Ko'k bo'sag'asida" (G'afur G'ulom), "Yoshlik kechasi" (Xolid Rasul), "Yoz kechalari" (G'ayratiy), "Bahor keldi" (Hasan Po'lat), "Bahor ishqi" (Sobir Abdulla), "Men baxtiyor" (I.Qodiriy), "Yoz esdalilari" (Jasur), "Sevsam-sevilsam" (M.Atajanov), "Paxta dalasidan" (Orif Yunus), "Bahor tuyg'usi" (Jasur), "Bog'ima" (Chustiy), "Bog'im yaxshi, bahorim yaxshi" (O'tkir Rashidiy), "Yoz" (Fozil Komiliy), "Yoz kunlari" (Said Nazar), "Ikki bo'sa" (Orif Yunus).

d) Maishiy mavzudagi she'rlar: "Shodlik" (Amin Umariy), "Bayram oqshomida" (Davron), "Nega achinmay" (Botir Nazariy), "Tojixon" (B.Aziziy), "Orzular" (Jasur), "Havas" (Sulton Chora), "Kolxoz temirchisi" (Oybek), "Qayg'u va sevinch"(Tuyg'un), "Lo'li qiz", Ko'chmanchi qiz" (Elbek), "Yuksal o'g'ilcham" (Adham Hamdam), "Orzular ushalganda" (Amin Umariy), "Kolxozchimiz" (M.Atajon), "Chegarada" (Turob To'la), "Ishchilar uyg'on" (H.H.Niyoziy), "Traktorchilar qo'shig'i" (Lebedov Kamach), "To'ydan avval" (Ramz), "Komsomol ko'lida" (Hasan Po'lat) kabilar.

Jurnalida vatan, tabiat va muhabbat, maishiy mavzudagi she'rlardan tashqari hajviy she'rlar ham nashr etilgan. Masalan: Muqimiyning "Uloqchilar", Davronning "Shoir", Muqimiyning "Ot havchi", "Aravan", Saidmurod Panohning "Amir o'lponchilariga qarshi", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Haj ishchilar", "Haj,haj otamiz" kabilar.

Jurnalining 1935-1939- yillardagi sonida nashr etilgan she'rlarda davr ruhiyati ochib berilgan. Ushbu she'rlarning hammasini ham she'r yozish talablariga javob beradi deyolmaymiz. Chunki, havaskor shoirlar tomonidan yozilgan she'rlarda juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yilgan. She'r qofiyalari juda tartibsiz, sarlavha ham talabga javob bermaydi. Jurnalning 1938-1939-yillardagi sonlarida esa she'rlarga biroz e'tibor bilan yondashilgan. O'zbek mumtoz adabiyotining durdona asarlaridan namunalar keltirilgan. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidan parchalar keltirilgan. Zavqiy, H.H.Niyoziy, Muqimiyning hajviy she'rlari o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan.

Jurnalda o'zbek tilidagi she'rlardan tashqari, qardosh va jahon adabiyotining she'riy asarlariga ham murojaat qilingan. Masalan, Boris Bessonovning "Armug'on" she'ri (Davron tarjimasi), Taras Shevchenkoning "Kavkaz' she'ri (M.Shayxzoda tarjimasi),Vengriy Kyuni "U bilmaydi", Longston Hyuz "Qora qiz" (Davron tarjimasi), Lermontov "Yelkan" she'ri (Amin Umariy tarjimasi), A.S.Pushkin "Kavkaz asiri" she'riy dostoni (Hamid Olimjon) tarjimasi kabilar.

Uyg'un (asl ismi-sharifi Otaqo'ziyev Rahmatilla)ning **"Tojixon"**[1] she'ri Tojixon ismli qizga bag'ishlab yozilgan.Ushbu she'r ilk bor "Guliston" jurnalida nashr etilgan. She'r muallifning "Asarlar", "Bahor nafasi", "Dostonlar" kabi to'plamlarida uchramaydi. Tojixon har kuni 130 kggacha paxta tergan va O'zbekiston paxtakorlari bilan birga Moskvaga sayohatga yuborilgan. 30-yillarda dalalarda mehnat qilib tengqurlariga o'rnak bo'lgan yoshlar xorij davlatlariga sayohatga yuborilgan. She'rda Tojixonga juda chiroyli ta'rif berilgan:

Xush kelibsan, aziz Tojixon!
Kolxoz bog'larining hur qizi,
Go'zal vodiylarning yulduzi
Paxtazor qirlarning malikasi.

[1] Uyg'un.Tojixon.//Guliston. – Toshkent, 1935.– № 10. – B.20.

Har kuni 130kg terib,
Qoyil qilgan, ey chevar
Har do‘st ko‘ngil
Har toza yurak
Seni maqtar, hurmatlar sevar.

Mirkarim Osim o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzularni yoritishda o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, **“Geraklit”**[2] she’ri ham yuksak badiiylik va falsafiy teranlikka erishgan. She’r qadimgi yunon faylasufi Geraklitning dunyoqarashi, tabiat va inson hayoti haqidagi falsafiy fikrlarga bag‘ishlangan. She’rda oqib turgan daryo, o‘t va o‘zgaruvchanlik g‘oyasi orqali hayotning abadiy harakatda ekanligi badiiy tasvirlanadi.Ushbu she’r Mirkarim Osimning “Saylanma” va boshqa to‘plamlarida uchramaydi. Bundan tashqari, Geraklit timsolida dunyoni anglash, nur va qorong‘ulik, o‘t va daryo obrazlari orqali hayot falsafasi aks etgan. Ushbu she’r faylasufning “Hamma narsa oqadi, hamma narsa o‘zgaradi” degan mashhur g‘oyasiga asoslangan.

“Har narsa o‘zgarar, har narsa oqar”
Tinmasdan oqadi buyuk tabiat,
Tabiat tinmasdan to‘nin o‘zgartirar
Olamda tinim yo‘q mana haqiqat.
Yashamoq ne demak? Kurashmoq demak?

Shu bugun tarixdan dars berar ekan,
Esladim Geraklit falsafasini,
Esladim qo‘rqinchli tush kabi birdan
Qullikning qorong‘u dabdabasini.

Mirkarim Osim ushbu she’ri orqali insoniyat tarixidagi buyuk tafakkur sohiblariga hurmatini izhor etgan.

“Guliston” jurnalida Abdulhamid Cho‘lponning ko‘plab she’rlari, maqolalari chop etilgan. “Bu o‘lkaning ko‘klami”, “Shahrim quchog‘ida”[3], “Diyorim”[4], “Ko‘zlar to‘g‘risida”[5] kabi she’rlar shular jumlasidandir. **“Bu o‘lkaning ko‘klami”**[6] Mazkur she’r Cho‘lponning uch jildlik “Asarlar to‘plami”[7] iga kiritilgan. She’rda shoirning davr adabiy siyosati bilan murosaga kelish kayfiyati seziladi.

Bu o‘lkaning ko‘klami juda ham namgarchilik,
Quyosh bulutlar bilan o‘ynashadi shekillik….
U sening yalovingdan mo‘l ko‘l hosil olajak,
Seni ham bora-bora o‘z yo‘liga solajak.
She’rda jinnalanish ko‘chasiga kirolmay galdirab yurgan shoir holi ko‘rinadi.
Qachon ko‘rsam yashiringan o‘yinqaroq boladay,

[2] Mirkarim Osim.Geraklit //Guliston. – Toshkent,1936 . – № 3. – Б.39.
[3] Cho‘lpon.Shahrim quchog‘ida. //Guliston. – Toshkent,1935. – № 11-12. – Б.97.
[4] Cho‘lpon.Diyorim.//Guliston. – Toshkent,1935. – № 3. – Б.52.
[5] Cho‘lpon.Ko‘zlar to‘g‘risida.//Guliston. – Toshkent,1935. – № 2. – Б.19.
[6] Cho‘lpon.Bu o‘lkaning ko‘klami.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 5. – Б.64.
[7] Cho‘lpon.Asarlar1-jild. (Nashrga tayyorlovchi O.Sharafiddinov). – T.: Adabiyot va san’at,1994. – Б.192.

Meni entiktirmoqchi o‘ynashib alday-alday.

Bu oddiy bir o‘lkaning ko‘klami manzarasi, ammo muallif shu manzaradan ham tanqid uchun asos qidiradi. U hamon ko‘klamda ko‘klamni ko‘rmaydi, o‘zini bulutlar qoplagan holda ko‘radi. Bu she’rda adib oddiygina qilib bahor faslini ta’riflaydi. Bizga ma’lumki, bahor faslida havo juda o‘zgaruvchan bo‘ladi; goho bulutli, goho quyosh ko‘rinadi, kutilmagan paytda yomg‘ir yog‘ib chaqmoq chaqadi. She’rda tabiat tasviri ramziy ma’no kasb etib, uzoq davom etga qish (asorat) dan keyingi “bahor” (ozodlik) umidini ifodalaydi. Shuningdek, tabiat tasviri orqali yurtning ma’yus holati va ozodlikka bo‘lgan umidi ifodalangan. Shoir bahor go‘zalligini nam namgarchilik, yashillik va nafosat bilan tasvirlasa-da, bu manzarada anduh va ijtimoiy uyg‘onishga chorlov hissi ustunlik qiladi.

Adirlarga qaraydi: har tomon yashil bug‘doy,
Nima qilayin deydi, bulutlarni maqtamay.

Bir so‘z bilan aytganda “Bu o‘lkaning ko‘klami” shunchaki bahor ta’rifi emas, balki millatni uyg‘onishga ozodlikka va o‘z yurtining haqiqiy egasi bo‘lishiga undovchi falsafiy-lirik she’rdir.

Jurnalda rus shoirlarining she’rlaridan ham namunalar keltirilgan. Masalan, M.Yu.Lermontov qalamiga mansub **“Bulutlar”**[8] she’ri shular jumlasidandir. (1936-yil 7-son 22-bet).

Ey, osmonning abadiy yo‘lchilari, bulutlar,
Lojuvard fazolarda marvarid sadolari,
Singari tizilishib janubga uchasizlar,
Yoki, haydaldingizmi siz ham men singari.

Ushbu she’r shoirning surgunlik paytida yozilgan, chuqur falsafiy va lirik asardir. Unda shoir osmonda erkin suzib yurgan bulutlarni o‘zining vatanidan uzoqdagi yolg‘iz va iztirobli taqdiri bilan qiyoslaydi. Shuningdek, bulutlar shunchaki tabiat manzarasi emas, balki shoirning ichki kechinmalari timsolidir. Bulutlar “aziz” va “erkin” lekin shoir kabi quvg‘in emas.

Sizni quvlagan kim: taqdirning qarorimi?
Yoki yashirin bir hasad, ochiq bir g‘arazmi bor.
Yoki yomon jinoyat og‘irligi sizlarni,
Qiynaydimi? Yo esa, do‘stlar qilgan g‘iybatlar.

Shoir ushbu she’r orqali o‘zining ijtimoiy-siyosiy erksizligi va ijodkor sifatidagi yolg‘izligini tabiat tasviri orqali mahorat bilan ko‘rsatib bergan.

Oybekning **“Na’matak”**[9] she’ri shoir ijodidagi shoh asarlardan biri hisoblanadi.Mazkur she’r Oybekning to‘qqiz jildlik “Mukammal asarlar”[10] to‘plamiga kiritilgan. Tanqidchi Ulug‘bek Hamdam she’rni turfa ranglar jilosi bilan birgalikda tahlil qilgan**.**[11] Ulug‘bek Hamdam “Na’matak

[8] 8.Lermontov.Bulutlar.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 7. – Б.22.
[9] Oybek.Na’matak.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 7. – Б.29.
[10] Oybek. Mukammal asarlar to‘plami.1-jild. (Nashrga tayyorlovchi Naim Karimov,G‘affor Mo‘minov). – T.: Fan, 1975. – Б.21.
[11] www.pedagoglar.org.7-to‘plam 4-son may,2024.

“she’rini Boburning “Boburnoma”, Tolstoyning “Urush va tinchlik”, Dostoyevskiyning “Telba”, Kamyuning “Begona” kabi asarlari bilan qiyos etgan. She’r orqali Oybek o‘z kechinmalarini qalamga oladi.

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Yuksakda, quyoshning belanchagida.
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o‘shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na’matak…

Na’matak - nafis bir yaratiq. Uning chayqalishi juda mayin va suluv. Qolaversa, na’matak viqor bilan o‘shshayayotgan qoyalar labida turib, o‘zidan ancha yuksakroqda turgan quyoshga tik boqqan holda u bilan munosabatga kirishmoqchi.

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko‘ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So‘nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo‘sachun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Na’matak o‘z jozibasi va fusunkorligiga ega. Ammo, u vahshiy tog‘larga ham chiroy berishga urinadi, o‘shshaygan qoyalar labida o‘sishga harakat qiladi. Go‘zallik odam tanlamaydi. U kutilmagan joydan hujum qilishi mumkin - xuddi na’matakdek”. Biz shunchalar ta’rifini keltirgan na’matak – oddiy bir tup o‘simlikdir. Tabiat go‘zalliklariga oshuftalik, Oybekning bolalikdan shuuriga singan. Shu sababli har bir yaratgan asarida tabiiylik, jonlilik hukmron.

Jurnalning 1935-1936- yillardagi sonlaridagi she’rlarda Vatani ulug‘lash, tabiat tasviri, havaskor shoirlar tomonidan sevikli yorni madh etib yozilgan she’rlar ko‘p uchraydi. Bunda shoirlar fikrlarini erkin, boricha ifodalashgan. Shuningdek, she’rlarda bu hayotdan ma’no qidirib yashash, hayotning go‘zalliklarini ko‘ra olish, mehnatning ortidan faqatgina rohat kelishi g‘oyasi ham mujassam. 1938-1939- yillarda bosilgan she’rlarda esa, iqtisodiy, siyosiy mavzudagi she’rlar berilgan.Bundan tashqari, Muqimiyning hajviy she’rlari ham jurnalxonlarda kata qiziqish uyg‘otgan. Ushbu hajviy she’rlar orqali shoir jamiyatdagi illatlarni ustidan kulgan, o‘quvchilarga o‘rnak, dars vazifasini o‘tagan. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi dostonlar ketma – ket jurnalning yangi sonlarida nashr etilib borilgan. Jurnalxonlarda o‘zbek mumtoz adabiyotiga yanada qiziqish uyg‘otgan.

“Guliston” jurnalida berilgan she’rlar qimmatli adabiy manba sifatida 30 - yillar adabiy muhiti, shu davr she’riyatidagi yutuq va kamchiliklarni oydinlashtirishi jihatidan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Uyg‘un. Tojixon.//Guliston. – Toshkent, 1935.– № 10. – Б.20.
2. Mirkarim Osim.Geraklit //Guliston. – Toshkent,1933. – № 3. – Б.39.
3. Cho‘lpon.Shahrim quchog‘ida. //Guliston. – Toshkent,1935. – № 11-12. – Б.97.
4. Cho‘lpon.Diyorim.//Guliston. – Toshkent,1935. – № 3. – Б.52.
5. Cho‘lpon.Ko‘zlar to‘g‘risida.//Guliston. – Toshkent,1935. – № 2. – Б.19.
6. Cho‘lpon.Bu o‘lkaning ko‘klami.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 5. – Б.64.

7. Cho‘lpon.Asarlar1-jild. (Nashrga tayyorlovchi O.Sharafiddinov). – T.: Adabiyot va san’at,1994. – Б.192.
8. Lermontov.Bulutlar.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 7. – Б.22.
9. Oybek.Na’matak.//Guliston. – Toshkent,1936. – № 7. – Б.29.
10. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami.1-jild. (Nashrga tayyorlovchi Naim Karimov,G‘affor Mo‘minov). – T.: Fan, 1975. – Б.21.
11. www.pedagoglar.org.7-to‘plam 4-son may,2024.

DON MAHSULOTLARI NAMLIGINI ANIQLASHDA KONDUKTOMETRIK VA DIELEKTROMETRIK USULLARNI SOLISHTIRMA TAHLILI

Kalandarov Palvan Iskandarovich[1], Nzakov Nurlan Serik o‘g‘li[2]
[1]texnika fanlari doktori, [2]professor
Magistr - “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mehanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659720

Annotatsiya. *Ushbu maqolada don mahsulotlari namligini aniqlashda qo‘llaniladigan konduktometrik va dielektrometrik usullarning nazariy asoslari, ishlash prinsiplari hamda amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganilgan. Namlik don mahsulotlarining saqlanishi, qayta ishlanishi va sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli uni aniq va ishonchli o‘lchash usullarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Maqolada har ikki usulning o‘lchash aniqligi, sezgirligi, tashqi omillarga bog‘liqligi, o‘lchash noaniqligi hamda kalibrovka masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, konduktometrik va dielektrometrik usullarning afzallik va kamchiliklari solishtirma jihatdan yoritilgan. Olingan natijalar don mahsulotlari namligini nazorat qilishda maqbul usulni tanlash uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *don mahsulotlari, namlikni aniqlash, konduktometrik usul, dielektrometrik usul, o‘lchash noaniqligi, metrologiya, kalibrovka, elektr o‘tkazuvchanlik, dielektrik doimiysi.*

Kirish

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, xususan don mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlashda namlik ko‘rsatkichi eng muhim fizik parametrlardan biri hisoblanadi. Don tarkibidagi namlik miqdori uni saqlash muddati, biologik barqarorligi, mexanik mustahkamligi hamda texnologik qayta ishlash jarayonlarining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Namlik me’yoridan ortiq bo‘lgan hollarda don mahsulotlarida mikrobiologik jarayonlar jadallashadi, o‘z-o‘zidan qizish, qoliplanish va sifatning pasayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, namlik me’yoridan past bo‘lishi ham donning mexanik shikastlanishiga, maydalanish darajasining ortishiga va iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin [1].

Shu sababli don mahsulotlari namligini aniq va ishonchli o‘lchash masalasi qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati hamda saqlash infratuzilmasi tizimida dolzarb hisoblanadi. Amalda namlikni aniqlash uchun turli fizik, kimyoviy va elektr usullaridan foydalaniladi. Ular orasida elektr parametrlariga asoslangan usullar — konduktometrik va dielektrometrik usullar tezkorligi, nisbatan nobuzuvchanligi hamda avtomatlashtirish imkoniyati yuqoriligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Konduktometrik usul don mahsulotlarining elektr o‘tkazuvchanligini o‘lchashga asoslanib, namlik miqdori bilan elektr qarshiligi o‘rtasidagi funksional bog‘lanishdan foydalanadi. Bu usulda namlik ortishi bilan don massasidagi ion harakatchanligi oshib, elektr o‘tkazuvchanlikning o‘zgarishi kuzatiladi. Biroq konduktometrik o‘lchash natijalari don zichligi, harorat, kimyoviy tarkib va elektrodlar bilan kontakt holatiga sezgir bo‘lib, bu holat o‘lchash noaniqligini oshirishi mumkin.

Dielektrometrik usul esa don mahsulotlarining dielektrik xossalariga, ya’ni dielektrik doimiysi va elektr sigimi o‘zgarishiga asoslanadi. Namlik miqdori ortishi bilan don massasining

dielektrik doimiysi sezilarli darajada o‘zgaradi, bu esa yuqori chastotali elektr maydonida aniq qayd etiladi. Ushbu usul nokontakt o‘lchash imkoniyati, yuqori tezkorlik va avtomatik nazorat tizimlariga mosligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, dielektrometrik usul ham don turi, harorat va struktura xususiyatlariga bog‘liq holda kalibrovka talab etadi.

Metrologiya nuqtai nazaridan qaralganda, har ikki usul uchun o‘lchash natijalarining aniqligi, takrorlanuvchanligi, qayta ishlab chiqarilishi hamda o‘lchash noaniqligini baholash masalalari alohida ahamiyatga ega. O‘lchash vositalarini kalibrovka qilish, etalon namlik qiymatlari bilan taqqoslash va tashqi ta’sir etuvchi omillarni inobatga olish o‘lchash ishonchliligini ta’minlashning asosiy shartlari hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — don mahsulotlari namligini aniqlashda qo‘llaniladigan konduktometrik va dielektrometrik usullarning ishlash prinsiplarini, metrologik xususiyatlarini hamda amaliy qo‘llanilish samaradorligini solishtirma tahlil qilishdan iborat. Maqsadga erishish uchun har ikki usulning aniqlik ko‘rsatkichlari, o‘lchash noaniqligi manbalari, afzallik va cheklovlari ilmiy asosda tahlil qilingan

Materiallar va usullar

Tadqiqot ishlari don mahsulotlari namligini aniqlashda keng qo‘llaniladigan elektr usullari — konduktometrik va dielektrometrik usullar asosida amalga oshirildi. Tajribalar laboratoriya sharoitida, amaldagi metrologik talablar va standartlarga muvofiq holda olib borildi.

Konduktometrik va dielektrometrik usullar don mahsulotlari namligini aniqlashda keng qo‘llaniladigan elektr usullar hisoblanib, ularning metrologik xususiyatlari bir qator parametrlar orqali baholanadi [3].

Tadqiqot ob’ektlari va materiallar

Tadqiqot ob’ekti sifatida asosiy don mahsulotlari hisoblangan bug‘doy, jo‘xori va sholi donlarining namunasi tanlab olindi. Don namunalari davlat standartlarida belgilangan tartibda tanlab olinib, bir xil massali va bir xil granulometrik tarkibga ega bo‘lishi ta’minlandi. Namunalardagi namlik miqdori tabiiy holatdagi va sun’iy namlantirilgan holatlarda (8–20 % oraliqda) tadqiq qilindi.

Etalon namlik qiymatlarini aniqlash maqsadida quritish (termogravimetrik) usulidan foydalanildi, ushbu usul don mahsulotlari namligini aniqlashda eng ishonchli va etalon usul sifatida qabul qilingan. Quritish jarayoni 130 °C haroratda belgilangan vaqt oralig‘ida amalga oshirildi va natijalar taqqoslash uchun asos sifatida olindi [4].

Konduktometrik usul

$$W = a + b \cdot \ln(R)$$

Bu yerda W – namlik.%. R – Elektr qarshiligi (OM), a va b kalibrovka koeffitsientlari.

$$\sigma = \frac{1}{R} \cdot \frac{l}{S}$$

Bu yerda: σ - elektr o‘tkazuvchanlik, l - elektrodlar orasidagi masofa, S – kesim yuzasi.

Konduktometrik usul don mahsulotlarining elektr o‘tkazuvchanligini o‘lchashga asoslangan bo‘lib, o‘lchash jarayoni maxsus elektrodli sensorlar yordamida amalga oshirildi. Don namunasi elektrodlar orasiga joylashtirilib, o‘zgaruvchan elektr toki ta’sirida elektr qarshiligi qiymatlari qayd etildi.

O‘lchash jarayonida harorat ta’sirini kamaytirish maqsadida haroratni kompensatsiya qilish funksiyasiga ega bo‘lgan o‘lchash qurilmasidan foydalanildi. Konduktometrik usulda

olingan natijalar don massasining zichligi, elektrodlar bilan kontakt sifatidan hamda don tarkibidagi mineral moddalar miqdoridan bog‘liq ekanligi hisobga olindi. Shu sababli har bir don turi uchun alohida kalibrovka grafiklari tuzildi.

O‘lchash natijalarining takrorlanuvchanligi va ishonchliligini baholash maqsadida har bir namuna uchun o‘lchashlar kamida uch marta takrorlandi va o‘rtacha qiymatlar hisoblab chiqildi.

Dielektrometrik usul

Dielektrometrik usul don mahsulotlarining dielektrik xossalari, xususan dielektrik doimiysi va elektr sigimi o‘zgarishini o‘lchashga asoslandi. O‘lchashlar yuqori chastotali elektr maydonida ishlovchi dielektrometrik sensor yordamida amalga oshirildi.

$$W = a + b \cdot \varepsilon$$

yoki aniqroq model uchun

$$W = a + b \cdot \varepsilon + c \cdot \varepsilon^2$$

Sig‘im orqali

$$C = \varepsilon \varepsilon_0 \frac{S}{d}$$

Bu yerda: S – sig‘im, ε - dielektrik doimiysi, ε_0 - vakum doimiysi, S – maydon, d – masofa.

Ushbu usulda don namunasi o‘lchash kamerasiga joylashtirilib, don massasining elektr maydonidagi reaksiyasi qayd etildi. Namlik miqdori ortishi bilan dielektrik doimiysining o‘zgarishi aniqlanib, maxsus dasturiy ta’minot yordamida namlik qiymati hisoblab chiqildi.

Dielektrometrik usulning muhim afzalligi sifatida nokontakt yoki kam kontaktli o‘lchash imkoniyati, yuqori tezkorlik va avtomatlashtirilgan tizimlarda qo‘llash imkoniyati qayd etildi. Biroq o‘lchash natijalari don harorati, don turi va struktura xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgani sababli, har bir holat uchun korreksiya koeffitsientlari qo‘llanildi.

O‘lchash aniqligi

Konduktometrik usulda o‘lchash aniqligi odatda:

$$\delta = \frac{|W_{exs} - W_{ref}|}{W_{ref}} \cdot 100\%$$

Tajribalar asosida:

- Konduktometrik: 1.5–2.5 %
- Dielektrometrik: 0.8–1.5 %

Dielektrometrik usul yuqori aniqlikka ega.

Sezgirlik

Sezgirlik koeffitsienti:

$$S = \frac{dY}{dW}$$

Bu yerda Y:

- konduktometrikda — qarshilik R.
- dielektrometrikda — dielektrik doimiysi ε

Dielektrometrik usulda S barqaror va yuqori.

Tashqi omillarga bog‘liqlik

Konduktometrik usul:

$$R = f(W, T, \rho, C)$$

Dielektrometrik usul:

$$\varepsilon = f(W, T, \rho)$$

bu yerda: T — harorat, ρ — zichlik, C — kimyoviy tarkib/
Konduktometrik usul tashqi omillarga ko‘proq sezgir.

Metrologik ta’minlash va ma’lumotlarni qayta ishlash va o‘lchash noaniqligi

Barcha o‘lchash qurilmalari tadqiqot boshlanishidan oldin belgilangan tartibda kalibrovka qilindi. O‘lchash natijalarining noaniqligi GUM (Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement) talablariga muvofiq baholandi. Olingan eksperimental ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, konduktometrik va dielektrometrik usullar natijalari etalon usul bilan solishtirildi.

Kombinatsiyalangan noaniqlik:

$$u_c = \sqrt{u_W^2 + u_T^2 + u_\rho^2 + u_R^2}$$

Kengaytirilgan noaniqlik

$$U = k \cdot u_c \quad k = 2$$

Bu yerda k = 2 (95% ishonch oraligi).
Natija:

- Konduktometrik: $U \approx 2–3\ \%$
- Dielektrometrik: $U \approx 1–2\ \%$

Kalibrovka

Kalibrovka tenglamasi:

$$W = a + bX + cX^2$$

bu yerda:

- X = R yoki ε

Dielektrometrik usulda universal kalibrovka mumkin,
konduktometrikda — har bir don turi uchun alohida.

Natijalar

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida don mahsulotlari namligini aniqlashda konduktometrik va dielektrometrik usullarning o‘lchash imkoniyatlari, aniqlik darajasi hamda tashqi omillarga sezgirligi o‘rganildi. Har ikki usul orqali olingan natijalar etalon sifatida qabul qilingan quritish usuli natijalari bilan solishtirildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, don namligining ortishi bilan konduktometrik usulda elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlari keskin oshadi. Ayniqsa, 14–18 % namlik oralig‘ida elektr qarshiligining o‘zgarishi yuqori sezgirlikka ega ekani aniqlandi. Biroq past namlik qiymatlarida (8–10 %) o‘lchash natijalarida tarqalish (dispersiya) yuqori bo‘lib, bu elektrodlar bilan kontakt holati va don zichligining ta’siri bilan izohlanadi. Konduktometrik usulda o‘lchash natijalarining o‘rtacha nisbiy xatoligi 1,5–2,5 % oralig‘ida ekani aniqlandi.

Dielektrometrik usul bo‘yicha olingan natijalar don namligi ortishi bilan dielektrik doimiysining barqaror va muntazam o‘zgarishini ko‘rsatdi. Ushbu usulda past va o‘rta namlik qiymatlarida ham o‘lchash natijalarining takrorlanuvchanligi yuqori ekani qayd etildi. Dielektrometrik usulda o‘rtacha nisbiy xatolik 0,8–1,5 % atrofida bo‘lib, bu usulning yuqori aniqlikka ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, harorat ta’siri konduktometrik usulda sezilarliroq namoyon bo‘ldi. Harorat 1 °C ga oshganda elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlarida sezilarli o‘zgarish kuzatildi, bu esa qo‘shimcha harorat kompensatsiyasini talab qiladi [5]. Dielektrometrik usulda esa harorat ta’siri nisbatan kam bo‘lib, korreksiya koeffitsientlari qo‘llanilgan holda o‘lchash aniqligi saqlanib qoldi.

Shuningdek, don turi o‘lchash natijalariga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Konduktometrik usulda bug‘doy, jo‘xori va sholi donlarida bir xil namlikda ham turlicha elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlari kuzatildi. Dielektrometrik usulda esa don turlari o‘rtasidagi farq nisbatan kam bo‘lib, universal kalibrovka imkoniyati yuqoriroq ekani qayd etildi.

Metrologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, dielektrometrik usul o‘lchash noaniqligi manbalari kamroq bo‘lgan usul hisoblanadi. Konduktometrik usulda elektrodlar holati, kontakt qarshiligi va don zichligi asosiy noaniqlik manbalari sifatida aniqlandi. Dielektrometrik usulda esa asosiy noaniqlik manbalari harorat va don struktura xususiyatlari bilan bog‘liq ekani ma’lum bo‘ldi.

Olingan natijalar har ikki usul ham amaliyotda qo‘llash uchun yaroqli ekanini, biroq yuqori aniqlik, tezkor nazorat va avtomatlashtirilgan tizimlar uchun dielektrometrik usul ustunlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Konduktometrik usul esa sodda qurilma va nisbatan arzonligi bilan joylarda ekspress-nazorat uchun maqbul ekanligi tasdiqlandi.

Eksperimental natijalar tavsifi

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki:

- Namlik oshishi bilan konduktometrik usulda elektr qarshiligi eksponensial kamayadi
- Dielektrometrik usulda dielektrik doimiysi chiziqli o‘sadi

Aniqlik:

- Dielektrometrik usul barqaror va yuqori aniqlik berdi
- Konduktometrik usulda tarqalish yuqori

Tashqi ta’sirlar:

- Harorat ta’siri konduktometrikda kuchli
- Dielektrometrikda kam

Xulosa:

Dielektrometrik usul sanoat nazorati uchun, Konduktometrik — ekspress o‘lchash uchun qo‘llanishi mumkin.

1-jadval

Natijalar jadvali

Namlik (%)	Etalon (%)	Konduktometrik (%)	Xato (%)	Dielektrometrik (%)	Xato (%)
8	8.0	8.4	5.0	8.1	1.2
10	10.0	10.6	6.0	10.2	2.0
12	12.0	12.3	2.5	12.1	0.8
14	14.0	14.2	1.4	14.1	0.7
16	16.0	16.3	1.9	16.1	0.6
18	18.0	18.5	2.8	18.2	1.1

1-rasmda konduktometrik usulida namlik va elektr o‘tkazuvchanlik bog‘liqligi keltirilgan.



1-rasm. Konduktometrik usulida namlik va elektr o‘tkazuvchanlik bog‘liqligi

2-rasmda dielektrik usulida namlik va dielektrik doimiysi bog‘liqligi keltirilgan.



2-rasm. Dielektrik usulida namlik va dielektrik doimiysi bog‘liqligi

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida don mahsulotlari namligini aniqlashda qo‘llaniladigan konduktometrik va dielektrometrik usullarning asosiy texnik, metrologik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari solishtirma tarzda tahlil qilindi.

2-jadval

Konduktometrik va dielektrometrik usullarning solishtirma tahlili

№	Solishtirish mezonlari	Konduktometrik usul	Dielektrometrik usul
1	O‘lchash prinsipi	Elektr o‘tkazuvchanlik (qarshilik)ni o‘lchash	Dielektrik doimiysi va sigimni o‘lchash
2	Namlikka sezgirlik	O‘rtacha, ayniqsa yuqori namlikda sezgir	Yuqori, butun diapazonda barqaror
3	O‘lchash aniqligi	O‘rtacha (1,5–2,5 %)	Yuqori (0,8–1,5 %)
4	Takrorlanuvchanlik	Past va o‘rta darajada	Yuqori
5	Harorat ta’siri	Sezilarli darajada ta’sir qiladi	Kam ta’sir qiladi
6	Don zichligi va strukturasining ta’siri	Kuchli ta’sir qiladi	Nisbatan kam
7	Don turiga bog‘liqlik	Yuqori	Kam
8	Kalibrovka talablari	Har bir don turi uchun alohida	Universal kalibrovka imkoniyati mavjud

9	Kontakt talabi	Elektrodlar bilan bevosita kontakt talab etiladi	Nokontakt yoki kam kontaktli
10	O‘lchash tezkorligi	O‘rtacha	Yuqori
11	Avtomatlashtirish imkoniyati	Cheklangan	Keng imkoniyatga ega
12	Asbob konstruksiyasi	Sodda, arzon	Nisbatan murakkab
13	Amaliy qo‘llanilish sohasi	Ekspress-nazorat, omborlar	Sanoat, laboratoriya, onlayn nazorat

Solishtirma tahlil izohi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, konduktometrik usul konstruktiv jihatdan sodda bo‘lib, tezkor va arzon o‘lchash vositalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu sababli ushbu usul asosan ombor xo‘jaliklarida va dala sharoitida ekspress-nazorat maqsadlarida qo‘llaniladi. Biroq uning asosiy kamchiligi sifatida harorat, don zichligi va elektrodlar bilan kontakt holatiga yuqori darajada bog‘liq ekani qayd etiladi [6].

Dielektrometrik usul esa yuqori aniqlik, barqarorlik va takrorlanuvchanlikni ta’minlaydi. Bu usulda don mahsulotlarining dielektrik xossalari namlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgani sababli, o‘lchash natijalari ishonchli hisoblanadi. Shu bilan birga, dielektrometrik usul avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, sanoat liniyalari va zamonaviy raqamli o‘lchash qurilmalari uchun ayniqsa maqbuldir [7].

Umuman olganda, solishtirma tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori aniqlik va metrologik barqarorlik talab etilgan hollarda dielektrometrik usul ustun hisoblanadi. Konduktometrik usul esa iqtisodiy jihatdan maqbul bo‘lib, tezkor nazorat uchun samarali yechim sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Muhokama

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari konduktometrik va dielektrometrik usullar orqali don mahsulotlari namligini aniqlashdagi farqli xususiyatlarni aniq ko‘rsatib berdi. Har ikki usul bo‘yicha olingan o‘lchash natijalari etalon sifatida qabul qilingan quritish usuli ma’lumotlari bilan taqqoslab tahlil qilindi.

Konduktometrik usulda namlik qiymatlari oshishi bilan elektr o‘tkazuvchanlikning eksponensial xarakterda ortishi kuzatildi. Bu holat don tarkibidagi erkin suv miqdorining ko‘payishi natijasida ion harakatchanligining oshishi bilan izohlanadi. Biroq ushbu usulda past namlik diapazonida o‘lchash natijalarining tarqalishi yuqori bo‘lib, natijalarning barqarorligi pasayishi qayd etildi. Bu, asosan, elektrodlar bilan don massasi o‘rtasidagi kontakt qarshiligi va don zichligining bir xil emasligi bilan bog‘liq. Dielektrometrik usul natijalari esa namlik qiymatlari bo‘yicha nisbatan chiziqli va barqaror bog‘lanishni ko‘rsatdi. Dielektrik doimiysining o‘zgarishi don tarkibidagi bog‘langan va erkin suv miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, o‘lchash natijalarining takrorlanuvchanligi yuqori ekani aniqlandi. Bu holat dielektrometrik usulda mexanik kontaktning minimal darajada bo‘lishi bilan izohlanadi.

Harorat ta’sirini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, konduktometrik usulda harorat o‘zgarishi o‘lchash natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Haroratning ortishi elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlarini sun’iy ravishda oshiradi, bu esa namlikning haqiqiy qiymatidan og‘ishlarga olib kelishi mumkin. Dielektrometrik usulda esa harorat ta’siri nisbatan kam bo‘lib, to‘g‘ri kalibrovka va korreksiya koeffitsientlari qo‘llanilganda o‘lchash aniqligi saqlanib qoldi.

Solishtirma tahlil shuni ko‘rsatdiki, don turlari orasidagi farqlar konduktometrik usulda kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bir xil namlikda ham bug‘doy, jo‘xori va sholi donlarida turlicha elektr o‘tkazuvchanlik qiymatlari kuzatildi. Bu holat don tarkibidagi mineral moddalar, oqsil va kraxmal miqdorining farqli bo‘lishi bilan izohlanadi [8]. Dielektrometrik usulda esa don turlari ta’siri nisbatan kam bo‘lib, universal o‘lchash modellarini qo‘llash imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Metrologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, dielektrometrik usulning o‘lchash noaniqligi konduktometrik usulga nisbatan past ekani aniqlandi. Konduktometrik usulda asosiy noaniqlik manbalari sifatida elektrodlar holati, kontakt qarshiligi va don zichligining o‘zgaruvchanligi qayd etildi. Dielektrometrik usulda esa asosiy noaniqlik manbalari harorat va don strukturasining geterogenligi bilan bog‘liq bo‘ldi, ammo ular korreksiya orqali kamaytirilishi mumkin.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yuqori aniqlik va barqaror o‘lchash talab etilgan hollarda, xususan avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarida dielektrometrik usul ustun hisoblanadi. Konduktometrik usul esa konstruktiv jihatdan sodda, arzon va ekspress-nazorat uchun qulay bo‘lib, amaliyotda keng qo‘llanilishi mumkin. Shu tariqa, har ikki usulning qo‘llanilishi o‘lchash maqsadi, aniqlikka qo‘yilgan talablar va ishlash sharoitlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi lozim. Bunday natijalar boshqa olimlar tomonidan o‘tkazilgan tajribalardan ham bunday xulosaga kelingan [9-12].

O‘tkazilgan tahliliy ma’lumotlar natijasida quyidagi ilmiy yangilikni asalash mumkin, jumladan:

- Don mahsulotlari namligini aniqlashda konduktometrik va dielektrometrik usullarning metrologik ko‘rsatkichlari kompleks baholandi;
- O‘lchash noaniqligi manbalari aniqlandi va solishtirildi;
- Don turiga bog‘liqlik darajasi ilmiy asosda tahlil qilindi;
- Amaliy qo‘llash uchun optimal usulni tanlash mezonlari ishlab chiqildi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida don mahsulotlari namligini aniqlashda konduktometrik va dielektrometrik usullarning metrologik va amaliy xususiyatlari solishtirma tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki:

- konduktometrik usul sodda va arzon bo‘lib, ekspress-nazorat uchun maqbul;
- dielektrometrik usul yuqori aniqlik (0,8–1,5 %) va barqarorlikni ta’minlaydi;
- harorat ta’siri konduktometrik usulda sezilarli yuqori;
- dielektrometrik usul avtomatlashtirilgan tizimlarda samaraliroq.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Namlikni yuqori aniqlikda o‘lchash talab etilganda dielektrometrik usul ustun hisoblanadi.
2. Ekspress va dala sharoitida konduktometrik usul samarali.
3. Har ikki usul uchun individual kalibrovka muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nelson, S. O. (1973). Dielectric properties of agricultural products. https://doi.org/10.1109/TIM.1973.4313932
2. Trabelsi, S., & Nelson, S. O. (2008). Nondestructive sensing of moisture content in grain. https://doi.org/10.1016/j.compag.2008.04.002
3. Kraszewski, A. (1980). Microwave aquametry. https://doi.org/10.1109/22.8680

4. Каландаров П.И. Термогравиметрический метод измерения влажности: оценка точности и эффективность применения в агропромышленном комплексе. Метрология №2 2021 г. С. 44-62. https://doi.org/10.32446//0132-4713.2021-2-44-6
5. Каландаров П.И., Логунова О.С., Андреев С.М. Научные основы влагометрии. Ташкент. Монография. 2021. 174 с.
6. Kalandarov Palvan Iskandarovich. Analysis of the Main Measurement Error, Moisture Content of Raw Cotton and Its Processed Products by Thermogravimetric Method.American Journal of Applied Mathematics 2022; 10(3): 106-110 DOI: https://10.11648/j.ajam.20221003.14
7. Каландаров П. И., Искандаров Б. П. Повышение точности, стабильности и надёжности результатов измерений влажности сыпучих материалов: современный подход на основе регрессионных моделей. Измерительная техника, 74(6), 85–92 (2025). https://doi.org/10.32446/0368-1025it.2025-6-85-92
8. П.И.Каландаров., П.М.Матякубова., Р.Т.Газиева Сушка и контроль влажности зерна и зернистых материалов.Ташкент.Монография. 2020.179 с.
9. Lawrence, K. C., et al. (2007). Grain moisture measurement techniques. https://doi.org/10.13031/2013.24123
10. McFarlane, N. J. B. (1987). Electrical properties of cereals. https://doi.org/10.1016/0260-8774(87)90012-3
11. ISO 712:2010. Cereals and cereal products. https://doi.org/10.3403/30190874
12. JCGM 100:2008. Evaluation of measurement data — Guide to the expression of uncertainty. https://doi.org/10.1007/978-1-4419-6022-1

JON APDAYK IJODIDA JODUGAR OBRAZI

Mukhammedova Nilufar Eliboyevna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
PhD, dotsent E-mail: nilufarmuxammedova@uzswlu.uz
Orcid: 0009-0005-3067-0683
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659739

Annotatsiya. *John Updike ijodida jodugar obrazi zamonaviy adabiyotda neomifologik tafakkurning muhim komponentlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ushbu obraz orqali qadimgi mifologik va folklor an’analarini zamonaviy ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uyg‘unlashtiradi. Ayniqsa, The Witches of Eastwick asarida jodugar obrazi an’anaviy salbiy stereotiplardan voz kechib, mustaqil, ijtimoiy me’yorlarga qarshi turuvchi va ichki erkinlikka intiluvchi ayol timsoli sifatida talqin qilinadi. Updike jodugar obrazini faqat fantastik unsur sifatida emas, balki zamonaviy ayolning identiteti, jinsiyligi va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi ramziy konstruksiya sifatida tasvirlaydi. Bu obraz orqali patriarxal jamiyatdagi gender munosabatlari, hokimiyat va erkinlik masalalari ochib beriladi. Shu bilan birga, jodugarlar mifologik arxetip sifatida insonning yashirin istaklari va psixologik ziddiyatlarini ifodalovchi vosita vazifasini bajaradi. John Updike ijodida jodugar obrazi neomifologik talqinning yorqin namunasi bo‘lib, u realizm, mifologiya va ijtimoiy tanqidning sintezini aks ettiradi hamda zamonaviy adabiyotda ayol obrazining yangi interpretatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jodugar, asar, ayol, obraz, Matriarxat, olam, sehr.*

Аннотация. *В творчестве John Updike образ ведьмы выступает как один из значимых компонентов неомифологического мышления в современной литературе. Писатель переосмысливает традиционные мифологические и фольклорные представления, интегрируя их в современный социокультурный контекст. В частности, в романе «The Witches of Eastwick» образ ведьмы освобождается от традиционных негативных стереотипов и интерпретируется как символ независимой личности, противостоящей социальным нормам и стремящейся к внутренней свободе. В данной работе подчёркивается, что Дж.Апдайк использует образ ведьмы не только как элемент фантастики, но и как символическую конструкцию, отражающую идентичность современной женщины, её сексуальность и социальный статус. Через данный образ раскрываются проблемы гендерных отношений, власти и свободы в патриархальном обществе. Одновременно ведьмы функционируют как мифологические архетипы, выражающие скрытые желания и психологические противоречия человека. Таким образом, в творчестве Джон Апдайка образ ведьмы представляет собой яркий пример неомифологической интерпретации, в которой сочетаются реализм, мифология и социальная критика, формируя новую модель репрезентации женского образа в современной литературе*

Ключевые слова: *колдунья, произведение, женщина, образ, матриархат, мир, волшебство.*

Annotation. *In the works of John Updike, the image of the witch emerges as a significant component of neomythological thinking in modern literature. The author reinterprets traditional mythological and folkloric motifs by integrating them into a contemporary socio-cultural context. In particular, in the novel The Witches of Eastwick, the figure of the witch is freed from*

conventional negative stereotypes and is reimagined as a symbol of an independent individual who resists social norms and aspires to inner freedom. This study emphasizes that Updike employs the image of the witch not merely as a fantastical element, but as a symbolic construct reflecting the identity, sexuality, and social position of the modern woman. Through this figure, issues of gender relations, power, and freedom within a patriarchal society are explored. At the same time, witches function as mythological archetypes expressing hidden desires and psychological tensions. Thus, in the творчество of John Updike, the image of the witch represents a vivid example of neomythological interpretation, combining realism, mythology, and social critique, and contributing to a new model of female representation in contemporary literature.

***Key words: witch**, novel, woman, image, matriarchy, world, magic.*

Jon Apdaykning navbatdagi “Istvik jodugarlari” romanida esa uchta Aleksandra Spofford, Jeyn Smat va Syukli Rujmon kabi ayol jodugarlar tasvirlanadi. Mo‘jizaviy realizmda ifoda etilgan aynan sehr va jodu elementi mana shu uch jodugarda aks etadi. Ahamiyatga molik tarafi shundaki, muallif uch ayol taqdirida ajrim sodir bo‘lganigini ifoda etadi. Ajrimdan so‘ng ayollarda sehr-jodu qobiliyoti aks eta boshlaydi. Bu esa yozuvchining mifni qayta yaratganini ko‘rsatadi. Ayollarning sehr-jodu qobiliyati shaharchada ko‘plab nizolarga sabab bo‘ladi. Ulardagi sehr va jodu kuchi shunchalik kuchli ediki ular kim bilan muloqot qilishmasin ularga ta'sir qilmay qolmasdi. Yozuvchi ifoda qilgan jodugar so‘zining etimologiyasiga e'tibor qaratsak u asarda sehr jodu kuchiga ega ayol ma'nosida ifoda etilgan. Ingliz tilining Oksford lug‘atiga ko‘ra jodugar bu sehr-jodu qilish qobiliyatiga ega, asosan qorung‘uda yashaydigan, qora libos kiygan va qo‘lida supurgisi bo‘lgan keksa ayol deb izoh berilgan[5. 472 b]. “Istvik jodugarlari” romanida yozuvchi jodugarlarning uch xil xususiyatni ko‘rsatgan:

1. Tabiat hodisalariga ta'sir qilish kuchiga ega
2. Sehr qila olish qobiliyatiga ega
3. Dinga qarshi tura oladigan kuchga ega.

Tadqiqotchi E.M.Melitinskiy “Adabiy arxitiplar xaqida” nomli tadqiqotida jodugarga e'tibor qaratgan[2. 136 b]. Uning fikricha jodugar qadimdagi ona mabudaning shakli hisoblanadi. Shu bilan birga tadqiqotchi jodugarni hosildorlik mabudiga ham qiyoslaydi. Hosildorlik mabudi erning mifologik timsolidir. Tadqiqotchi X.Muxammedova mifologik talqinda ayol obrazida ifoda etilgan sehr va jodu uninng nafaqat g‘ayritabiiy kuchga qodir ekanligini balki bu hodisa zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirib tasvirlanganiga e’tibor qaratadi[4. 264 b]. Tadqiqotchi izohlab bergan jodugar ayollar qiyofasi Jon Apdayk yaratgan jodugarlarga mos keladi. Asardagi ifoda etilgan uch jodugar atrofidagilarni hoxlasa yo‘q qila oladi, hoxlasa ulardagi ijodiy salohiyatni kuchaytira oladi, yoki xavfli kasalliklarni daf eta oladi hamda o‘z o‘limiga sabab bo‘ladi.

Jon Apdayk ayol obrazlarni sentimentalizm, romantizm davri an'analariga tayanib yaratgan. Bunga sabab esa XIX asr amerika adabiyotida ayol obrazlarini vampir, jodugar qiyofasida yaratish urf bo‘lganligidir. Ayol o‘zida zamonaviy ayol qiyofasida bo‘lish bilan birga sehr-jodu qila olish qobiliyatiga ega edi. Asarlarda tasvirlangan bunday tipdagi ayollar o‘z nomi bilan jodugar yoki vampir nomi bilan ataldi. Bu esa adabiyotda yangicha asar tug‘ilganligiga sabab bo‘ldi.

Jodugarlar go‘yoki g‘ayrioddiy qobiliyatlari sabab tabiat bilan tenglasha oladilar, ba'zan esa hamkorlikda ham ishlaydilar. Jodugarlardagi kuch shunchalik cheksizki, ular tabiatda mavjud o‘t-o‘lanlardan doimiy ravishda sehr jodu ozuqasini olib turadilar. Natijada esa ular fikrlari orqali chaqmoq va momaqaldiroqni ham chaqira oladilar. Jodugarlarning bunday ravishda koinot, tabiat bilan tenglasha olishi ulardagi his tuyg‘u bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotchi

B.Maksimovning fikricha, romantizm namoyondalari ayolni sodda ong egasi deb ta'riflashadi, shu bois, ulardagi kuch tananing ichida paydo bo‘ladi va asta-sekin kuchayadi[3.42 b].

Ayol tabiat hayotini takrorlayotgandek tuyuladi, tabiat esa, o‘z navbatida, ayolning hayotini (xarakterini, kayfiyatini) takrorlaydi. Jumladan, Istvik jodugarlari romani qahramoni Aleksandra oila qurgachgina uning bog‘i ser hosil bera boshlaydi.

Jon Apdayk yaratgan ayol obrazlarining barchasi ona tabiatni ardoqlaydi. Ular ishonadigan hodisalar qadimdan ro‘y berib kelayotgan tushunarli hodisalardir. “Gertruda va Klavdiy” romani qahramoni “tabiat bizning ichimida va sirtimizdadir” deb ta'kidlaydi[6.224 b].

Jon Apdayk yaratgan mifologik dunyoda matriarxat xususiyatlari ustunlik qiladi va ular parodiya shaklida ifodalangan. Bunday xususiyat esa g‘arbda 1960-yilda sodir bo‘lgan feministik xarakat ta'sirida vujudga kelgan. Feministik harakat natijasida g‘arb ayollari an'anaviy vazifalaridan cheklanib gender tengligiga intila boshlagani kuzatilgan edi. “Gertruda va Klavdiya” asarida Gertruda Gamletning qiziqishlari va talablarini rad etadi va o‘z qiziqishlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. “Istvik jodugarlari” romani qahramonlaridan bo‘lgan Aleksandra esa turmush o‘rtog‘i uning talablarini bee'tibor qoldirgani uchun sehr jodu yordamida kulga aylantiradi.

Ikkala romanda ifoda etilgan ayol obrazlarida mo‘jizaviy realizmda aks etgan sehr-jodu talqin etilganligini ko‘rish mumkin. Dastlab o‘z qiziqishlarini muhim deb bilgan Gertruda oila tirgagi bo‘la olmasligini ham tushunadi. Ammo bu uni mutlaqo qiziqtirmaydi. Aleksandra esa aksincha talablari bajarilmaganidan so‘ng sehr-joduni ishga soladi. Natijada kulgan aylangan turmush o‘rtog‘i uni zarracha ham tashvishlantirmaydi. Ayollarning oilada ustunligi ularning haqiqatda gender tengligiga intilganini ko‘rish mumkin. Jon Apdayk ham mazkur ayollarni feministik harakat ta'sirida yaratganini inkor etmaydi. Ahamiyatli jihati shundaki yozuvchi ayollarni jismonan kuchli qilib yaratsada, erkaklarni intellekt jihatdan ustun tasvirlagan. Shu bois yozuvchi ayollarning hatti-harakatlarini intuisiyaga asoslanib ko‘rsatadi. Ayollarning ikki toifasini ko‘rsatadi.

“Istvik jodugarlari” romanida olamning matriarxat modeli yaratiladi. Bu olamda ayollar nafaqat turmush o‘rtoqlarini balki butun boshli shaharcha aholisini boshqara olish kuchiga ega. “Retrudiya va Klavdiya” asari qahramoni Gertruda, “Kel turmush quramiz” romani qahramoni bo‘lgan Ruf va “Turmush o‘rtoqlar” romani qahramoni Janet kabilar mifologik syujetni qayta yaratishda boyitib turishga xizmat qiladi.

Mazkur ayollar o‘lim va hayot o‘rtasida turishsada, atrofidagilarga shavqatsizdirlar. Ayollar ularning hoxish va istaklarini eshitishni umuman istashmaydi.

Matriarxat olamdagi ikkinchi toifadagi ayollar atrofidagilarga mehr ko‘rsata olishadi. Ular ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Mifologik syujetni tahlil qilarkanmiz, ular muqaddas bilimlarni atrofidagilarga o‘rgatishadi. Uzoq vaqt davomida o‘rganib kelingan sehr-jodu haqidagi bilim va ko‘nikmani sabr toqat ila o‘rgatishi va bu bilimni ulashishi ularning ijobiy xususiyati mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga ular uchun atrofidagilarning ehtiyojlari ayniqsa turmush o‘rtog‘ining qiziqishlari qolaversa hoxishlari muhimdir. “Gertruda va Klavdiy” asari qahramoni Ofeliya shu toifaga mansubdir. Bunday ayollar jismonan zaif, tashqi ko‘rinishidan nozik bo‘lib, ular atrofidagi kuchli ayollar tomonidan yo o‘limga mahkum etiladi yoki qobiliyatidan mahrum etiladi. Jon Apdaykning ikki toifadagi jodugar ayollari ijobiy va salbiy tipda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Biri shavqatsiz, biri esa mehrga to‘la bo‘lgan ayollar obrazi o‘ziga xos olamning vakillaridir. Biroq bu ayollar matriarxat dunyosidan kelib chiqishi va ularni qayta yarata olgan yozuvchi ularni o‘z olami xususiyati bilan uzviy tasvirlaydi.

Ikki toifaga mansub ayollarning o‘ziga xos olami muhit bilan uzviylikda yaratiladi. Jon Apdayk kuchli ayollarni er, qolaversa er bilan bog‘laydi. Jumladan, “Istvik jodugarlari” qahramoni

Aleksandra loydan har xil ayol qiyofalarini yasaydi va bog‘dorchilik bilan qiziqadi. U yaratgan bog‘da biz noyob gul va daraxtlarning navlarini ko‘rishimiz mumkin. Uning hayotida bog‘ muhim ahamiyatga ega. Bog‘dagi har bir gul va daraxt quvrab qolmaydi, aksincha gullab yashnaydiki ko‘rgan kishining bahri dili ochilishi bilan hayratga soladi. Shu bilan birga Aleksandra ham ulardan kuch oladi. U uchun bog‘ sehr-jodu manbai hisoblanadi.

Jon Apdayk romanlarida er obrazini o‘rgangan tadqiqotchi N..L.Itkina “er” bu tuproq ekanligini ta'kidlaydi[1.206 b]. Jon Apdayk uchun er hayot manbai bo‘lishi bilan birga o‘lim hamdir. Birinchisi bu er resurs sifatida ya'ni er zarur bo‘lgan resurslar bilan ta'minlaydi. Bu resurslarga biz moddiy manbalarni kiritamiz. Birinchidan erdan olingan foyda, er tagidan qazib olingan oltin yoki bo‘lmasa ma'naviy manba ya'ni loydan yasalgan san'at asarlari. Boshqa tarafdan er xavfli hisoblanadi. U sabasiz qo‘rquvni vujudga keltiradi. Chunki erdagi zarali chiqindilar, vayron bo‘lgan joylar, zilzila nafaqat qo‘rquv hissini uyg‘otadi balki o‘limga ham olib keladi. Yozuvchi uchun erning hidi ham mavjud, erning ifori uydagi farovonlikni anglatadi. Er bu shunaqangi muhitki bu muhitda inson yashashga majburdir. Shu bilan birga yozuvchi erning turli shakllarini ham ayollar tabiatiga mos ravishda tasvirlaydi. Qish faslida erning muzlagan qattiq shaklini shavqatsiz jodugarlarda ifoda etadi. Bahor faslida yomg‘ir natijasida hosil bo‘lgan loy shaklida esa zaif, nozik jodugarlarifoda etiladi. Tuproq shaklida esa mehrbon jodugarlar namoyon bo‘ladi.

“Er” ayollarining mifologik sjetdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ular bor kuchini ishga solgan holda atrofidagilarni o‘z hukmidan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bundan tashqari er ayollari farzandlari va turmush o‘rtoqlarini shaxsiy ehtiyolaridan, qiziqishlaridan voz kechishga undaydi. Shu tariqa ular birgalikda xo‘jalikni yuritish istagini ustun qo‘yadi.

Ayolning tabiiy vazifasini Apdayk erning xarakteri bilan bog‘laydi. Yozuvchi fikricha erning xarakterida hayot va o‘lim, yaratuvchanlik va azob mavjud.Shu bois yozuvchi og‘ir o‘tadigan tug‘ruqlarni maxluq tug‘ilishiga qiyoslaydi. Mana shu og‘riqli tug‘ruqlar natijasida ona va farzand o‘rtasida jarlik paydo bo‘ladi. Shu bois er ayollari farzandlari to‘g‘risida qayg‘urishga va ular bilan til topishishga qodir emas. Jumladan “Gertruda va Klavdiy” asarida Gertruda o‘g‘li Gamlet bilan til topisha olmaydi. “Istvik jodugarlari” asaridagi Aleksandra, Syuki va Jeyn farzandlariga nisbatan mehrni his qilmaydi.

Ikkinchi toifadagi jismonan zif va nozik ayollar makonini suv va havo bilan uzviylikda yaratadi. Bu makon uchun dengiz, osmon, qolaversa basseyn tanlab olingan. Ularning tabiatini mana shu manbalar ifodalaydi va qobiliyatlarini faollashtiradi. Rut, Salli obrazlari nozikligi suv parisiga qiyoslanadi. Apdayk ijodida osmon muqaddas ma'noni anglatadi. Yozuvchi yaratgan qahramonlarning osmonga uzoq qarab turishi bu odatiy hol emasdir. Aksincha bu holat ibodat qilish xolatini anglatadi. Shu bilan birga osmon intellekt, ijod va ma'naviy olamni ifodalaydi. O‘z navbatida er moddiy manbani anglatsa, osmon bo‘shliqni anglatadi. Bu bo‘shliq sehr-joduga yaqinlashish imkonini beradi. Osmonning yana ramziy ma'nosi ozodlikdir. Ya'ni erdagi mavjud tashvishlarga qarama-qarshi tarzda osmon ozodlik ma'nosini anglatadi. Jumladan, “Braziliya” romanida aynan osmonda er qonunlari kuchsiz bo‘lib, ular sehr qilish imkonini yaratadi. Shu tariqa Izabelning irqi o‘zgaradi: evropoiddan negroidga aylanish hodisasi.

Osmondan farqli ravishda suv ikki xil xarakterga ega. Suv inson uchun xavflidir. Suvning bu ma'nosi zaif va nozik ayollar tashqi ko‘rinishida ko‘rinadi. Jumladan, suv parisining to‘liq jozibasi suvda namoyon bo‘lishi.

“Istvik jodugarlari” romanida jodugarlar suvga tushganda kuchsizlanadi. Shu sabab mazkur roman jodugarlari sehr-joduni yo‘qotmaslik uchun erga qattiqroq bog‘lanishga urinishadi. Atrofidagilarga bo‘lgan munosabat ham aynan er harorati bilan bog‘liqligi yozuvchi tomonidan

mahorat bilan tasvirlanadi. Suv va osmon bilan bog‘liq jodugarlar tabiati ularga nisabatan yumshoqroq aks etadi. Suv jodugarlarining zaif va nozik ko‘rinishiga qaramay ulardagi ijobiy xususiyat keng ochib beriladi. Suv bilan uzviy bog‘langan bu tipdagi jodugarlar mehrga to‘ladir. Ular kuchli mehr tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan. Atrofdagilarga ham buni ulashishga tayyor. Hatto o‘zidagi bor sehr jodu tilsimini ochib berishga qodirdir. Ularning bunday biroz hayratga soluvchi xususiyati yangi mifning jodugar timsoli bilan xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иткина Н. Л. Художественный мир Джона Апдайка. – М.: Российский гос. гуманитарный ун-т, 2011. – 206 с.
2. Мелетинский Е. М. О литературных архетипах. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 1994. – 136 с.
3. Максимов Б. А. Особенности сюжетной структуры в авторской сказке и фантастической новелле эпохи романтизма: автореф. дис. … канд. фил. наук: 10.01.08 / МГУ имени М. В. Ломоносова. – Тверь, 2007.
4. Muxammedova X. Jon Apdayk ijodida mifologik xususiyatlar talqini // Tamaddun nuri №1 2025 yil. -262 b.
5. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press. 2006. – 472 p.
6. Updike J. Gertrude and Claudius: A Novel. 2001. Random House Publishing Group. – . 224 p.

YUNUS EMRO SHE'RIYATIDA XOJA AHMAD YASSAVIY AN'ANALARINING DAVOMIYLIGI: SHAKL VA MAZMUN MUTANOSIBLIGI

Shukurova Gulchehra Alisher qizi
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich magistranti
javharijahon06@gmail.com +998908216989
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659750

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot turkiy tasavvufiy she'riyatning genetik ildizlari va uning Anadolu adabiy muhitidagi evolyutsion tadrijini Xoja Ahmad Yassaviy hamda Yunus Emro ijodiy merosi qiyosida tahlil etishga bag'ishlanadi. Maqolada Yassaviya tariqati asosida shakllangan ma'naviy-estetik modelning Markaziy Osiyodan Kichik Osiyoga ko'chishi va bu jarayondagi tarixiy-ijtimoiy determinantlar tadqiq etiladi. Xususan, ikki mutasavvif poetikasidagi lisoniy mushtaraklik, barmoq vazni va to'rtlik tizimidagi ritmik o'xshashliklar filologik tahlil obyekti sifatida belgilangan. Tadqiqot natijalari Yunus Emro fenomenini Yassaviy an'analarining yangi ijtimoiy-madaniy kontekstdagi mantiqiy yakuni va yuksak badiiy in'ikosi ekanligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, Yunus Emro, Yassaviya maktabi, ma'naviy vorislik, badiiy transfer, turkiy poetika, ritmik o'xshashlik, tasavvufiy simvolizm, hikmat va nafas, lisoniy tadrij.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено анализу генетических основ тюркской суфийской поэзии и её эволюционного развития в анатолийской литературной среде на материале творческого наследия Xoja Ahmad Yassaviy и Yunus Emre. В статье рассматривается перенос сформированной в рамках тариката Яссавия духовно-эстетической модели из Центральной Азии в Малую Азию как явление художественного трансфера, а также исследуются историко-социальные детерминанты данного процесса. В частности, объектом филологического анализа выступают лингвистическая общность, силлабическая система стиха и ритмические сходства в строфической (четверостишной) структуре поэзии двух суфийских авторов. Результаты исследования подтверждают, что феномен Юнуса Эмре является логическим продолжением и художественно завершённым выражением традиций Яссави в новом социокультурном контексте.*

Ключевые слова: *Ходжа Ахмад Яссави, Юнус Эмре, яссавийская школа, духовная преемственность, художественный трансфер, тюркская поэтика, ритмическое сходство, суфийская символика, хикмат и нафас, лингвистическое развитие.*

Abstract. *This study is devoted to the analysis of the genetic foundations of Turkic Sufi poetry and its evolutionary development within the Anatolian literary context, based on the comparative study of the creative heritage of Xoja Ahmad Yassaviy and Yunus Emre. The article examines the transfer of the spiritual-aesthetic model formed within the Yassaviya order from Central Asia to Asia Minor as a phenomenon of artistic transfer, and analyzes the socio-historical determinants of this process. In particular, linguistic commonality, syllabic meter, and rhythmic similarities within the quatrain structure are identified as key objects of philological analysis. The findings confirm that the phenomenon of Yunus Emre represents the logical continuation and a refined artistic manifestation of Yassavi traditions within a new socio-cultural context.*

***Keywords**: Khoja Ahmad Yassavi, Yunus Emre, Yassaviya school, spiritual continuity, artistic transfer, Turkic poetics, rhythmic similarity, Sufi symbolism, hikmat and nafas, linguistic evolution.*

Kirish. Turkiy tasavvufiy she'riyatning shakllanish va o'zini anglash jarayonlarini Xoja Ahmad Yassaviy shaxsi hamda u asos solgan irfoniy maktab ta'siridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Yassaviya tariqati nafaqat diniy-ma'rifiy tizim, balki turkiy dunyoning ma'naviy-estetik qiyofasini belgilab bergan universal hodisa sifatida shakllandi. XIII–XIV asrlarga kelib, ushbu modelning Onado'li sari intilishi va yangi jug'rofiy kengliklarda ildiz otishini shunchaki tashqi madaniy ta'sir emas, balki genetik ma'naviy uzviylik natijasi o'laroq talqin qilish lozim.

Yassaviy ta'limotining G'arbga tomon yoyilishi bevosita mo'g'ullar istilosi keltirib chiqargan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar va demografik ko'chishlar bilan bog'liqdir. Turkiston ma'naviy muhitidan chiqqan "Xuroson yerlari" yangi makonda Yassaviya g'oyalarini mahalliy xalqning ruhiy ehtiyojiga muvofiq tarzda qayta jonlantirdilar. Aynan mana shu tarixiy zamin va intellektual fond Yunus Emro fenomenining yuzaga kelishi uchun fundamental poydevor vazifasini o'tadi.

Janriy nuqtai nazardan tahlil qilinganda, Yassaviy "hikmat"lari va Anadolu tasavvufiy she'riyatidagi "nafas"lar o'rtasida chuqur tipologik yaqinlik va lisoniy mushtaraklik ko'zga tashlanadi. Har ikki janr ham turkiy tilning tabiiy imkoniyatlariga tayangan sodda ifodasi — "turkigo'ylik" tamoyili bilan ajralib turadi. Bu jarayonda biz o'ziga xos badiiy transfer hodisasining guvohi bo'lamiz: Yassaviy ijodida ilohiy haqiqatning didaktik bayoni bo'lgan "hikmat"lar Yunus Emro poetikasida yuksak lirik hayajon va ishqiy mushohadalarga evrildi. Shu ma'noda, Yunus Emro — Yassaviy an'anasining shunchaki passiv davomchisi emas, balki turkiy tasavvufiy tafakkurning tarixiy-evolyutsion cho'qqisidir. U Yassaviya asos solgan ma'naviy binoni mukammal poetik tizim va xalqchil simvolizm bilan boyitib, uni umumturkiy merosning yangi bir bosqichiga olib chiqdi.

Asosiy qism: Turkiy tasavvuf adabiyotida nafsga qarshi kurash masalasi Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodida o'ziga xos, ammo o'zaro uzviy bog'liq tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu masala orqali ikki ijodkor o'rtasidagi ma'naviy-estetik vorislik va genetik aloqadorlikni aniq matniy tahlillar asosida kuzatish mumkin.

Yassaviy hikmatlarida nafs, avvalo, insonni haq yo'lidan og'diruvchi asosiy to'siq sifatida talqin qilinadi:

"Nafsim meni yo'ldin urib, xor ayladi,
Toat qilmay, haq yo'lidin ayru soldi..."[12]

Mazkur misolda nafs insonni tubanlikka olib boruvchi kuch sifatida keskin baholanadi. "Yo'ldin urib" va "xor ayladi" kabi ifodalar orqali uning vayronkor mohiyati ochiladi. Bu yerda kurash shakli zohidona-didaktik xarakterga ega: shoir o'quvchini ogohlantiradi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi va nafsni jilovlash zarurligini qat'iy tarzda ta'kidlaydi. Bu yondashuv tasavvufning dastlabki bosqichiga xos bo'lib, unda ruhiy intizom va o'zini nazorat qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yunus Emro ijodida esa ayni muammo yangi, chuqurroq ruhiy talqinga ega bo'ladi:

"Nafsdur seni yo'lda qo'yon, yo'l tezroq yur desang,

[12] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – B. 228.

Nafsning bo‘ynini urg‘il, agar Haqni sevasang.”[13]

Bu misolda nafsga qarshi kurash tashqi majburiyat sifatida emas, balki ichki ehtiyoj — ishq natijasi sifatida talqin qilinadi. Agar Yassaviy ogohlantirsa, Yunus Emro ishq orqali ruhiy harakatni rag‘batlantiradi. “Agar Haqni sevasang” iborasi kurashning asosiy motivini belgilaydi. Demak, bu yerda nafs:

- axloqiy muammo emas,
- balki ilohiy ishqqa yetishish yo‘lidagi ichki to‘siq sifatida talqin qilinadi.

Bu esa tasavvufiy tafakkurning keyingi bosqichini, ya’ni ishq konsepsiyasining markazlashuvini ko‘rsatadi. Ikki ijodkor qarashlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, Yassaviyda nafsga qarshi kurash tashqi intizom, o‘git va nazorat orqali amalga oshirilsa, Yunus Emroda u ichki iztirob, ishq va qalbiy poklanish orqali ifodalanadi. Bu farq uzilish emas, balki badiiy transfer asosidagi evolyutsiya bo‘lib, unda Yassaviy yaratgan zohidona model Yunus Emro ijodida oshiqona-psixologik darajaga ko‘tariladi. Nafs va ishq konsepsiyasining ushbu uyg‘unligi turkiy tasavvuf adabiyotida ma’naviy-estetik vorislikning izchil rivojlangan shaklini namoyon etadi. Yassaviy asos solgan g‘oyaviy tizim Yunus Emro ijodida ichkilashib, inson qalbining chuqur qatlamlarini ochishga xizmat qiluvchi mukammal badiiy modelga aylanadi.

Turkiy tasavvufiy she’riyatning badiiy-estetik asosini tashkil etuvchi shakliy uyg‘unlik Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emre ijodida tizimli va izchil tarzda namoyon bo‘ladi. Bu yerda vorislik faqat g‘oyaviy emas, balki she’rning ichki mexanizmi — vazn, ritm va qofiya tizimida kuzatiladigan badiiy transfer orqali amalga oshadi.

Yassaviy poetikasida barmoq vazni nafaqat shakliy qolip, balki zikr jarayonining ritmik modeli sifatida amal qiladi. Masalan, quyidagi hikmat bandida 12 bo‘g‘inli tizim aniq kuzatiladi:

“Tilda ayg‘il la ilaha illalloh,
Ichga solg‘il, har nafasda bo‘lg‘il ogoh.”[14]

Bo‘g‘in taqsimi:

Til-da ay-g‘il (4) / la i-la-ha il-lal-loh (6) / ich-ga sol-g‘il (4) / har na-fas-da (4) / bo‘l-g‘il o-goh (4)

→ ichki ritmik qisqarishlar bilan ≈ 12 bo‘g‘inli tizim

Bu yerda ritm teng bo‘g‘inlarga emas, balki nafas zarbalariga bo‘ysunadi. “Har nafasda” iborasining o‘zi ham shakl va mazmun uyg‘unligini ko‘rsatadi: ritm — zikr, nafas — ruhiy harakat. Bu holat sufiyona simvolizmning bevosita poetik ifodasidir. Shuningdek, quyidagi bandda ham ritmik takroriylik yaqqol:

“Zokirlari har nafasda zikrin aytar,
Haq zikrini ayta-ayta shavqi ortar.”[15]

Bu yerda “ayta-ayta” takrori ritmik impulsni kuchaytiradi va zikrning davriyligini fonetik darajada aks ettiradi. Yunus Emro poetikasida esa shu ritmik model soddalashgan, ammo yo‘qolmagan:

“Biz dunyodan ketar bo‘ldik,
Qolganlarga salom bo‘lsun.”[16]

Bo‘g‘in taqsimi:

Biz-dun-yo-dan (4) / ke-tar bo‘l-dik (4) / qol-gan-la-ra (4) / sa-lom bo‘l-sun (3)

[13] Yunus Emre. Divan. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1990.– B. 47.
[14] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 156.
[15] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 194.
[16] Yunus Emre. Divan. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1990. – B. 45–46.

→ 11 bo‘g‘inli tizim (4+4+3)

Bu yerda ritm xalq qo‘shiqlariga xos ravishda tekis va ravon. Yassaviydagi zikr ritmi bu yerda lirik nafasga aylangan. Ritmik model saqlanadi, lekin funksiyasi o‘zgaradi — bu arxaik qatlam va jonli til mutanosibligining tipik ko‘rinishidir. Yassaviyda ritm — zikrning strukturasi, Yunusda esa — his-tuyg‘uning oqimi.

Yassaviy hikmatlarida qofiya va radif tizimi qat’iy didaktik vazifani bajaradi. Masalan:

“Eranlarni nafasidin qo‘rqmoq kerak,
Na desalar ul dam ani tutmoq kerak,
E’tiqodu ixlos birlan bitmak kerak…”[17]

Bu bandda:

qofiya: kerak / kerak / kerak

radif: “kerak”

Radifning takrorlanishi tasodifiy emas — u buyruq ohangini kuchaytiradi. Bu yerda she’riy struktura axloqiy kodeks vazifasini bajaradi. Har bir misra yakuni murid uchun talab sifatida eshitiladi.

Yana bir misolda:

“Zokirlari har nafasda zikrin aytar,
...rostga qaytar,
...shavqi ortar…”

Bu yerda qofiya (aytar – qaytar – ortar) ichki musiqiylikni ta’minlab, zikrning uzluksizligini fonetik darajada ifodalaydi. Yunus Emroda esa shu tizim hissiy qatlam bilan boyiydi:

“...o‘lmasdin burun,
...ko‘rmasdin burun…”[18]

Bu yerda:

radif: “burun”

vazifa: vaqt va imkoniyat chegarasini his qildirish

Radif didaktik buyruq emas, balki ruhiy kechinma markaziga aylanadi. Takror orqali ichki iztirob kuchayadi. Yassaviyda radif → normativ, didaktik, tartib beruvchi

Yunusda radif → lirik, emotsional, ichki dramatizmni kuchaytiruvchi Yassaviy va Yunus Emro ijodidagi shakliy uyg‘unlik tasodifiy emas, balki chuqur genetik aloqadorlik natijasidir. Yassaviy hikmatlarida ritmni zikrga bo‘ysundiradi, qofiyani axloqiy tizimga aylantiradi. Yunus Emro esa, ritmni his-tuyg‘uga moslashtiradi, qofiyani ruhiy kechinmaga xizmat qildiradi.

Umuman olganda, Yassaviy yaratgan poetik model Yunus Emro ijodida saqlanadi hamda ichkilashadi va yangi estetik bosqichga ko‘tariladi. Bu jarayon turkiy tasavvuf she’riyatida ma’naviy-estetik vorislikning shakliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkiy tasavvufiy she’riyatda ramz va timsollar tizimi Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emre ijodida uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Bu yerda sufiyona simvolizm konkret poetik birliklar orqali ifodalanib, “g‘ariblik” va “dard” tushunchalari ikki ijodkor o‘rtasidagi ma’naviy-estetik vorislikni ochib beruvchi asosiy kategoriyalarga aylanadi.

Avvalo, “g‘ariblik” timsoliga murojaat qilamiz. Yassaviy hikmatlarida bu tushuncha o‘zini dunyodan uzilgan, Haqqa yaqinlashgan “qul” sifatida anglash orqali ifodalanadi:

---

[17] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – B. 218.

[18] Yunus Emre. Divan. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1990.– B. 46.

“Qul Xoja Ahmad, dunyo quysang ishing bitar,
Ko‘ngildagi chiqkan ohing Arshga yetar…”[19]

Ushbu misolda “qul” va “dunyo quysang” iboralari orqali shoir o‘zini moddiy olamdan ajratadi. “Ohing Arshga yetar” ifodasi esa ruhiy holatning ilohiy darajaga ko‘tarilishini bildiradi. Demak, g‘ariblik bu yerda ijtimoiy yolg‘izlik emas, balki ontologik maqom — Haqqa yaqinlashish vositasidir. Yassaviyda g‘ariblik — zohidona tajriba va ruhiy maqom sifatida talqin qilinadi.

Yunus Emro poetikasida ayni timsol ichki kechinma darajasida davom etadi:

“Bir g‘arib o‘lmish deyular…”

Ushbu misrada “g‘arib” tashqi holat emas, balki insonning ichki ruhiy ahvoli sifatida ifodalanadi. Yassaviyda mavjud bo‘lgan zohidona g‘ariblik Yunusda psixologik va lirik mazmun kasb etadi.

Natija: Yunus Emroda g‘ariblik — ichki ruhiy yolg‘izlik va ishqiy kechinma bilan bog‘liq holatga aylanadi. Endi “dard” tushunchasiga e’tibor qaratamiz. Yassaviy hikmatlarida dard ruhiy kamolot vositasi sifatida talqin qilinadi:

“Marham bo‘lib chin dardlikka davo bo‘ldim…”[20]

Tahlil: Bu yerda “dard” oddiy azob emas, balki insonni poklovchi ruhiy jarayon sifatida beriladi. “Davo bo‘ldim” ifodasi orqali shoir dardni yo‘q qilinadigan holat emas, balki anglanishi va yengilishi zarur bo‘lgan bosqich sifatida talqin qiladi. Yassaviyda dard — ruhiy poklanish va ma’naviy yuksalish vositasi.

Yana bir misolda bu tushuncha yanada chuqurlashadi:

“Tunuk dardi kasal qildi, bemor bo‘ldim…”[21]

Tahlil: “Dard” bu yerda kasallik metaforasi orqali berilgan. Ammo bu jismoniy emas, balki ilohiy ishq bilan bog‘liq ruhiy holatdir. Dard insonni zaiflashtirmaydi, aksincha uni Haqqa yetaklaydi. Dard — tasavvufda “ishq kasalligi” sifatida ijobiy ma’noga ega.

Yana bir muhim misol:

“Ishq dardiga davo bo‘lmas…”[22]

Bu yerda dardning davosizligi ta’kidlanadi. Ya’ni u yo‘q qilinadigan holat emas, balki insonni ilohiy haqiqatga yetaklovchi doimiy ruhiy kuchdir. Dard — yo‘qotilishi kerak bo‘lgan emas, balki saqlanishi lozim bo‘lgan ma’naviy holat.

Yunus Emro poetikasida ham ayni konsepsiya davom etadi. Uning she’rlarida dard ishq bilan bevosita bog‘lanadi va ichki iztirob orqali ifodalanadi:

“…agar Haqni sevasang…”[23]

Bu yerda dard bevosita tilga olinmasa-da, ishq orqali kechadigan ruhiy iztirob nazarda tutiladi. Yunus Emroda dard — ishqning ajralmas qismi bo‘lib, inson qalbida kechadigan ichki dramatizmni ifodalaydi. Yunus Emroda dard — ishqiy kechinmaning markaziy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. “G‘ariblik” va “dard” timsollari ikki ijodkor ijodida shaklan o‘xshash, mazmunan esa rivojlangan holda namoyon bo‘ladi. Yassaviyda bu tushunchalar ko‘proq zohidona va didaktik ruhda talqin qilinsa, Yunus Emroda ular ichki kechinma va ishqiy iztirob orqali chuqurlashadi. Bu esa turkiy tasavvuf she’riyatida genetik aloqadorlik va ma’naviy-estetik vorislikning aniq poetik ifodasidir. Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emre ijodini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular o‘rtasidagi g‘oyaviy mushtaraklik tasodifiy o‘xshashlik emas, balki

[19] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. - B. 32.
[20] O‘sha manba: - B. 32.
[21] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. - B. 34.
[22] Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. - B. 40.
[23] Yunus Emre. Divan. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1990. – B. 48.

bir xil ruhiy ehtiyojdan kelib chiqqan tizimli hodisadir. Bu holat ayniqsa “nafs”, “dard” va “g‘ariblik” timsollarining semantik funksiyasida yaqqol ko‘rinadi.

Yunus Emro poetikasida esa dard bevosita ishq bilan uyg‘unlashadi va ichki kechinma sifatida chuqurlashadi. Dard Yassaviyda tasavvufiy yo‘lning sharti, Yunus Emroda esa ishqning ichki mazmuniga aylanadi.

“G‘ariblik” timsolida ham shu davomiylik kuzatiladi. Yassaviy o‘zini “qul” va “g‘arib” sifatida taqdim etib, bu holatni zohidona maqom darajasiga ko‘taradi, Yunus Emro esa “Bir g‘arib o‘lmish deyular” iborasi orqali uni ichki ruhiy holat sifatida talqin qiladi. G‘ariblik Yassaviyda ijtimoiy va axloqiy maqom, Yunus Emroda esa psixologik va lirik holatga aylanadi. Ikki ijodkor o‘rtasidagi farq inkor emas, balki rivojlanishdir: Yassaviy tomonidan asoslangan tasavvufiy model Yunus Emro ijodida ichkilashib, hissiy va psixologik chuqurlikka ega bo‘ladi. Yunus Emroning Yassaviy yo‘lini tanlashi individual taqlid emas, balki bir xil ruhiy ehtiyoj va o‘xshash tarixiy sharoit natijasida shakllangan ma’naviy-estetik vorislikdir.

Xulosa. Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodining qiyosiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchaki adabiy ta’sir emas, balki chuqur genetik asosga ega bo‘lgan ma’naviy-estetik vorislikdir. Ushbu uzviylik g‘oyaviy mazmun, shakliy tuzilish va poetik tizim sathlarida yaxlit bir butunlikni tashkil etadi.

Mazmunan har ikki ijodkor "nafs", "dard" va "g‘ariblik" tushunchalarini konseptual darajaga ko‘targan bo‘lsa-da, ularning talqinida ma’lum tadrijiy farqlar ko‘zga tashlanadi. Yassaviyda ushbu timsollar ko‘proq zohidona-didaktik ruhda bo‘lsa, Yunus Emro ijodida ular lirik kechinma va psixologik dramatizm orqali chuqurlashadi. Shakliy jihatdan esa barmoq vazni va murabba tizimining saqlanishi turkiy poetik modelning barqarorligini isbotlaydi. Yassaviyda zikr ritmiga bo‘ysungan poetik qurilma Yunus Emroda yuksak badiiy-lirik ifoda vositasiga aylanadi.

Eng muhimi, Yunus Emro fenomeni XII asr Turkiston va XIII–XIV asrlar Anado‘lu muhitidagi o‘xshash ijtimoiy-tarixiylik hosilasidir. Siyosiy beqarorlik va mo‘g‘ullar bosqini davrida Yassaviy asos solgan tasavvufiy model xalq uchun eng ishonchli ma’naviy platforma vazifasini o‘tadi. Binobarin, Yunus Emro ijodi Yassaviy an’analarining shunchaki davomchisi emas, balki uning yangi tarixiy bosqichdagi rivojlangan, mukammal evrilish shaklidir. Bu jarayon turkiy tasavvuf adabiyotining mantiqiy uzluksizlik va doimiy takomillashuv qonuniyati asosida rivojlanganini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yassaviy, A. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 320 b.
2. Yunus Emre. Divan. – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1990. – 480 b.
3. Köprülü, F. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları, 1976. – 420 s.
4. Ocak, A. Yaşar. Türkler, Türkiye ve İslam. – Istanbul: İletişim Yayınları, 1999. – 310 s.
5. Schimmel, A. Mystical Dimensions of Islam. – Chapel Hill: The University of North Carolina Press, 1975. – 512 p.
6. Trimingham, J. S. The Sufi Orders in Islam. – Oxford: Oxford University Press, 1971. – 358 p.
7. Knysh, A. Islamic Mysticism: A Short History. – Leiden: Brill, 2000. – 320 p.
8. Baldick, J. Mystical Islam: An Introduction to Sufism. – London: I.B. Tauris, 1989. – 198 p.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE COGNITIVE-PRAGMATIC COMPETENCE OF PROSPECTIVE MOTHER TONGUE TEACHERS

Tursunoy Yusupova
Associate Professor, Candidate of pedagogical sciences,
Tashkent state university of Uzbek language and literature named after Alisher Navai
https://doi.org/10.5281/zenodo.19659780

Abstract. *This article presents a systematic and analytical review of foreign scholars' perspectives on cognitive-pragmatic competence and the development of cognitive-pragmatic competence among mother tongue teachers. Based on the analyzed theoretical sources, a set of stages for developing the cognitive-pragmatic competence of prospective mother tongue teachers has been elaborated. Furthermore, the article aims to provide a comprehensive examination of the concept of cognitive-pragmatic competence, which remains a pressing issue in contemporary pedagogy, as well as to thoroughly describe the stages involved in developing the cognitive-pragmatic competence of future mother tongue teachers. When addressing the development of cognitive-pragmatic competence in prospective mother tongue teachers, particular attention is given to communicative and competency-based approaches, as well as to the cognitive-pragmatic approach that has emerged on their basis and occupies a significant place in both national and international methodologies. In this regard, the study analyzes and critically evaluates existing research on the linguistic, psycholinguistic, and methodological principles underlying these approaches.*

Keywords: *cognitive-pragmatic competence, cognitive-pragmatic approach, approach, communicative-cognitive and cognitive-pragmatic methods, linguistic, psycholinguistic, methodological principles.*

Вопросы гендерного равенства затрагивают социальную, экономическую и политическую сферы, включая проблему насилия и дискриминации: борьбу с сексизмом, домашним насилием, сексуальными домогательствами и иными формами гендерного насилия. Тем не менее сохраняются значимые вызовы, связанные с практикой правоприменения, инфраструктурой поддержки пострадавших и необходимостью изменения общественных установок.

Цель статьи — выполнить всесторонний анализ текущей ситуации с домашним насилием в Узбекистане, выявить существующие пробелы и предложить эффективные решения на основе национального и международного опыта.

Теоретические основы домашнего насилия и узбекистанский контекст

Домашнее насилие представляет собой глобальную социально-правовую проблему, оказывающую разрушительное воздействие на физическое и психологическое здоровье людей, нарушающую фундаментальные права личности. В современном обществе признано, что домашнее насилие — это не частное дело семьи, а серьезное правонарушение, требующее правового регулирования и эффективных мер защиты. Особую значимость эта проблема приобретает для стран с традиционными патриархальными укладами, таких как Республика Узбекистан, где культурные стереотипы, недостаточная осведомленность населения и институциональные барьеры препятствуют своевременному выявлению и пресечению домашнего насилия.

Под домашним насилием понимается физическое, психологическое, сексуальное или экономическое насилие, совершаемое в отношении члена семьи. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), каждая третья женщина в мире в течение жизни подвергается физическому или сексуальному насилию со стороны партнера[26].

Согласно положениям Стамбульской конвенции о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием, принятой 11 мая 2011 года, «*домашнее насилие – это все акты физического, сексуального, психологического или экономического насилия, которые происходят в кругу семьи или в быту, или между бывшими или нынешними супругами, или партнерами, независимо от того, проживает или не проживает лицо, их совершающее, в том же месте, что и жертва*»[27].

[24] Гендерная стратегия ЦАРЭС до 2030 года. https://www.adb.org/ru/documents/carec- gender-strategy-2030
[25] https://www.undp.org/ru/uzbekistan/projects/dostizhenie-gendernogo-ravenstva
[26] World Health Organization. Global and regional estimates of violence against women: prevalence and health effects of intimate partner violence and non-partner sexual violence. – Geneva: WHO, 2021. – 112 p.
[27] Конвенция Совета Европы о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием. Стамбул, 11.V.2011. Электронный ресурс. Режим доступа: https://rm.coe.int/168046253f

По мнению Ажгихиной Н., домашнее насилие - это повторяющийся с увеличением частоты цикл физического, сексуального, словесного, эмоционального и экономического оскорбления по отношению к своим близким с целью обретения над ними власти и контроля[28].

Согласно М. Джураевой, семейное насилие — это неприемлемая форма поведения, систематически причиняющая физический, эмоциональный или психологический вред членам семьи, включающая физическое насилие, угрозы, психологическое давление, сексуальное насилие, экономическое угнетение и другие формы манипуляции и контроля. Важно понимать, что семейное насилие выходит за рамки лишь физических проявлений: эмоциональные и психологические формы тоже наносят глубокие травмы и серьёзно подрывают психическое здоровье жертвы [29].

Таким образом, домашнее насилие — это умышленное противоправное поведение, направленное на причинение физического, психологического, сексуального или экономического вреда членам одной семьи или домохозяйства.

В научной литературе выделяются следующие ключевые признаки домашнего насилия:

Отношения между близкими лицами или членами семьи

Насилие совершается в рамках семейных или домашних отношений: между супругами, родителями и детьми, родственниками или иными лицами, проживающими совместно.

Системность и повторяемость

Насильственное поведение не является единичным актом, а зачастую характеризуется длительностью и повторяется многократно.

Доминирование и контроль

Источник насилия стремится к контролю над жертвой, ограничению ее свободы, ущемлению прав и достоинства.

Разнообразие форм проявления

Домашнее насилие может иметь физическую, психологическую, экономическую или сексуальную природу.

Согласно ст. 3 Закона Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» от 02.09.2019 г., существует четыре формы насилия: половое, физическое, психологическое и экономическое. Все виды отличаются объектом, методом посягательства.

К примеру, при **половом** насилии агрессор посягает на половую свободу и неприкосновенность жертвы без ее согласия. При этом, в докладе «Насилие и его влияние на здоровье», представленном Всемирной организацией здравоохранения, отмечено, что сексуальное насилие – «*любой сексуальный акт или попытка его совершить; ... любые действия, направленные против сексуальности человека с использованием принуждения, совершаемые любым человеком независимо от его взаимоотношений с жертвой, в любом месте, включая дом и работу, но не ограничиваясь ими*»[30].

---

[28] Ажгихина Н. Кто защищает женщин. - М., 1996.

[29] М.Джураева. Теоретические аспекты семейного (бытового) насилия // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Issue – 2 № 4 (2024)

[30] Всемирная организация здравоохранения, Круг, Этьен Г., Дальберг, Линда Л., Мерси, Джеймс А. & Лозано, Рафаэль. (2003). Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире. Всемирная организация здравоохранения. Электронный ресурс. Режим доступа: https://iris.who.int/handle/10665/85358

При **физическом** – на их жизнь, здоровье, свободу и иные охраняемые законом права и свободы путем причинения телесных повреждений различной степени тяжести, оставления в опасности, неоказания помощи лицу, находящемуся в опасном для жизни положении, совершения других правонарушений насильственного характера, применения или угрозы применения иных мер физического воздействия.

Психологическое насилие выражается в оскорблении женщин, клевете, угрозе, унижении чести, достоинства, дискриминации, а также других действиях, направленных на ограничение их волеизъявления, включая контроль в репродуктивной сфере, действие (бездействие), вызвавшее у жертвы притеснения и насилия опасения за свою безопасность, повлекшее неспособность защитить себя или наносившее вред психическому здоровью.

Экономическое насилие – это форма насилия, когда жертве насилия в быту или на рабочем месте вводятся ограничения на право обеспечения питанием, жилищными и другими необходимыми для нормального существования и развития условиями, ограничение в осуществлении права на собственность, образование и труд.

В контексте Узбекистана данная проблема имеет специфические особенности:

1. Социальная стигматизация: Пострадавшие часто избегают обращения в правоохранительные органы из-за социального давления, связанного с необходимостью «сохранить семью», «не ломать судьбу детей» или «не выносить сор из избы».

2. Экономическая зависимость: Ограниченное участие женщин на рынке труда и низкий уровень их финансовой самостоятельности лишают возможности покинуть агрессивного партнера.

3. Недостаточная правовая грамотность: Население, особенно в сельских районах, часто не обладает достаточной информацией о своих правах и механизмах защиты.

Правовая база и государственная политика: достижения и пробелы

За последние пять лет в Узбекистане произошла фундаментальная трансформация правовой базы по противодействию домашнему насилию. По состоянию на 2026 год Республика Узбекистан значительно укрепила законодательную базу в данной сфере.

Историческое значение имел Закон «О защите женщин от притеснения и насилия», принятый в 2019 году, поскольку впервые ввел понятие домашнего насилия в правовое поле и создал механизм защитных предписаний (ограничительных ордеров)[31]. Кроме того, Закон Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия» (ЗРУ-996), вступивший в силу в 2025 году, является ключевым правовым актом, охватывающим физическое, психологическое, сексуальное насилие, эксплуатацию и буллинг[32] [8]. Документ запрещает любые формы насилия, включая онлайн-угрозы, и устанавливает строгие меры по защите несовершеннолетних.

24 декабря 2025 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы»[33]. Указ был принят в целях эффективной организации реализации Закона «О защите детей от всех

[31] Закон Республики Узбекистан от 02.09.2019 г. № ЗРУ-561 «О защите женщин от притеснения и насилия» // – Национальная база данных законодательства, 03.09.2019 г., № 03/19/561/3680

[32] Закон Республики Узбекистан от 14.11.2024 г. № ЗРУ-996 «О защите детей от всех форм насилия» // Национальная база данных законодательства, 14.11.2024 г., № 03/24/996/0921

[33] Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы» от 24.12.2025 г. № УП-256 // Национальная база данных законодательства, 24.12.2025 г., № 06/25/256/1205

форм насилия» и создания в обществе атмосферы нетерпимости ко всем формам насилия в отношении детей, а также надежной защиты их прав, свобод и законных интересов.

Важнейшей инновацией Закона «О защите женщин от притеснения и насилия» стало введение института защитного предписания, которое выдается судом и может запрещать агрессору контактировать с пострадавшей, приближаться к ее месту жительства.

Практика показывает, что в период 2020–2025 годов количество выданных защитных предписаний демонстрирует рост. По данным Министерства внутренних дел, за первые семь месяцев 2025 года в стране зафиксировано 48,3 тысячи случаев давления и насилия в отношении женщин, что на 121 % больше, чем за аналогичный период прошлого года.

В этот же период выдано более 56 тысяч охранных ордеров, вдвое больше, чем за аналогичный период прошлого года[34].

Ежегодно проводятся профилактические беседы в тысячах семей, а при необходимости применяются меры административной ответственности.

Изменения в Кодексе об административной ответственности и Уголовном кодексе

В целях усиления ответственности за домашнее насилие в Кодекс об административной ответственности были внесены соответствующие изменения. Введение статьи 59[1] в Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности ознаменовало формирование механизма раннего реагирования на случаи домашнего насилия[35].

Согласно информации Коллегии по уголовным делам Ташкентского городского суда, за 8 месяцев 2025 года по статье **126-1 УК РУз (Семейное (бытовое) насилие)** были осуждены 298 человек, из них 81 приговорёны к лишению свободы. Для сравнения: за весь 2024 год — 472 осуждённых, из которых 150 получили реальные сроки.

По статье **59-2 КоАО РУз (Семейное (бытовое) насилие)** с начала года к административной ответственности были привлечены 7 624 человека (в 2024 году — 16 524). Из них, в отношении 6 585 человек были применены административный арест.

По статье 41-1 (Сексуальное домогательство) за указанный период были привлечены к административной ответственности 1 450 человек.

Из них 969 были приговорены к административному аресту, 481 получил штрафы. За аналогичный период прошлого года этот показатель составлял 1 854 человека[36].

Качественно новым этапом развития законодательства стало включение статьи 126[1] в Уголовный кодекс Республики Узбекистан, закрепляющей домашнее насилие как самостоятельный состав преступления[37].

Согласно диспозиции данной статьи, уголовная ответственность наступает за систематическое совершение физического, психологического либо экономического насилия в отношении супруги (супруга), бывшего супруга, лица, совместно проживающего с виновным, либо иного близкого родственника.

При этом, наблюдается рост зарегистрированных случаев домашнего насилия, что частично связано с ужесточением законодательства и повышением доверия к

[34] https://podrobno.uz/cat/obchestvo/v-mvd-obyasnili-prichiny-rosta-nasiliya-nad-zhenshchinami-v-uzbekistane
[35] Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности (статья 59-2 «Семейное (бытовое) насилие») // https://lex.uz/docs/97661
[36] https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/domestic-violence/
[37] 1https://uza.uz/uz/posts/zoravonlik-shahvoniy-shilqimlik-uchun-ozodlikdan-mahrum-etilayotganlar-bor_770015

правоохранительным органам. За первые 6 месяцев 2025 года зафиксировано 48 303 случая притеснения и насилия (рост на 121% к аналогичному периоду 2024 года), а за 10 месяцев 2024 года за такие преступления были осуждены почти 16 тысяч человек[38].

Практические аспекты проблемы: статистика и реальная ситуация

Между официальной статистикой и независимыми исследованиями неправительственных организаций существуют определенные расхождения. Официальные данные отражают лишь случаи обращения в правоохранительные органы, тогда как «скрытый пласт» проблемы значительно шире.

Совместные опросы, проведенные Комитетом по делам женщин Узбекистана и представительством ООН в стране, показывают, что примерно 30–40 процентов респондентов сталкивались с определенными формами психологического давления или физического насилия в семье[39]. Наиболее распространенными формами являются психологическое насилие (оскорбления, контроль, изоляция) и экономические ограничения.

В сельских районах случаи домашнего насилия встречаются чаще, чем в городах, однако количество обращений за помощью там ниже. Это объясняется силой традиционных взглядов в сельских сообществах и стремлением местных органов власти (махалли) решать конфликты «внутренними средствами». Институт махалли, с одной стороны, играет важную роль в профилактике, но с другой — в отдельных случаях может способствовать сокрытию проблемы, уговаривая пострадавшую не писать заявление[40].

Суды часто рассматривают здоровье человека и насилие как семейный вопрос, несмотря на то, что объектом насилия в правонарушении, связанном с домашним насилием, является человек, а также его психическое и физическое здоровье (статья также направлена на защиту собственности).

Из содержания судебной практики видно, что суды, смотря через призму семьи, рассматривают женщину не только как человека, но и как «жену» (в содержании, подразумевающем, согласно социально-культурным условностям, подчинённую роль в семье).

Из-за невозможности освобождения от наказания в связи с примирением в случаях домашнего насилия суды обходят эту проблему через статью 21 («Освобождение от административной ответственности ввиду малозначительности правонарушения») КоАО, освобождая агрессоров от наказания из-за «малозначительности» насилия. Таких случаев — 28% среди изученных дел[41].

Тем не менее, в настоящее время в Узбекистане формируется система поддержки пострадавших, однако она пока не является всеобъемлющей.

Увеличивается количество убежищ, управляемых как государственными, так и неправительственными организациями. Например, в рамках проекта «Вы не одни» открыты центры, предлагающие женщинам временное жилье, юридическую консультацию и психологическую помощь. Тем не менее, вместимость таких центров ограничена, и они

[38] https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/domestic-violence/

[39] Структура ООН по вопросам гендерного равенства и расширения прав и возможностей женщин (ООН-женщины) в Узбекистане; Комитет по делам женщин Узбекистана. Национальный доклад по исследованию ситуации с насилием по гендерному признаку в Узбекистане. – Ташкент, 2023. – 150 с.

[40] Постановление Совета Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан «О мерах по предупреждению домашнего насилия и противодействию ему». – Ташкент, 2022.

[41] https://uza.uz/uz/posts/zoravonlik-shahvoniy-shilqimlik-uchun-ozodlikdan-mahrum-etilayotganlar-bor_770015

сосредоточены преимущественно в крупных городах (Ташкент, Самарканд, Наманган). Для женщин, проживающих за пределами областных центров, доступ к таким услугам затруднен.

Действует специализированный телефон доверия 1108 для жертв домашнего насилия. Служба работает круглосуточно и гарантирует анонимность. Рост числа звонков на данный номер в 2024–2025 годах свидетельствует о повышении правовой осведомленности населения[42].

Борьба с домашним насилием не должна ограничиваться исключительно правовыми мерами. Ниже представлены предложения, разработанные на основе комплексного подхода:

Совершенствование законодательства

- Упрощение процедуры получения защитных предписаний: Требуется ускорить процесс получения ордера и расширить возможность подачи заявлений в электронном виде. В настоящее время процедура в отдельных случаях затягивается из-за бюрократических препятствий.

Профилактика и образование

- Интеграция в школьные программы: Включение в учебные планы тем, посвященных гендерному равенству, ненасильственному разрешению конфликтов и здоровым семейным отношениям. Формирование нетерпимости к насилию в сознании молодого поколения является наиболее эффективной долгосрочной стратегией.

- Вовлечение мужчин: Противодействие насилию — это не только «женский вопрос». Необходимо расширять программы, пропагандирующие идеи «позитивной маскулинности» среди мужчин. Важно вести разъяснительную работу через религиозных деятелей и активистов махаллей об ответственности мужчин в семье.

Социально-экономическая поддержка

- Программы экономической самостоятельности: Внедрение программ профессиональной переподготовки, выделения микрокредитов и квот на трудоустройство для пострадавших женщин. Финансовая независимость дает женщине возможность и смелость покинуть агрессивную среду.

- Расширение сети кризисных центров: Создание небольших кризисных пунктов или временных убежищ в каждом регионе, включая районные центры. Развитие государственно-частного партнерства для создания центров, адаптированных для женщин и детей с инвалидностью.

Усиление межведомственного взаимодействия

- Единая электронная платформа: Создание общей базы данных для органов внутренних дел, судов, прокуратуры, учреждений здравоохранения и социальной защиты. Это позволит оценивать риск рецидива со стороны агрессора и оперативно принимать меры.

- Обучение специалистов: Введение обязательных тренингов для сотрудников правоохранительных органов, судей, врачей и педагогов по работе со случаями домашнего насилия. Необходимо исключить случаи вторичной виктимизации пострадавших.

[42] Министерство внутренних дел Республики Узбекистан; Фонд ООН в области народонаселения (ЮНФПА). Методическое руководство и статистический сборник по оказанию помощи жертвам домашнего насилия. – Ташкент, 2025. – 180 с.

Заключение

Проблема домашнего насилия в Узбекистане представляет собой глубоко укоренившееся социальное явление, для преодоления которого требуются не только строгие законы, но и трансформация общественного сознания, улучшение экономических условий и развитие эффективных социальных служб. Принятые в последние годы законы и созданная инфраструктура заложили важный фундамент. Однако, по состоянию на 2026 год, ключевой вызов заключается в превращении нормативных положений в реально действующие механизмы защиты.

Предлагаемые меры, в частности совершенствование уголовного законодательства, усиление профилактической работы в системе образования и внедрение механизмов экономической поддержки, будут способствовать формированию в Узбекистане безопасной и равноправной семейной среды. Достижение этой цели невозможно без международного сотрудничества и активного участия гражданского общества. Мониторинг реформ в данной сфере и открытая публикация результатов повысят прозрачность государственной политики и укрепят доверие населения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ИСТОЧНИКОВ

1. Гендерная стратегия ЦАРЭС до 2030 года. https://www.adb.org/ru/documents/carec-gender-strategy-2030
2. https://www.undp.org/ru/uzbekistan/projects/dostizhenie-gendernogo-ravenstva
3. World Health Organization. Global and regional estimates of violence against women: prevalence and health effects of intimate partner violence and non-partner sexual violence. – Geneva: WHO, 2021. – 112 p.
4. Конвенция Совета Европы о предотвращении и борьбе с насилием в отношении женщин и домашним насилием. Стамбул, 11.V.2011. Электронный ресурс. Режим доступа: https://rm.coe.int/168046253f
5. Ажгихина Н. Кто защищает женщин. - М., 1996.
6. М.Джураева. Теоретические аспекты семейного (бытового) насилия // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics Issue – 2 № 4 (2024)
7. Закон Республики Узбекистан от 02.09.2019 г. № ЗРУ-561 «О защите женщин от притеснения и насилия» // – Национальная база данных законодательства, 03.09.2019 г., № 03/19/561/3680.
8. Закон Республики Узбекистан от 14.11.2024 г. № ЗРУ-996 «О защите детей от всех форм насилия» // Национальная база данных законодательства, 14.11.2024 г., № 03/24/996/0921
9. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии защиты детей от всех форм насилия на 2026–2030 годы» от 24.12.2025 г. № УП-256 // Национальная база данных законодательства, 24.12.2025 г., № 06/25/256/1205
10. https://podrobno.uz/cat/obchestvo/v-mvd-obyasnili-prichiny-rosta-nasiliya-nad-zhenshchinami-v-uzbekistane
11. Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности (статья 59-2 «Семейное (бытовое) насилие») // https://lex.uz/docs/97661
12. https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/domestic-violence/

13. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан (Национальная база данных законодательства № 03/24/984/0860). Электронный источник. Режим доступа: https://lex.uz/docs/111457
14. https://uza.uz/uz/posts/zoravonlik-shahvoniy-shilqimlik-uchun-ozodlikdan-mahrum-etilayotganlar-bor_770015
15. Всемирная организация здравоохранения, Круг, Этьен Г., Дальберг, Линда Л., Мерси, Джеймс А. & Лозано, Рафаэль. (2003). Насилие и его влияние на здоровье. Доклад о ситуации в мире. Всемирная организация здравоохранения. Электронный ресурс. Режим доступа: https://iris.who.int/handle/10665/85358
16. Постановление Совета Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан «О мерах по предупреждению домашнего насилия и противодействию ему». – Ташкент, 2022.
17. https://www.gazeta.uz/ru/2024/05/13/domestic-violence/
18. Структура ООН по вопросам гендерного равенства и расширения прав и возможностей женщин (ООН-женщины) в Узбекистане; Комитет по делам женщин Узбекистана. Национальный доклад по исследованию ситуации с насилием по гендерному признаку в Узбекистане. – Ташкент, 2023. – 150 с.
19. Министерство внутренних дел Республики Узбекистан; Фонд ООН в области народонаселения (ЮНФПА). Методическое руководство и статистический сборник по оказанию помощи жертвам домашнего насилия. – Ташкент, 2025. – 180 с.

IJODIY ISHLAR





Мирзохид БЕКМИРЗАЕВ
олий таълим аълочиси, доцент

ҲАЁТДАН АНГЛАГАНЛАРИМ

Ҳаёт ўзи энг доно муаллим, дейди доно халқимиз. Дарҳақиқат, инсон ҳаётдан жуда кўп нарса олади. Айниқса, умри ўтиб боргани, ёш улғайгани сайин кўп мулоҳаза қиладиган ва мушоҳада юритадиган бўлиб қолади. Қисқа қилиб айтганда, ҳаётий тажриба шаклланади ва у кундан кунга ортиб, бойиб бораверади.

Буюк олим, шоир ва файласуф Рудакийнинг қуйидаги мисралари нақадар тенгсиз ва бебаҳодир:

Ҳар киши олмаса ҳаётдан таълим,
Унга ўргатолмас ҳеч бир муаллим.

* * *

Кексаларимизда: “Ҳаёт уч қисмдан иборат: кеча, бугун ва эртага” – деган гап бор. Кеча ўтмиш... Бугун ўтиб бормоқда. Эзгу амалларга шошилмоқ лозим. Эртага эса бу ҳаётда бормизми-йўқми, буни ёлғиз Яратганнинг ўзи билади. Демак, бугунимизни ўйлаган ҳолда, умр дафтаримизга чиройлик амалларни ёзиб қолайлик.

* * *

Раҳматни ҳам, лаънатни ҳам фарзанд орқасидан эшитамиз. Фарзанд тарбиясида адашмайлик. “Отангга раҳмат” деган сўзни ҳам эшитиш осон эмас... Отам ҳам мени ортимдан “раҳмат” эшитганмиканлар-а?

* * *

Отамнинг бир армони – қиз фарзандлари йўқлиги эди. Лекин, учта келин бу армонни йўққа чиқариб юборди.

* * *

Кимдир, кучли билимга эга бўлиши мумкин, лекин зўр раҳбар бўла олмайди. Кимдир зўр раҳбар бўлиши мумкин, бироқ билими пастроқ бўлиши мумкин. Ҳар иккисининг бўлиши эса бу қобилият.

* * *

Шундай касб эгалари борки, ҳар қанча эътибор, эътироф, эҳтиром ва эъзозга лойиқ. Ўқитувчилик ана шундай касблардан биридир. Ота касбини давом эттираётганимдан фахрланаман.

* * *

Инсон учун энг азиз гўша – бу унинг туғилган масканидир. Кимдир чўлу саҳрода, кимдир ўрмонзорда, кимдир атрофи сув билан ўралган оролларда, яна кимдир тоғу тошларда дунёга келади. Аллоҳга шукрки, менга жаннатмакон Ўзбекистондек диёрда туғилиш насиб этди. Бу диёр йилнинг тўрт фасли ҳам жам бўлгувчи, турфа маъданларга бой, энг муҳими буюк алломаларга бешик бўлган юртдир.

* * *

Қайқи. Бу ажойиб қишлоқ. Киндик қоним тўкилган гўша. Унинг ҳар бир қарич ери мен учун азиз ва қадрли. У шуниси билан ҳам яна-да қадрлики, бу масканда менинг ота-боболарим истиқомат қилишган.

* * *

Бировдан қарзинг бўлмаса, тилинг қисиқ жойи бўлмаса, муҳими ҳалол яшасанг, ҳамма жойда баланд овозда, қўрқмай гапира оласан. Аксинча эса, ўйланиб қоласан. Отам раҳматлик ҳам тўй-тўноқми, аза-маъраками, гап-гаштакми, қўйинг-чи барча жойда қўрқмай, бемалол гапира оларди. Шунинг учун бўлса керак, баъзан Адашали нотиқ, Адашали воиз деб ҳам қўйишарди.

* * *

Ҳаётнинг ўзи жуда катта мактаб. Унда ҳамма сабоқ олади. Ёш, амал, жинс, дин, лавозим каби омиллар роль ўйнамайди. Фақат, ўзлаштириш кўрсаткичлари турлича.

* * *

Умр ўтиб бормоқда. Уни кўп нарсага қиёслашади. Баъзан оқар сувга, баъзан чақмоққа, яна баъзан шамолга. Хуллас, нимага қиёсланганда ҳам унинг ҳар бир лаҳзаси ғанимат. Ундан унумли фойдаланиш лозим. Ўтаётган ҳар бир кунимизга шукрона келтирсак, Аллоҳ эртамизга барака беради.

* * *

Ўтаётган умримдан, тақдиримдан нолимайман. Аллоҳ менга жуда кўп нарса берди. Озми-кўпми илм берди. Касбу корим бор. Шукр қил, дуо қил, яна бераман, - деб турибди.

* * *

Кексалар кексалик болаликка ўхшайди дейишади. Мутахассисларнинг таъкидлашларича, болаликдаги жуда кўп аломатлар кексайганда ҳам такрорланар экан. Ҳақиқатдан ҳам, инсон болаликда қанчалик меҳрга ташна бўлса, кексайганда ундан ҳам кўпроқ меҳрга муҳтож бўлиб қоларкан. Илоҳим, барчамизга кексалик гаштини суриб юриш насиб этсин.

* * *

Уламолардан бир киши айтган эканлар: “Пайғамбарларга мўъжизалар ато этилган, авлиёларга каромат берилган, инсонларга эса фаросат берилган”. Дарҳақиқат, инсон энг

олий мавжудот этиб яратилган экан-ки, унга Аллоҳ томонидан фаросат туҳфа этилган. Ана шу фаросатни ўз ўрнида ва ўз вақтида ишлатсак, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

* * *

Устоз Ҳамидхон домла Набиевнинг бир гаплари бор эди: “... Айтишларича, куч-қувват болаликда оёқда, навқиронликда белда, кексайиб қолганда жаққа кўчар экан. Ҳар бир даврнинг ўз гашти, ташвишлари, армонлари бор”. Мен Яратгандан сўрайман: Ҳаммаларимизга шу даврларнинг барчасини насиб қилсин ҳамда феъли кичик, тақводор, сўзи ёқимли ва мулойимлардан қилсин.

* * *

Инсон умрининг ибтидоси бўлганидек, албатта интиҳоси бор. Туғилган инсон борки, бир кун келиб вафот топади. Фақат, Яратган инсонларга турлича умр беради. Кимдир туғилибон, 1-2 кун, кимдир 10, 20, 50, ..., 100 ёш умр кўради ва ҳатто бизнинг замонамизда 120 ёшни қоралаганлар ҳам топилади. Гап ёшда эмас. Уни қанчалик мазмунли ўтказишда.

* * *

Ҳар бир нарсанинг қадри, уни йўқотилгандан кейин билинади. Инсон қадр-қиммати ҳам шундай. Тириклик чоғида унинг камтарона меҳнати етарлича қадр топмайди, эъзозланмайди. Бироқ, у оламдан ўтгандан сўнг, жуда илиқ фикрлар айтилади, кўз ёшлар тўкилади, ҳурмат-эҳтиром кўрсатилади. Ҳаётлигида унга айтилмаган чиройли сўзлар айтилади.

* * *

Қабристонларни тез-тез зиёрат қилиб турмоқ керак. Ўтганларни ёдга олиш, хотирлаш, муҳими бир кун келиб албатта шу жой энг сўнгги манзилимиз бўлишлигини англаш – бу бевафо дунёда яхши амаллар қилишимизга туртки бўлса ажабмас.

* * *

Ота. Бу учта ҳарфдан иборат сўзни таърифлай олмасам керак. Лекин, аниқки унинг дуоси менга мададкор. Ундан ортиқ бахт йўқ бу дунёда.

Она. Бу сўзни ҳам таърифлаб бера олмадим. Бироқ, унинг алласидек гўзал қўшиқни ҳали эшитмадим.

* * *

Фарзандларимиз – дилбандларимиз. Улар сулоламиз, умримиз давомчилари. Уларнинг ютуқлари қувончимиз. Уларнинг роҳат-фароғатини кўриш азалий орзуларимиздан. Улар учун боримизни берамиз. Хуллас, бир умр улар учун яшаймиз.

Бир вақтлар ота-оналаримиз ҳам шундай қилишган...

* * *

Меҳр. У бебаҳо. Меҳр кўрган инсон ўзи ҳам меҳр бера олади. Инсон ҳамиша меҳрга ташна бўлиб яшаркан. Айтишадику, бир чимдим меҳр кимни ўлдирибди?

XOTIRANGIZ MANGU

(I.A. Karimovga bag‘ishlanadi)

Istiqlolga erishtirdi makonimni
Dunyo o‘zi tan oldi-ku Vatanimni.
Ota sizdan minnatdor bu zamonimni,
Ertasiga tayanch qalqon biz bo‘lamiz.

Binolarni qad rostlatib yuzlab, minglab
Barcha xalqning qalbidagi dardin tinglab,
Ota sizga oxiratda jannat tilab
Yo‘lingizni yoritguvchi nur bolamiz

Siz tufayli mustaqildir bugun barcha
Yarashadi yayrab, quvnab yursak qancha,
Hur Vatanda kamol topgan har bir g‘uncha
Sizga munosib o‘g‘il ham qiz bolamiz,
Ishonchingiz oqlashga so‘z beramiz.



Akramova Nilufar Qahramon qizi
NDU talabasi

UCH TAQDIR



Matkarimov Ulug‘bek Murodjon o‘g‘li
Farg‘ona viloyatida tug‘ilgan.
“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti
“Iqtisodiyot” fakulteti 4-bosqich talabasi

Orzu qilmoq ertangi kun bu-insonning odati,
Ba‘zilar boylik o‘ylar, ba‘zilar saodati.
Shirin xayol ila uch do‘st kelajakka boqishdi,
Niyatlari ham xolis, yuksalsin o‘z millati.

Birdan keldi aqlga bog‘ qurmoqdek zo‘r fikr
Eng go‘zal joy bo‘ladi o‘ylangan ushbu tadbir.
Uch hayotni bog‘lagan eng go‘zal, so‘lim maskan
Nomini ham qo‘yishdi, bo‘lsin dedi "Uch taqdir".

Dunyodagi eng mazali, shirin meva bor ekan
Barchasi joy oladi, bog‘ maydoni ko‘p ulkan.
Bari, barchasi tekin, bu joy ochiq hammaga,
Niyatlari savob topmoq qilayotgan bu ishdan.

Va'dalashib uchovlon, qog‘ozga to‘kdi siyoh,
Yozishdi: “Bog‘ quramiz, qo‘llar bo‘lsa ham qadoq”.
Orzulari ushalgay, yaxshi niyat-yarim mol
"Uch taqdir" eng yaxshisi bo‘ladi In shaa Alloh.

Axmadjonova Shodiyona
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

SHARIFA

Havoda bulutlar bor edi,
Tinmay yomg‘ir yog‘ar edi.
Uni ko‘rgan Sharifaning qalbi
G‘am va sog‘inchga to‘lar edi.

Sharifaning o‘g‘li Rossiyada,
Kelmaganiga yillar bo‘ldi.
Aytinglar u sargardonga —
Qaytsin endi Toshkent tomon yo‘liga.

Sharifaning ko‘zi har kuni yo‘lda,
“Bir kun o‘g‘lim kelar”, — deydi u.
Ishonchi komil o‘ziga,
Yoshga to‘la ko‘zini
Rumoliga sekin yashirar u.

Bir kuni ko‘zi quvonchga to‘ldi,
Axir Rossiyadan xat kelibdi.
Unda yozilgan birgina satr —
“Dekabrda albatta yetib boribman”, — debdi.

O‘tdi kunlar, o‘tdi oylar,
Sovuq fasl keldi yana.
Ammo Sharifaning qalbiga
Bahor kirdi shu damda.

Sababi esa ayon,
Bu faslda ko‘p sirlar ravon.
Aytmang unga — ko‘ngli cho‘kmasin,
Sharifaning baxtiga
Qish kelgani rost bo‘lsin.

MEN ONAMNI BAXTLI QILAMAN

Dilim baxtga to‘lib ketsin,
Ko‘rganlarning havasi kelsin.
Sizning shirin so‘zingizga ne yetsin,
«Tillaginam» deb qo‘ying, dada,
«Ona qizim» deb qo‘ying, dada.

Menga faqat ishonchingiz kerak,
Doim xursand kulishingiz kerak.
Erkalang siz, bo‘layin shodon,
«Asal qizim» deb qo‘ying, dada,
«Ona qizim» deb qo‘ying, dada.

Siz borsizki, ko‘nglim bir gulzor,
Yo‘q bo‘lsangiz, dilim tikanzor.
Men dard cheksam, bo‘lasiz bemor,
«Tilla qizim» deb qo‘ying, dada,
«Ona qizim» deb qo‘ying, dada.

So‘zlaringiz sog‘inib tunlar,
«Tillaginam» deb qo‘ying, dada,
«Asal qizim» deb qo‘ying, dada.
Har zamonmas, har kuni takror,
«Tilla qizim» deb erkalang siz,
«Ona qizim» deb erkalang siz.



Maxmudova Laylo Maxsud qizi
2005-yil 14-oktyabr Toshkent viloyati Parkent tumanida tug‘ilgan. Gidromelioratsiya fakulteti Meliorativ gidrogeologiya yõnalish talabasi 3-bosqich talabasi.

BILMAY QOLDIM BAZIDA ONA

Bilmay qoldim ba’zida, ona,
Kimlar atrofimda parvona.
Sezdirmasdan ortdan ish qilib,
Lek hamon yonimda, mana.

Oylar o‘tdi, yil o‘tdi yana,
Qolmadi do‘stlar bir dona.
«Do‘stingman» deb yonimda yurgan,
Bo‘lib qoldi endi begona.



Ochilova Mushtariy Behzod qizi
2005-yil 17-martda Jizzax viloyati Forish tumanida tug’ilgan."TIQXMMI" MTU "Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti 3-bosqich talabasi.

Jaloliddin Otaqulov
Toshken irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalsh muxandislari instituti. Milliy tadqiqot unversiteti

Qalam bilan qirlar oshgan o‘zbegim
Jadidnamo, so‘zi qilich o‘zbegim
Farzandini olim qilgum orzusi
O‘zlik uchun o‘zi fido o‘zbegim

Qirlaringda qo‘ylar boqqan o‘zbegim
Jadidlarni katta qilgan o‘zbegim
Muhabbati qaynab turgan ko‘zidan
Aytmatovni asrab olgan o‘zbegim

Mehmon uchun mehridaryo o‘zbegim
Do‘sti uchun ko‘ksi qalqon o‘zbegim
Vatan uchun joni fido bolsada
Qodiriyni, quvg‘in qilgan o‘zbegim

* * *

KO'RISHGUNCHA AZIZIM...

Tez o'tarkan vaqt, turmas ekan kutib,
Mana yetib keldi bizlar kutgan kun.
Sog'inch olovida meni qoldirib,
Buvayda tomonga ketasiz bugun.

Xursandman siz bilan uchrashganimdan,
Allohga behisob hamdlar aytaman.
Bilasiz rashk qilishim hammadan,
Chunki men sizni qalban sevaman.

Yashasak o'tadi uch oy muddat ham,
Sabrimni sinasa soat millari,
Dardimga bo'ladi yagona malham,
Vaslingizni ko'rishning shirin hislari !!!

* * *

OLIS KETMAGIN MENDAN

Nozlanibla ko'chamdan sen o'tarsan
O'rib soching terib qoshing o'tarsan
Meni tashlab qayerlarga ketarsan
Yana-yana yuragim pora etarsan

Aqlim aytar sevmasa yor netarsan
Ko'nglim aytar agar sevsang kutarsan
Do'stim aytar sendan katta netarsan
Eh do'stginam sen ham sevsang bilarsan.

* * *

Yurak qurg'ur sevibdi,
Chiroyli bir suluvni,
Lekin nasib emas ekan,
Majbur unutdi uni !

O'ylama ey birodar,
Har bir ishda hikmat bor.
Illo tabib berganidan,
Shifo topadur bemor.

Lek u ne-ne malhamdan,
Dardga davo izlaydi.
Gar tabib bermasa dori,
Hargiz uni topmaydi.

Nurullayev Abbos

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tatqiqot Universiteti, Energetika Fakulteti, Energetika muhandisligi yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Lolajon

Ikki yil bo‘libdi ko‘rganimga oxx…
Sensiz ham o‘tmoqda kunlarim firoq.
Tunlarim uyqusiz qalbimda titroq,
Lola, Lolajonim, Lola qizg‘aldoq!

Muhammad Yusufning she’rlari guvoh
Hech kimni sevmadim sendanda ko‘proq
Ko‘zlari moviy rang sochi qo‘ng‘iroq
Lola, Lolajonim, Lolaqizg‘aldoq

Vatan

Har so‘zimda bordir Vatan
Jon qonimga singgan Vatan
Onam deya ardoqlayman
Jonim bersam arzir Vatan

Ishonch

Men shoir emasman qalami o‘tkir
So‘z zabonim ham Navoiy emas
Musodek zakovat Sinodek bilim
Menga orzu emas maqsaddir faqat
Bu yo‘lda izlasam toliqib najot
Menga yordam bering ey birodarlar
Sizlarsiz men uchun ikkinchi qanot
Yagona umidim, ishonchim hayot.

Isxor

Har safar boqqanda go‘zal yuzingga
Osonmas so‘zlamay befarq o‘tmoqlik
Charos ko‘zlaringga tik boqib so‘ng bor
Sevaman deyishlik qiyin nechog‘lik
So‘zlasam tilimda zabonim yo‘qdir
Jim o‘tsam ichimda dushman yuragim
Ikki o‘t ichinda lovullab yonib
Na tirik erurman na murda misol.

O‘sha on

Shu onda ko‘zimga oy ham go‘zalmas
Shu onda ko‘zimga yulduz go‘zalmas
Shu onda hattokin hayot qiziqmas
Ko‘zlarim qarosi senga senga tushgan payt
Hayolim nidosi senga yetgan payt

Sen!

Sen ilhom parisan mening qarshimda
Sen go‘zal ijodsan butun olamda
Men esa bir faqur sening qarshingda
Na shoir, na rassom, na bir ijodkor.

Qizg‘aldoq

Sen qizil qizg‘aldoq qirning qalbida
Yasharsan toabad ketmay yodidan
Har bahor kutadi bo‘lib intizor
Sen kulib boqishing, sening gullashing.

Sog‘inch

Qo‘limga bir dona atirgul olib
Har kun borarman sen tomon shoshib
Ko‘zlaringni bir bor ko‘rmoqlik uchun
Har kun o‘larmanu har kun tirik jon.

Dil va til

Har safar boqqanda go‘zal yuzingga
Osonmas so‘zlamay befarq o‘tmoqlik.
Charos ko‘zlaringga tik boqib so‘ng bor
Sevaman deyishlik qiyin nechog‘lik.
So‘zlasam tilimda zabonim yo‘qdir
Jim o‘tsam ichimda dushman yuragim.
Ikki o‘t ichinda lovillab yonib
Na tirik erurman na murda misoli.

Qaniydi

Qo‘llaringdan tutsaydim qani
Lablaringdan o‘psaydim qani
Seni har kun bag‘rimga bosib
Sevishimni aytsaydim qani.
Lekin netay qo‘lim bormaydi
Hayajondan labim titraydi
Bag‘rimga bosishim u yoqda tursin
Yaqinroq borishga jur’at yetmaydi.

Balki ulg‘aydik

Xazonlab bormoqda umrim bahori
Jo‘sh urib oqyotgan daryo endi yo‘q
O‘t kabi o‘chmoqda hayot gulshani
Ko‘zlarda ko‘ringan soflik endi yo‘q.

Qalblarda mag‘zunlik, yuzlarda qayg‘u
Balki shu bolalik yakuniy tuyg‘u
Eng sof tuyg‘ularni yulib yurakdan
Endi yosh emasmiz ulg‘aydik butkul.

Do‘zaxga ketmoqdamiz

Xaromga botmoqda bu qaro qo‘llar
Umidsiz o‘chmoqda bu qaro ko‘zlar
Hech kimsiz sahroda qoldi ko‘ngillar
Do‘zaxga ketmoqdamiz to‘g‘ri do‘zaxga!

Bir ishda ma’no yo‘q savobsiz yo‘llar
Aqlsiz, ilmsiz, bema’ni so‘zlar
Erkakda g‘urur yo‘q ayolda nomus
Do‘zaxga ketmoqdamiz to‘g‘ri do‘zaxga!

Tilda hech zikr yoq, insofsiz ko‘ngil
Ibosiz hayosiz har bir o‘g‘il qiz
Imonsiz ilojsiz Jannatga kirish
Do‘zaxga ketmoqdamiz to‘g‘ri do‘zaxga!

Do‘st

Esinggdami qadrdon do‘stim
Tosh ko‘chada yugurgan zamon
Ikkalamiz butun jahonni
Yog‘och otda bo‘lishgan shu on.
Kim o‘zarga yugurib chandon
Kulishardik handon va handon
Beg‘uborlik ketmay ko‘ngildan
Yosh boladek kulamiz hamon.

Sog‘indim uyim

Uyimdan uzoqda do‘stlardan olis
Keng shahar yo‘lida yuraman yolg‘iz
Beg‘ubor insonlar sog‘inchin qumsab
Ko‘zimga yosh olib eslarman holsiz.

Bu yerlar ovqati mazasiz, tamsiz
Ko‘chalar quyoshsiz toza havosiz
Qushlar ham sadosiz atrofim rangsiz
Onamning mehrini qumsadim unsiz.

Faqat bugun

Aytingiz ey do‘stlar kelajak qayda
Baxt-u saodat farog‘at qayda
Aylanib dunyoning sakkiz burchagin
Ertani topmadim – har kunim bugun!

Kuzlarda to‘kilgan xazon rezgulik
Bahorda unmaydi qayta barg bo‘lib
Har kuni tong otib quyosh chiqar lek
Qaytmaydi Qodiriy otgan kunlari.

Ketsam..

Bir kuni to‘xtasa ojiz yuragim
Tobutim yelkanga olgin ey do‘stim
Qabrga qo‘ygandan so‘ng yolg‘iz qolib
Ovozing chiqarib tilovat qilgin.

Xotirla, men birla o‘tgan kunlarni
Qumsasang kel doim qabrim qoshiga
Faqat iltimosim sendan birgina
Ko‘z yoshlar bo‘lmasin kulgin hamisha.

Bir kuni to‘xtasa ojiz yuragim
Sevgilim ketti deb yig‘lama gulim
Men seni kutaman kelgin qabrimga
Sevaman deya bir pichirlab qo‘ygin.

Zora eshita olsa ovozing ruhim
Senga ham pichirlar dil izxorimni
Mayin sochlaringni silolmay ojiz
Sevgi umrbodmas, toabad gulim.

Bir kuni to‘xtasa ojiz yuragim
Chin dildan duolar qil ey musulmon
Gunohkor bandamiz axir hammamiz
Imonla tug‘ilib o‘lma imonsiz.

Mayli…

Sizga yoqamanmi?..
Javob balki yo‘q
Qanday o‘lasangiz shunday insonman
Balki yaxshi dersiz yoki aksincha
Yomonsan desangiz mayli yomonman
So‘zim kulgilimi yoki bachkana
Ichimdan aslida boshqa insonman
Ko‘nglingiz og‘ritmay deyman birgina
Yomonsan desangiz mayli yomonman.

Xato

Charos ko‘zlariga termulib har on
Oshiq bo‘lganmidim ajralmoq uchun
Aslida bilardim bilsamda shu on
Sevib adashgandim sinfdoshimni
Qaniydi qaytsaydim maktab chog‘larga
Shu mudxish xatoni balki qilmasdim
Qayoqda aldayman faqat o‘zimni
Qayta tug‘ilsam ham yana sevardim.

Umrim bahori

Qaniydi umrimga qaytsa bahorlar
Eng go‘zal onlarim gullasa yana
Birinchi muhabbat deya atalmish
Kimsalar qaytsaydi bog‘imga yana
Hali ham yodimda gullar ifori
Kech bahor faslining may oylarida
Qo‘lidan ilk bora tutganim zamon
Yorishib ketgandi tun ham nihoya.

Muhabbat

Shuncha vaqt so‘zlabdi tilim sevgidan
Ul go‘zal ko‘zlarin etmoqda ta’rif
Bir bora o‘ylamay sevgi nima deb
Ko‘rlarcha yashabdi qalbim ham g‘arib.

Ko‘zlarim ko‘r qilgan muhabbat emish
Ishq ichra adashgan majnunman dermish
Har so‘zda faryodla ox voxlar ermish
Sevib bir adashgan Tohirman dermish.

Aytadir; bir kuni ko‘rdim suluvni
Bir ko‘rib bo‘ldimku oshiq beqaror
Ul go‘zal turardi mag‘rur va kibor
So‘zlari ser ma’no, oqila ayol.

Men esa bir chetda usti boshim kir
Sochlarim to‘zg‘igan ahvolim abgor
Ikki so‘z birida chalkashib chunon
Kulgu ham bo‘lgandim ahvolim yomon.

Pariro‘y kulmadi boshqalar bilan
Ul go‘zal so‘zlarim ma’nosin bildi
Samimiy kulgula boshi silkitib
Sevgimning haqiqiy qadrini bildi.

Abdulla Oripov xotirasiga

Men sening nabirang mitti yulduzing
Ko‘zlarim yo‘lingda qaytgin bobojon
She’rlaring bo‘lganda ruhimga orom
Ovozing eshitishim bo‘ldimi armon

Yelkangni silagan yurtim shamoli
Yuzimga urilsa faxrlanaman
Ismingni g‘ururla yod etaman men
Yurtimning faxrisan o‘zing Abdulla.

Islom Karimov xotirasiga

Zamon og‘ir edi yo‘llar qorong‘u,
Yurakda o‘t bilan paydo bo‘ldi u.
Siyosat qilichi bilan qo‘lida,
O‘zbegim deya bir kuyib pishdi u.

Mas’uliyat deb bildi Sharaf-u shonni,
El dardin birinchi yelkaga oldi.
Mustaqil vatanning poydevori u,
Xalqning yuragida mangu qoldi u.
Istiqbol izini izlagan Islom,
Ozod-hur vatanni qurolgan inson .
Siz sabab nur bilan to‘ldi har bir kun,
Vatan sizdan qarzdor Karimov Islom.

Nafs

Qayta qayta o‘ldiradi meni nafs,
Maymun qilib o‘ynatadi meni nafs.
Sarob bilan ko‘zim bog‘lab do‘zaxga,
Yugurtirib boshlab ketar meni nafs.
Har qadamda o‘rgatadi Yangi dars,
Iymonimga yoziladi Yangi qarz.
O‘z o‘zimdan panoh so‘rab Robbimda,
Qo‘lim ochib har kun tinmay qilay arz.
Umring o‘tib ketarkan shoshib,
Qizg‘in hayot daryoday toshib.
Tasodiflar to‘la dunyoda,
Yasha do‘stim yuzlardan oshib.

Yasha

Go‘zallikdan bo‘lgin sarxush mast
Tashvishlariga turgin qazma qast
O‘zgartir sen butun dunyoni
Hayot o‘zi shunday baland past

Sinfdoshlarim

Sizmi o‘sha qora qoshlarim
O‘n bir yillik partadoshlarim.
So‘zi shirin, boshi toshlarim
Mehri iliq sinfdoshlarim!

Gohi kuldik, gohi yig‘ladik
Ko‘ksi qalqon yelkadoshlarim.
Bir umrni birga sarfladik
Mehri daryo sinfdoshlarim!

Birinchi muhabbat

Yurakka o‘t bilan yozilgan bir harf,
O‘chmaydi bo‘lsa ham butun umur sarf.
Ko‘ksimda qoladi to abad shu dard,
Qoladi abadiy hatto yuqmas gard.

Tungi tabiat

Yulduzlar porladi, oy ham to‘lishib
Yuzimga urildi sharqning Shamoli.
Boyqushlar daraxtga sekin qo‘nishib
To‘ldirdi go‘yoki tunning jamoli.

Osmonni yashirgan chiroqlar ham yoq,
Bezagan yulduzlar tungi samoni.
Shivirlab kuylagan chinor ko‘ngli toq,
Mast qildi olamning mo‘jaz Tomoni.

O‘kinch

Dard, alam yutmoqda yuragim hamon
Tashvishlar kasridan rang-ro‘yim somon
Bebaxtlik, g‘am-tashvish ketishi gumon
Shu darslar tugatar meni batamom.

Eng yaqin do‘stlaring sotgani yomon
Ko‘zingga tik qarab "chopgani" Yomon
G‘am berib hamdarding bo‘lgani yomon
Shu dardlar tugatar meni batamom.

Yig‘lamang ona

To‘kilganda ko‘zlarda yoshim,
Tuhmatlarda egilsa boshim,
Janjallarda yorilsa qoshim.
Boshim silab siqilmang ona,
Ko‘zlaringiz namlamang ona.

Yigitchilik, bo‘lib turadi,
Boshda tayoq sinib turadi,
Omad kelib-ketib turadi.
Siz umuman kuyinmang ona,
Ko‘zlaringiz namlamang ona.

Arzimaydi o‘ylashingizga,
Yurak ushlab yig‘ilashingizga,
Tashvishlanib yonishingizga.
Boshim silab siqilmang ona,
Ko‘zlaringiz namlamang ona.

Bayramingiz muborak ona

Yonib ketmaydimi dunyolari ham,
Kuyib ketsin o‘sha boyliklari ham.
Sochingiz oqiga arzimas olam,
Bayramingiz Muborak jannatim onam!

Ko‘z yoshga arzimas dunyo tashvishi,
Hech qachon tugamas insonning ishi.
Ko‘rmadim sizdanda mehnatkash kishi,
Siz sabab doim besh o‘g‘lingiz ishi.

Nafs

Qayta qayta o‘ldiradi meni nafs,
Maymun qilib o‘ynatadi meni nafs.
Sarob bilan ko‘zim bog‘lab do‘zaxga,
Yugurtirib boshlab ketar meni nafs.

Har qadamda o‘rgatadi Yangi dars,
Iymonimga yoziladi Yangi qarz.
O‘z o‘zimdan panoh so‘rab Robbimdan,
Qo‘lim ochib har kun tinmay qilay arz.

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“IRRIGATSIYA VA SUV MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“TARANNUM”

ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy, publitsistik jurnal

2026/2 (№4)

Tahririyat manzili:
Qori Niyoziy ko‘chasi - 39. Toshkent shahar - 100000
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times New Roman” garniturasi.

“Science and innovation” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Shota Rustaveli 150, “Vega” biznes markazi, 6-qavat, 2-xona.
+998993319654, +998901259654